

# *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarлари*

*Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali*

*Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi*

## **Bosh muharrir –**

**Yo'ldoshev Ibrohim Jo'rayevich**

filologiya fanlari doktori, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari –**

**Jumayev Sobir Saidovich**

professor

## **Tahrir hay'ati**

**Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Qodirova Sarvinoz Muhsinovna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Ibrohimov Oqilxon Akbarovich** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Muxtarov Ildar Asxadovich** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Ismoilov Abdurahim Isroilovich** – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor

**Umarov Absalom Adilovich** – sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Mavrulov Abduxalil Abduxayevich** – tarix fanlari doktori, professor

**Yo'ldoshev Ma'rufjon Muxammadjonovich** – filologiya fanlari doktori, professor

**Xalikulova Go'zal Erkinovna** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Ismoilov Hamdam** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Kosheleva Antonina Fedorovna** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rashidov Temur Maxmudovich** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

**Shermanov Eldor Uralovich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

**Tursunov Farrux G'ulomovich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

## **Jamoatchilik kengashi**

**Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich** – O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich** – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

**Hakimov Akbar Abdullayevich** – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

**Akilova Kamola Baltabayevna** – san'atshunoslik fanlari doktori, professor

**Mahmudov Jasur Xusinovich** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v.b.

**Karimova Nigora G'aniyevna** – san'atshunoslik fanlari doktori

**Qosimov Nozim Kosimovich** – filologiya fanlari nomzodi, professor

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan  
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya  
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi  
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha  
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop  
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN 2181-8932

2021/I(17)

# MUNDARIJA

1. **Ibrohim YO'LDOSHEV.** Navoiy va Bobur timsolida ustoz – shogird an'analari.....

## TEATR VA KINO

1. **M.Tulaxujayeva.** Узбекский театр 10-30 годов XX века.....
2. **S.Qodirova.** O'zbek qo'g'irchoq teatri san'ati: an'ana va zamonaviy jarayon.....
3. **M.Xamidova.** Об опере азербайджанского композитора Узеира Гаджибекова «Лейли и Меджнун».....
4. **J.Jumayev.** O'zbek fotografiyasining rivojlanish yo'llari.....
5. **I.Meliqo'ziyev.** Творчество молодых режиссеров в искусстве узбекского кино, во-просы мастерства.....

## II MUSIQA SAN'ATI

1. **SH.Almatov.** O'zbek musiqa madaniyati rivojida milliy cholg'ularning o'rni va ahamiyati
2. **U.Qurbonova.** Suvoriyxonlik san'ati
3. **N.Turg'unova.** Rahima Mazohidova ijodiga chizgilar
4. **R.Allanbayev.** Ноти Востока в музыкальной культуре мира

## III SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. **N.Kobilov.** Mustaqillik yillari mamlakatimizda kino va milliy qo'shiqchilik sohalarining rivojlani shi.....
2. **S.Alimov.** Xalq ijodiyoti va san'at.....
3. **M.Yuldasheva.** Особенности развития стратегии профессионального образования в сфере культуры.....
4. **B.Dadamammedov.** XIX–XXI asr boshlarida O'zbekiston zargarlik san'atidagi jarayon lar.....

## IV PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. **D.Allanazarov.** Milliy musiqamizda bebaho izlar koldirgan Genjebay Tileo'muratovning hurmatiga 1927-1997.....
2. **O.Alimbekova.** Vokal san'ati tarixi va uni o'rgatishda uchraydigan ayrim masala-lar.....
3. **F.Xakimova.** Farhod Alimov ijodi xususida (1947-2014)
4. **X.Beknazarov.** Ustozni yod etib.....
5. **D.Jumanova.** Fidoyi va ulkan tajriba sohibi.....

## V YOSH TADQIQOTCHI

1. **N.Yusupova.** Аудиальное наследие кинематографа и необходимость его сохранения для будущих поколений.....
2. **D.Subanova.** Maktab o'quvchilariga san'at vositalari orqali chet tilini o'rgatish.....
3. **M.To'ychiyeva.** Qadim tarix silsilasida o'zbek raqs san'ati rivoji.....

## YANGILIKLAR

1. **Meliqo'ziyev.** O'zbek kinematografiyasidagi yangi izlanishlar.....
2. **D.Otajanov.** Voqelikning tasvirdagi kontrast ifodasi. ("Bahs" qisqa metrajli filmi misolida)....

## NAVOIY VA BOBUR TIMSOLIDA USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARI

Shu yili nafaqat Respublikamizda, balki jahonning bir qancha yurtlarida ulug' shoir va mutafakkir, davlat arbobi, shoirlar sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi buyuk Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi keng nishonlanadi. Ushbu qutlug' sana munosabati bilan 2020 yil 19 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorda o'qiyimiz: "Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Jonajon Vatanimiz "*Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari*" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning butunlay yangi bosqichiga qadam qo'yib, yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratayotgan bugungi kunda Alisher Navoiyning bezavol adabiy merosi misolida o'zbek adabiyoti va madaniyatini chuqur o'rganish va ommalashtirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda".

Ushbu qaror bilan tegishli mutasaddi tashkilot va muassasalarga muhim vazifalar yuklandi hamda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi hamda ushbu sana munosabati bilan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Tashkiliy qo'mitaga Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni yuksak saviyada tashkil etish, mazkur qaror va chora-tadbirlar dasturining o'z vaqtida, sifatli va to'liq amalga oshirilishini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklatildi. Shuningdek, qarorda Alisher Navoiy hayoti va ijodini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasini ishlab chiqish, Alisher Navoiyning ijodiy merosini chuqur o'rganish va ommalashtirishga ulkan hissa qo'shgan mamlakatimiz va xorijiy davlatlar fuqarolarini hamda ilmiy-ijodiy muassasalarini taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordenini ta'sis etish yuzasidan taklif kiritish, Afg'oniston Islom Respublikasining Hirot shahridagi Alisher Navoiyning maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha taklif kiritish, xorijiy davlatlarda saqlanayotgan Alisher Navoiy qalamiga mansub va u yashagan davrga oid qo'lyozmalarining faksimile nusxalarini mamlakatimizga olib kelish choralarini ko'rish, 2020-2021 yillar davomida Alisher Navoiyning

qo'lyozmalari asosida shoir asarlarining mukammal ilmiy nashrini yaratish ishlarini amalga oshirish, Alisher Navoiy ijodiy merosining sharhini yaratish ishlarini yakuniga yetkazish hamda ularni "Navoiy va yoshlar" maxsus dasturida joylashtirish uchun Yoshlar ishlari agentligiga taqdim etish, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida 2021 yil noyabr oyida Alisher Navoiy yashagan davr, shoir hayoti, ijodi, adabiy muhiti, ustozlari, zamondoshlari va izdoshlari haqida hikoya qiluvchi, asarlarining qo'lyozma va nashr nusxalari to'g'risida ma'lumot beruvchi adabiy-badiiy ko'rgazmani tashkil etish, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosini tadqiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq ilmiy loyihalar tanlovini e'lon qilish, 2021 yil oxiriga qadar O'zbekiston Milliy kutubxonasida Alisher Navoiy asarlari hamda "Navoiyshunoslik" fani bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning elektron platformasini yaratish, Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o'qitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021/2022 o'quv yilidan barcha ta'lim muassasalarida shu asosda o'qitishni yo'lga qo'yish, umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida "Navoiy vorislari" g'azalxonlik tanlovi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari o'rtasida "Navoiyni anglash" mavzusida insholar tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash, beshta muhim tashabbus doirasida yosh dasturchilarni keng jalb etgan holda Alisher Navoiy asarlarining mobil ilovalarini yaratish va ularni yoshlar o'rtasida ommalashtirish, 2021 yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabini tashkil etish, 2021 yil noyabr oyining birinchi o'n kunligida Navoiy shahrida "Alisher Navoiy ijodiy merosining bashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyani hamda Toshkent shahrida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan tantanali adabiy-badiiy anjumanni yuqori saviyada o'tkazish, 2021 yilda Alisher Navoiy hayoti va asarlari asosida yangi spektakllar yaratish hamda "Navoiy siymosi va asarlari sahnada" respublika teatrlarining festivalini o'tkazish, shoir g'azallari asosida "Nazm va navo" kechalarini, maqom tanlovlarini tashkil etish, 2021 yil davomida Alisher Navoiy asarlari asosida badiiy va multiplikatsion filmlar, shoir hayoti va ijodi bilan bog'liq yangi ma'lumotlar va manbalar asosida to'liq metrajli badiiy-publitsistik film yaratish, 2021 yilda "Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi" rukni ostida shoir asarlari, uning hayoti va ijodi haqidagi ilmiy va ommabop kitoblar turkumini chop etish, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etish, chet elda istiqomat qilayotgan o'zbek tili mutaxassislari, tarjimonlarni jalb etgan holda Alisher Navoiyning asarlarini chet tillarga tarjima qilish, nashr etish va xorijiy mamlakatlarda taqdimotlarini o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi binosini to'liq rekonstruksiya





qilish, yangi zamonaviy ekspozitsiya yaratish, zarur texnik va ashyoviy jihozlar bilan ta'minlash uchun kerakli mablag'lar ajratish choralarini ko'rsin hamda 2021 yil oktabrga qadar ta'mirlash ishlarini yakuniga yetkazish, 2021-yil fevral oyida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari, miniatyuralar, xalq amaliy san'ati namunalari ko'rgazmalarini o'tkazish, Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash bilan bog'liq tadbirlarni keng yoritish, shoir asarlari asosida maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar, o'quv-ma'rifiy filmlar yaratish kabi vazifalar belgilandi. Ta'kidlab o'tilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash faqat mutasaddi tashkilot rahbarlarininggina emas, balki barchamizning buyuk Navoiy siymosi oldidagi sharaffi burchimizdir. Shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlarimiz ulug' Navoiy shaxsiga ko'rsatilayotgan e'tibor va e'tirofning namunasidir.

Hirot va Samarqand ... Samarqand va Hirot ... Bu shaharlar shunchaki Alisher Navoiy hayot kechirgan, faoliyat yuritgan shaharlar emas, balki Navoiy olamiga, u yashagan moziyga guvohlik bera olish huquqiga ega bo'lgan muazzam shaharlardir.

Sharqshunoslikda XV-XVI asr adabiy muhiti haqida gap ketganda, albatta, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hamda mashhur sarkarda, davlat arbobi, shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida mulohaza yuritiladi. Chunki bu ikki shaxsning, nafaqat, o'zbek adabiyoti, balki umumbashariy madaniyat taraqqiyotiga, jahon adabiyoti xazinasiga behisob hissa qo'shganliklarini butun dunyo ahli e'tirof etib keladi. Xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganish birgina O'zbekistonda emas, balki dunyoning ko'plab sharqshunos olimlari tomonidan uzoq yillardan beri tadqiq etib kelinmoqda. U haqida behisob asarlar yaratilganligi ham bejiz emas. Bugun Navoiy haqida ko'p yozilyapti. Ilgarilar ham yozilardi, lekin bugungisi boshqacha. Bugun mustaqillikdek buyuk ne'mat tufayli Navoiy butun bo'y-basti bilan gavdalanmoqda. Xalqimiz o'zining shunday buyuk farzandiga ehtiromini izhor etish, uning nomini yanada abadiylashtirish yo'lida ko'p amaliy ishlarni ro'yogba chiqarmoqda. Bunga har birimiz guvoh bo'lib turibmiz. Navoiyni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qanchalik yaxshi

anglasa, tushunsa, shunchalik hayotni to'g'ri baholaydi, hayot so'qmoqlarida kam qoqinadi, hayotni, Vatanni, Ona yurtini shunchalik sevadi, ardoqlaydi. Agar e'tibor bersak, Navoiyning bizga meros qoldirgan asarlarining har bir satri bugun ham o'z ahamiyatini, qiymatini yo'qotmagan. Chunki Navoiy ijodining asosiy siymosi, negizi har doim komil inson bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu buyuk zot haqida quyidagilargni aytadi: *"Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafni dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz"*. Bundan ortiq buyuk e'tirof bo'lmasa kerak.

Navoiy bizga juda katta adabiy meros qoldirdi. Uning har bir asari va g'azalida inson, uning orzu-umidlari tarannum etildi. Navoiyning ana shunday orzu-umidlaridan biri o'zbek tilining takomili, uning butun bo'y-bastini, go'zalligini ko'rsata olishi edi. Bugun biz Navoiyni "O'zbek adabiy tilining asoschisi" deymiz. Navoiyga berilgan bu ta'rif o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi beqiyos xizmatlarining e'tirofi sifatida xalqimiz tomonidan unga bildirilgan buyuk ehtirom va minnatdorlik ramzidir. To'g'ri, o'zbek adabiy tili Navoiygacha ham mavjud

bo'lgan, bu tilda ham ko'plab ijodkorlar qalam surganlar. Navoiy o'zigacha yashab ijod qilgan barcha turkiyo'y ijodkorlar tomonidan adabiy lashtirilgan o'zbek tiliga yangidan jon ato etib, u tilda ijod qildi, uni har tomonlama boyitib, juda yuksak darajaga olib chiqdi.

Yana shunisi muhimki, Xuroson va Movarounnahrda ijod qilgan ko'pgina shoirlar ikki tilda – o'zbek va fors tillarida erkin ijod qila olganlar. Bu haqda Navoiyning o'zi "Majolisun-nafois"da juda qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, XV asr shoirlaridan Hoji Abdulhasan Qutbiy, Darvesh, Nozuki, Yaqiniy, Sayyid Hasan Ardasher, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Osafiy, Mavlono Ziyoy, Soqiy, Bobur Mirzo, Sayid Ahmad, Shoh G'arib Mirzo, Muhammad Ali G'aribiy, Badiuzzamon Mirzo, Davlatshoh Samarqandiy ham o'zbek, ham fors-tojik tillarida ijod qilganlar. Alisher Navoiy o'z davrining zullisonayn shoiri sifatida har ikki tilga behad hurmat bilan qarab, bu tillarda klassik asarlar yaratib, kelajak avlod uchun behad buyuk adabiy meros qoldirdi. Qolaversa, Navoiyning o'zi guvohlik berishicha, Sohibqiron Amir Temur va uning o'g'li Shohruh hukmronligi yillarida ham o'zbek tilida ijod qilgan talaygina ijodkorlar bo'lgan. Ular sirasiga Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiri, Gadoiy, Lutfiylarni kiritish mumkin.

Navoiy o'zbek adabiy tili uchun kurash bayrog'ini baland ko'tarib, barcha asarlarini, xususan, buyuk "Xamsa"ni ayni shu tilda yaratdi. Navoiy "Layli va Majnun" nihoyasida shular xususida yozadi:

*Chun forsi erdi nukta shavqi,  
Ozroq edi anda turk zavqi,  
Ul til bila nazm bo'ldi malfuz,  
Kim forsi anglar o'ldi mahzuz.  
Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasonani hikoyat,  
Kim shuhrati chun jahong'a to'lg'ay,  
Turk eliga dog'i bahra bo'lg'ay.*

Albatta, Alisher Navoiyning bu darajada muvaffaqiyatlarga erishishida yaqin do'sti va zamona hukmdori Husayn Boyqaroning ham o'rni, dastagi katta bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Husayn Boyqaro fors tilini o'z ona tilidek a'lo darajada bilgan bo'lsa-da, she'rlarining deyarli barchasini o'zbek tilida yozgan. U o'zbek tilini o'z huquqlariga ega qilish uchun kurashda doimo Navoiyning yonida turadi. O'zbek tilining boyligi, go'zalligini tarannum etishga, uning adabiy imkoniyatlari fors tilidan orqada emasligini asoslashga bor kuchini sarf etadi. Hukmdorning bunday dastagi, bizningcha, Navoiy ilhom bulog'ining yanada barakali bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'lganligi, shubhasizdir.

Navoiy turkiy tilda ilk bor "Xamsa" yaratib, o'ziga buyuk haykal o'rnatdi. Navoiyshunos olimi Suyima G'aniyevaning yozishicha, "Husayn Boyqaro Navoiyning "Xamsa" yaratish mahoratini yuksak baholaydi: Agarchi Shayx Nizomiy nazm ahlining ustodidir, o'z "Xamsa"sini mashhur budurkim, o'ttiz yilda takmil berib turur. Va Mir Xisravkim, "Xamsa" abyoti adadin o'ttiz mingdin o'n sekiz mingga ixtisor qilib turur va shuhrati mundoq tururkim, oltiyetti yilda tugatib turur. Bu fasohat maydonining safdori va balog'at beshasining g'azanfari bovujudi ulkim. ko'p afsonalarda dilpazir tafsirlar berdi va tab' pisand islohlari qildi, bunyodining ibtidosidin savodining intihosig'acha hamono ikki yildin o'tmadi va aytilg'on avqot hisobg'a kirs, desa bo'lg'aykim, olti oyg'a yetmadikim, aning

afsonalari ranglig'idin va abyoti sehroyinlig'in va tarokibi matonatin va maoniysi latofatin mutolaa qilg'on kishi bilg'ay va mulohaza qilg'on kishi fahm qilg'ay" (G'aniyeva S. Navoiy va Husayn Boyqaro// Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. –Toshkent: Fan, 1968. 114-b.). Shu tariqa Husayn Boyqaro Navoiy "Xamsa"siga yuksak baho beradi.

Navoiy "Xamsa"si haqida dunyoning ko'pgina yirik olimlari o'z samimiy fikrlarini aytganlar. Xususan, akademik N.I.Konrad "Markaziy sharq uyg'onishi va Alisher Navoiy" nomli maqolasida Navoiy "Xamsa"sining yaratilishi bilan bog'liq ajoyib bir holatni quyidagicha tasvirlaydi: "Bilasizmi, Navoiy "Xamsa"ni yozib tugallaganidan keyin qanday hodisa sodir bo'lgan? U mazkur asarini ustoz va yaqin do'sti Abdurahmon Jomiyga ko'rsatmoqchi bo'ladi, bunday qilishi kerak ham edi. Jomiy asarga bir nazar tashladida, bu uning uchun yetarli edi, shogirdining yelkasiga qo'lini qo'ydi. Shu onda u (Navoiy – I.Y.) hayolan ajoyib bir bog'da ulug' kishilar davrasida bo'lgandek his etdi. Ulardan biri uning yoniga keldi, u mashhur shoir Dehlaviy edi. Dehlaviy Navoiyga davradagi ulug' insonlarning u bilan suhbat qurish istagida ekanliklarini aytdi. Mana, Alisher oldida uch buyuk inson: o'rtada – Nizomiy, o'ng tarafda - Amir Hisrav, chap tomonda – Jomiyning o'zi. Ularning ortida esa Firdavsiy, Unsuriy, Nosir Hisrav, Anvari, Hoqoniy, Sanoiy, Sa'diylar saf tortishgan... Navoiy yelkasiga qo'yilgan qo'l ustozining qo'li edi. Ustozning o'z shogirdiga qilishi mumkin bo'lgan samimiy munosabati va Navoiy "Xamsa"sining e'tirofi belgisi edi bu. Ustoz demoqchiki, Navoiy yaratgan "Xamsa" uni qanday buyuklar safiga olib keldi" (Konrad N.I. Izbranniye trudi. Literatura i teatr. – Moskva: Nauka, 1978. 92-b.). Bu so'zlar mashhur olimning buyuk Navoiy dahosi oldidagi e'tirofi namunasi edi.

Navoiy mavzusi o'tgan 575 yillik davr mobaynida zamona tarixchi va tazkirachilari asarlarida ko'plab marta qalamga olindi. Ular orasida Xondamirning "Makorimul-axloq" asari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asar tamoman Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan birinchi asardir. Ma'lumki, Xondamir Navoiy bilan zamondosh bo'lib, bevosita uning g'amxo'rliqi va donishmand rahbarligi ostida tarbiya topdi, ulg'aydi. Navoiy bilan bog'liq ko'p voqealarning, xususan, Navoiy zamondoshlarining buyuk Alisherga munosabatlarning va bergan baholarining jonli shohidi bo'ldi. Muallif asarda Navoiyga nisbatan Oliy martabali, hidoyat nasabli, pokiza tabiatli, sof niyatli, saltanat suyanchig'i, mamlakat ustuni, hoqoniya davlatining yordamchisi, sulton hazratlarining yaqini, Oliy hazrat, Oliy hazrat Amir, go'zal sifatli Amir, Amir janoblari, baland darajali Amir, baland martabali zot kabi sifatlarini qo'llaydiki, bularning barchasi buyuk Navoiyga berilgan baho edi.

Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining yana bir buyuk farzandlaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur edi. Uning o'lmas asarlari bugun ham o'z qadrini zarracha yo'qotmasdan, aksincha, avvalgidan ham qadr-qimmatga ega bo'lmoqda. Bobur davlat arbobi, lashkarboshi bo'lishi bilan birga shoir, adib va olim ham edi. Navoiydek ardoq va obro'-e'tiborga ega bo'lgan Zahiriddin Muhammad Boburning boy ijodiy merosi uzoq yillardan buyon o'rganib kelinmoqda.

Albatta, Navoiy va Bobur munosabatlari xususida turli ilmiy qarashlar mavjud. Bobur Navoiy bilan bevosita uchrashmagan bo'lsa-da, ular orasida iliq munosabat bo'lgan. Bobur o'z asarlarida Alisher Navoiyni yigirmaga yaqin



o'rinda tilga olgan. Xususan, "Boburnoma"da o'qiyimiz: "Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat menga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim... Javob kelguncha, tafriqa (ittifoqsizlik, tarqoqlik – I.Y.) va g'avg'o bo'ldi" ("Boburnoma", 81-b.). Bobur Alisher Navoiyni benihoya hurmat va ehtirom bilan tilga oladi, uni e'zozlaydi: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas... Ahli fazl (ilm ahli – I.Y.) va ahli hunarg'a Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy (quvvat beruvchi – I.Y.) ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay" ("Boburnoma", 132-b.).

Shuningdek, Bobur "Boburnoma"da Andijon ta'rifini keltirishda Navoiyning Andijon lahjasida ijod qilganligini aytib o'tadi: "Eli turkdur. Shahri va bozorida turkiy bilmas kishi yuqtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirija nash'u namo topibtur, bu til biladur" ("Boburnoma", 34-b.). Matnning o'zbekcha tabdilini ham keltiramiz: "Eli turkdir (o'zbekdir). Shahar aholisi va bozorga keluvchilardan turkiyni bilmaydigan kishi yo'q. Elining tili adabiy tilga muvofiq. Shuning uchun ham Mir Alisher Navoiyning asarlari, garchand Hiriy (Hirot)da shuhrat qozongan bo'lsa-da, bu til bilan yozilgan" ("Boburnoma", 29-b.).

Boburning Navoiy ijodi haqidagi mazkur fikrlari bugunga qadar turlicha talqin qilinadi. Ko'pgina tadqiqotchilar Boburning fikrlarini aynan qabul qilsalar, ayrimlar bunga boshqacha yondoshadilar. Xususan, jahonga mashhur olimlardan A.Vamberi, N.I.Ilminskiy, A.Y.Yakubovskiyilar Boburning Navoiy asarlari haqidagi fikrlarini to'liq qabul qiladilar. Lekin, A.K.Borovkovning yozishicha, N.I.Ilminskiy o'sha davrdagi jonli til bilan umumadabiy tilning bu qadar yaqin bo'lganligiga, qolaversa, bu tilda Navoiy o'z asarlarida qo'llaganchalik darajada xorijiy til unsurlarining bu qadar ko'p bo'lganligiga shubha bilan qaraydi (Borovkov A.K. Alisher Navoi kak osnovopolojnik uzbekskogo literaturnogo yazika//Alisher Navoi. –M.,L., Nauka, 1946. 98-b.).

A.Y.Yakubovskiy XV asr o'zbek tilining madaniy jihatdan yuksak bo'lganligini e'tirof etadi. Navoiy tili shahar madaniyatining nozik irmoqlaridan suv ichganligini, xalq tili bilan uyg'unlashganligini bildirib o'tadi. Boburning Navoiy asarlari tili haqidagi fikrlarini to'liq ma'qullaydi va tarjimani quyidagicha izoh etadi (fikrni to'liq anglash uchun iqtibos ayni tilda berildi – I.Y.): "Население Андижана тюркское. Не встетиш никого в городе или на базаре, кто не знал би тюркского языка. Разговорный язык тот же, что и литературный. Характерно, что сочинения Алишера Навои написаны на андижанском наречии, хотя он и жил в Герате". Едва ли Бабур здес что-нибудь преувеличил" (Якубовский А.И. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навои // Алишер Навои. –М.,Л., Наука, 1946. 15-16-бетлар.).

O'zbek olimlaridan V.Abdullayev, F.Abdullayev, X.Doniyorov, Q.Sodiqov, Z.Xolmonova kabilarham Boburning fikri haqida o'z qarashlarini bayon qilishadi. X.Doniyorov yozadi: "V.A.Abdullayev ... "Alisher Samarqandda" maqolasida "Bobir Alisher tilining andijonliklarning muomala munosabatiga yaqinligini, Andijon tili bilan rost kelishini e'tirof etadi... Alisher tilidagi ko'nikmalar yigitligining ayni avjida, xuddi shu yerda, Samarqandda zohir bo'lgan" deb yozadi. V.A.Abdullayev tomonidan ko'rsatilgan bu sababni, bizningcha, andijon shevasining Navoiy tiliga asos bo'lishini

izohlovchi vajli dalillardan biri deb ko'rsatish mumkin" (Doniyorov X. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslarini o'rganish masalasiga doir // Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. –Toshkent: Fan, 1968. 291-b.). Shuningdek, X.Doniyorov V.Abdullayev fikrlariga suyanib, Navoiyning Samarqandda ikki yil emas, balki 4-5 yil bo'lganligini, bu vaqt ichida Navoiy Samarqandning janub tomonlaridagina emas, balki uning sharq tomonlarida, ya'ni Andijon tomonlarida ham bo'lgan bo'lishi ehtimoli borligini, shuningdek, Navoiy andijon shevasi bilan bolalik vaqtlarida o'sha Hirotdayoq tanisha boshlagan bo'lishi mumkinligini, buning sababi Hirotga Andijon tomondan juda ko'plab ustalar, askarlar, askarboshilar, kosiblar, ayniqsa, andijonlik shoir va mashshoqlarning borganligini va ularning yaxshi obro'ga ega bo'lganligini ko'rsatib o'tadi (Doniyorov X. Ko'rsatilgan asar, 291-b.). Z.Xolmonova Bobur fikrining Q.Sodiqov talqinidagi shaklini ma'qul ko'radi: "Eli turkdir. Shahri va bozorlarida turkiy bilmas kishi yo'qdir. Elining lafzi qalam bilan (yozma adabiy til bilan) mosdir. Ne uchunkim (ajablanarlisi), Mir Alisher Navoiyning tasniflari (asarlari), (uning o'zi) Hiriyda o'sib ulg'ayganiga qaramay – ushbu tilda (Farg'ona va Hirot adabiy muhitlari uchun yagona bo'lgan adabiy tilda)dir" (Xolmonova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: Fan, 2007. 46-b.).

Albatta, Boburning Alisher Navoiy asarlari tili haqidagi bebaho fikrlari uning Navoiy asarlarini juda yaxshi bilganidan va unga nisbatan bee'tibor bo'lmaganidan dalolat beradi. Aytish mumkinki, Boburning Navoiy tilining Andijon lahjasiga aynan mos kelishini bo'rttirib ko'rsatishga unda hech qanday ehtiyoj yoki majburiylik yo'q edi. Bu uning tarix haqidagi haqqoniy va xolisona fikri edi.

Boburning ustoz Navoiyga bo'lgan chuqur hurmatini hind adabiyotshunos olimi Qamar Rais yuqori baholaydi. U Toshkentdagi uchrashuvlardan birida quyidagilarni bayon qiladi: "O'zbek va hindlarning ulug' shoiri, lashkarboshi Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga boraturib, Hirotidagi eski kulbada bir necha kun tunab qoladi. Bu ko'plarni taajjublantirdi, albatta.

- Shohim, Siz uchun ajratilgan maxsus qasr qolib, xarob kulbada tunashingiz sababi nimada? – deb so'rab qoldi mulozimlardan biri. Shunda Bobur: – Bu kulbada bir necha yil muqaddam Mir Alisher Navoiy istiqomat qilganlar, bu yer men uchun har qanday shohona qasrdan ham muqaddasdir. Shu sababli bir necha kunlik vaqtimni shu joyda o'tkazishga qaror qildim, toki hazrat ruhlari menga madadkor bo'lsin" (Nazarova H. Bobir va o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan, 1983. 13-b.).

Albatta, Bobur uchun ustoz Alisher Navoiy bilan shaxsan suhbatdosh bo'lmagani katta armon bo'ladi. U 1506 yilda Hirotga kelganida Navoiy vafot etgan edi. U Alisher Navoiy yashagan uyni, u qurdirgan imoratlarni va albatta, uning maqbarasini ziyorat qiladi. Bobur Husayn Boyqaroning o'g'illari Badiuzzamon mirzo hamda Muzaffar Mirzolar tomonidan hurmat ramzi sifatida o'ziga ko'rsatilgan shohona joyda istiqomat qilmasdan, Hirotidan ketgunga qadar Navoiy yashab ijod qilgan uyda turadi. Bu haqda quyidagilarni yozadi: "Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim. Har ikki-uch kunda borib, Bog'i Jahonoroda Badiuzzamon Mirzog'a ko'runush qilur edim" ("Boburnoma", 144-b.).

Ushbu tarixiy dalillar Boburning o'z ustoz Alisher Navoiyni qanchalik hurmat qilgani, unga cheksiz ehtirom va e'tirofining ramzidir. Ustoz va shogird o'rtasidagi bunday o'zaro hurmat, e'tirof va e'zoz munosabati bugun ham bizga o'makdir.



# *I BO' LIM*

## **TEATR VA KINO**

## УЗБЕКСКИЙ ТЕАТР 10-30 ГОДОВ XX ВЕКА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается один из начальных периодов развития узбекского театра европейского типа, особенности и своеобразие путей становления и формирования национального театра в начале XX века. Прослеживаются основные направления и тенденции развития сценического искусства в контексте исторического времени. Анализируется творческая деятельность драматургов, актеров, режиссеров в поисках реалистической образности.

**Ключевые слова:** театр, исторический период, этапы развития, сценическое искусство, джадиды, драматургия, актер, режиссер.

Muhabbat TULYAHODJAEVA,  
O'zDSMI san'atshunoslik fanlari doktori, professor

## O'ZBEK TEATRI XX ASRNING 10-30 YILLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Evropa tipidagi o'zbek teatri rivojlanishining dastlabki davrlaridan biri, XX asr boshlarida milliy teatrning shakllanishi va rivojlanish yo'llarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Tarixiy vaqt sharoitida sahna san'ati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va tendentsiyalari kuzatildi. Dramaturglar, aktyorlar, rejissyorlarning realistik obrazlarni izlashdagi ijodiy faoliyati tahlil qilindi.

**Tayanch so'zlar:** teatr, tarixiy davr, rivojlanish bosqichlari, sahna san'ati, jadidlar, dramaturgiya, aktyor, rejissyor.

Muhabbat TULYAHODZHAJEVA,  
doctor of Arts, Professor UzSIAC

## UZBEK THEATER 10-30 YEARS OF THE XX CENTURY

**Abstract.** this article examines one of The initial periods of development of the Uzbek theater of the European type, the features and originality of the formation and formation of the national theater in the early twentieth century. The author traces the main trends and trends in the development of stage art in the context of historical time. The article analyzes the creative activity of playwrights, actors, and Directors in search of realistic imagery.

**Keywords:** theater, historical period, stages of development, stage art, jadids, drama, actor, Director.

Развитие узбекского профессионального театра – процесс сложный и противоречивый, обусловленный многими социальными, общественно-политическими факторами. Высокоразвитая музыкальная, хореографическая культура, кукольный театр, театр масхарабозов и кизикчи служили объективными предпосылками для возникновения и развития профессионального сценического искусства европейского типа в первое десятилетие XX века. Это подразумевало в первую очередь наличие литературной драмы, постоянно действующей актерской труппы, наконец, здания, разделенного на две части – зрительный зал и сцену, на которой предполагалось ставить драматические произведения в формах европейского театрального представления – спектакля.

За короткий срок был сделан колоссальный скачок. Произошло становление и формирование европейской модели театра, внедрение её в культурное пространство страны. Процесс происходил достаточно успешно, так как он смыкался, с одной стороны, с процессами культурной интеграции, с другой, с объективными процессами, которые развертывались в тот исторический период, что определяло не только дальнейшее развитие сценического искусства, синтезирующее в себе слово, музыку, танец, пантомиму, но и давало мощный импульс для формирования национального театра.

За период с 1877 по 1915 год в Туркестане выступило с гастролями более ста провинциальных трупп

и музыкальных коллективов. Приезд первой профессиональной русской драматической труппы в Ташкент относится к 1877 году. Тогда же появляется первая постоянная профессиональная антреприза – труппа Ф. И. Надлера («Туркестанские ведомости», 1 ноября 1877г). М. Рахманов в своей книге «Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года» пишет, что «в общей сложности в период с 1877 по 1917 год, выступая в различных городах, русские труппы дали в Туркестане более двух тысяч спектаклей» [1.с. 251]. С. Ахмедов в своей кандидатской диссертации «Печать и театр» (Истоки формирования нового узбекского национального театра 1917-1927 годов) указывает на наличие в Ташкенте 62 театральных коллективов, в 40 из них спектакли игрались на узбекском языке. Цифры впечатляют, но за ними неизбывный зрительский интерес к сценическим произведениям.

Выдающимся событием того времени явился приезд в начале 1910 года В.Ф. Комиссаржевской. Гастроли драматической труппы знаменитой русской актрисы проходили в Ташкенте и Самарканде. Зрители могли видеть замечательную актрису, исполнявшую главные роли в спектаклях «Бесприданница», «Дикарка» Островского, «Кукольный дом» Г. Ибсена, «Хозяйка гостиницы» К. Гольдони. Спектакли проходили при переполненных залах, с бурными овациями, цветами, восторженными рецензиями в газетах, при отличных сборах.



Знакомство с образцами русской и зарубежной драматургии, формами европейского театра положило начало интенсивному развитию узбекского сценического искусства. Процесс интеграции характеризовался успешным освоением художественной структуры европейской сцены писателями, актерами-любителями, народными исполнителями, учебой у мастеров русских, азербайджанских, татарских, крымско-татарских, еврейских, армянских театральных трупп.

В среде передовой местной интеллигенции родилось движение за создание письменной драматургии, организации национального театра. В этом процессе ведущая роль принадлежала просветителям, так называемым джадидам, которые и становятся первыми драматургами, первыми актерами и постановщиками спектаклей. Среди них Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидханов, Нусратулла Кудратуллаходжа, Ходжа Муин, Абдулла Бадри, Абдулла Авлони, Гулям Зафари, Хамза Хакимзаде Ниязи, Абдулла Кадыри, Абдурауф Фитрат. Просветители видели в организации профессионального театра европейского образца большие возможности для обновления национального сценического искусства. Выражая стремление прогрессивной части мусульманского населения Туркестана в создании профессионального театра, они регулярно выступали со статьями в газетах и журналах, где доказывали полезность театра для дальнейшего развития национальной культуры.

Театр мыслился ими как «место духовного очищения», как «зеркало, отражающее мир», так писал М. Абдурашидханов в своей статье «Биринчи миллий театр» в газете «Туркистон вилоятининг газети» от 3 марта 1914 года. Театр должен был сыграть решающее значение в деле воспитания общественного самосознания и повышения культуры народа. В печати появляются материалы о необходимости серьезной финансовой поддержки со стороны властей от строительстве специальных театральных зданий.

Вскоре в главных культурных центрах Туркестанского края возникает множество любительских полупрофессиональных трупп, среди которых выделялись Махмудходжи Бехбуди в Ташкенте, Хамзы Хакимзаде Ниязи в Фергане. В 1914 году М. Бехбуди в своей труппе осуществляет постановку собственной пьесы «Отцеубийца», с которой началась история национального театра. Огромны заслуги в деле создания нового узбекского театра европейского типа и поэта-просветителя, драматурга А.Авлони. Труппа, организованная им, состояла преимущественно из демократической молодежи. Её репертуар состоял из оригинальных пьес: «Отравленная жизнь» Хамзы, «Несчастный жених» А. Кадыри, «Легко ли быть адвокатом?» А.Авлони, «Мертвецы» азербайджанского драматурга Д.Мамеда, «Лейли и Меджнун» У.Гаджибекова.

Постановки гастролирующих музыкально-драматических трупп стимулировали создание и музыкальных спектаклей. Одним из видных представителей зарождающегося жанра был Г. Зафари. В его творчестве можно

выделить группу одноактных пьес, в действие которых включались наиболее популярные народные лирические мелодии, песни и танцы, использовались мотивы узбекского фольклора, народных ритуальных обрядов.

Естественно, первые спектакли решались достаточно примитивно, ибо сама драматургия преимущественно агитационного характера диктовала и средства выразительности – скупые, незамысловатые, плакатные. Спектакли преследовали цель пропаганды авторской идеи, что отвечало велению времени. Каждый актер имел свою функцию – донести как можно точнее текст роли, который не заучивался, а повторялся вслед за суфлером. Режиссеры часто прерывали репетиции и сами выходили на сцену, включались в игру и требовали от актеров повторения показанного.

Постановщики шли по сути путем интуитивного освоения основ сценического искусства. В первых спектаклях с незамысловатым сюжетом и ясностью политической мысли, обличавшей старый мир и утверждавшей новое миропонимание, узбекский театр проходил своеобразную школу, овладевал начальными формами «наивного» подражательного реализма.

Каждый спектакль, поставленный Хамзой, Маном Уйгуром в Ташкенте, по собственным пьесам, как «Бай и батрак», «Отравленная жизнь», «Туркестанский лекарь», становились ступенью, экспериментом в поисках своей театральной эстетики, складывающейся первоначально из усвоения традиций культурного наследия своего народа и практики европейского театра. М.Уйгур вспоминал, «что первые настоящие понятия о сценическом реализме, об актерском мастерстве и задаче режиссера он получил от К.Шорштейна» одного из видных мастеров русского театра в Ташкенте. [2.с.11]

Хамза и Уйгур были одновременно и драматургами, и актерами, и постановщиками своих пьес. Критерии постановочной культуры определялись стилистикой агитационного театра – открытой политической тенденциозностью, обнаженностью классового конфликта, обращением к средствам выразительности плаката и наивной иллюстрации.

В начале двадцатых годов в процессе работы над постановками «Халима» Г.Зафари (реж. М.Уйгур), «Коварство и любовь» Ф.Шиллера (реж. Камаль Первый) узбекский театр все более отходил от неясности и невыразительности сценического языка. Спектакль «Халима» раскрывал трагедию женщины, в нем впервые наметилась тенденция, которая укрепилась в дальнейшем – это раскрытие национального своеобразия характеров. А в исполнительском искусстве определились ведущие черты актерской школы, как взволнованность мысли, эмоциональная насыщенность и романтическая устремленность. Принципиальное значение имел и спектакль «Коварство и любовь», который продемонстрировал потенциальные творческие возможности исполнительского состава.

В решении художественных задач узбекский театр уже в начале 20-х годов добивается существенных сдвигов. «Факты свидетельствуют, что в вопросе сбли-

жения театра с жизнью, в деятельности актеров обнаруживалось «упорное стремление к усвоению таких принципов сценического искусства европейского образца, как правдивость и простота...» [3.с.97]. Однако стремление постановщиков к правдивости, простоте, выразительности актерского исполнения наталкивалось на отсутствие театрального опыта, профессиональной подготовленности.

В связи с этим в 1924 году первая группа способных, талантливых узбекских актеров и режиссеров отправляется в Москву в организованную там трехгодичную театральную студию при узбекском Доме просвещения. А через год новая группа направляется в студию при Бакинском театральном техникуме им. М.Ахундова.

В Москве молодые актеры под руководством таких преподавателей как Р.Симонов, И.Толчанов, В.Канцель, Л.Свердлин, О.Басов открывали для себя законы театрального искусства. Тогда, фактически впервые, на спектаклях Малого, Художественного, Вахтанговского театров, будущие деятели узбекского сценического искусства знакомятся с понятием профессии актера, режиссера, согласно которому спектакль, прежде всего, должен выражать определенную идею, что возможно лишь при подчинении отдельных элементов театральной выразительности главной мысли драматического произведения.

В процессе обучения у студийцев развивался художественный вкус, рождалось стремление к овладению достижениями мировой театральной культуры. Летом 1925, а затем в 1926 году студийцы возвращались на родину с огромным багажом обретенных знаний. Первые публичные выступления студийцев в спектаклях «Ревизор» Н.Гоголя, «Принцесса Турандот» К.Гюцци показали, что узбекский театр приобрел талантливых и образованных актеров, владеющих прочными основами сценического мастерства.

В конце 20-х годов наступил такой момент, когда уровень театральных постановок, эстетика агитационного театра уже не соответствовала возросшему профессиональному уровню актеров и режиссеров. Это обозначило возможные тенденции дальнейшего развития узбекского театра. Одна из них отставала освоение принципов европейской сцены во взаимодействии с опытом театра устной традиции, вторая – обращение к методу сценического реализма, в котором доминировали формы самой жизни. Так каким должен был стать узбекский театр? Ориентироваться на традиции народного театра или осваивать опыт европейской театральной культуры?

С достаточной ясностью вставали вопросы о необходимости связать театральное искусство республики с действительностью, выработать сценический язык, который был бы понятен новому зрителю. Вопрос выростал в один из сложных в художественной практике узбекского театра, ибо напрямую был связан с определением художественных ориентиров на сценическое искусство, режиссерское и актерское творчество.

Нельзя сказать, что спектакли, входившие в то время в репертуар театров, имевшие успех у зрителя, осуществлялись «вслепую», «по наитию». Это противоречило бы истине. Создателям узбекского театра, конечно, были знакомы основы режиссерского творчества и его «служебные» функции. Безусловно, что в годы учебы в Москве они не могли быть безучастными к суждениям о театральной режиссуре, которые высказывались К.Станиславским, Евг.Вахтанговым, Вс.Мейерхольдом, А.Таировым и не могли не знать о двух противоположных позициях, двух различных установках на природу режиссерского творчества.

Для К.Станиславского «в 10-30-е годы режиссер был прежде всего создателем актерского ансамбля», а для Мейерхольда, Таирова «это главным образом постановщик...» [4.с.187] спектакля, постановщик его пространственно-временных композиций. Эти две тенденции обуславливали движение русской театральной режиссуры, разнообразие и многообразие красок её сценического языка. Узбекскому театру предстояло определиться и на этом направлении.

Вот, что писал В.Тихонович, в то время художественный руководитель театра имени Хамзы (ныне Узбекский Национальный Академический театр драмы) в статье «Узбекский театр»: «Две основные опасности встают на пути строительства театров народов Востока. Одна – европеизация театра, перенесение на своеобразную почву иной культуры и иного быта, форм, выкованных на Западе Европы, России, перенесение механическое. Другая – театральный шовинизм, отказ от использования российских и европейских достижений» [5].

В.Тихонович отказывался от европеизации узбекского театра, он предлагал «нащупать национальную форму театральных представлений, использовав этнографическое наследие своей страны и художественной культуры, соседствующих азиатских народов» [6.с.24]. Так, работая над постановкой комедии К.Гольдони «Слуга двух господ», В.Тихонович обращается к элементам из восточной жизни. Одевает актеров в узбекские костюмы, заставляет их петь узбекские песни, в сюжетную канву спектакля включает интермедии, воспроизводивших события местного быта.

Поисками национальной формы был увлечен и М.Уйгур. Однако в этом вопросе режиссер стоял на иных позициях, чем В.Тихонович. Не замыкаясь в узконациональных воззрениях, Уйгур предлагал освоение достижений русского театра в тесной связи с традициями народных театрализованных представлений. Эту точку зрения Уйгур последовательно отстаивал в работе над постановкой пьесы В. Яна, Чулпона «Худжум», одном из этапных своих спектаклей, где налицо влияние театральных принципов Мейерхольда с приемами площадного узбекского театра.

Уйгур обращал большое внимание на построение спектакля в целом, на разработку массовых сцен, широко использовал возможности сценической ритмики. В результате, благодаря ритмопластической и

музыкально-словесной полифонии построения масовых сцен в спектакле «Худжум» возникал общенный образ, выражавший протест против старого уклада жизни.

В освоении основ профессиональной режиссуры значительную роль сыграло обращение к русской драматургии, а также пьесам молодых узбекских авторов. Укрепившаяся на узбекской сцене европейская модель театра, обуславливала активное участие режиссера в процессе подготовки спектакля, которое проявлялось теперь не в исполнении функции распорядителя, а творческого организатора. Режиссер определял идейную значимость драматического произведения и вместе с тем становился истолкователем каждой роли, помогал актерам в понимании существа того или иного образа, выстраивал композиционную структуру спектакля. Расширение границ творческих задач и достижений режиссуры способствовало процессу накопления профессиональных навыков. Вместе с тем изменялся и сам статус режиссера в театре. Судьба не только спектакля, но и всей труппы теперь оказывалась в зависимости от личности, творческих исканий, идейно-художественных устремлений режиссера.

Иными становились и взаимоотношения театра с драматургией. Театр становился своеобразной лабораторией, где молодые авторы пробовали свои силы. Первые серьезные шаги режиссура делала, опираясь на произведения национальной драматургии, опыт русской театральной культуры, самобытные черты народного театра. Это убедительно было доказано на Олимпиаде в Москве в 1930 году. Жюри отмечало, что узбекский театр представляет собой «чрезвычайно радостное явление, характеризующее подъем национальной культуры», имеет «все данные к расцвету талантливой национальной режиссуры и актерских сил» [7, с.410]. На Олимпиаде было показано четыре спектакля, три из них: «Худжум», «Два коммуниста», «Фархад и Ширин» были поставлены М. Уйгуром.

Успехи были очевидны. Однако, не все было ясно в вопросах метода и стиля, по линии определения принципов сценической интерпретации драматических произведений. «Жизнеподобие» или «условность»? Этот спор будет неоднократно возникать на протяжении всей истории театра в зависимости от отношения к самому понятию «условность».

В 1932 году в Ташкенте и в других городах Средней Азии в течении 3-х месяцев гастролировал театр Вс. Мейерхольда [8, с.60]. Знакомство с режиссурой, исполнительским мастерством актеров ведущего московского театра определенным образом повлияло на деятелей узбекской сцены. Но увлеченность театральными принципами Мейерхольда, порой, обрела форму простого подражания его спектаклям.

Так режиссер В.Витт, перекраивая пьесу Н.Погодина «Мой друг» на сцене театра Хамзы в 1934 году решал её как музыкальное обозрение, состоящее из 134 музыкальных номеров и изобретал рит-

мико-музыкальную жизнь каждого действующего лица [9, с.138]. Исполнители напевно декламировали и должны были двигаться по четко разграниченным, начертанным по сцене мелом, клеточкам в определенном ритме. Этот ритм, как заявлял режиссер, должен был, воздействуя на зрителя, передавать смысл образа. Эти тенденции с попыткой внести некоторые элементы восточного быта в ткань спектакля, прослеживались и в постановке пьесы «Ревизор» Н. Гоголя. Однако стремление того же В. Витта, неоднократно обвиняемого в том, что его некоторые спектакли полны «вульгарно-формалистических трюков», содержало в себе и позитивную сторону. [10]. Вот как вспоминала эти спектакли замечательная актриса С. Ишантураева: «Нельзя сказать, что такого рода эксперименты шли лишь во вред нам, актерам. Нет, благодаря приемам, предложенным Виттом, мы овладевали и актерской техникой, сценическим движением, умением легко владеть своим телом» [11].

И в «Моем друге» Н. Погодина и в «Ревизоре» Н.Гоголя главным было пластическое освоение сценического пространства, изучение законов ритма, композиции, стремление постичь элементы биомеханики, направленной на создание актера высокой пластической культуры. И хотя спектакли во многом лишь копировали и цитировали постановочные принципы Мейерхольда, все же в них проявилась попытка расширить границы сценических возможностей как для режиссуры, так и для исполнителей.

Одновременно с экспериментальными поисками, режиссура продолжала дальнейшую работу по овладению реалистическими принципами. Одной из интересных и значительных постановок в этом отношении, выразившей духовное величие освобожденной узбекской женщины, стал спектакль по пьесе молодого драматурга К. Яшена «Честь и любовь» режиссера В. Витта. Верное самочувствие, органичное поведение действующих лиц в предлагаемых обстоятельствах вели к рождению правдивых характеров. Можно предположить, что именно в этом спектакле Витт переосмысливает приемы сценического прочтения современной национальной пьесы. Ни примитивная бытовая этнография, ни увлечение внешним проявлением ориентального стиля, а органичное единство правдивого отражения событий действительности с многообразным проявлением национального характера, находящегося в центре социальных процессов.

Серьезным стимулом для дальнейшего развития узбекского театра послужило обращение к мировой классике. Спектакли «Гамлет», «Отелло» В.Шекспира, «Коварство и любовь» Ф. Шиллера ставили ряд новых творческих задач, решение которых содействовало совершенствованию мастерства режиссуры и актерского исполнения. В процессе подготовки спектаклей проявлялось внимание к вопросам сценической интерпретации мировой классической драматургии, вопросам стиля, элементам театрального

оформления, принципам создания единого художественного ансамбля.

Во второй половине 30-х годов узбекский театр вступает в период творческой зрелости, о чем свидетельствуют постановки «Отелло» В.Шекспира и «Бай и батрак» Хамзы.

Стремление к созданию героико-романтического спектакля получает свое выражение в постановке «Отелло» режиссерами М.Уйгуром и Н.Ладыгиным, художником С.Милениным. В спектакле четко прочерчивалась судьба человека, оказавшегося по воле обстоятельств в замкнутом кольце обмана, коварства, лжи. Это позволяло раскрытию внутреннего мира героя, его душевных, нравственных противоречий. В игре знаменитого А. Хидоятова, исполнявшего роль Отелло, сочетались масштабность и высокая патетика, героическая устремленность и романтика.

В работе над пьесой Хамзы «Бай и батрак» в 1939 году использовались принципы конкретно-исторического подхода, психологической обоснованности характеров. Режиссер Я. Бабаджанов последовательно направлял свои усилия на реализацию сложной образной системы – жанра социально-психологической трагедии. В стилистике спектакля происходило слияние социально-бытового фона, психологической достоверности и романтической направленности. В центре спектакля оказывалась Джамия в исполнении С.Ишантураевой.

Актриса стремилась показать духовную красоту своей героини, раскрыть сложный процесс перерождения безропотного, робкого существа в бунтарку, проследить все этапы её духовного формирования. Вначале Джамия еще совсем юная, хрупкая, трогательная и милая жена батрака Гафура. Никто и ничто, казалось бы, не может помешать тихому скромному счастью

молодой супружеской пары. Но переступив порог дома бая, для неё начинается иная жизнь. Нет мира в этом доме, её окружают люди, лишённые доброты, человечности, люди, которые не останавливаются ни перед чем, даже перед преступлением.

В одном из узловых эпизодов спектакля, где Джамия становилась невольной свидетельницей убийства ребенка и беспощадной расправы бая над ни в чем неповинной матерью, актриса раскрывала сложные, противоречивые чувства и переживания героини. Именно этот эпизод становился ключевым в раскрытии образа. Резкие удары кнута, проклятия бая, стоны, избиваемой женщины, заставляли Джамиллю оцепенеть от ужаса происходящего. Но превозмогая страх, собственную беспомощность, она бросалась к баю с криком, пытаясь защитить невинную женщину. В этом порыве чувств актриса раскрывала незаурядную личность своей героини, её волю и мужество, смелое противостояние насилию. Её героиня бесстрашно переступала многовековое рабство, защищая поправное человеческое достоинство и честь. Актриса последовательно прочерчивала путь своей героини от застенчивой, робкой, доверчивой женщины к смелой бунтарке, погибшей, но не покорившейся насилию и произволу.

Сценическое искусство Узбекистана в период 10-30-х годов XX века отражало уникальный опыт адаптации новых для традиционной культуры европейских форм и видов театра. Театр находил собственные возможности и средства, в результате чего сформировалась самобытная, своеобразная, содержательная специфика, определились закономерности и особенности развития, в работе над спектаклями театр обретал реалистическую направленность режиссерского и актерского творчества.

---

#### Использованная литература:

1. Рахманов М. Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года. - Ташкент: Изд-во Г. Гуляма, 1981. -251 с.
2. Театр им. Хамзы. -Ташкент: Художественная литература, 1957. -11 с.
3. Турсунов Т. Октябрьская революция и узбекский театр. -Ташкент: Фан, 1983, -97 с.
4. Хализев В. Драма как явление искусства. -Москва: Искусство, -187 с.
5. Тихонович В. Узбекский театр //Рабис. -1925. -№35. -С.5
6. Тихонович В. На путях реконструкции национального искусства // Советский театр. -1930. -№ 1. -С.24
7. История советского драматического театра.Т. 3. -Москва: Наука, 1967. -410 с.
8. Фельдман Я. Русская советская драматургия на сцене узбекского театра (1917-1941): сборник , выпуск I. -Ташкент;1957. -60 с.
9. Кайдалова О. Творческая зрелость театра им. Хамзы. Ежегодник НИИ Театр. -Москва: АН СССР., 1958. -138 с.
10. О режиссере В. Витте // Советское искусство. -1938. -20 мая.
11. Из беседы автора с народной артисткой СССР С. Ишантураевой – январь, 1983 г.



## O‘ZBEK QO‘G‘IRCHOQ TEATRI SAN‘ATI: AN‘ANA VA ZAMONAVIY JARAYON

**Annotsiya.** *Ushbu maqolada teatr san‘atining eng ta‘sirchan, eng ommabop, katta-yu kichikka birdek xizmat qiladigan turlaridan biri – qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligi, an‘ana va bugungi kundagi ijodiy jarayonlari, muammolari haqida fikr yuritiladi. Bir zamonlar qadimiy san‘at turi hisoblangan, o‘z uslubi, ya‘ni qo‘g‘irchoqlar vositasida tomoshabinlarni qiziqtirgan muammolarni sahnaga ko‘tarib chiqqan teatrdagi hozirgi kunda milliy xususiyatlar saqlangan holda qanday rivojlanish jarayonlari ko‘zga tashlanayotganligi haqida fikrlashamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *teatr, qo‘g‘irchoq, shirma, rejissyor, trosli qo‘g‘irchoq, marionetka, rassom, qo‘g‘irchoq o‘ynatish, planshetli qo‘g‘irchoq.*

Sarvinoz KADYROVA,  
доктор искусствоведения, профессор ГИИКУз

## УЗБЕКСКИЙ ТЕАТР КУКОЛ: ТРАДИЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ПРОЦЕСС

**Аннотация.** *В данной статье речь идет о своеобразном виде театрального искусства - театре кукол, о ее свойствах, традициях и современном состоянии, творческих изысканиях и проблемах. Было время когда данный театр являлся самым древним видом театрального искусства, служил взрослым и детям, поднимал насущные жизненные проблемы, интересующие публику через оживления куклы. В статье более углубленно рассматриваются сегодняшнее своеобразное развитие, проблемы и перспективы национального театра кукол.*

**Ключевые слова:** *театр, кукла, ширма, режиссёр, тростевая кукла, марионетка, художник, кукловождение, планшетная кукла.*

Sarvinoz KADYROVA,  
doctor of Arts, Professor UzSIAC

## UZBEK PUPPET THEATER: TRADITION AND MODERN PROCESS

**Annotation.** *This article is about a peculiar form of theatrical art - a puppet theater, about its properties, traditions and current state, creative research and problems. There was a time when this theater was the most ancient type of theatrical art, served adults and children, raised vital problems of interest to the public through the revival of the doll. The article deals in more depth with today's peculiar development, problems and prospects of the national puppet theater.*

**Keywords:** *theater, doll, screen, Director, cane doll, puppet, artist, puppetry, tablet doll.*

2020-yilning 26-may sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori qabul qilinishi alohida e‘tiborga molik hodisa bo‘ldi. Mazkur hujjatda Respublika qo‘g‘irchoq teatriga O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri maqomining berilishi, yurtimizning Navoiy, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida davlat qo‘g‘irchoq teatrlarini tashkil etish, Xorazm va Qashqadaryo davlat qo‘g‘irchoq teatrlariga yangi, zamonaviy binolarni qurib berish va jihozlash ko‘zda tutilgan. Buni qarangi, pandemiya sharoitida yuzaga kelgan qiyinchiliklarga qaramasdan, yurtboshimiz insonlarning ruhiyati, ma‘naviy olamiga katta ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan san‘at va madaniyat sohasiga, xususan yosh avlod tarbiyasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatriga bee‘tibor bo‘lmadi.

So‘z qo‘g‘irchoq teatri haqida borar ekan, bu teatr turining boshqalaridan ajralib turadigan xususiyatlari talaygina. Avvalambor, qo‘g‘irchoq teatrida dramaturg, rejissyor, aktyor, rassom aytmochi bo‘lgan fikrlarini qo‘g‘irchoq yordamida amalga oshiradi. Shu sabab qo‘g‘irchoq teatrida kimning o‘rni birlamchi ahamiyatga ega deganda, ko‘z oldimizga inson qo‘li bilan yasalgan va jonlantirilgan jonsiz qo‘g‘irchoq tasviri keladi. “Boshqa paytda oddiy bolalar o‘yinchoq‘idan kam farq qiladigan qo‘g‘irchoq san‘atkorning qo‘lida jonlanadi, harakatga keladi, rostmana odamlarday yashay boshlaydi, kuladi, yig‘laydi, urishadi, o‘ynaydi, kuylaydi, nayrang ko‘rsatadi va h. Mana shu mitti artistlar hayot, sevgi, do‘stlik, sadoqat, muruvvat, rostgo‘ylik to‘g‘risida hikoya qiladi, xiyonat, tekinxo‘rlik kabi illatlarni ayamay savalaydi” [1.B.4.].

So‘nggi yillarda davlatimiz yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratmoqda. San‘at va madaniyat sohasi haqida so‘z borganda esa deyarli har bir viloyatda bittadan qo‘g‘irchoq teatrlari tashkil etildi. Albatta, bu o‘ziga yarasha qiyinchiliklarni ham tug‘dirdi. O‘zbekiston davlat

san'at va madaniyat instituti qo'g'irchoq teatri bo'yicha professional teatrlarda faoliyat olib bora oladigan rejissyor va aktyor kadrlar yetishtirib bermoqda. Demak, mazkur teatr turi hammaning diqqat markazida.

Bir zamonlar qadimiy san'at turi hisoblangan, kattayu kichikka birday xizmat qilgan qo'g'irchoq teatri hozirda asosan bolalarga tomosha ko'rsatadigan teatr sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Biroq shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, bu teatr turi bemaolol katta tomoshabinlarga ham birday xizmat ko'rsatishi, ular e'tiborini jalb etishi mumkin. Faqat boshqa teatr turlaridan farqli o'laroq o'z uslubi, ya'ni qo'g'irchoqlar vositasida katta tomoshabinni qiziqtirgan muammolarni ko'tarib chiqadi va yechim topishga harakat qiladi. Mazkur teatrning fidoiy san'atkori S.Obrazsovning mana bu so'zlariga e'tiboringizni qarating: "inson"lar teatrida tashqi obrazning tashuvchisi – bu inson, qo'g'irchoq teatrida esa tashqi tasvirning tashuvchisi bu – qo'g'irchoq. Qolgan holatlarda qo'g'irchoq teatri ham boshqa teatrlar singari insoniylik xususiyatiga ega" [2.B.38.]. Darhaqiqat, V.Shekspir, Ben-Djonson, Gordon Kreg, Karlo Gotssi, A.Pushkin, Garsiya Lorka, J.Anuy, Y.Gashek, M.Meterlink kabi mualliflarning asarlari qo'g'irchoq teatri sahnalarida muvaffaqiyat bilan qo'yilgan. Faqat birgina o'ziga xoslik bilan, qo'g'irchoq teatrining boshqa jiddiy, "katta" teatrlardan farqli tomoni, u insonlar, ijtimoiy muammolar, hayotiy vaziyatlar haqida qo'g'irchoqlar vositasida so'z yuritgan, xolos. N.Smironova keltirgan P.Ferininig (G.Kreg ta'sis etgan "Maska" almanaxining adabiy xodimi) mana bu so'zlariga ahamiyat qaratsak: "Marionetkalar (qo'g'irchoqlar ma'nosida – S.Q.) dramatik shakldan yaratilganmi yoki aksincha, dramatik shakl ulardanmi?.. Hal qilib bo'lmaydigan jumboq! Bir narsani ishonch bilan aytish mumkinki, ular bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan, bir vaqtning o'zida va hatto tez-tez bir joyda, xuddi shu tomoshabinlar oldida, o'sha marionetkalar fojia, komediya va farslarni namoyish etishgan, ular bir xil axloqiy, siyosiy yoki huquqiy, ijtimoiy muammolarni hal qilishga intilgan, bir xil shaxslarni ulug'lash yoki tanqid qilish, haqiqiy aktyorlar singari dahshat, larzaga solish, qahr-g'azab, qahqaha va qarsaklar uyg'otgan" [3.B.79.].

XIX asrning so'nggi choragida Turkistonning chor hukumati tomonidan mustamlaka etilishi va bu ijtimoiy-siyosiy silsilalar davrida qo'g'irchoq teatrining faoliyati ham boshqa tusda rivojlandi. Zero, bizning o'lkada qo'g'irchoq tomoshalari asosan an'anaviy shaklda bo'lgan. Agar avvalida o'zbek qo'g'irchoqbozlar mahalliy boylar, amaldorlar, rais, sudxo'r, bangi, o'g'rilar ustidan kulgan bo'lsa, endilikda chor amaldorlari, tilmoqlar, soxta doktorlar ustidan ham ayovsiz kula boshladi. Bu harakatlari uchun jazo olgan qo'g'irchoqbozlar ham bo'lgan. Qo'g'irchoq tomoshalari ham g'arb ta'sirida rivojlana boshlagan yangi o'zbek teatr san'ati bilan ijodiy raqobatga kirishish natijasida o'zgarishlarga yuz tutdi. Albatta, yozma dramaturgiya asosida bino ichida, chodir-shirma ortida ish ko'ruvchi yangi uslubdagi o'zbek qo'g'irchoq teatri zamonaviy teatr san'atining boshqa turlariga qaraganda kechroq shakllandi.

Gap shundaki, mustamlaka davrida asosi og'zaki dramaturgiya bo'lgan mazkur tomoshalarda ko'tarilgan mavzular, tanqidlar o'zgarib borayotgan zamon talablariga to'la javob berolmay qoldi. Endilikda qo'g'irchoqbozlar

yoza dramaturgiyaga asoslangan, safildan foydalanmagan holda tomosha ko'rsatishlari kerak bo'ldi. O'zbek qo'g'irchoq teatri an'anaviy shaklda asrlar davomida rivojlangan qo'lqopli, iplar vositasida boshqariladigan qo'g'irchoq tomoshalarini saqlab qolib, yopiq binoda sahna va tomoshabin alohida joylashgan faoliyatini boshladi. Tomoshabinlarga chipta sotilgan va ular alohida o'rindiqlarda o'tirishgan. Mana shunday tomoshalardan biri haqida Qulibobo Novvotov eslaydi: "Dadam Novvot bobo, – chipta bilan tomosha ko'rsatishni tashkil qilgan edi. Bu uchun kiraga olingan 20-30 kigiz yerga qazib o'rnatilgan xodalarga qoqilib, devor hosil qilinardi, taxtadan taxminan ikki yuz kishi ketadigan o'rindiq-skameykalar yasalandi, shamlar yoqilardi. Eshikda bir kishi turib, chipta tekshirib, odam qo'yardi" [4.B.143.].

Eski syujetlardan satirik bo'yoqlar olib tashlanib, tomoshaviylik xususiyatiga ko'proq urg'u berilganligi, zamonaga moslashtirilgandan so'ng, qo'g'irchoq tomoshalarining mazmuni, mohiyati, ijtimoiy jarangdorligiga salbiy ta'sir etdi. Bu jarayon XX asrning birinchi choragida ham davom etdi. Bir qator yirik qo'g'irchoqbozlar eski an'anaviy syujet va obrazlardan foydalangan holda sovet voqeligini bir daraja aks ettiradigan yangi repertuar, yangi qahramonlar yaratishga kirishdilar. Asta-sekin mazkur teatrning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati aniq belgilangandan so'ng, alohida repertuar, rejissyor, aktyor, rassom-dekorator, qo'g'irchoq ustasi kabi malakali kadrlar masalasi ustida bosh qotirila boshlandi. Birin-ketin Toshkent, Andijon, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Farg'onada qo'g'irchoq teatrlari tashkil etildi.

Hozirgi kunda mazkur teatr tomoshalarida milliy xususiyatlarni belgilovchi bir qator an'analar saqlangan holda qanday rivojlanish jarayonlari ko'zga tashlanmoqda.

Avvalambor, qo'g'irchoq teatri sahnasi har qanday janriy ko'rinishdagi pyesalarni hazm qila olmaydi. Bu teatr turining o'ziga xos repertuari bo'ladi. Mazkur teatr sahnasida musiqa, raqs, yumor, balet, opera, satirik ko'rinishlar, publitsistika, ertak, mo'jiza jiddiyat bilan qorishib ketadi. Demak, qo'g'irchoq teatri oldida turgan asosiy masala bu to'g'ri repertuar tanlay bilish. Bu muammo hozir emas, balki qo'g'irchoq teatri ijodkorlarini qiynab kelayotgan azaliy muammolardan biri. Shu munosabat bilan S.Obrazsovning fikri e'tiborga molik. U mazkur teatr uchun yozilgan pyesalarni tahlil etarkan, ularda mavjud ikki bir-biriga o'xshash xatolikni ta'kidlab o'tadi: "Birinchi – qo'g'irchoq pyesasini yozayotgan muallif, ko'z oldiga qo'g'irchoqlarni emas, balki tirik insonlarni, ya'ni odatiy dramatik teatrdagi ijro etiladigan holatni ko'radi. Bu nafaqat qahramonlarning xatti-harakati va jismoniy holatiga, balki ular harakat qiladigan makonga ham taalluqli. Qo'g'irchoq teatri xususiyatlarini bilmagan dramaturg yo'l qo'yadigan boshqa bir xatolik buning aksi bo'lib, go'yoki tirik insonning jismoniy imkoniyatlari chegaralangan oddiy teatrdan farqli o'laroq, qo'g'irchoq teatrining imkoniyatlarini cheksiz, deb bilishiga qurilgan" [5.B.211-212]. Darhaqiqat, qo'g'irchoq teatri uchun yozadigan dramaturg hech bo'lmaganda mazkur teatrning nima ekanligini tasavvur qilishi lozim. Bu teatr o'ta shartli, majoziy, badiiy umumlashma, harakatga moyil va shuning bilan o'ta ta'sirchan. Qo'g'irchoqboz jonsiz tanaga jon ato eta turib, bu ishidan o'zi ham zavq oladi,

tomoshabinlar bilan hayot haqida mulohaza yuritadi. Albatta, bu jarayonda avval rassom qo'g'irchoq-personajning tasvirini chizadi, qo'g'irchoq ustasi unga ifodaviy tashqi ko'rinish bag'ishlaydi, aktyor esa mana shu ijod mahsulining jonlanishiga sababchi bo'ladi. Ba'zida mukammal ishlangan qo'g'irchoq aktyor qo'lida yaxshi o'ynamaydi, chunki uning xarakteri, yuzidagi kayfiyati haykalday qotib qolgan bo'ladi. Yoinki aksincha, aktyorga imkon bergan holda kompakt qo'g'irchoq o'ta harakatchan bo'ladi. Aktyor sahnada qo'g'irchoqlar vositasida yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va yolg'on, donolik va nodonlik, odamiylik va yovuzlikning umumlashma qiyofasini tasvirlaydi, ayni bir inson yoki jonivorning nusxasini sahnada ko'rsatish bilan chegaralanmaydi. Bundan chiqdiki, qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasining asosini mavzu belgilaydi, agarda u yoshga qarab qiziqarli, tushunarli tasvirlangan bo'lsa, demak sahnalashtiruvchi rejissyor ham uning mag'zini topa oladi.

Bizda qo'g'irchoq teatri uchun avvallari dramaturglardan Sami Abduqahhor, Latif Mahmudov, Ne'mat Ro'zimuhamedov, Raim Farhodiy, Leonard Boboxonov, Anatoliy Kabulov, Anvar Obidjon, Muhsin Xalil, Toshpo'lat Tursunovlar yozishardi. Hozirda qo'g'irchoq teatri uchun asosan Maryam Ashurova, Isoqtoy Jumanov, Hayitmat Rasul, I.Sodiqov, Erkin Xushvaqt, Gulchehrabonu va bir qator yosh qalamkashlar – S.Rustamov, A.Qurbonov, SH.Do'stmuhammad, D.O'roqova kabilar qalam tebratishmoqda. To'g'ri, oldingi davrlarda katta teatrlar uchun yozilgan dramatik asarlar avval qo'g'irchoq teatrlarida o'ynalgan. Shuni esdan chiqarish kerakki, qo'g'irchoq teatrlarining boshqa teatrlardan farqi uning bolalarga yoki kattalarga bag'ishlangan kichik hajmli pyesalarda emas, balki vositasi qo'g'irchoq bilan yetkaziladigan uslubida.

O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatri repertuar asosini afsonaviy-mifologik, xalq qahramonligini kuylovchi syujetlar, ijtimoiy adolatsizliklar ustidan hajv yo'li bilan tanqid qiluvchi hamda kundalik hayotda uchrab turadigan nuqsonlar ustidan do'stona kulgi bilan yo'g'rilgan asarlar tashkil etgan. Hozirgi kunda qo'g'irchoq teatrlarida ertaklar asosida sahnalashtirilgan, insoniy fazilatlarini ko'tarib chiqqan spektakllar, olim, alloma, tarixda o'tgan ajdodlarimiz siymolari namoyon bo'lgan spektakllar, bir necha marotaba qayta-qayta sahnalashtirilgan tarjima asarlar asosida sahnalashtirilgan spektakllar tomoshabinlar e'tiboriga havola etilmoqda. Tarixiy mavzudagi spektakllar qo'g'irchoq teatri ifoda vositalari yordamida ko'rsatilishi mumkin. Bu haqiqatni hech kim inkor etmaydi. Bu spektakllar nafaqat bolajonlarga, balki katta yoshdagi tomoshabinlarga ham qiziq. Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Manguberdi, To'maris, Shiroq, Alpomish, Mirzo Ulug'bek, Bobur kabi tarixiy shaxslar va afsonaviy qahramonlar haqida gapirib berganimiz boshqa, ularni qo'g'irchoqlar vositasida sahnada jonlantirilgani boshqacha taassurot beradi. Hozirda tarixiy shaxslarga bag'ishlangan ko'pchilik qo'g'irchoq spektakllari postanovkasi uchun olingan matn mazkur teatr spetsifik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yozilmagan. Bu esa o'z vaqtida rejissyorning katta matnni qay yo'sinda bo'lmasin qo'g'irchoq teatriga moslashtirishga majbur etgan, natijada spektakllarda so'z birinchi o'ringa chiqib,

qo'g'irchoq teatr spetsifikasi yoddan ko'tarilgan. Bundan tashqari, spektakllarda qo'g'irchoq va jonli aktyor o'rtasidagi mutanosiblik buzilgan. Ikkilamchi, spektakllar asosan, bolalarga mo'ljallanib tayyorlanar ekan, ularda tarixiy shaxslarning bolalik davrlari o'z aksini topgan. Shu sabab ko'p hollarda sahnalarda primitiv, sodda hamda imkoniyati cheklangan qo'g'irchoqlar ishlatiladi.

Endi qo'g'irchoq teatrida rejissyor kadrlar masalasiga to'xtalsak. Hozirda davlat qo'g'irchoq teatrlari spektakllar sahnalashtirishga asosan poytaxtdan mutaxassislarini taklif qiladilar yoki o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sahnalashtiradilar. Qo'g'irchoq rejissyorlari barmoq bilan sanarli ahvolda. Zero, qo'g'irchoq teatri rejissyori o'z auditoriyasini sezishi, uni tarbiyalay olishi kerak. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida qo'g'irchoq aktyorlik kurslariga har yili qabul bo'lsa, qo'g'irchoq rejissyorligi yo'nalishiga bir-ikki yil o'tib qabul amalga oshiriladi. Bu bir tarafdin to'g'ri siyosat. Rejissyor bo'laman degan talabgor ko'proq o'qigan, hech bo'lmaganda hayotiy tajribaga ega, tasavvuri boy bo'lishi darkor. Yana bir muammo professionalizm masalasi. Qanday teatr turi bo'lmasin, professional, o'z ishining ustasi, kasbini sevuvchi ijodkorgina teatrlar mahsuloti hisoblangan spektaklni maromiga yetkaza oladi. Professional rejissyor, aktyor kadrlarning teatrlarda muqim ishlamasligi, aniqrog'i viloyatlarga bormasligi eng katta muammo. Hozirda viloyat qo'g'irchoq teatrlarining ko'pida rejissyor vazifasini boshqa soha vakillari amalga oshirmoqda. Bu ham noprofessionallikdir.

Endi barcha davlat qo'g'irchoq teatrlariga birday tegishli aktyorlik mahorati masalasiga to'xtalsak. Odatda, bu teatr turini sevgan va yuragidan his etgan aktyor o'ynatayotgan qo'g'irchoq qahramoniga singib ketadi va aytadigan so'zi bilan harakati o'rtasida mutanosiblik yuzaga keladi. Gap shundaki, qo'g'irchoq aktyori o'ta harakatchan, so'zdan ko'ra ma'nodor xatti-harakatni ko'proq amalga oshirishi lozim. "Shirma, bir tomondan, aktyorga ijodning butun sir-sinoatini tomoshabinidan yashirishga ko'maklashadi. Boshqa tomondan esa, aktyordan tomoshabiniga his-tuyg'ularni yetkazish uchun, tomosha zaliga taqdim etish uchun qo'shimcha harakatlar talab etadi. Bu yerda aktyor hech qachon tomoshabin bilan to'g'ridan-to'g'ri uchrashmaydi, tomoshabinning diqqat markazida qo'g'irchoq tanasiga aylangan aktyorning bilaklari, barmoqlari bo'ladi" [6.B.132]. Eng achinarlisi shuki, aktyorlar, asosan, qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'lqopli, simli (trosli), planshetli qo'g'irchoqlar bilan ishlashadi. Qo'g'irchoq teatri aktyori teatrlar spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shirma ortida harakat qiladi. Hozirgi kunda esa deyarli jonli planda harakatlanish qo'g'irchoq teatri uchun odatiy hol bo'lib qoldi. Agarda spektakl ruhiyatidan kelib chiqqan holda qo'g'irchoqlar bilan muloqot qilish, voqealarni sharhlash kabi vazifalar jonli aktyor zimmasiga yuklatilsa, bu tomosha ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi va tomoshabinni jalb etishga yaxshi xizmat qiladi. Lekin bu holat me'yordan oshmasligi kerak. Shuni ham unutmash kerakki, qo'g'irchoq teatrlarining asosiy qahramoni – qo'g'irchoq, u voqealarni bog'lashi, xatti-harakatga sabab bo'lishi kerak.

Hozirda eng katta muammolaridan biri – qo'g'irchoq teatrida yosh, professional aktyorlarning yetishmovchiligi

masalasi. Shunisi qiziqki, viloyat teatrlarida madaniy-oqartuv texnikumida o'qiyotgan va bu sohada professional tahsil olmagan yoshlar faoliyat olib boradilar. Lekin bu yoshlarda mazkur teatrdan ishlash ishtiyoqi bor. Biz teatr jamoasining ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda to'ldirilishiga qarshi emasmiz, biroq keyinchalik bu havaskor yoshlar baribir malakasini oshirishlari lozim. Balki bu muammo O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qoshida qo'g'irchoq aktyori yo'nalishida sirtqi bo'lim ochilishi munosabati bilan o'z-o'zidan ijobiy tomonga hal etilsa ajab emas. Hozirda har bir sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish yo'nalishlari kelishib, bir yoqadan faoliyat yuritmas ekan, hech qanaqa oldinga siljish haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Avvalambor, ta'lim muassasalaridagi muammolarga to'xtalsak. Bugungi kunda O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti qoshida "Qo'g'irchoq teatri aktyori" yo'nalishida bakalavr (kunduzgi va sirtqi yo'nalishda) hamda magistraturada talabalar tahsil oladi. Endi o'ylab ko'ring, har yili 6-10 nafardan iborat kurs aktyorlari o'qishni tugatsa-yu, biz teatrlarda malakali kadrlar yetishmovchiligi haqida fikr bildirib o'tirsak. So'nggi yillarda Respublika qo'g'irchoq teatri (hozirda O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri) jamoasi bir qator yoshlarni ishga qabul qildi. Mazkur yosh aktyorlar teatr repertuaridagi barcha spektakllarida band. Qarz ikki qo'ldan chiqadi. Ikkilamchi, malakali kadrlar o'z viloyatlariga qaytganlarida yosh mutaxassis bilan ishlashning hech kimga qizig'i yo'q. Yoki teatrga intilayotgan yoshlarimiz shtat jadvali to'lganligi munosabati bilan ishsiz yuribdi. Kadrlar o'z viloyatlariga qaytganlarida ular na turar joy, na tuzukroq maosh bilan ta'minlanadi, na ijod qilish uchun imkoniyatlari bor. Agarda professional teatrlarga malakali kadrlarning keragi bo'lmasa, u holda ularni tayyorlashning nima hojati bor. Bizning nazarimizda mazkur kadrlarga ehtiyoj bor, biroq bo'lajak kadrlarni to'g'ri taqsimlash masalasiga diqqat e'tiborimizni qaratishimiz lozim. "Teatr truppalari, asosan, o'rta-maxsus bilim olgan yoshlar hisobiga to'latilyapti, - deb yozadi SH.Rizayev. Ularning kasbiy malakasi haqida jiddiy o'ylanmayapti. Teatr jamoalari mintaqaviy gastrollar, poytaxt ko'riklari, ijodiy sinov jarayonlariga muntazam jalb etilishlari juda zarur. Aks holda "ko'lmakni dengiz deb bilgan tilla baliqcha" ahvoliga tushib qolamiz. Xalqaro va Respublika miqyosidagi turli tanlov va festivallar bizni ana shu masalalarga ko'zlarimizni kattaroq ochib qarash uchun imkoniyat, albatta. Ana shu imkoniyatdan bundan keyin yanada unumliroq foydalanish zarur". [7.]

Sobiq ittifoq davrida poytaxtda yashaydiganlar ham, viloyatdan kelgan talabalar ham majburiy uch yil davomida respublikamizning kadriga ehtiyoji bor viloyat teatrlariga ishga jo'natilardi. Bu tajribani tiklash vaqti keldi, chamamda. Hech bo'lmaganda, viloyatdan kelgan talabani bitirgandan so'ng o'z tug'ilib o'sgan joyiga ishlashga jo'natish lozim. Mana shu o'rinda o'qish davomida talabalarni amaliyotga yuborish masalasi o'rta tashlanadi. Hozirda aktyorlar, asosan, o'zlari tug'ilib o'sgan joylaridagi teatr jamoalariga yuborilishi tajribadan o'tdi. Demak, mana shu jarayonda talaba teatr bilan til topa olishi va bunda amaliyot rahbarlari mas'uliyatliroq bo'lishlari lozim.

Hozirda ham qo'g'irchoq teatrlarimiz repertuarida

xalq og'zaki ijodiyoti, an'anaviy qo'g'irchoq teatri ifoda uslublariga e'tibor mavjud. Bu quvonarli jarayon. Sababi, aynan bu holat milliy o'zlikni ta'minlovchi omillardan biri. Biroq buni qo'g'irchoq teatridagi ijodiy izlanishlarning bir yo'nalishi tarzida qabul qilishimiz mumkin.

Qo'g'irchoq teatrining eng asosiy quroli bo'lgan qo'g'irchoqlar harakat qiladigan makonni jonlantiruvchi rassom, ularga jon bag'ishlovchi qo'g'irchoq ustalarining o'rni alohida ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, hozirda qo'g'irchoqlarning ko'pi o'z individual xarakteriga ega emas, bolalar o'yinchog'idan farq qilmaydi. Sababi, juda kam teatrlarda sahnalashtiruvchi rassom qo'g'irchoqlarning eskizini qilib beradi, aniqroq aytganda, ularni yasovchi usta qo'g'irchoqlarning xarakteri, qiyofasi, tuzilishini belgilaydi. Qo'g'irchoqlarning yasashida ham kamchiliklar mavjud. Ularning proporsiyalari, funktsionalligi, turlari, qanday materialdan yasalishi haqida kelajakda o'ylab ko'rish va choralar izlashga to'g'ri keladi. Zero, bizning professional qo'g'irchoq teatrlarimizdagi asosiy oqsayotgan jihatlarimizdan biri – bu mukammal, mexanik imkoniyatlari keng qo'g'irchoqlar yo'qligi va bo'lganda ham bu qo'g'irchoqlarni ishlata oladigan aktyorlik mahoratiga ega professionalarning kamchilligida.

Endi muammolardan kelib chiqqan holda bir-ikki takliflar bersak. Birinchi navbatda, teatr rassomlari aktyor va rejissyorlardan ayri tahsil oladilar. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda K.Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti orasida hamkorlik amalda yo'lga qo'yilmagan. Masalan, Sankt-Peterburgdagi Rossiya davlat san'at instituti (Rossiyskiy Gosudarstvenniy institut ssenicheskix iskusstv) qoshida qo'g'irchoq teatri fakulteti mavjud bo'lib, u yerda qo'g'irchoq teatri aktyori, rejissyorlarini tayyorlashdan tashqari, ssenograf (postanovkachi rassom), spektaklni bezovchi rassom-texnologlar tayyorlanarkan. Shuningdek, bo'lajak qo'g'irchoq teatri aktyorlari, rejissyorlari va rassom-texnologlarining ijodiy faoliyat olib borishlari uchun maxsus ustaxonalar mavjud bo'lib, malakali pedagoglar tomonidan boshqarilarkan. Aynan mana shu jihatlar bizda oqsamoqda.

Hozirgi kunda pyesalarning kamchilligi tufayli teatrlar tajribali aktyorlar yohud teatr adabiy emakdoshi ko'magida ertaklarni insenirovka qilib sharoitdan chiqishga harakat qilmoqda. Bu asarlarning ko'pi bolalar uchun mo'ljallangan. Agarda, Madaniyat Vazirligining teatr boshqarmasi qoshidagi dramaturgiya bo'linmasi Yozuvchilar uyushmasining dramaturgiya seksiyasi bilan hamkorlikda qo'g'irchoq teatri dramaturgiyasini rivojlantirish maqsadida tanlov e'lon qilsa maqsadga muvofiq bo'larmidi? Zero, tanlov ma'lum bir pul miqdori bilan belgilanadi va g'olib dramaturgning asari poytaxt va viloyat teatrlarida namoyish etilishi ko'zda tutiladi.

Yohud O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Dramaturgiya" yo'nalishi talabalariga bitiruv diplom ishlariga bolalar dramaturgiyasi yo'nalishida asar yozish tavsiya etilsa qanday bo'ladi. "Teatrshunoslik" yo'nalishida o'qiydigan talabalarga qo'g'irchoq teatri san'ati muammolariga bag'ishlangan malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bu sohada bir-ikki tajribalar amalga oshirilgan.



Hozirgi kunga qadar viloyat qo'g'irchoq teatrlari xususida birorta umumlashma tadqiqotlar yo'q. Bir qator qo'g'irchoq teatrlari o'z yog'iga o'zi qovurilib yotibdi, har yili vazirlikka topshiriladigan hisobotdan bo'lak arxivida hech narsa saqlanib qolmagan (na spektakllarning videotasmalari, na rassom eskizlari, na sahna bezaklari, na qo'g'irchoqlar, na fotosuratlar va h.). Teatr qoshida kichkintoylar spektakldan oldin ko'zlari quvonib tomosha qiladigan qo'g'irchoqlar saqlanadigan kichkinagina muzey to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Shuni e'tiborga olgan holda, "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasida "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida hamkorlikda bu yo'nalishda ilmiy ishlarga bosh qo'shildi. Hozirda Respublika qo'g'irchoq teatri (O'zbek Milliy qo'g'irchoq teatri), Xorazm, Buxoro qo'g'irchoq teatrlari xususida ilmiy ishlar mavjud. Samarqand, Qashqadaryo

viloyat qo'g'irchoq teatrlari haqida tadqiqotlar olib borildi. Zero, ilmiy izlanishlar bakalavr ta'limidagi teatrshunoslar, san'atshunos-jurnalistlar hamda qo'g'irchoq teatri aktyorligi yo'nalishidagi magistrlar tomonidan bajarilgan. Bu tadqiqotlar tugallangan, mukammal deya olmaymiz. Bu albatta, birinchi qadamlar. Ilmiy izlanishlarni davom ettirish kerak.

E'tibor bering, yuqori tashkilotlardan tortib quyi idoralargacha mazkur san'at turiga bee'tibor emas. Sababi, birinchidan mazkur san'at barkamol, jamiyatimizning kelajagi bo'lmish bolalarimizni kamolga yetkazishdagi o'rnini hech kim inkor eta olmaydi. Buning orqasida biz kelajakda malakali tomoshabinimizga ega bo'lamiz. Binobarin, bizning vazifamiz bu teatr turini to'g'ri rivojlantirish hamda jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan yetuk mutaxassis kadrlarni yetishtirib berishda.



Surxondaryo davlat qo'g'irchoq teatrining "Alpomishning bolaligi" spektakli (I.Sodiqov asari).



Andijon davlat qo'g'irchoq teatrining "Turna pati" spektakli (I.Sodiqov inss., rej. F.Xo'jayev)



Qoraqalpoq davlat qo'g'irchoq teatrining "Qirq qiz" spektakli (inss. muallifi va rej. M.Begimov)

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. -Тошкент: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. -232 b.
2. Obrazsov S. Moya professiya rejissyor. -Москва: Iskusstvo, 1981. -464 b.
3. Smirnova N.I. Iskusstvo igrayushix kukol. -Москва: Iskusstvo, 1983. -270 b.
4. Qodirov M.X. Xalq qo'g'irchoq teatri. -Тошкент: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. -232 b.
5. Obrazsov S. Moya professiya rejissyor. -Москва: Iskusstvo, 1981. -464 b.
6. Smirnova N.I. Iskusstvo igrayushix kukol. -Москва: Iskusstvo, 1983. - 270 b.
7. Rizayev SH. Davr va teatr // Teatr. - 2017. - №2. -Б.16.

**Марфуа ХАМИДОВА,**  
доктор искусствоведения, профессор ГКУз.  
**Чарос МАДУМАРОВА,**  
преподаватель школы-лицея ГКУз.

## ОБ ОПЕРЕ АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО КОМПОЗИТОРА УЗЕИРА ГАДЖИБЕКОВА «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

**Аннотация.** В данной статье речь идет о жизни и творческом пути выдающегося азербайджанского композитора Узеира Гаджибекова и его ставшей первой в исламском мире опере «Лейли и Меджнун, созданной на основе поэмы Мухаммада Сулеймана Физули.

**Ключевые слова:** азербайджанская опера, либретто, поэма Физули, стиль, Лейли, Меджнун, мугамы, инструментальная музыка, восточный колорит, композитор, ансамбль, действие, образ, характер, вокальная партия, оркестровая партия.

**Marfua XAMIDOVA,**  
San'atshunoslik doktori, Davlat san'at instituti professori.  
**Charos MADUMAROVA,**  
GKUz maktab-litseyi o'qituvchisi.

## OZARBAIJON BASTAKORI OPERASI HAQIDA UZEIRA GADZHIBEKOVA "LEILI VA MEJNUN"

**Annotasiya.** Ushbu maqola Muhammad Sulaymon Fuzuliy she'ri asosida taniqli ozarbayjon bastakori Uzeyir Hajibekov va uning Islom dunyosida birinchi bo'lgan "Leyli va Majnun" operasi haqida.

**Kalit so'zlar:** Ozarbayjon operasi, libretto, Fuzuliyning she'ri, uslubi, Layli, Majnun, mug'omlar, cholg'u musiqasi, sharqona lazzat, bastakor, ansambl, aksiya, obraz, personaj, vokal qismi, orkestr qismi.

**Marfua KHAMIDOVA,**  
Doctor of Art History, Professor of the State Institution of Arts.  
**Charos Madumarova,**  
teacher of the school-lyceum GKUZ.

## ABOUT THE OPERA OF THE AZERBAIJANI COMPOSER UZEIRA GADZHIBEKOVA "LEILI AND MEJNUN"

**Annotation.** This article deals with the life and creative path of the outstanding Azerbaijani composer Uzeyir Hajibeyov and his opera *Leyli and Majnun*, which became the first in the Islamic world, based on the poem by Muhammad Suleiman Fizuli.

**Keywords:** Azerbaijani opera, libretto, poem by Fuzuli, style, Layli, Majnun, mughams, instrumental music, oriental color, composer, ensemble, action, image, character, vocal part, orchestral part.

Узеир Абдул Гусейн оглы Гаджибеков родился 17 сентября 1885 года в селе Агджабеда, Шушинского уезда. Разносторонне одаренный, обладающий замечательным голосом, музыкальным слухом и чувством ритма, он с раннего детства проявляет интерес к инструментальной и вокальной музыке. Юный Узеир настолько искусно исполнял азербайджанские мугамы, что слава о талантливом музыканте быстро разошлась в округе и его голос был вскоре записан на фонограф.

Поражала также игра мальчика на таре, чем он радовал не только местных жителей, но и широкий круг профессиональных инструменталистов, предвещавших ему большое будущее на поприще искусства.

В 1899 году Узеир поступает в Горийскую семинарию, где он ближе знакомится с русской культурой, открывает для себя европейскую классику, кроме того приобретает навыки хорового пения и ансамблевого исполнительства, учится играть на скрипке, а также нотировать народные мелодии, песни, благодаря чему

сохранилось множество замечательных образцов азербайджанской музыки.

По завершении семинария, Узеир работает учителем в селе Гадрут, пишет статьи для местных газет, которые привлекли внимание читающей, просвещенной публики. Сочетание в талантливом молодом человеке разносторонних дарований инструменталиста, певца, журналиста, знатока национальной и европейской классической музыки, привело его к мысли о написании национальной оперы, основанной на местном литературном и музыкальном материале.

Так и появилась ставшая первой на мусульманском Востоке опера «Лейли и Меджнун» (1909) азербайджанского композитора Узеира Гаджибекова, по поэме классика азербайджанской литературы Мухаммада Сулеймана Физули (1556-1562).

Урожденный иракского города Кербела, владевший тюркским, персидским, арабским языками Физули, никогда не терял связи с родными корнями, оставаясь одним из выдающихся представителей литературы

тюркоязычных народов. Достойный продолжатель литературно-поэтических традиций Низами Ганджеви (1141 – 1203), Алишера Навои (1483-1501), соприкасавшихся в своем поэтическом творчестве с широко распространенной на Востоке легендой о «Лейли и Меджнуне», которая составляла одну из пяти частей «Хамсэ» («Пятерицы»), Физули тоже обратился к этой легенде, воспев ее в своих стихах.

Либретто, вызывающее море сострадания героям произведения; музыка, волнующая до глубины души переливчатостью красок; завораживающая сила арий, передающих эмоциональный, духовно возвышенный мир центральных персонажей; оркестровые страницы, на фоне которых разворачивается трагическая судьба юных сердец ... всё это не могло не вызвать отклика в душах зрителей.

Партию Лейли в первых постановках оперы «Лейли и Меджнун» исполнил Ахмед Агдамский; да так, что своим мягким, высоким и свободно льющимся голосом, богатым тембровыми красками и выразительными оборотами, покорила публику, несмотря на то, что, будучи мужчиной, вышел на сцену в женской роли. А партия Меджнуна была доверена одному из лучших певцов той эпохи Гусейнкули Сарабскому, составившему вместе с партнером прекрасный ансамбль.

Действие происходит в Саудовской Аравии. Вождь племени Амир - известный своей добротой, благородством, справедливостью, испытывает душевные муки из-за отсутствия сына-наследника – продолжателя увядающего рода.

Но вскоре, по воле Всевышнего, у Амира рождается прекрасный мальчик. Нарекли его Кайсом, что означает «мерило таланта». Действительно Кайс оказался даровит во всём: в боевых искусствах, музыке, поэзии, живописи. Отец несказанно счастлив и благодарит небесные силы за столь великую милость.

Наступает день знакомства Кайса с Лейли, которая привлекла его внимание как своими стараниями в учебе, скромностью, умом, так и божественной красотой. Между молодыми людьми возникает незримое притяжение, которое перерастает в настоящую, пламенную любовь.



**Кайс:**

*Увидев твой небесный лик, я сил лишился в тот же миг. С тех пор немало неудач, немало горестей постиг. Никто покой не мог мне дать, я должен был, как тень, блуждать.*

*Но, слава Богу! Ты пришла, и мне не надо больше ждать.*

**Лейли:**

*Всех невзгод моих суть — он знает, я знаю.  
Что волнует мне грудь — он знает, я знаю.  
Нет причин объяснять все печали мои:  
Лучше, чем кто-либо, — он знает, я знаю.  
Ах, я на стан смотрю с любовью.  
Всех стройнее он.  
Ах, о тебе я плачу кровью,  
Вешний мой бутон.....*

О неземной любви юных героев заговорил народ, назвав Кайса Меджнуном «безумцем», ибо он не мог дышать и жить без Лейли. Родные девушки обеспокоены столь неожиданным и нежеланным для них поворотом событий и начинают ограждать влюбленных друг от друга, держа девушку взаперти. От горя и тоски Кайс всё больше теряет рассудок и убегает в пустынную даль.

Амир, понимая страдания своего сына, посылает сватов в родительский дом Лейли. Однако он получает отказ по причине скорого замужества девушки за человека благородных кровей по имени Ибн-Салам.

От таких известий Кайс окончательно теряет рассудок. Теперь его невозможно узнать! Поистине «безумный», он отрекается, несмотря на уговоры, просьбы, старания, слёзы отца, от всех земных благ, скитаясь в одиночестве по безбрежной пустыне, хотя тысячи красавиц жаждут его внимания.

После долгих и напрасных усилий вернуть Кайса в объятия родной семьи, Амир тяжело заболевает и покидает этот мир. Он не смог пережить то, как его единственный и долгожданный сын — радость и надежда всей его жизни, увядает от любовной тоски.

Услышав о смерти отца, Меджнун тонет в море отчаяния.

Лейли выдают замуж за Ибн-Салама, который увозит её далеко от родных земель. Страдающая от горя и разлуки, она не перестает оплакивать свою несчастную долю. Новоиспеченному мужу ничего не остаётся, как любоваться красотой жены на расстоянии, поскольку она, угрожая самоубийством, не подпускает его близко.

Кайс, одиноко блуждая по пустыне, горько винит себя в смерти отца. Однако сердце жаждет только Лейли. Гонец приносит весть о том, что его хочет повидать матушка. Они встречаются. Но попытки матери утешить, облегчить страдания сына, упросить его навсегда оставить этот мрачный, безлюдный край - также безуспешны.

Кайс неумолим и, значит, потерян навсегда ... По возвращении домой, мать тоже умирает.

Все эти горестные вести доходят и до Лейли. Она сбегает из дома к любимому, разделить с ним его судьбу. Увидев Меджнуна, Лейли хочет броситься в его объятия, но ее останавливает данная перед Богом клятва в верности мужу. Прощаясь с тяжелым сердцем с горячо и безнадежно любимым, она знает, что не увидит его никогда.

Никто не силах помочь Лейли в ее отчаянии. Она заболевает и вскоре уходит в мир иной.





### Меджнун:

*Меня наказывает рок, но разве я виновен,  
На муки вечные обреч, но разве я виновен?  
О рок, не выплакать мне мук, не облегчить словами.  
Уж, если ты вдохнул мне в грудь негаснущее пламя,  
Направь меня к Лейли, к ее последнему покою,  
Чтоб над могилою её я стал гореть свечою.  
Лишь тот поистине влюблен, кто любит, жизни не жалея.  
О страсти пусть забудет тот, кому душа своя милее.  
Влюбленных мудрость такова: собою жертвой  
для любимой.  
Когда ж для этого нет сил, признайся в слабости  
смелее...*

Кайс — окончательно сломленный, у могилы своей возлюбленной — такой темной, глубокой, холодной ... «Неужели эта любовь стоила таких невосполнимых утрат и бед?»... «Стоила», — тихо прошептал безумный, обняв могилу Лейли. И навсегда закрыл свои глаза ...

Узеир Гаджибеков подошел к образу Лейли с той же любовью, как и Физули: трепетно, нежно, сочувственно. Умная, лучезарная, она невероятно красива, искренна, преданна своим идеалам. Любовь для нее — это не слова, не роскошь и богатства, не высокое происхождение, а духовная сила, моральные ценности, вера.

Партия героини, рассчитанная на лирическое сопрано, начинается с *andante*, постепенно приобре-

тая более живую окраску, что соответствовало характеру девушки робкой, застенчивой, но с неким озорством, присущим восточным красавицам.

Дуэт Лейли и Меджнуна: начинается на *piano* и идет в унисон. В этом есть своя логика: оба совсем ещё юны, впервые испытывают друг к другу взаимные светлые, добрые, восторженные чувства:

«Я на стан смотрю с любовью, всех стройнее он (она)».

В инструментальной партии особое внимание привлекает тема из шестнадцатых нот на фоне *piano* и *legato*, что характеризует душевное состояние Лейли и Меджнуна. Несмотря на синхронное звучание голосов и повторяемость сопровождающей мелодии, слушатель проникается в атмосферу действия, чувства и переживания героев.

### Дуэт Лейли и Ибн-Салама:

Здесь Лейли говорит Ибн-Саламу о том, что творится в ее душе:

«Разве ты сам не видишь, как сломила меня беда?».

Следующий дуэт Лейли и Ибн-Салама раскрывает глубину переживаний, душевные метания героини в поиске выхода из создавшегося положения и в то же время попытку Ибн-Салама остудить сердце Лейли к Меджнуну. Номер начинается с оркестровой темы, которая помогает певцу глубже окунуться в психологическое состояние своего персонажа. Тут Ибн-Салам и Лейли испытывают разные чувства. С одной стороны — негодование, презрение, а с другой — надежда на любовь и понимание. То есть, в данном случае многое зависело от исполнительского мастерства певцов.

Дуэт начинается в темпе *moderato* на *mezzo forte*. Если массивные аккорды, переходящие с каждым разом на более высокую ступень, выражают состояние протеста, тревоги, то вокальная линия в низком регистре говорит о безысходности, подавленности героини, которая теряет последние силы в борьбе за свою любовь. В целом, партия Лейли сложна с точки зрения драматургии образа. Поэтичная, хрупкая, ранимая и винившая себя во всех бедах, она проявляет невероятную силу духа и с незапятнанной любовью в сердце покидает мир, ставший для нее чужим.

### Список литературы:

1. Ибрагимов М. Заметки о литературе. -Москва: Советский писатель, 1971. - 456 с.
- 2.Исазаде А. Узеир Гаджибеков. -Баку: Элм, АН Азербайджана, 1990. -292 с.
- 3.Навоий А. Лайли ва Мажнун. Т.8. -Тошкент: Бадий адабиёт, 1965. -262 б.
4. Сарабский А.Г. Возникновение и развитие азербайджанского музыкального театра (до 1917 г.). - Баку: Изд-во АН Аз.ССР., 1968. -273 с.
5. Гаджибеков У. Библиография. -Баку: АГБ имени М.Ф. Ахундова, 2008. — 368 с.
6. Гаджибеков У. Лейли и Меджнун: клави́р. -Баку; 1930. -400 с.
- 7.Шушинский Ф. Народные певцы и музыканты Азербайджана. -Москва: Советский композитор, 1979. -305 с.



**Jasur JUMAYEV,**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti,  
2-kurs mustaqil izlanuvchi (PhD)

## O‘ZBEK FOTOGRAFIYA SINING RIVOJLANISH YO‘LLARI

**Annotatsiya.** Maqolada fotografiya san’ati rivoji, jumladan o‘zbek fotografiyasi va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan yetakchi fotorassomlar, ularning ijodiy izlanishlari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** fotografiya, kinematografiya, plakat, reklama, fotoreportyor, fotolaboratoriya, fotostudiya

**Jasur JUMAYEV,**  
Dotsent Natsionalnogo instituta iskusstva i dizayna imeni Kamoliddina Bexzoda,  
2-kurs svobodnyy issledovatel (PhD)

## PUTI RAZVITIYA UZBYEKSKOY FOTOGRAFIY

**Annotatsiya.** V state predstavlena informatsiya o razvitiy iskusstva fotografii, v tom chisle uzbekskoy fotografii i veduyux fotografax, rabotayuyux v etoy sfere, ix tvorcheskix poiskax.

**Klyuchevye slova:** fotografiya, kinematografiya, plakat, reklama, fotoreportyor, fotolaboratoriya, fotostudiya

**Jasur JUMAEV,**  
Associate Professor at the National Institute of Art and Design named after Kamoliddin Bekhzod,  
2-course freelance researcher (PhD)

## WAYS OF DEVELOPMENT OF UZBEK PHOTOGRAPHY

**Annotation.** The article provides information on the development of the art of photography, including Uzbek photography and leading photographers working in this area, their creative searches.

**Keywords:** photography, cinematography, poster, advertising, photo reporter, darkroom, photo studio

Foto san’ati – badiiy ijod turi. Badiiy madaniyatda foto san’atining alohida o‘rin tutishi fan (fizika, kimyo, optika) va texnikaning ma’lum yutuqlari zaminida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnikaviy san’at tarixida dastlabkisi bo‘lganligi bilan belgilanadi. XX-asr o‘rtalarida texnikaviy san’at turlari guruhi kinematografiya (kino san’ati), televideniye, radio san’ati, dizayn va b. bilan boyigan. Foto san’ati ijodning keng sohasiga aylandi hamda uning tarkibida hujjatli foto san’ati, badiiy fotografiya va amaliy foto san’ati (plakat, kitob bezagi, reklama va boshqalar uchun) mustaqil ko‘rinishlar sifatida shakllandi. Bu yangi texnika vositasi – tasvirni muhrlash yuzaga kelgan kundanoq tasviriy san’at namoyandalari unga murojaat qildi. Fotografiya ixtirochisi Lui Jak Dagger asli rassom bo‘lib, uning dastlabki suratlari rangtasvirning an’anaviy portret, manzara va natyurmort janrlari yo‘lida yaratildi. Ilk davr fotografiyasi ochiqdan-ochiq rangtasvir asarlariga taqlid qildi. XIX-asr tasviriy san’atidagi fotografiyada o‘zining ikkinchi nusxasiga ega edi. Badiiy fotografiya nomini olgan bu yo‘nalish asoschilari foto san’ati yuksak tasviriy madaniyatga erishishi, nafis san’atlar bilan uzviy bog‘lanishi uchun qariyb 3 asr davomida taniqli ijodkorlarning katta mehnati singgan.

Foto san’ati tarixida E.Maybrij (AQSH) tomonidan turli ko‘rish nuqtalaridan bir necha kamerada suratga olingan suratlar muhim voqea bo‘ldi. Bu yangilik tufayli XX-asrning 1-choragida foto san’atida real borliqni yangicha talqin qilishga qiziqish ortdi.

2-jahon urushi davridagi reportajlar foto san’atining yangi taraqqiyot bosqichi bo‘ldi. Urush fotoyilnomalarini yaratishda turli mamlakatlar fotoreportyorlari katta hissalarini qo‘shdilar. 1950-80-yillar hujjatli foto san’ati jahonning eng yirik agentliklari tomonidan jo‘natilgan

reportyorlarning sayohatda yaratgan janrli fotografiyalari rivoji bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston hududiga XIX-asr ning 2-yarmida Yevropadan kelgan ko‘plab sayyoh-savdogarlar va boshqa kasb egalari yurtimizni bebaho madaniy merosi, ayniqsa, ularni hayratga solgan mirobchilik (irrigatsiya) san’ati, h.k., nafis hunarmandchilik san’ati va odamlarning yashash tarzi madaniyatini aks ettirgan va bu tasvirlarni tarqatganlar.

Birinchi o‘zbek fotografi va kinooperatori, xivalik Xudoybergan Devonov 1900-1901 yillarda nemis fotografi Vilgelm Penner (madalliy xalq uni Fanor ota deb izzat-hurmat ko‘rsatgan) bilan tanishib, undan fotoapparat vositasida surat olish hunarini o‘rgana boshlagan. X.Devonov keyinchalik rus, nemis, fransuz tillarini o‘rgangan. 1907-1908-yillarda Moskva va Peterburgga borgan. U yerlardan o‘sha zamonning ilm-fan mo‘jizalari hisoblanmish – teleskop, grammafona, foto hamda kinoapparat singari texnika vositalarini olib kelgan. Xorazmda u tashkil etgan fotolaboratoriya fotostudiya vazifasini ham o‘taydi. [1]

O‘zbekistonda chinakam foto san’atining asoschilaridan biri M.Z.Penson hisoblanadi. U XX-asrning 20-yillaridan to 50-yillarigacha O‘zbekistonning fotoyilnomasini yaratishga hissa qo‘shdi. Uning “O‘zbek madonnasi”, “O‘g‘il savod chiqardi” va boshqa suratlari mashhurdir. 1940-yillarda O‘zbekiston foto san’ati ijodiy uslublari ko‘paydi, janriy shakllar ortdi, fotograflar turli sohalar bo‘yicha ixtisoslasha bordi (masalan, YE.Yuditskiy – me‘morchilik, K.Romeyev – teatr, A.Palexov – portret, R.Albekov – bolalar hayoti, R.Shamsiddinov, S.Beznosov – maishiy janr, S.Mahkamov – madaniyat bo‘yicha ixtisoslashdi). O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi fotoseksiyasi, yirik korxonalarda tashkil topgan fotoklublar respublika foto san’ati rivojida muhim rol o‘ynadi.

Milliy istiqlol tufayli o'zbek fotografiyasi tamomila yangicha rivojlanish yo'liga ega bo'ldi. Jahon foto san'atining o'ta muhim o'rni, ahamiyatini nazarda tutgan holda 2002 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tarkibida "Toshkent fotosuratlar uyi" tashkil etildi.

Nazarimizda, musiqiy madaniyatimiz rivojida milliy cholg'u sozi sifatida qaraladigan tarelkalarni katta ashula paytida ishlatishning bir necha sababi bor. Avvalo, u ijrochining o'ziga ishongan holda tomoshabinlar oldida turishiga yordam beradi. Bundan tashqari, tarelkalarining eng asosiy vazifasi – xonanda ovozi kerakli tomonga (birinchi navbatda o'zi eshitadigan darajada), ya'ni tomoshabinlar va hamnafasi tomonga yo'naltirishdir. Shu bilan bir qatorda ijro jarayonida, shuningdek, hamnafas (birgalikdagi) ijro davrida bir xil tempga rioya qilish uchun "dirijerlik tayoqchasi" vazifasini ham bajaradi.

Ma'lumki, muqaddam Xorazmda ayollar tomonidan (xalfalar) juda keng qo'llanilgan garmonlar o'rnini keyingi

paytda akkordeon cholg'usi to'liq egallab bo'ldi. Torli cholg'ularga bag'ishlangan bobning kamonli cholg'ular haqidagi bo'limida qadimiy cholg'u – qo'biz, shuningdek, g'ijjak va o'sha davrda mahalliy sozandalar keng foydalangan skripka cholg'usi to'g'risidagi ma'lumotlar keng duch kelamiz. Navbatdagi bo'lim tirnama cholg'ular ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, unda do'mbira to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi.

Respublikamizning janubiy viloyatlari – Qashqadaryo va Surxondaryoda hozirgacha oddiy xalqning eng sevimli milliy cholg'usi, baxshilarning doimiy hamrohi bo'lib kelayotgan o'zbek do'mbirasi (bizning nazarimizda) o'sha davrda ham shu va boshqa hududlarda juda keng tarqalgan. Qayroq – eng qadimiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Chunki bu cholg'u tabiatning o'zida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholg'ularning insonlar hayotidagi eng birinchi "sun'iy cholg'u"lari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi ne'matlarni pishirmasdan, qanday bo'lsa shunday iste'mol qilganligi va o'z navbatida qurol sifatida ham qo'l ostidagi jismlardan foydalanganligini bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida dunyoga kelgan qayroq toshlar haligacha cholg'u ijrochiligida foydalanib kelinayotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliqli toshdan iborat bo'ladi va har ikki qo'lda ikkitadan ushlab ijro etiladi.

1930-yilda V.Belyayev tomonidan yaratilgan "O'zbekiston musiqa cholg'ulari" kitobida keltirilgan. Musiqa madaniyati rivojida hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan qo'biz cholg'usi – kamonli cholg'ularning eng qadimiysi yoki qadimiylaridan biri hisoblanadi. "Qo'bizsimon cholg'ular xitoyliklarda ("xu kin"), mo'g'ullarda ("xur") uchraydi. Qo'bizning kashf etilishi ba'zi manbalarda afsonaviy Qo'rqut nomi bilan bog'lanadi. Kim tomonidan kashf etilishidan qat'iy nazar g'arb tadqiqotchilari skripka va unga o'xshash kamonli cholg'ularning ibtidosini sharqdan izlash kerakligini va bu cholg'u qo'biz bo'lishi haqiqatga yaqinligini e'tirof etishgan".

O'zbek milliy musiqa cholg'ulari ustalari, ya'ni sozgarlar doimo turli tajribalarga qo'l urib cholg'ularni mukammallashtirish, ijro imkoniyatini yanada kengaytirish, sadosini yaxshilash, ko'rinishini takomillashtirish, turli bezaklar bilan bezashga harakat qilib kelganlar. Shu bilan bir qatorda ba'zi sozgarlar ma'lum muddat iste'molda bo'lib keyinchalik unutilgan cholg'ularni qayta tiklash va ularga yangidan hayot bag'ishlash yo'lidan ham borib, ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilgan. Ana shunday musiqa cholg'ulariga qayta hayot bag'ishlab, musiqiy hayotimizga kirib kelishi va o'z o'rnini topishida mehnat qilib kelayotgan andijonlik usta Abdumalik Madraimovning olib borgan tajribalari va erishgan natijalari haqida keltiramiz. Uzoq izlanishlar, nodir meros sifatida bizgacha yetib kelgan qo'lyozmalar hamda ular asosida chop etilgan kitoblarni tahlil etish, ushbu manbalardagi miniatyuralarda tasvirlangan mumtoz o'zbek cholg'ularining shakl-shamoyillarini o'rganish natijasida Temuriylar davriga mansub mumtoz o'zbek cholg'u sozlarining dastlabki 6 ta namunasi tiklandi. Bu mumtoz cholg'ularga "G'ijjaki Boburiy", "Qo'shtor", "Xushnavo", "Dilrabo", "Dilnavo" va "Meros" deb nom qo'yilganligi fikrimizning yorqin isbotidir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy sanatimizning barcha turlarini har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy musiqa madaniyatida o'ziga xos o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan milliy cholg'ularning saqlab qolish hamda kelajak

avlodlarga yetkazish muhim ilmiy muammo sifatida o'z dolzarbligini namoyon etmoqda. Shunday ekan, mazkur yunalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, asarlar, boy tajribalar, tahlillarni o'rganish ilmiy ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi. Muammoning yechimi sifatida quyidagi nazariy qarashlarimizni havola etamiz:

- o'zbek milliy musiqa madaniyatida milliy cholg'ularimizning o'rni va ahamiyatini yo'qotmaslik uchun maktablarda musiqa fani tarkibida musiqa sozlar bo'limini tashkil qilib, ularga shu sozlarni ko'rsatib, qiziqish va mehr uyg'otish;

- televideniye va OAVlarda milliy cholg'ularimiz tarixi va bugungi kundagi roliga bag'ishlangan, ko'rsatuv, maqola, ruknlarni tashkil etish;

- musiqa san'at maktablari va oliy ta'lim muassasalarida, milliy cholg'ularimizning har biri uchun alohida musiqiy to'garaklar tashkil etish, orqali biz musiqa madaniyatimizda, nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo musiqa madaniyatida o'rni va ahamiyatini saqlab qolgan bo'lamiz.

Hozirgi davr jahon musiqa madaniyatida asrlar davomida sayqallanib kelgan ijro an'analari va musiqa cholg'ularining tarixiy ahamiyatini ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy tadqiq etish ishlari jadal olib borilmoqda. XX-XXI asrlar oralig'ida turli xalqlar milliy madaniyatining yangi g'oyalar bilan boyitilishi, ijrochilik va musiqa cholg'ulari taraqqiyotining chuqur idrok etilishi, san'at sohasidagi muammolarning yuqori saviyada yechilishiga imkon yaratadi. Shu bois, milliy merosimiz bo'lgan musiqa cholg'ularini tadqiq qilish O'zbekiston, shu jumladan, Markaziy Osiyo badiiy madaniyati tarixi uchun muhim ahamiyat kasb etib, ko'plab madaniy-tarixiy muammolarga oydinlik kiritadi. Dunyo san'atshunos olimlarida O'rta asr allomalarning ilmiy merosiga va Markaziy Osiyo musiqa cholg'ulariga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Musiqa cholg'ulari muayyan tarixiy davr musiqa madaniyatini yoritishda ishonchli dalil bo'lib, O'rta asr allomalari nazariy masalalarni tushuntirishda aynan musiqa cholg'ulari pardalariga murojaat qilishlari bejiz emas. Zero, cholg'ular tovush qatorida ro'y bergan o'zgarishlar (pentatonika, diatonika, o'n yetti tovushqator, temperasiya qilingan o'n ikki tovushqator) inson musiqiy tafakkurining in'ikosi, amaliy izlanishlar natijasi bo'lgan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda cholg'ularning shakli, tashqi tuzilishi va funksional vazifalari kabi masalalar o'z aksini topgan. Biroq musiqa cholg'ularining genezisi va rivojlanish jarayonlari maxsus tadqiqot darajasida o'rganilmagan. Shu jihatdan milliy merosimiz bo'lgan musiqa cholg'ularimizning ijtimoiy

ahamiyati, ifodaviy imkoniyatlari, ijro an'analari va uslublarini tadqiq qilish zaruriyatini izohlaydi. Mustaqillik yillarida milliy cholg'ularimiz va ijrochilik sohasiga e'tibor kuchaydi. Keng miqyosda o'tkazilib kelinayotgan xalqaro festival va ko'rik-tanlovlarda, xalqaro ilmiy anjumanlarda milliy cholg'ularimiz va ijro an'analarimizni targ'ib qilinishi O'zbekiston Respublikasining madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbek xalqining milliy musiqiy merosi va jahon musiqa madaniyati durdonalari negizida musiqa san'atini rivojlantirish, musiqiy ta'lim tizimini sifat jihatdan yanada ko'tarish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada musiqa cholg'ulari va ijro an'analarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda texnologiya va innovasion nuqtai nazaridan tadqiq qilish, erishilgan natijalarni ta'lim tizimiga joriy qilish bugungi kun talabi bo'lib turibdi.

Hukumatimiz ham milliy cholg'ularimiz va umuman san'atimiz va madaniyatimizni o'rni va ahamiyatini saqlab qolish uni keng afkor ommaga targ'ib qilish borasida qator farmon va qarorlar qabul qilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 avgustdagi "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son Qarorlarida boy milliy musiqa merosimizni chuqur o'rganish, maqom san'atini ilmiy va amaliy tadqiq qilish; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktobrdagi "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish" 222-son Davlat dasturida milliy cholg'ularimizni asrab-avaylash, ularni tadqiq qilish va davr talabiga mos takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg'ularimizning musiqiy madaniyatimizning o'rni va ahamiyatini yoritishda uzoq o'tmish tarix va bugungi zamon qarashlarini siz bilan o'rtoqlashdik. Milliy cholg'ularimiz musiqiy madaniyatimiz dunyosining ajralmas qismi bo'lib, xalqimizning unga bo'lgan ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo'lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o'zining azaliy musiqiy imkoniyatlaridan foydalanib, xalqimizga xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimizda milliy cholg'ularimizning o'rni va ahamiyatini biz to'laqonli anglab, asrab avaylab uni rivojlantira olsak kelajak avlodga ulkan musiqiy meros qoldirgan bo'lamiz.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.// Xalq so'zi. 2017 yil 9 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 avgustdagi madaniyat va san'at faollari bilan uchrashuvidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 8 avgust soni.
4. Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. - Toshkent: F.Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. -16-b.
5. Omonullayeva D., Ibrohimov O., Yormatov SH. Musiqa. - Toshkent: "O'qituvchi", 1995. - 80-b.
6. Salixov B. Matyoqubov B "O'zbekistonda damli va zarbli cholg'ular Ijrochiligi tarixi" Toshkent: "Musiqa" 2007 y.
7. Fitrat A. "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi". Toshkent: 1993 y.
8. Matyakubov M. "An'anaviy ijrochilik uslubiyati" Toshkent: 2015 y.



## SUVORIYXONLIK SAN'ATI

**Annotatsiya.** O'zbek xonandalik san'ati o'z ichiga ko'plab janrlarni qamrab olgan. Xorazm qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, ushbu maqolada Xorazm vohasiga mansub musiqiy janrlaridan biri suvoriyxonlik san'ati va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, san'atning ushbu turiga qaratilayotgan yuksak e'tibor namunalari o'z ifodasini topgan.

**Kalit so'zlar:** suvoriy, xonanda, lad, so'z, usul.

Umida КУРБАНОВА,

старший преподаватель кафедры "Фольклор и этнография" ГИИКУз

## ИСКУССТВО СУВАРИЙХАНЛЫК

**Аннотация.** Узбекское певческое искусство охватывает многие жанры. Хорезмские песни состоят из разных жанров, и в данной статье представлена ценная информация об искусстве суварийханлык его особенностях, одном из музыкальных жанров Хорезмского оазиса данный. А также, приведены примеры высокого внимания к данному виду искусства.

**Ключевые слова:** суварий, певец, лад, слово, метод.

Umida KURBANOVA,

senior teacher of the chair "Folklore and Ethnography" UzSIAC

## THE ART OF SUVORIYKHAN

**Summary.** The art of Uzbek singing covers many genres. The songs of Khorezm are composed of colorful genres, this article provides valuable information about the art of Suvorikhan, one of the musical genres of the Khorezm oasis, and its peculiarities. And also, examples of high attention to this type of art are shown.

**Key words:** suvorik, singer, lad, word, method

Ilohiy aytimlar bo'lgan suvoriylar ajdodlardan meros qolgan betakror ma'naviy xazina. So'z, soz va ovoz mushtarakligidan taralgan suvoriylar murakkab she'riy-musiqiy majmuadir. Suvoriyxonlik san'ati O'zbekistonning Xorazm vohasiga mansub musiqiy janrlaridan biridir.

Xorazm ahli shunday shinavanda xalqki, yoqimli so'z, soz va ovozga duch kelsa, kunni tunga, tunni kunga ulab eshitadi, ma'naviy ozuqa olishdan aslo zerikmaydi. Bu san'atning qanchalik qadimiy ekanligini xonandalik ya'ni, ovoz san'atining vujudga kelishi bilan bog'lash mumkin. Bu san'atni suvoriyxonlik deyilishiga sabab eshituvchilarning xos davralarida ijro qilingani uchundir. Bu asarlarni ilgari vaqtlarda Suvora deb ham ataganlar.

Xorazm suvoriylari butun bir ovoz san'ati dunyosida keng tarqalgan aytimlar toifasiga mansubdir. Uning shakli nihoyatda xilma-xil. Bizning merosimizda ma'no-mohiyat tarafidan suvorilarga monand yo'llar sifatida Farg'ona – Toshkent vohalarida tomir otgan "Katta ashula"larni misol keltirishimiz mumkin. Ko'rinish jihatidan Xorazm suvoriylari katta ashulalardan sezilarli farq qiladi. "Suvoriylarni Hindiston va Pokiston musulmonlari orasida hanuzgacha e'zozlab kelinayotgan "Qavvoliy"larga o'xshatish mumkin. Ulamolar fikriga ko'ra, qavvoliy larni Shahobuddin Suhravardiy sulukiga mansub go'yandalar bir vaqtlar O'rta Osiyodan Hindistonga ko'chirgan. Qavvoliy bilan suvoriylar o'rtasida yana bir bog'liqlik shuki, o'tmishda arabcha "qavvol", "go'yanda" tushunchalari aytuvchi, yoki so'z aytuvchisi ma'nolarida ishlatilgan. [1.B.5].

O'zimizda ham suvoriyxonlar hanuzgacha go'yanda deb yuritiladi.

Ko'pchilik ustozlar suvoriy so'zini otliq – chavandoz ma'nolari bilan bog'liq ekanligini ham aytishadi.

Qadimda, Xorazmda otchilik juda rivoj olgan. Xorazm otlari dunyoning mashhur, zotdor otlari qatorida sanalgan. Bunga misol Xorazmda Xazorasp degan yurtning borligi, uning qadimgi turkiy qabilalardan Xazor va Os qabilalari birlashuvidan tashkil topganligi va ular otliq jangchi urug'lar ekanligi to'g'risida rivoyatlar bor. Shuningdek, Xazorasp so'zi forsiyda ming otliq degan ma'noni bildirishini ham misol qilib ko'rsatish mumkin.

Tabiat insonga otni yordamchi, do'st qilib va ulov vositasi sifatida tavsiya etganligi ulug' bir ne'matdir. Shuning uchun ham, musiqa san'atida ot bilan bog'liq rivoyatlar va asarlar juda ko'p uchraydi. Chunki, qadimda arablarda ham rakb-otliq va rakba'ni chavandozlar ashula yo'llari bo'lgan. Shuningdek, doston qo'shiq va kuylari ichida dutor, do'mbira va boshqa cholg'u sozlari usullarining ot yurishiga monand o'ng qo'l zarblarini otning turli qadam tashlashiga o'xshatib yaratilgan asarlardan ilg'orlar va Sho ko'chdilar turkumi, do'mbira kuylaridan Ot haydash, qozoqlarda Qora jo'rg'a, Ozarbayjonlarda Ot usti, Poshsho ko'chdi, Ovropada Galop-Nayezdnik va shularga o'xshash nomlar bilan atalishi fikrimizning dalilidir. Shuningdek, Alpomishning Boychibori, Go'ro'g'lining G'iroti, Jaloliddin Manguberdining Qora dali kabi otlari ularning hayotida katta ahamiyat kasb etganligi hech kimga sir emas. Shu sababli suvoriylarning qadimda insonning eng yaqin yo'ldoshi, ulovi ot va chavandozlar nomi bilan bog'lab, suvoriy deb ramziy ma'noda atalgan bo'lsa ajab emas.

Darhaqiqat, suvoriylar o'zining, ikki xonandaning aytishuvi yoki bellashuvi, diyalizmalari bilan ham mashhur bo'lgan. Ma'lumki, qadimda Xorazmda maqomlarning yo'llarini o'zgartirish yoki buzish

qattiq jazolangan, bu musiqalar orqali xonandalarning bellashuvlarini uyushtirish ta'qiqlangan. Suvoriy janri esa o'zining badihago'ylikka ya'ni improvizatsiyaga moyilligi bilan ham diyalishmalar uyushtirish uchun qulay bo'lgan. Ayniqsa, keng davralar, katta to'y yoki sayl bayramlar o'tkaziladigan bo'lsa, bunda katta Qo'qon aravaning bir g'ildiragi o'qi bilan chiqarib olinib, yerga qazib ko'milgan va yuqorida qolgan g'ildiraging ustiga gilam va ko'rpachalar to'shalib, xonandalar unga chiqib o'tirishgan. Bu yog'idan yigitlar g'ildirakni hofiz ovozi barcha xaloyiqqa teng yetib borishi uchun sekin, bir maromda aylantirib turishgan. Bunday "aylanma sahna" davraning ikki burchagiga o'rnatilib, qaysi hofiz ustun chiqsa davra g'olib tomonni o'rab olar, mag'lub esa davradan tashqarida qolib ketar ekan. Yoki keng davraga yaxshi eshitilishi uchun katta darvoza eshigini "taxtiravon" sifatida yasab ustiga hofizlarni chiqarib tagidan yigitlar davra aylantirib ko'tarib yurishgan. Diyalishma—aytishuv musobaqalarining eng yuksak namunalari ko'pchilik to'y va sayillardan tashqari Xivadagi Qalandarxona, Boboris (Bobo o'ris) buva, Go'zli buva, Sulton Uvays buva kabi muqaddas qadamjolarida yuqoridagi tarzda o'tkazilgan. [1.B.7].

Bu diyalishmalar nafaqat xalq orasida balki xonlar davrasida ham ijro qilingan. Bunda xonandalar ovozini barcha sifatleri va muxammaslarning ko'p bilishligini namoyon etgan. Qaysi bir xonanda charchasa, ovozi yuqori pardalarga yetmay qolsa, biladigan muxammaslari tugasa yoki esidan chiqsa yutkazgan hisoblanib, beayov jazolangan. G'olib xonanda esa yuksak mukofotlangan.

Bu janrda asosiy maqsad so'z aytmoq bo'lganligi uchun muxammaslar aniq bir shoir ijodiga mansub bo'lmog'i lozim ya'ni, Bedilxonlik, Navoiyxonlik, Ogahiyxonlik va xokazo. Suvoriyxonlik san'ati xonandalari uchun keng ko'lamli ovoz, pastki pardalari to'liq, o'rta va yuqori registrarlari jarangdor, so'zga nisbatan hissiyotlilik asosiy xususiyatlaridan biridir.

Bu janr ijrochilari nafaqat ovozlarining sifatleri, balki mumtoz she'riyatning mazmunidan tortib, har bir jabhalarini chuqur bilishni taqozo etgan. Bundan tashqari ustozlarimizning aytishicha shogirdlar ma'lum bir kamolotga yetganlaridan so'ng "daslab maqom ijrosi bilan shug'ullanib yurib, ana undan keyin suvoriylarning ijrosiga o'tganlar". Bundan ko'rinib turibdiki, suvoriylarning ijrosi maqomlardan ham murakkabroqdir.

Ma'lumki, hozirgi kunda o'nta asosiy suvoriy mavjudligini qayd etish mumkin bo'lib, shulardan "Ona suvoriy" (Xorazm suvorasi ham deyiladi). "Yakarda suvoriy", "Xushparda suvoriy", "Kajang suvoriy", "Chapandozi suvoriy", "Qarichmoniy suvoriy" (Xojixon suvoriysi), "Komiliy suvoriy" (Komiljon suvoriysi ham deyiladi). "Go'jayi suvoriy", (Xiva chekkasidagi qadimiy qishloq nomi), "Ikromiy suvoriy", "Hurganjiy suvoriy" (Urganch shahriga atalgan). [2.B.7].

Suvoriylarning onasi bo'lmish bu asar asosan suvoriylar ichida eng yirigi bo'lib barcha suvoriylarning parda asoslari katta suvoriydan olingan. Shu sababli u katta yoki ona suvoriy deyiladi. Ustozlarning ta'kidlashicha suvoriylar Jomiy, Navoiy, Lutfiy, Amiriy, Fuzuliy, Ogahiy, Maxtumquli kabi buyuk shoirlarning g'azallari va forsiy muxammaslarida ijro etilgan.

Umuman, suvoriylar she'riy vaznlarning muxammas deb nomlanuvchi turida ijro qilinadi. Suvoriylarning musiqiy asosi, ya'ni, pardalari va doira usuli bir xil lekin musiqaning rivojlanishi turlicha shaklda ifodalanadi.

Cholg'u muqaddimadan keyin muxammasning birinchi beshligi ijro qilinadi. Muxammaslarning ikkinchi va uchinchi beshlik orasidagi cholg'u qismlari deyarli farq qilmaydi. Ammo to'rtinchi muxammasdan boshlab asar avjga intilganidan so'ng pardalar o'zgarishi ro'y beradi. Beshinchi muxammas avj pardalarida ijro qilinib, oltinchi muxammas furovard, ya'ni, tushirim, asarning yakunlovchi misralari aytilib, nihoyasiga yetadi.

Aytib o'tilganidek suvoriylarning doira usullari deyarli bir xil, ammo tez yoki vazmin suratda ijro etilishi go'yanda va davrani egallab o'tirgan shinavandalarning ehtiyojlariga bog'liq.

Suvoriylarning ijrosi juda murakkab, eshituvchi tomonidan buni sezish qiyin albatta. Lekin xonandalarning ta'kidlashicha, bu asarlarning ijrosi uchun xonandada barcha musiqiy iqtidor bo'lishi shart. Iqtidor tabiatan rivojlanuvchi omil hisoblanib, musiqi bilan shug'ullanuvchilar buni yaxshi bilishadi.

Aytishlaricha, suvoriylar dastlab, umuman doira usulisiz ijro etilgan, doira bilan ijro uslubini birinchi bo'lib, O'zbekiston xalq hofizi Hojixon Boltayev boshlab bergan ekan. Xorazmda suvoriylar daslab yakka dutorda ijro qilinib, keyinchalik Hojixon ustozning tor sozini o'ziga jo'rnavor qilganlaridan so'ng doira cholg'usi qo'shilgan. Ma'lumki, dutor so'zi musiqani jaranglatish bilan birga kuy ritmini, ya'ni, doira usulini ham zarblarida mujassamlashtirgan. Tor sozida usulni berish imkoniyati cheklanganligi sababli doira cholg'usiga muhtojlik sezilgan va shu yo'sinda ishlatilgan. "Chapandoz" atamasi suvoriylarda kuy yo'lga nisbat beriladi. Doira usuli jihatidan olib qaraydigan bo'lsak suvoriylarning doira usullari deyarli bir xil. Lekin kuy yo'li jihatidan boshqa-boshqadir. Barcha suvoriylar asarning tonikasidan boshlanadi, chapandozi suvoriy esa cholg'u muqaddimasidan tashqari ovoz yo'li to'rtinchi pardasidan, ya'ni, ikki yarim ton yuqoridan ya'ni domenanto intervalidan boshlanadi. Bu xolat suvoriylar qonuniyatlarini chetlab o'tishi sababli chapandozi suvoriy, deyilgan bo'lishi mumkin.

Chapandozi suvoriy – suvoriylar turkumida katta suvoriydan keyin turadi. Murakkabligi kengligi, jihatdan katta suvoriydan qolishmaydi. Lekin barcha suvoriylarning parda, ya'ni, musiqiy asoslari va doira usullari katta suvoriydan olinganligi tufayli Chapandozi suvoriy ikkinchi o'ringa tushib qolgan.

Xivalik mashhur dostonchi Bola baxshi ya'ni Qurbonnazar Abdullayev aytim janrlari to'g'risida shunday degan edilar: "Maqom soz etmoq, Suvoriy so'z aytmoq, Dostonchilik esa voqelikdir". Bu gaplarning ostida naqadar chuqur ma'no bor ekanligi bilinadi. Ma'lumki maqom muttasil qonun qoidalarga rioya qiluvchi musiqiy janrdir. Unda birinchi o'rinda aniq musiqiy parda va ritm, ya'ni, doira usuli asosiy negizlaridan biridir. Suvoriy esa o'zining badihago'ylikka, ya'ni, improvizatsiyaga moyilligi hamda barcha she'riy vaznlarni musiqaga bog'lab ijro qila olish xususiyati bilan mashhurdir. Dostonchilik san'ati esa asardagi barcha personaj, obrazlarni musiqi orqali ko'rsatib bera olishi bilan go'zaldir. [2.B.19].

Yak parda suvoriy — nomlanishining o'zi bir tinglovchini larzaga soladi. Bu yerda parda, ya'ni tovushqator ma'nosida bo'lib, bir xil pardalar majmuasidan tashkil topgan kuy yo'liga ega bo'lgan suvoriydir. Boshqa suvoriylar pardalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak asar yuqori pardalarga yaqinlashgan sari o'zgaradi boradi. Masalan, chapandozi suvoriy kuy yo'lini tahlil qiladigan bo'lsak: ma'lumki suvoralar asosan muxammaslarda aytiladi. Muxammasning birinchi beshligini daromad qismi deb oladigan bo'lsak, ikkinchi beshlik miyonhat deb yuritiladi, bu oktava yuqoridan boshlanib, tonikaga ya'ni boshlang'ich pardaga qaytadi. To'rtinchi beshlikdan pardalar minorga o'zgaradi. Beshinchi beshlik major pardalarida eng avj qismi ijro qilinib, oltinchi beshlik o'sha majorda va furovard qismi bilan yakunlanadi. Yak parda suvoriy esa faqat major ladida bo'lib, boshqa pardalarga o'tganida ham major ladida qolaveradi. Bu suvoriyni manbaalarda yozilishicha, Hojixon Boltayev yaratgan ekan., "Navosoz yurakdan o'lmas navo" kitobidagi O.Matyoqubov maqolasida shunday yoziladi: "Yak parda suvoriy" yoki so'ngi vaqtlarda ulug' san'atkordan meros qolgan "Qarichmoniy suvoriy" deb yuritiladi.

Darhaqiqat, Hojixon Boltayevning maqom ijrochiligi o'z originalligi bilan ajralib turadi. U "Ona suvora" (katta suvora), "Chapandozi suvora", "Yakparda suvora", "Kajhang suvora", "Qo'sh parda suvora" kabi turkumiy asarlar ijrosida va tartibida alohida uslub yaratishga muvassar bo'lgan. Shu bois, Xorazm mumtoz musiqasida Hojixon Boltayev maqom yo'llari, Suvora janri ijrochiligida so'nmas uslub yaratgan ustoz san'atkor sifatida e'tirof etiladi. Uning ijro uslubini Xorazm an'anaviy ijrochilik maktabining namoyandalari Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyshukurov, Ro'zmat Jumaniyozov, Quvondiq Iskandarov, Ikrom (Ozod) Ibrohimov, Xudoynazar Matnazarov, Rahmatjon Kurbanov, Farxod Davletov kabi yetuk hofizlar munosib davom ettirishga muvassar bo'ldilar.

Suvoriylar keng davralarda ijro qilinadigan bo'lsa, albatta uning ketidan savti suvoralar ham ijro qilinishi xonanda uchun majburiydir. Chunki qadimdan suvoriyxonlik san'atida bir yirik asarni nazira qilingan qismi bilan ijro qilinishi rasm bo'lgan. Savti suvoriylar "Shashmaqom"ning ikkinchi guruh sho'balariga o'xshab nazirago'ylik asosida yaralgan asarlar sirasiga kiradi. Ularning kuy yo'li nisbatan murakkab bo'lmasa-da, xonandadan maxsus tajriba va ko'nikmalarni talab etadi. Aytmoqchimizki maqomlar ijrosi bilan shug'ullanib yurgan xonandalar savti suvoriylar ijrosiga kelganda ularni ilk ijrolarini ko'p vaqt mobaynida tinglab yurib, asta-sekin o'rganib, ijro qilsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Suvoriylarning ijrosi uchun esa dastlab savti suvoriylarni o'rganib bo'lgach, ana undan keyin aytish mumkin. Aks holda ya'ni, to'satdan suvoriylar ijrosiga o'tib ketilsa, ijrochida bu janrni chuqur o'rganmaganligi tufayli yomon taassurot qoldirishi mumkin.

Bu janr tarkibidagi navbatdagi asar Kajhang suvoriydir. Dastlab Kajhang atamasining lug'aviy ma'nosini ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, "kaj" atamasi injiq ma'nosida keladi. Hang esa suvoriylarning avj qismlarida keladigan so'zsiz "o" yoki "oh yoray" deb ijro qilinadigan musiqiy matnidir. Bundan tashqari ushbu suvoriy hanglari injiq suvoriy deb ham ataladi. Haqiqatdan ham bu suvoriyning hanglari xonandalar ijrosi uchun noqulaydir. Birinchidan, bu suvoriyning avj qismini ijro qilish uchun xonandada yetarlicha ovoz ishlatish malakasi bo'lmog'i lozim. Ikkinchidan, bu yuqori pardalarda ijro qilish eshitalishidan ko'ra muraqqabroqdir. Chunki ovozdada yuqori pardalarda bir marta avj olish nisbatan qiyinchilik tug'dirmaydi, lekin avjda ovozni o'ynatish, so'z talaffuzini yamlamay (chaynalmay to'liq aytish), bir xatni ikkinchi xatga nafas olishsiz amalga oshirish ovoz uchun noqulayliklar keltirib chiqaradi. Uchinchidan, bu yuqori pardalarni chiranishsiz kuylash ko'zda tutiladi. Bu amallar xonanda tomonidan to'liq bajarilmasa bu suvoriy maromiga yetmagan deb hisoblanadi. [3.B.20.]



Hojixon Boltayev

Nirmuhammad Boltayev





Komiljon Otaniyozov

Bu asarning hush pardaligi uning ijrochi uchun qulayligidadir. Bundan tashqari bu suvoriylar ovoz imkoniyatlari cheklangan ya'ni o'rtacharoq ovozli xonandalar tomonidan yaratilgan bo'lishi mumkin. Qajhang suvoriy ihlosmandlariga nisbatan shu pardalarda tuzilgan osonroq suvoriy shakli bo'lganligi ham tahminlarimizdan biridir. Suvoriylarning xususiyatlaridan yana biri xonanda har bir so'zni va har bir harfni jaranglatishi kerak, ya'ni, xonanda halqumdan taralayotgan har bir tovush jaranglab sadolanishi shart. Basharti bu san'atning asl maqsadi ham so'z aytmoq bo'lganligi uchun she'r talaffuzi birinchi o'rinda turadi.

Ma'lumki, beshta asosiy suvoriylardan tashqari mashhur xonandalar tomonidan yaratilgan suvoriylar ham bor. Shulardan biri O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov yaratgan "Oltinchi suvoriy"dir.

Bu asar yaratilish jarayonida mavjud suvoriylar uslubidan andoza olingan bo'lib, ko'proq xalq yo'lidagi ashulalarga o'xshab ketadi. Boshlanish qismi major ya'ni, ochiq tovushlardagi parda tuzukni eslatadigan cholg'u muqaddima bilan boshlanadi. Suvoriy janrlarida asosan musiqiy cholg'u qismi pardalar majmuasi bir xil bo'lsada musiqiy qismi boshqa musiqa chalinishi, ya'ni, musiqiy til bilan aytganda konon sifatida emas balki rokoxord tuzilishli shakli bilan aytim yo'lidan farq qiladi. Lekin oltinchi suvoriy bu qoidalardan biroz xolidir. Ya'ni boshlanish

cholg'u muqaddimasi aytim yo'lining boshlanish qismi bilan bir xil. Kadensiya ya'ni lad o'zgaradigan to'rtinchi beshlik yoki muxammasgacha aytim yo'li o'zgarsa—da kuy yo'li bir xil takrorlanadi. Pardalar almashganda esa cholg'u qismlari boshqa suvoriylardagi cholg'u yo'lini takrorlaydi avj va furovard qismlari bilan yakun topadi. Bizningcha bu asarni O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov aynan Navoiy g'azaliga Ogahiy muhammasi bilan:

*Falakkim yaxshilar bazmida,  
Qadrimni baland etmas.*

deb boshlanadigan muxammas uchun yaratgan bo'lishlari mumkin. Chunki bu suvoriyga hali hech qaysi suvoriyxon ustoz, boshqa muhammasni qo'yib, ijro etishga jur'at qilmagan. Bizningcha, bu suvoriyga boshqa muxammas qo'yilsa, o'z go'zalligini va so'zga nisbatan musiqiy mutanosibligini yo'qotadi.

Suvoriyxonlik san'ati aslida so'z aytish san'ati bo'lganligi uchun undagi she'riy satrlarning o'qilishi o'ziga xosdir.

Bundan tashqari ustoz xonanda Matnazar Xudoynazarovning "Kalta suvoriy" si ham ma'lum bo'lib, u Devoniyning:

*Qong'a botsin jismim ishq o'tiga, so'zon o'lmasa,*

deb boshlanadigan muxammasi bilan ijro qilingan. Kalta deyilishiga sabab musiqa qolipi muxammas qolipidan ortiqroqdir. Ya'ni, musiqadan farqli ravishda she'r satrlari kaltar oq bo'ladi. U boshqa suvoriylardan farqli minor ladida tuzilgan. [5.B.23].

Maqomlarda savtlar ikkinchi guruh sho'balariga kiritilgan va birinchi guruh sho'balariga nazira sifatida bastalangan.

Xulosa qilib aytganda, suvoriyxonlik san'atida ham maqomlardagi kabi nazira sifatida yaratilgan deyishimiz mumkin. Chunki savti suvoralarning aksariyati ona suvoriydan olingan bo'lib, pardalari ham musiqiy tuzilish jihatidan ham suvoriylarning tezroq va jozibadorroq turini ko'rsatadi. Savti suvoriylar asosan g'azallarga bastalanadi. Shunga qaramay ba'zan muhammas va musaddaslarga ham aytiladi.

Ushbu san'at so'z orqali ma'lum bir e'tiqodni, g'oya, mafkurani tinglovchilarga soz va xushnafas ovoz vositasida yetkazib berishdan iboratdir. Shu bilan birga g'azal va muxammaslarni ham o'ziga xos tarzda musiqaga bog'lashni taqozo etadi.

Suvoriyxonlik san'ati eng qiyin janrlardan biri bo'lishi bilan birga uni tadqiq etish murakkabroqdir. Bu jabhaning hali ochilmagan qirralari juda ko'p. Ushbu yo'nalish aynan ijrochi tomonidan tadqiq etilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohimov I. Sahih suvoriylar. -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004. -151b.
2. Xudoynazarov M. Hojixon Boltayev. -Toshkent: Musiqi nashriyoti, 2014. - 247b.
3. Kurbanov R. San'atning sirli olami. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyoti, 2011. -258b.
4. Matyakubov O. Maqomot. -Toshkent: Musiqi nashriyoti, 2004. -399b.
5. Matyakubov O., Boltayev R., Aminov X. O'zbek notasi. -Toshkent: Musiqi nashriyoti, 2009. -345b.
6. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. -Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2012. -318b.

## RAHIMA MAZOHIDOVA IJODIGA CHIZGILAR

**Annotatsiya.** *Rahima Mazohidova (1930-2009) Farg'ona vodiysida ayollarning musiqiy ijodiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan san'atkor edi. Uning samarali ijodi va beqiyos ijrochilik qobiliyati tufayli Qo'qon yallachilik maktabi turli qo'shiq janrlari bilan sezilarli darajada boyitildi. Shuningdek, aya samarali bastakor ham edi. U xalq orasida ma'lum qo'shiqlar uchun yangi so'zlar bog'ladi, ularni yangi tovush ranglari va ritmik usullar bilan boyitdi. Mazoxidovaning o'zbek xalq musiqasi ijodiyotini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari respublika hukumati tomonidan munosib baholandi. U "O'zbekiston xalq artisti" degan yuksak unvon va "Menhat Shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan. 2007 yilda ushbu satrlar muallifi taniqli san'atkor Mazohidova bilan uchrashish va suhbatlashish hamda u ijro etgan ko'plab yallalarni tinglash va yozib olishga muvaffaq bo'ldik.*

**Kalit so'zlar:** *kuy, ohang, an'ana, raqs, usul, yalla, ashula, musiqali drama.*

Насиба ТУРГУНОВА,  
Фалсафа доктори (PhD) ЎДСМИ доценти в.б

## ШТРИХИ К ТВОРЧЕСКОМУ ПОРТРЕТУ РАХИМЫ МАЗАХИДОВОЙ

**Аннотация.** *Рахима Мазахидова (1930-2009) внесла огромный вклад в развитие женского музыкального творчества Ферганской долины. Благодаря её плодотворному творчеству и несравненному исполнительскому таланту Кокандская школа яллачи значительно обогатилась разнообразными песенными жанрами. Также, Рахима-ая была плодотворным бастакором. Она к известным песням подобрала новые слова, обогатила их новыми звуко-красками и ритмо-усулями. Большие заслуги Рахимы Мазахидовой в развитии узбекского народного музыкального творчества были достойно оценены правительством республики. Она была удостоена высокого звания "Народной артистки Узбекистана" и ордена "Мехнат шухрати". В 2007 году автору этих строк удалось встретиться и побеседовать с прославленной певицей Рахимой Мазахидовой, прослушать и записать многие ялла в ее исполнении.*

**Ключевые слова:** *мелодия, интонация, традиция, танец, метод, ялла, ашула, музыкальная драма.*

## STROKES FOR THE CREATIVE PORTRAIT OF RAKHIMA MAZAKHIDOVA

**Summary.** *Rakhima Mazakhidova (1930-2009) made an enormous contribution to the development of female musical creativity in the Fergana valley. Thanks to her fruitful creativity and incomparable performing talent, the Kokand yallachi school was significantly enriched with a variety of song genres. Also, Rahima aya was a fruitful bastakor. She picked up new words for famous songs, enriched them with new sound colors and rhythmic usuls. The great merits of Rakhima Mazakhidova in the development of Uzbek folk musical creativity were adequately appreciated by the government of the republic. She was awarded the high title of "People's Artist of Uzbekistan" and the order of "Mekhnat Shuhrati". In 2007, the author of these lines managed to meet and talk with the famous singer Rakhima Mazakhidova, listen and record many yalla performed by her.*

**Key words:** *melody, intonation, tradition, dance, method, yalla, ashula, musical drama.*

Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida ayollar san'ati qadimdan mavjud bo'lib, ular yengil tUSDagi qo'shiq, ashula, lapar va yallalarni kuylashni juda hush ko'rganlar. Ayollar jamlanib do'ppi tikish, kashta tikish va shu kabi hunarlar bilan mashg'ul bo'lgan paytlarida albatta dutor chertib, turli aytimlarni kuylashgan, yalla aytib raqsga tushganlar va shu tarzda o'z tashvishlaridan biroz bo'lsa-da yiroqlashishga intilganlar. Qo'qonda ayollar orasida o'zining shirali ovozi, so'zga ustaligi hamda ijodkorligi bilan elga mashhur bo'lgan yallachilar ko'plab topiladi. Ular onalari va buvilaridan eshitib o'rganganlarini hamda xalq orasida mashhur bo'lgan qo'shiq, ashula, yalla va laparlarni jamlab ularni asl holatini saqlab qolgan tarzda qayta jilo berib, yanada sayqallashtirib dutor va doyra sozlari jo'rligida ijro etadilar. Ushbu ayollar asta-sekinlik bilan ayollar davrasida yalla aytib, raqsga tushishni kasb darajasiga ko'tarib boradilar. Natijada ustoz-shogird an'anasi qaror topadi. Shogird ustoz bilan birgalikda bir necha yillar davomida to'y-bazmlarda,



xalq sayillarida ishtirok etadi. Ustoz shogirdining bu boradagi izlanuvchanligidan mamnun bo'lgach uning o'zi alohida faoliyat olib borishiga ruxsat beradi. Farg'ona viloyatining ko'hna Qo'qon shahrida yashab ijod etgan Hurmatxon, Yodgorxon, Karomatxon, Bidonxon va Mukarramxon (taxallusi Shatr)lar yalla san'atini kasb darajasiga yuksaltirib bu zaminda ustoz-shogird an'anasini rivojlanishiga o'z ulushlarini qo'shgan yallachi ayollardan bo'lganlar. Ularning kenja shogirdlari Rahima Mazohidova ham Qo'qonda ayollar san'atini rivojiga ulkan hissasini qo'shdi va ijodi davomida o'ziga xos bo'lgan ijro maktabini yarata oldi. Albatta, Ma'furaxon ayaning dutor chertib "Tanavor", "Munojot" kabi ashulalarini maromiga yetkazib kuylashi farzandi Rahimaxoning kelajakda yetuk san'atkor bo'lib kamol topishida zamin yaratadi.

Rahima Mazohidova 9 yoshdan boshlab Hadyaxon, Bidonxon va Mukarramxon yallachilarga shogird tushib ular bilan birgalikda xalq xizmatida bo'ladi. Lekin tog'alari va amakilariga uning san'atkor bo'lishi yoqmaydi va uni bu yo'ldan qaytishini buyuradilar. Biroq Rahimaxon aya o'z so'zidan qaytmay ulardan yashirincha tarzda ustozlari bilan birgalikda to'y va bazmlarda ishtirok etib yuradi. Nazarimizda, Ma'furaxon aya san'atga oshufta jajji qizalog'ini yashirin holda mudom qo'llab-quvvatlab turganlar. Albatta bu o'z samarasini beradi va Rahima Mazohidova el ardoqlagan xonanda bo'lishga muyassar bo'ladi.

O'rta maktabni tamomlagach Rahimaxon aya shohi atlas fabrikasida to'quvchi bo'lib ishlay boshlaydilar. Ishlash bilan birgalikda shu yerda tashkil etilgan havaskorlar to'garagida ham ishtirok etadilar. To'garak rahbari Isroil akadan ashula ijrochiligida ovoz ishlatishning sir-asrorlarini o'rganadilar va bir qator xalq ashulalari hamda bastakorlar asarlaridan ham kuylaydilar. U "Azim daryo", "Qo'qon ushshog'i", "Guluzorim", "Feruz", "Samarqand Ushshog'i" kabi keng xajmli ashulalarni ham maromiga yetkazib ijro etadi. U paytlarda teatrdagi faoliyat olib boradigan ayollar juda sanoqli edi. Uning iste'dodini ko'rgan va bilgan teatr rahbarlari xonanda sifatida 1957 yili Qo'qon teatriga ishga qabul qiladilar. Bu haqida aya quyidagicha xotirlaydi – "avval to'garakga qatnashib, ashulalarim bilan viloyatda 1-o'rinlarni olgandim. Lekin ishimdan ketmadim, atlasimni to'qidim. Shunda direktorimiz, "atlasni hamma to'qiydi, lekin ashulani hamma aytolmaydi. Bu yoqqa yur" – deb, teatrga olib keldilar. Men xo'jayinimning roziligini olishim lozim, desam, xo'jayinga ham shu yerdan ish topaman, dedilar" (1. – B.47).

Teatrdagi xonanda sifatida o'z faoliyatini boshlagan Rahimaxon aya sekin-asta rollar ijro etishni ham o'rgana boshlaydi. Natijada teatrdagi faoliyati davomida o'ziga xos bo'lgan qator rollarni yaratadi. Xususan, «Boy ila xizmatchi»da xola, «Muqimiy»da Risolat chevar, «Kuyovning omonati»da To'ti, «Qon sachragan tol»da Norxonning onasi, «Do'st nidosi»da Ra'no, «Adashgan sohibjamol»da Charos, «Jon qizlar»da Oysuluv, «Arshin mol olon»da Zebo va «Xolisxon»da Tojiniso kabi rollarni maromiga yetkazib o'ynaydi. Teatr bilan birgalikda Rahima Mazohidova «O'tkan kunlar», «Zulmatni tark etib» hamda "Ota vasiyati" kinofilmlarida ham kichik-kichik ko'rinishlarni ijro etadi. Bunda u o'sha davrga xos ayollar davrasida mashhur bo'lgan ashula va yallalardan kuylab kino filmlarga yanada zavq bag'ishlaydi. Jumladan,

barchamizga ma'lum va mashhur «O'tkan kunlar» kinofilmida ayaning ijrosida yangragan «Omon yor» yallasi ushbu filmga o'zgacha ruh bag'ishlaydi.

Ustozlari Hadyaxon, Bidonxon, Mukarramxon va Xurmatxon ayalardan «Aka duldultoy», «Ayrildim», «Qora sochim», «Olicha», «Kichkina bo'stonchaga», «Omon yor-1,2,3,4», «Qo'qon yor-yori», «Ko'ngildagi yorni toping», «Adolatxon», «Kelin salom» va boshqa ko'plab yalla va ashulalarni o'rganadi. Rahima Mazohidova ustozlari an'anasini davom ettirib ulardan o'rgangan yalla va laparlarning kuy-ohanglaridan andoza olgan tarzda bir qator yalla va ashulalar yaratib ijro dasturlarini yanada boyitib boradi. U xalq aytimlarini qayta tiklash bilan birgalikda shoirlar she'rlariga ham murojat etib, ularni kuyga solib, ayollar yallachilik san'atini rivojlanishiga ulkan hissasini qo'shadi hamda bu borada benazir bo'lgan o'ziga xos ijro maktabini yaratadi. Ayaning kuy-ohanglari yalla shakliga mos tarzda yaratilgan ijod mahsullaridan biri «Qo'qonga bordim ishladim» aytimi Qo'qonlik shoira Komunaxon Olimova qalamiga mansub edi.

*Qo'qonga bordim ishladim,  
Eski cho'ponni tashladim,  
Non deb novvotni tishladim,  
Ko'ring Qo'qon xo'p joy ekan.*

*Qo'qon ko'chasi tor ekan,  
Sayroqi qush darkor ekan,  
Ilmu-hunarga boy ekan,  
Ko'ring Qo'qon xo'p joy ekan.*

Hozirgi kunga qadar bu yalla Qo'qonlik yallachilar ijro dasturlaridan muntazam o'rin olib kelmoqda.

Rahima Mazohidovaning betakror san'atini keng miqyosda mashhur qilgan ijod namunalaridan biri – bu "Olicha" yallasidir. Jumladan, bu yalla xon aya tomonidan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida ilk bor ijro etilganida barcha tomoshabin tinglovchilar o'rinlaridan turib olqishlagan edilar. Qolaversa, bugungi kunda milliy estrada jabhasida ham "Olicha" yallasi Gulshanam Mamazoitova ijrosida o'zgacha tarovat kasb etishining guvohi bo'lamiz.

Quyidagi "Ayrildim" yallasi (2013 yil Qo'qon shahrida istiqomat qiluvchi yallachi Xursanoy Qodirova ijrosida soqiyinoma usulida yozib olingan) ayaning sevimli aytimlaridan edi.

#### AYRILDIM



Bu yallani ustozlari dan o'rgangan Xursanoy Qodirovaning aytishicha, "Ayrildim" yallasi Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida yuzaga kelgan rivojlangan asoslanadi. Unga ko'ra yigit va qiz bir-birini juda qattiq



sevadilar. Ularning turmush qurishlariga ota-onalari ham rozi bo'ladilar va katta tantana bilan to'ylari bo'lib o'tadi. Shundan so'ng oradan bir necha yillar o'tsa hamki, ular farzand ko'rmaydilar. Ular farzandsiz ekanliklaridan nolimay, turmushlari tinch-totuv ekanligiga shukur qilib yashaydilar. Biroq yigitning opalari ukasining befarzand ekanligidan tashvishlanib, ularni ajralishga majbur etadilar. Yigit noiloj ajrashgach opalarining qistovi bilan boshqa bir qizga uylanadi. Yigit do'konda sotuvchi bo'lib ishlarkan, bechora ayol sobiq turmush o'rtog'ini ko'rish maqsadida har kuni olisdan piyoda do'kon yoniga kelib uzoqdan uni ko'rib ketadi. Shunda u yo'l yurgan chog'larida yurakdagi dard-alamlarini, hasrat-nadomatlarini kuyga solib hirgoyi qilar ekan (4).

Mukarramxon (taxallusi – shatr) bitta g'ishtning ustida tik turgan holda “Aka Duldultoy” (bugungi kunda yallaning “Duldultoy” so'zi “Guldurtoy” so'zi bilan ijro etilishi ham kuzatiladi) yallasini ijro etib xalq orasida shuhrat topgani bois “shatr” taxallusini olgan. Ushbu yallada yigitlar Duldul ismli toyga o'xshatiladi. Rivoyatga ko'ra, Duldul toy bo'lishiga qaramay juda baquvvat bo'lib, osmonda kuchli uchar ekan. Duldul payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning minib yurgan toylari bo'lgan. Payg'ambarimiz me'rojga ko'tarilganlarida mana shu toyni mingan ekanlar. Bu toy keyinchalik kuyovlari Hazrati Aliga tortiq qilanadi.

Ta'kidlash joizki, Rahimaxon ayaning xizmatlari bilan Namangan yallachilik maktabining ta'siri Qo'qon yallachilari ijodida sezilib qoldi. Buning boisi ayaning namanganlik satang Bo'stonxon Poshshayeva bilan olib borgan o'zaro ijodiy hamkorligidadir. Ushbu samarali ijodiy yaqinlik natijasida 6/8 ufar usulida ko'plab yallalar yuzaga keldi.

Shuningdek, asli vazmin usulda kuylangan ashulalarni (masalan, “Ko'ngildagi yorni toping”, “Mayda, mayda”, “Omon yor-4” va b.) ufar usuliga moslashtirib, yallaga xos band-naqarat shaklida qayta ijod etish ham yo'lga qo'yildi. Jumladan, ayaning “Adolatxon” nomli yallasida Qo'qon xoni haramida yashagan kundoshlar bo'lmish Adolatxon, Solijaxon, Olyaxon, Solyaxon va Oydinoylarning xulq-atvorlari hajviy tavsiflanadi:

#### ADOLATXON

Бу хо - на - да А - до - лат - хон, Ер ва - фо -  
до - ре, Бу хо - на - да Со - ли - жа - хон,  
Шу - ни - си - да бир гап бор.  
Чи - лим сол - син А - до - лат - хон,  
Ер ва - фо - до - ре, Ку - йи - ба ўл - син  
Му - бо - рак - хон Шу - ни - си - да бир гап бор.

Rahima Mazohidovaning tinimsiz izlanuvchan ijodkorligini sevimli shogirdlaridan Xursanoy Qodirova shunday xotirlaydi: “xon ayam juda ziyrak, o'z ishlariga puxta ayol edilar. Qishloq va tumanlarda yalla aytishni bilgan ayollar bilan uchrashganlarida ularning ijrolarini yozib olardilar. Yalla va laparlarni xalqqa olib chiqishdan avval ularning so'zlarini pardoqlab, o'zlarining ovozlari moslab kuylab chiqar edilar, mayus aytilganlarini sho'xroq qilib ijro etardilar. Masalan, “Atir gul” yallasining asil ko'rinishi g'amgin, dardchil edi. Ayam uni sho'x tarzda 6/8 ufar usuliga solib aytib chiqdilar va shu tarzda bu yalla keng tarqaldi. Mana hozirda estrada yo'nalishida ham ijro etilmoqda”.

Rahima Mazohidovaning yaratgan ijod mahsullari ichida Qo'qon va Namangan yallachiligiga xos an'analarning o'zaro uyg'unligiga asoslangan hazil-mutoyibali aytimlar ham ko'plab uchraydi. “Yallajonim yalla” hajviy aytimi shunday namunalardan biridir. Yengil ufar (6/8) usuliga asoslangan bu aytimda lapar va yalla janrlariga xos shakl xususiyatlari mushtarak kelishi kuzatiladi. Bunda ikki ayol tomonidan qiz va yigitning “savol-javob”i tarzida ijro etiladigan xar bir misra yakunida “yalla, jonim yalla” so'zlari naqorat sifatida takrorlanib turilishini ko'ramiz.

Ayaning yaratgan ijod mahsullari ichida hazil-mutoyibaga boy aytimlar ham ko'plab o'rin olgan edi. Uning ijrosida keng tarqalgan «Paxta terarmishman» hajviy aytimi shulardan biridir:

*Etak tutib men qadimni egarmishman,  
Kunga kuyib men ham paxta terarmishman,  
Yo'g' ekanmi bundan bo'lak daxmazasi,  
Jonga tegdi raislarni xarxashasi.*

Yallani Rahimaxon aya ilk bora Ma'suda Toshmatovaga o'rgatadilar va uning ijrosida keng tarqaladi. Ushbu 6/8 ufar doyra usulida ijro etilgan «Paxta terarmishman» hajviy yallasida brigadrning erka xotini-«belimga etak tutib, qadimni bukib, men jazirama issiqda qorayib paxta terimiga chiqmayman» deb eriga xarxasha qilishi bayon etiladi.

1980-yilda Toshkentda folklor ansamblini tashkil etish istagida Rahimaxon ayani taklif qiladilar. Ansambl “Gulyor” nomi bilan ataladi. Dasta ishtirokchilariga Toshkent shahriga xos bo'lgan qo'shiq, ashula, yalla va laparlardan o'rgatib ularning ijro dasturlarini shakllantirib bergach yana Qo'qonga qaytadilar. Shundan so'ng ayada bunday dastani Qo'qonda ham yuzaga keltirish istagi tug'iladi. Natijada Rahimaxon Mazohidova va Muhabbatxon Toshmatovalarning sayi-harakatlari bilan 1981-yil “Omon yor” ansamblini o'zlari tug'ilib o'sgan Degrezlik mahallasida tashkil etadilar. Bu mahallada yashovchi 90 yoshgacha bo'lgan hazilkash, so'zga usta, kayvoni (dasturxonchi) ayollarni mahalla xotin-qizlar qo'mitasi orqali 35ta ayolni jamlab o'z faoliyatlarini boshlaydilar. Ansamblda ishtirok etgan ayollar va qizlar o'zlari bilgan qo'shiq, ashula, yalla va laparlarning asl aytim yo'llarini saqlab qolgan tarzda ularni qayta pardoqlab ijro dasturini shakllantiradilar. Ansambldan o'zining yoqimli ovozi bilan xalqqa tanilgan, el orasida mashhur bo'lgan Ma'suda Toshmatova, Muborkxon Akramova, Salomat Isroilova, To'raqul Tursunov va Xursanoy Qodirovalar yetishib chiqadilar. 1983-1984-



Mustaqillik yillarida mahalliy folklor janrini rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgach ansambllarning faoliyatiga o'zgartirishlar kiritildi. Ya'ni unga ko'ra dastalar faoliyati teatrlashtirilgan sahnaviy ko'rinishga asoslangan bo'lishi lozim edi. Endi ansamblga sahnaviy ko'rinishlarni tashkillashtira oladigan puhta malakali rejissyor kerak edi. Shundan so'ng ansamblga ayaning taklifi bilan Toshkent Davlat Abdulla Qodiriy nomidagi Madaniyat institutining "Ommaviy bayramlar rejissyorligi" fakultetini tamomlagan Xursanoy Qodirova rahbar etib tayinlanadi. Rahima Mazohidova Xursanoy Qodirova bilan birgalikda ansambl ijro dasturini yanada boyitib boradilar. 1997

yilda ushbu ansamblning ilk qaldirg'ochlari ijrolari asosida "Xalq qo'shiqlarini qalbinda saqla" nomli telefilm olinadi. Bunda faqatgina yalla, qo'shiq va laparlar kuylanadi. Qo'qon teatrida "Toxir va Zuxra"ni sahnalashtirish rejalashtirilgach bu yerga Yulduz Ismatovani baletmestr etib yuboriladi. Ular teatrga kelgan ilk kunlaridan Rahimaxon aya bilan o'rtoqlashadilar. Ularda o'zaro ijodiy hamkorlik qilish niyati tug'iladi va aya bilan birgalikda "Qo'qon ayoli" nomli teatrlashtirilgan telefilmini olishga sazovor bo'ladilar. Yulduz Ismatova ansambl ijrosidagi xalq aytimlarining eng yaxshilarini tanlab olib ularga raqs qo'yadi. Qo'qonda to'y kuni kuyov o'rtoqlari bilan kelin xonadoniga kelishidan oldin qo'shni xonadonlardan biri kelinni mehmonga chaqiradilar. Bunday marosim "Qiz qochdi" deb ataladi. Bu xonadonda kelinni dugonalari yasantirib unga o'sma-surma qo'yib, o'yin-kulgi qilib xursandchilik bilan qo'shiq va ashulalar kuylab "qiz bazmi" o'tkazishar edi. Telefilmda ushbu "qiz qochdi" marosimini namoyish etadilar.

yilda Rahima Mazohidova va Xursanoy Qodirova dunyo bo'yicha Turkiyada bo'lib o'tgan "Qaro ko'zim" nomli folklor festivalida ishtirok etib ular Qo'qon shahriga xos bo'lgan alla, yor-yor va kelin salom marosimini havola etadilar.

Bugungi kunda Qo'qon shahrida ikki jamoa – "Omon yor" va "Qo'qon yor-yori" ansambllari faoliyat olib bormoqdalar. Qo'qon an'anasiga ko'ra ushbu ansambllarda faqatgina xotin-qizlar ishtirok etadilar. Rahima Mazohidovaning sayi-harakatlari bilan yuzaga kelgan "Omon yor" folklor ansamblida ayaning sobiq shogirdlari bo'lmish yoshi ulug' onaxonlarning ijodiy izlanishlar qizg'in davom etib kelmoqda.

Hursanoy Qodirova ham ustoz Rahima Mazohidovaning ijrochilik maktabi an'anasini davom ettirgan holda, o'zi tashkil etgan "Qo'qon yor-yori" ansambliga avlodan-avlodga o'tib kelgan musiqiy namunalarni o'rgatib ustozining sermahsul ijodini yanada keng yoyilishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarova O. El sevgan san'atkorlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. -269 b.
2. Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. – Namangan: Namangan, 2016. -364 b.
3. Raxima Mazohidova bilan suhbat. 2007 yil, 25 iyul.
4. Hursanoy Qodirova bilan suhbat. 2013 yil, avgust.
5. Muboraxon Akramova bilan suhbat. 2016 yil, avgust.

## НОТЫ ВОСТОКА В МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ МИРА

**Аннотация.** В данной статье представлено влияние Восточной музыкальной культуры на другие культуры мира. Подчеркивается результат проявленной деятельности национальной ментальности. Затрагиваются различные Восточные музыкальные культуры, их становление и взаимовлияние. Подробно рассматриваются такие страны, как Китай, Индия, страны исламского Востока, а также Россия.

**Ключевые слова:** культура, искусство, музыка, Восток, менталитет, индивидуальность.

Rudakiy ALLANBAYEV,  
O'zDSMI "Vokal" kafedrası dotsenti

## JAHON MUSIQA MADANIYATIDA SHARQ NOTALARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sharq musiqiy madaniyatining jahondagi boshqa madaniyatlarga ta'siri bayon qilingan. Milliy mentallik namoyon etilgan faoliyati ta'kidlangan. Sharqdagi turli musiqiy madaniyatlar, ularning vujudga kelishi va o'zaro bog'liqligi borasida so'z yuritilgan. Xitoy, Hindiston, Sharqdagi islomiy mamlakatlar, shuningdek Rossiya musiqiy madaniyati borasidagi fikrlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, san'at, musiqa, Sharq, mentalitet, individuallik

Rudakiy ALLANBAYEV,  
Associate Professor of the Department "Vocal" UzSIAC  
Uzbek State Institute of Art and Culture

## NOTES OF THE EAST IN THE MUSICAL CULTURE OF THE WORLD

**Annotation.** This article presents the influence of Eastern musical culture on other cultures of the world. The result of the shown activity of the national mentality is emphasized. Various Eastern musical cultures, their formation and mutual influence are affected. Countries such as China, India, the countries of the Islamic East, as well as Russia are examined in detail.

**Key words:** culture, art, music, East, mentality, individuality.

Любая национальная культура - это результат проявленной деятельности национальной ментальности, так как национальная культура не существует вне национального менталитета.

Особенность музыкальной культуры Востока в том, что традиционное мировосприятие, восточная ментальность сохранились и нашла отражение и в наши дни.

В отличие от европейской точки зрения, истинное восточное бытие души не есть реализация наших желаний, нашего «Я», личности, а «слияние души (Атмана) с Космосом и Богом, обнаружение единства этих трех начал. Конец пути - это Дао или нирвана, в которой душа обретает космический покой. Сам же путь есть индивидуальная жизнь (индивидуальность), преодоление иллюзорности (майи) неистинного бытия и жизни, раскрытие (тоже индивидуальное) истинного бытия. Если конечная цель одна и та же (Дао, нирвана, Бог), то путь к этой цели у каждого свой, индивидуальный, хотя его проходят по одним и тем же «ступеням», и «территориям» [1, с. 6].

Музыкальные культуры Востока не идентичны друг другу. Они все разные, как и их менталитет. «Восток - это сложная совокупность территорий, огромных регионов и культурных традиций, не менее грандиозных, чем европейская: со своими закономерностями и богатым ветвлением, со своей спецификой в сравнении с другими столь же значительными культурными традициями» [2, с. 337]. Но если наблюдать, то можно увидеть взаимовлияние и взаимопроникновение музыкальных культур прекрасного Востока.

Например, для китайского менталитета гораздо

важнее не восприятие личности как индивидуальности, а восприятие общества в целом, коллектива, государства. Мало что значил для Китая человек в отдельности. Те или иные личностные проявления пресекались государством. Несмотря на это, каждый китаец считал себя частью природы, стремился ею наслаждаться, включиться в ее ритмы. Они были уверены в собственном духовном, а не расовом или военном превосходстве над другими народами [3, с. 110].

Первые шаги китайской профессиональной музыкальной культуры относятся к эпохе Шан-Инь (XVI-XI вв. до н. э.). В это время появился и выделился музыкальный комплекс «музыка - юэ» Он представлял из себя одновременную игру на музыкальных инструментах, пение и танец» [3, с. 123-127]. Именно с этого периода данный музыкальный комплекс начал пользоваться широкой популярностью на праздниках и мероприятиях различного масштаба. Одна из важнейших тем китайской народной музыки - воспевание природы, ее спокойствия, красоты. Китайцы все сопоставляли с явлениями природы, поэтому даже музыкальные события должны были совпадать с природными явлениями. В основном, вся китайская музыка основана на пентатонике, в отличие от европейского семитонового звукоряда. Пентатоника в музыке является своеобразным проявлением пятичленной космологической модели, являющейся доминантной для культуры как древнего Китая, так и всей в целом китайской цивилизации. Согласно этой модели «мировое пространство» распределяется строго по четырем сторонам света (Восток, Юг, Запад и Север) и выделяется особый пространственный отрезок центр-чжун, ассо-



цируемый с центром мира. «Пятичленная пространственно-временная модель не относится к числу специфических китайских культурных феноменов. Она является вариантом общего типа так называемой «горизонтальной модели мира», характерной для древних централизованных государств (например, Египта). Но только в Китае рассматриваемые космологические представления приобрели столь исключительную культурную значимость» [3, с. 106].

Китайцы широко использовали двенадцатиступенный звукоряд (в пределах одной октавы), который подразделялся на шесть нечетных, или «мужских», ступеней звукоряда (лю-люй) и шесть четных, или «женских», ступеней (лю-лю). Каждая из музыкальных ступеней наделялась определенной символикой - цвет, стихия, природные сущности. «Цветовая символика являлась нормативной и универсальной для художественной культуры Китая и состояла из следующих цветов: желтого (хуан) - для Центра, сине-зеленого (цин) для восточной зоны, красного (хунчи) для южной зоны, белого (бай) для западной зоны и черного (хэй) для северной зоны» [3, с. 110].

Если задаться вопросом откуда китайцы брали идеи для своих музыкальных произведений, то можно отметить, что основными темами для музыкальных произведений композиторы вдохновлялись из народной и классической поэзии. Эта поэзия уходит в глубь веков и насчитывает более чем 2000-летнюю историю. В период I тыс. до н. э. - II в. до н.э. было написано «Пятикнижие». В нем представлена вся аксиологическая система китайской культуры.

Существует еще одна книга «Пятикнижия» - «Книга песен». Она содержит образцы народной поэзии и культовых песнопений. В этих песнях нашло отражение мирозерцание средневековых китайских поэтов. В нем важную роль играла религиозность.

Можно сказать, что китайская музыка удивительна и поэтична. И также можно сделать обратный вывод, что китайская поэзия – музыкальна. И нигде в другой культуре нет такой связи мелодии с поэзией. Это зависит от менталитета и специфики данного языка. Китайский язык имеет несколько высотных уровней и одинаковое сочетание гласных и согласных, произнесенных с интервалом в один или полтора тона, означает совершенно разные понятия, т.е. разные слова.

Такие великие поэты в своем искусстве, как Жуань Цзи, Тао Юаньминь, Се Тяо использовали зрительный образ, живописную картину посредством иероглифов. В музыке мы можем увидеть тоже самое. В ней переплетаются идеи культа Неба, конфуцианства, даосизма и буддизма.

М.Е. Кравцова отмечает, что к «концу танской эпохи китайская музыка превратилась в подлинный синкрет, вобрав в себя элементы музыкальной культуры народностей и государств Дальнего Востока, Центральной и Южной Азии» [3, с. 127].

Следующей Восточной страной, которая внесла немаловажный вклад в музыкальную культуру мира, является Индия. В этой стране музыкальная культура выступала всегда в приоритете в ряду других культур.

Музыкальное искусство Индии формировалось в

связи с господствующим в этой стране религиозным учением - индуизмом. В сферу музыкальной культуры индуизм проник не просто так. Музыка, танец и драма в Индии считались божественными. В Древне Индийской культуре музыка в основном воспринималась только в единстве с танцем и театральным действием. Это всё исходило из понятий индийского менталитета.

В Индии, как и во многих культурах было принято передавать традиции и опыт родовой жизни от поколения к поколению. Для этого активно использовались эффективные способы их передачи. Они были основаны на физических способностях человека. К ним можно отнести слово-миф, здесь человек в коллективном общении проговаривает (поет) в громкой речи родовые правила жизни... ритуал-жест, движение (танец), здесь человек, проговаривая правила, одновременно совершает движения их практического исполнения» [6, с 17]. Еще одним главным музыкальным средством передачи родовых традиций являлись религиозные гимны. Их создавали древнеиндийские мудрецы - риши.

В Индии связь человека с Божественным была очень важна. Например, в храмах разыгрывались музыкально-хореографически-театральные действия из жизни богов. Танцевальными движениями индийские храмовые танцовщики и танцовщицы могли рассказать целые главы из книг «Веды» и «Риг-веды». Сопровождающая танец музыка обычно исполнялась на ситаре и вине (саранчи) - индийской скрипке. Для того чтобы выработать единые правила для музыкальных произведений жрецы создали единое эстетическое учение, которое стало фундаментом индийского классического музыкального искусства. Одной из сфер реализации этого учения стало искусство раги.



«Рага – это ладоинтонационный образ, соответствующий конкретной эмоции, выраженный определенной последовательностью звуков лада, составляющих устойчивую мелодическую попевку (ладо-попевку)»

[5, с. 39]. Если для китайского звукоряда (пентатоника или расширенная двенадцатиступенная гамма в пределах одной октавы) характерен минимализм, то звукоряд индийской раги состоит из 22 микроинтервалов («шрути»), которые считаются оттенками семиступенного лада. Индийским музыкальным ладам присвоено особое значение, как имеет особое значение в классическом храмовом танце каждый поворот головы, взгляд или движение.

Инайят Хан пишет: «Характер индуса может быть понят по духу индивидуализма. Все образование имеет склонность к индивидуализму, к выражению человеком себя в любой форме, в какой он способен. Единообразие имеет свои достоинства, но очень часто парализует развитие в искусстве. Существуют два образа жизни: единообразие и индивидуализм. В единообразии есть своя сила, но индивидуализм имеет свою красоту. Если слушать певца-исполнителя индийской музыки, то первое, что он делает, это настраивает свою тампуру, чтобы она давала один аккорд. Пока он настраивает тампуру, он настраивает свою собственную душу, и это имеет такое влияние на слушателей, что они могут его терпеливо ждать часто значительное время. Когда он находит себя настроенным на свой инструмент, на этот аккорд, его душа, ум и тело кажутся единым инструментом» [4, с. 18].

Рага представляет собой импровизационное произведение. Ее создатель и исполнитель это один и тот же человек. Перед созданием раги художник настраивается на ее образный строй, выбирая ключевые слова.

По словам современного индийского поэта С.Панта, слово должно быть подобно «соку яблока. Звуковая окраска слова должна ассоциироваться с определенным чувством, создавать определенное настроение, вызывать в воображении определенную картину, наполненную музыкой чувств, пронизывающей тело подобно электрическому току» [7, с. 147]. Конечно же и для раги важное значение имеет природа, как и во всей Восточной культуре.

«Рага обогащала моральный облик человека, обращала его помыслы к прекрасному» [5, с. 41]. Рага стала для индийцев их нравственным кодексом, этическим идеалом. Этот идеал они передавали многими поколениями как живую традицию.

Следует отметить, что музыкальная культура Индии подверглась влиянию других культур. Она разделена на четыре периода: период санскрита, период пракрита, период моголов и современный период. Санскритский период – это мистика, период пракрита – это эмоции, в период моголов музыка подвергалась влиянию Персии и Аравии. В современной музыкальной культуре существуют влияния европейские и американские. Проблемы взаимоотношения индийской музыки с западной культурой как один из аспектов диалога Восток-Запад в настоящее время имеют множество направлений.

Еще одной интересной музыкальной культурой можно назвать музыкальную культуру народов Ближнего и Среднего Востока, а также Средней Азии. Их классифицируют по культурному признаку, объединяя

под общим названием «музыка ислама». Ислам зародился в VI в. в г. Мекке. Это новое религиозное учение распространилось затем на половину мира. Постепенно в некоторых странах из религиозного верования он превратился в форму социальной организации и культурной традиции. «Мусульманин» в переводе с арабского означает – «покорный». В менталитете мусульманина присутствует всецелое покорение воле Аллаха. По исламскому вероучению, судьба человека predetermined. Кому Аллах благоволит – у того все в жизни происходит как нужно, от кого Аллах отвернулся – у того все равно ничего не выйдет. Каждый правоверный мусульманин должен безусловно покоряться божественной воле, всецело подчиняться законам Шариата и почитать Коран. Согласно законам Шариата, существуют действия людей, которые обязательны для выполнения в жизни, желательные действия, добровольные действия, нежелательные и строго запрещенные. Таким образом, ислам выступает не только религией, вероисповеданием, а определяет образ жизни, мировоззрение, повседневное поведение, менталитет людей.

Поэтому в странах мусульманского Востока - арабских странах, Средней Азии, странах Закавказья - музыке отводилась роль второстепенная. В мусульманской культуре не существовало понятия «духовная музыка». Как известно, пророк Мухаммед выступал против музыки, приравнивая ее к винопитию, азартным играм, запретным развлечениям. В мусульманской культуре приветствовались лишь несколько вокальных форм: азен – призыв к молитве, формы дервишских радений – зикров, музыкальная речитация Корана, традиция чтения хадисов под аккомпанемент, во время Рамадана (месяца поста) ночами исполнялись специальные мелодии – фаззайист, а по случаю дня рождения пророка – гимны и песнопения, повествующие о его рождении и жизни.

В исламской культуре главную роль играет поэзия. Религиозный текст накладывался на традиционную мелодию. Существовали напевы паломничества (ханун-аль-хадж), песни возвращения (ат-тахнин). Много культовых напевов можно услышать в процессе проведения исламских праздников. Так как основная задача ритуальных песнопений – донести до слушателя религиозный текст, они обычно речитативные.

Одно из главных достижений мусульманской музыки – это маком. Маком – это светская музыкальная культура. «Весь маком-импровизация – это как бы один большой и долгий звук, одна “позиция”, в которой находятся слух, душа и мысль... Искусство макамата служило на светской основе способом символической коммуникации человека и вечности, человека и универсума. В отличие от церковного христианского распева, в макамаке соотносятся не аскетический дух и сакральная всеобщность, а лирическая душа и сакральная всеобщность» [8, с. 209-210].

В исламской культуре активно распространены игровые жанры, которые сопровождалась песнями и танцами. например «танцы лошади», «танцы верблюда». «Наличие в творческой и исполнительской практике народа подобных сложносоставных форм

свидетельствует о том, что и в музыкальном фольклоре, как и в искусстве классической традиции, наблюдается тяга к синтетическим жанрам, органическое взаимодействие различных сфер и пластов художественного творчества. С той лишь разницей, что в фольклоре ярче выражены элементы нерасчленённости, синкретизма, в то время как в классическом профессиональном искусстве эта связь осуществляется на уровне высоких художественных обобщений – синтеза» [9, с. 51].

Пусть и скромное, но все же существует на исламском Востоке инструментальное музыкальное искусство. Очень серьезна и велика роль ударных инструментов, таких как дарабука, таар, бубен, барабан, тамбурин. Они важны потому что огромную роль играет ритм. В Средние века были популярны такие музыкальные инструменты как четырех – и пятиструнная лютия, флейты, дудки, алурабабы и каманы (своеобразные виды виол). Барабаны, литавры, цимбалы, роги, трубы входили в состав военного оркестра, а также использовались в публичных процессах и церемониях.

В арабо-мусульманской музыкальной культуре существовало такое понятие как «музыкальная каллиграфия». Музыкальная каллиграфия – это обилие всевозможных мелодических украшений, таких как: мелизмы, форшлагги, трели. Красивый декоративный почерк являлся элементом исламского орнамента-арабески. В музыкальном понятии арабеска – это такой жанр, который представляет собой изящное переплетение мелодических линий.

В исламском мире пользовалась популярностью также и миниатюрность. Широко известны в исламском мире вокальные миниатюры на стихи таких великих поэтов, как Абу Нувас, Ибн-аль-Араби, Ибн-аль-Фарид, Омар Хайям.

Традиционная арабо-мусульманская музыка изменялась с течением времени. Вера в незыблемость традиций сыграла решающую роль в сохранении до сегодняшнего дня единственной и неповторимой музыкальной культуры.

Арабо-мусульманская музыкальная культура оказала влияние на культуру других восточных стран. Это произошло по причине усиленного насаждения данной религии в период арабского халифата, который являлся огромной империей и его протяжённость была от Индии до Испании. Именно по этой причине иногда можно встретить в странах, находящихся далеко друг от друга похожие музыкальные инструменты, формы и жанры. До события под названием арабское завоевание страны Средней Азии имели тесные культурные контакты с Китаем. «Китайские источники дают возможность не только показать культурные связи народов Средней Азии и Китая в период до арабского завоевания, но позволяют восстановить определенную роль выходцев из Средней Азии в музыкальной жизни Китая IV-VIII веков» [10, с. 23].

Все вышеизложенное еще раз подчеркивает национальное своеобразие культур на Востоке. Также следует отметить, что социокультурные взаимодействия народов в течение времени повлияли на взаимообмен элементами музыкальных культур. Это несомненно их обогатило.

В западной Европе к тематике музыкальной культуры Востока начали обращаться с XVIII в. Причиной этому послужили «Персидские письма» Монтескье. В отличие от культур Франции, Германии, Италии и северных стран, особняком стоит музыкальная культура Испании. Она имеет значительное арабское влияние. Это требует отдельного рассмотрения. Если говорить о странах Центральной Европы, то следует обратить внимание на отражение «восточной» тематики в творчестве композиторов венской классической школы и композиторов – романтиков.

Следующий этап интереса Западной Европы к восточной музыкальной культуре возник в эпоху романтизма. Австрийский композитор Йоганн Штраус создал «Персидский марш», в котором уже обращено внимание на особенности персидской (турецкой) мелодической линии и ритмики. Французские композиторы Ж. Бизе в опере «Искатели жемчуга» и А. Адан в балете «Корсар» для создания образов главных героев пишут оперные арии и балетные адажио, в которых, хотя и стилизованно, уже представлены индийские и арабские музыкальные элементы: изобилующие украшениями (мелизмами и форшлаггами) мелодические линии, изящная с обилием высоких духовых инструментов (флейта, гобой) оркестровка, триольная и пунктирная ритмика. Большой интерес к восточной (японской) музыкальной культуре проявил Дж. Пуччини во время создания оперы «Чио-Чио-сан».

Неподдельно великолепным музыкальным шедевром является опера «Турандот» по сказке К. Гоцци, в которой главная героиня – китайская принцесса. Новая партитура «переливается звуками, которые сияют металлическими красками и бриллиантовым, звездным блеском посреди клубящихся хоров облаков, сверкающих молниями или тихо растягивающихся по небу словно хвост кометы: поистине, панорама, достойная великого Востока, пусть даже вымышленного» [11, с. 308].

В русской культуре тематика Востока стала проявляться, начиная с М.И. Глинки. Нотки Востока романтизировали «восточные» образы в русской музыке. М.И. Глинка очень органично проникнул в самую сущность арабского и персидского фольклора. Его изящные и изысканные мелодии «Персидского хора» и «Арии Ратмира» из оперы «Руслан и Людмила», романсы на восточную тему – тому примеры. «Восток в “Руслане” – это еще одна важная философская грань сочинения и часть действия. Пушкин в своей поэме еще не придал Востоку того значения, которое появится у него позднее, он лишь наметил в ней эту линию. Глинка же трактует Восток не только как прекрасные, красочные, чарующие сцены, но и как мотив обобщения» [12, с. 50].

Больше всего с «восточной» темой в русской музыке связаны такие авторы, как М.А. Балакирев, А.П. Бородин и Н.А. Римского-Корсаков. В их творчестве Восток расцвел своим пышным цветом. Этот период начался созданием фантазии для фортепиано под названием «Исламей» и симфонической поэмы «Тамара» М.А. Балакирева. Здесь композитор выступил как тонкий



стилист. Он показал красоту и разнообразие Восточной (иранской, кавказской, арабской) мелодики.

Например, в опере А.П. Бородина «Князь Игорь» Восток предстает в образе завоевателей-половцев. Бородину удалось, не используя музыкальных цитат, передать колорит восточных песен и плясок, максимально приблизив их к народным. Восточные образы в опере «Князь Игорь» очень колоритны, необыкновенно привлекательны. В опере представлены различные Восточные образы: томные, пленительные, наполненные негой хоры и пляски девушек, яркие, дикие, воинственные мужские пляски. Образ хана Кончака – величественный, а его юной дочери, влюбленной Кончаковны – нежный. Композитор не представляет Восток идеальным, а также не представлял его с негативной стороны.

Если рассматривать образы Востока в творчестве Н.А. Римского-Корсакова, то можно сделать вывод, что они представлены в сказочной форме. Первое «восточное» симфоническое произведение, с которым выступила Новая русская музыкальная школа («Могучая кучка»), нашло выражение в симфонической поэме по сказке О. Сенковского «Антар». В этом произведении Римский-Корсаков цитирует подлинные арабские песни. Ни одно произведение «русского Востока» не может сравниться по красоте, изяществу и непосредственности в передаче чувств с симфонической сюитой «Шахерезада». Она создана на сюжет сказок «Тысячи и одной ночи». Композитор создает собственные сказки. Они объединены соло скрипки, которые передают узорчатую, близкую подлинно восточной, мелодию. Эта тема изображает саму рассказчицу – Шахерезаду. «Если вслушаться в тему Шахерезады, то станет ясно, насколько индивидуален этот образ и как в одной теме может быть выражено много черт: нежность в звучании высокого регистра скрипки, изысканность – в узорчатой мелодии, живое дыхание – в

прихотливой ритмике» [12, с. 142]. Как и Бородин в «Князе Игоре», композитор воссоздал «музыкальный Восток», каким он представлялся русскому художнику, свободно воспроизвел общий колорит народной восточной музыки, выделил ее отдельные специфические черты: оригинальное применение ударных и духовых инструментов, ритмическую орнаментику типичные интонации.

Меньше всего в своем творчестве отразил Восточную тему П.И. Чайковский, но всё же отражение Востока в его «Китайском» и «Арабском» танцах из балета «Щелкунчик». Они явились лишь стилизацией.

Такой композитор как Сергей Рахманинов, более разнообразно представил Восток. «Восточный танец» для виолончели и фортепиано, «Восточный отрывок» для фортепиано, романс «Не пой, красавица», «Капричио на цыганские темы» и, конечно же, опера «Алеко» – вот те произведения, которые серьезно позволяют говорить о «восточности» в творчестве Рахманинова. Композитор имел молдавские корни, но, слагая всю свою жизнь «песнь о России», он с большим уважением относился к другим культурам. Восточная культура, которая населяла территорию огромной Российской империи не стала исключением.

Из всего вышесказанного, можно сделать вывод, что ноты музыкальной культуры Востока присутствуют в музыкальных культурах практически всего мира. Музыкальной культуры этих народов и оказывает огромное влияние на музыку других культур. Восточная ментальность, отраженная в музыкальной культуре восточных стран оригинальна и неповторима для европейцев и жителей России. Она всегда была интересна и загадочна для них. Таким образом она оказывала влияние уже на музыкальную культуру европейского типа, а также русскую классическую и современную музыкальную культуру. Недаром в народе говорят: «Восток – дело тонкое!».

#### Список литературы:

1. Петрухинцев Н.Н. XX лекций по истории мировой культуры. -Москва: Владос, 2001. -398 с.
2. Кравцова М.Е. История культуры Китая. -Санкт Петербург.: Изд.-во Лань, 1999. - 416 с.
3. Инайят Х. Мистицизм звука. -Москва : Сфера, 1997. - 329 с.
4. Черкасова Н.Л. Рага и ее место в индийской музыкальной культуре. -Москва: Московская консерватория Редакционно-издательский отдел, 1993. -159 с.
5. Философия / Под ред. В.Д. Губина, Т.Ю. Сидориной. -Москва: Астрель; Хранитель, 2007. -494 с.
6. Чельшев Е.П. Современная поэзия хинди. -Москва: Наука, 1985. -202 с.
7. Чердниченко Т.В. Музыка в истории культуры. -Москва: Музыка, 1991. -320 с.
8. Еолян И.Р. Традиционная музыка Арабского Востока. -Москва : Музыка, 1990. - 238 с.
9. Маркези Г. Опера. -Москва: Музыка, 1990. -382 с.
10. Никитина Л.Д. История русской музыки. - Москва : Академия, 1999. -425 с/
11. Рифтин Б.В. Из истории культурных связей Средней Азии и Китая II в. до н. э. III в. н. э. // Проблемы востоковедения. -1960. -№ 5. - С.25.
12. Розин В.М. Музыка на рубеже XX века // www.countries.ru/library/art.



# *III BO' LIM*

**SAN'AT TARIXI,  
FALSAFA VA  
NOMODDIY  
MADANIY MEROS**

## MUSTAQILLIK YILLARI MAMLAKATIMIZDA KINO VA MILLIY QO‘SHIQCHILIK SOHALARINING RIVOJLANISHI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada mustaqillik yillari mamlakatimizda kinematografiya va milliy qo‘shiqchilik san’atining rivojlanishi, yangi asarlar tahlili, ijodiy jarayonlar bayon etilgan. Shuningdek, mustaqillik yillari davomida o‘zbek milliy kinematografiyasi hamda milliy qo‘shiqchilik sohalari rivojining o‘zgarib borayotganligi, ijodiy maydonda tug‘ilgan yangicha usullar, uslub va yondashuvlar haqida so‘z boradi. Ta’kidlash joizki, mahoratli kinorejissyorlarning badiiy jihatdan yuksak kino asarlari va xalqaro doirada erishgan yutuqlari o‘zbek madaniyati taraqqiyotiga hissa qo‘shgan.*

**Kalit so‘zlari:** *kino, audiovizual asar, hujjatli va animatsion kinokartinalar, kinematografiya, postmodernizm, mumtoz musiqa, folklor.*

Насрулло КАБИЛОВ,  
и.о. профессор кафедры «Музыкально-драматический театр и кино» ГИИКУз

## ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ РАЗВИТИЕ КИНЕМАТОГРАФА И НАРОДНОГО МУЗЫКА В НАШЕЙ СТРАНЕ

**Аннотация.** *В статье рассказывается о развитии кинематографии и национального музыка в нашей стране за годы независимости, анализируются новые произведения, творческие процессы. Он также рассказал об изменениях в развитии узбекского национального кинематографа и национального музыка за годы независимости, о новых методах, стилях и подходах, рожденных в творческой сфере. Следует отметить, что творческие достижения талантливых кинематографистов и их достижения на международной арене способствовали развитию узбекской культуры.*

**Ключевые слова:** *кино, аудиовизуальные произведения, документальные и анимационные фильмы, кинематография, постмодернизм, классическая музыка, фольклор.*

Nasrullo KABILOV,  
And about. Professor of the Department of Music and Drama Theater and Cinema, UzSIAC

## YEARS OF INDEPENDENCE THE DEVELOPMENT OF CINEMA AND NATIONAL SINGING IN OUR COUNTRY

**Annotation.** *This article describes the development of cinematography and national singing in our country during the years of independence, the analysis of new works, creative processes. He also spoke about the changing development of the Uzbek national cinematography and national singing during the years of independence, new methods, styles and approaches born in the creative field. It should be noted that the artistic achievements of talented filmmakers and their achievements in the international arena have contributed to the development of Uzbek culture.*

**Key words:** *film, audiovisual work, documentaries and animated films, cinematography, postmodernism, classical music, folklore.*

Mustaqillik yillari mamlakatimizda eng ommabop san’at turi bo‘lmish kino san’atiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Kino – millat madaniy hayotining muhim jabhalaridan biri. Badiiy jihatdan yuksak kinoasarlari xalq ma’naviyatini boyitadi, dunyoqarashini shakllantiradi. Sport mamlakatni dunyoga tanitsa, kino millatni dunyoga tanitadi. Shiddat bilan odimlayotgan davrda kino san’ati inson shuuriga ta’sir ko‘rsatuvchi samarali vositalardan biriga aylangani ham sir emas. Audiovizual asar inson ruhiyatiga tez kirib boradi, uning ongi va ong ostiga joylashadi, estetik zavq-shavq ulashadi.

Mustaqillik yillari milliy kinofilmlar yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Sohada turli janrdagi badiiy, hujjatli va animatsion kinokartinalar yaratila boshlandi. Mazkur jarayonni biz bemalol o‘zbek kino san’atida postmodernizmning dunyoga kelishi deb ayta olamiz. “Keyingi yillarda umuman, o‘zbek milliy tafakkuri, xususan, adabiyot hamda san’atida ko‘p

to‘xtalib o‘tilayotgan, qator bahsu-munozaralarga sabab bo‘layotgan postmodernizm hodisasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan bir tarkib va o‘ziga xos bir bosqichli hodisa bo‘lmay, taraqqiyotning anchagina murakkab va o‘ziga xos boschiqlaridan o‘tgan ilmiy, ijtimoiy, falsafiy va estetik yo‘nalishdir” [1. B. 108]

Mustaqillik tufayli kinoijodkorlarimiz jahondagi ko‘plab kinofestivallar, anjumanlarda qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Film suratga olish bo‘yicha dunyo tajribalarini o‘rganish, eng ilg‘or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xorij kinoindustriyasi bilan hamkorlik qilish ham mustaqillik yillari ancha rivojlandi.

O‘zbek kino san’atida tajribali kinorejissyorlardan Shuhrat Abbasov, Mels Abzalov, Yusuf Roziqov, Rashid Malikov, Zulfiqor Musoqov, Qamara Kamalova, Muzrob Boymuhammedov, Sobir Nazarmuhammedov, Hilol Nasimov, Yolqin To‘ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Mansur Abduxolliqov, Umid Hamdamov, Sarvar



Karimov, Jahongir Ahmedov kabilar davlat buyurtmasi asosida turli janrdagi filmlarni suratga olishdi. Jumladan, “Otamdan qolgan dalalar” (Sh.Abbasov), “O‘tgan kunlar” (ikkinchi film, M.Abzalov, H.Fayziyev), “Voiz” (Y.Roziqov), “Yozning yolg‘iz yodgori”, “Narigi sohilda qolgan bolalik”, “Chayongul” (S.Nazarmuhammedov), “Abdullajon”, “Yaratganga shukr”, “Vatan”, “Kichkina tabib”, “Osmondagi bolalar 1,2”, “Oyijon” (Z.Musoqov), “Yo‘l bo‘lsin” (Q.Kamalova), “Erkak”, “Dilhiroj” (Y.Roziqov), “Yodgor”, “Aldangan ayol” (H.Nasimov), “Chashma”, “Ma’suma”, “Afg‘on”, “Ilova” (Yo.To‘ychiyev), “Qor qo‘ynida lola” (A.Shahobiddinov, Yo.To‘ychiyev), “Qizg‘aldoq” (I.Rasulov), “Arosat”, “Quduq” (M.Abduxoliqov) kabi filmlar milliy kinematografiyamizdagi betakror kinokartinalar bo‘ldi. Shuningdek, keyingi yillarda suratga olingan “Sog‘inch sohili”, “Devona”, “Armonli dunyo” (S.Nazarmuhammedov), “Qo‘rg‘oshin”, “Novda” (Z.Musoqov), “Ilova”, “Afg‘on”, “Hayotda...”, “Ma’suma”, “Faridaning ikki ming qo‘shig‘i” (Yo. To‘ychiyev), “O‘tov”, “Parizod”, “Telba”, “Rangsiz tushlar” (A.Shahobiddinov), “Aldangan ayol”, “Tubanlik”, “Gumrohlar”, “Odnoklassniki.ru”, “Aldangan ayol” (H.Nasimov), “So‘nggi laha”, “Baxt uyi” (A.Bekturdiyev), “Zarb” (N.To‘laxo‘jayev) kabi filmlar o‘ziga xosligi, milliy dunyoqarash, insonlar dardi – dunyosi, millat qayg‘usini aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, mazkur filmlarda zamondosh insonlar hayoti, chuqur insoniy kechinmalar talqini, o‘zbek millatiga xos noyob fazilatlar, umuminsoniy tushunchalar badiiy ifodasini topgan bo‘lib, shu xususiyatlari ko‘pchilikda ijobiy taassurot qoldirdi.



“Parizod” filmidan layha

Ayniqsa, yozuvchi Erkin A‘zam ssenariysi asosida yosh rejissyor Ayub Shahobiddinov tomonidan suratga olingan “Parizod” filmi keyingi yillar o‘zbek kinosida o‘ziga xos voqelik bo‘ldi. Film falsafiy-romantik xarakterga ega bo‘lib, o‘zbek ayolining farishtalarga xos hayosi, qo‘l yetmas yuksaklikda turuvchi nomus, iffat kabi bezavol tushunchalar, yonginasida turgan baxtini yo‘qotgan yigit qismati va yana allaqanday nekbin xulosalarga yetaklaydi.

Film syujetiga diqqat qilsak, turli ramzlar, badiiy ishoralar orqali ayrim hayotiy voqealar shartli ko‘rsatilganiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, bir qarashda ahamiyatsizdek tuyuluvchi, voqeadan-voqeaga ko‘chib, ziyrak tomoshabinni o‘ziga rom etgan “taxtiravon” bilan bog‘liq majoz, kiborlar sayr etadigan foytun misol bezatilgan mototsikl kajavasi nedan mujda ekanligini uqish uchun, har bir kadrda e‘tiborli bo‘lish lozim. Kajava

bamisoli Parizodning nomusini ihota qiladigan qo‘rg‘on, qiz shu yerdagina xotirjam, baxtli, Jonibek yetovida yurib har gal yangi xonadonga borganida, kajavadan tushayotib, hayo pardasini qoldirib ketgandek tuyulaveradi. Alaloqibat, Pariqishloqdan chiqqan Bozorkal ismli nobakor shaxs barcha sir-asrorning tagiga yetadi-yu, xayolan qizning sha‘ni ustidan fath qilib, mototsikl kajavasini jarga uloqtiradi. Tabiiyki, Pariqizning hayo qo‘rg‘oni buzilgach, nafs kushandasi bu maskanni osonlik ila zabt etadi.

Ko‘rinib turibdiki, “Parizod” filmi ohorli shakli, mavzu va g‘oya ifodasiga ko‘ra milliy kinematografiyamizda tamomila yangilik bo‘ldi. Film 2012-yil Anappa shahrida o‘tkazilgan “Kinoshok” festivalining Gran-pri mukofotini qo‘lga kiritgan. Nyu-Yorkda o‘tkazilgan ikkinchi Yevrosiyo filmlari festivalida “Eng yaxshi rejissyorlik ishi” nominatsiyasida g‘olib bo‘lgan. Bosh rol ijochisi Zarina Nizomiddinova S.Bondarchuk nomidagi xalqaro kinofestivalda “Eng yaxshi aktrisa” sovrinini qo‘lga kiritgan. Kinokartina “Boltiqbo‘yi va MDH davlatlarining eng yaxshi filmi” – “Nika” mukofotiga nomzod bo‘lgan, “A” toifadagi Shanxay xalqaro kinofestivali hamda 20 dan ortiq xalqaro festivallarda ishtirok etib, turli darajadagi diplomlar bilan taqdirlangan. Kembrij, Jorj Vashington, Yaponiya hamda Janubiy Koreyaning nufuzli universitetlarida namoyish etilgan. O‘zbekistonda “Eng ulug‘, eng aziz” respublika tanlovi g‘olibi bo‘lgan.

Mahoratli rejissyor Hilol Nasimovning “Aldangan ayol” (ssenariy muallifi G‘ofur Shermuhammad) filmi ham dolzarb mavzuda, ya‘ni odam savdosi haqida yoritilgan bo‘lib, film bosh qahramoni o‘z nafsiga qul bo‘lgan holda nobop kimsalarning tuzog‘iga tushib qoladi va aldanadi. Filmda xorijiy tasvirlarning nihoyatda ta‘sirli chiqqani, aldangan ayolning nomusi, iffati, azobli nolalarini ko‘rasiz. Mazkur kartinada mahoratli aktrisa Rayhon Ulasenovaning odam savdosi asirasi rolida aldangan qismatidagi ichki isyon va dard, iztirob va afsus-nadomatlarini yorqin aks ettirilgan. “Aldangan ayol” kinokartinasini orqali bugun ayrim jabhalarda uchrab turgan ayollarning xorijga aldanib ketishlari, nafs girdobiga sho‘ng‘ib mo‘may pul topish yo‘lidagi puch xayollarini yo‘q qilish, ularga ma‘nan va ruhan tarbiya berish, umuman olganda film orqali ta‘sir o‘tkazish mumkin.

Bundan tashqari, yurtimizda xususiy kinostudiyalar faoliyatiga ham keng yo‘l ochildi. Kino sohasiga qiziqqan, bu borada muayyan salohiyatga ega bo‘lgan yosh va tajribali kinorejissyorlar tijoriy yo‘l bilan filmlar suratga olmoqda. Albatta, mazkur kartinalarning badiiy saviyasi, g‘oyaviy ahamiyati “O‘zbekkino” Milliy agentligi tomonidan nazorat qilinadi va filmlarni katta ekranlarda namoyish etish uchun ham aynan shu tashkilot ruxsatnoma beradi. Ta‘kidlash lozimki, xususiy kinostudiyalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi milliy kino san‘atimizdagi ijodiy jarayonlarni yanada qizg‘in va rang-barang tus olishini ta‘minladi. Biroq ayrim jabhalarda xususiy filmlarda yuzakilik, shablon, badiiy saviyaning yo‘qolib borayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bu holat ko‘proq, sohada yoshlar izlanayotganini, shuningdek, moliyaviy ehtiyojlarning ko‘pligi va noprofessional yondashuvdan ham kelib chiqadi. Professor Hamidulla Akbarov ham o‘z izlanishlarida “Bugungi kunga kelib kino-teleestetika muammolarini kun tartibiga qo‘yishga zarurat tug‘ildi.

Televideniyedan aholining barcha qatlamlari talab va ehtiyojlarini hisobga olib, namoyish etiladigan ko‘rsatuvlardan tashqari kinoning turli, jumladan ishq savdosi, otishma-yu, zo‘ravonlik mavzularidagi yoki shunchaki “oldi-qochdi” tipidagi mazmunan sayoz, estetik saviyasi past tomoshalar ham o‘rin olayotgani sir emas”, deya ta’kidlagandi [2. B-95].

Kinematografiyaning muhim yo‘nalishi bo‘lgan hujjatli kino sohasida ham sezilarli izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillari fan, ta’lim, madaniyat, san’at va sport kabi jabhalarda faollik ko‘rsatib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgan insonlar faoliyati, ibratli hayotini tasmalarga muhrlash, kundan-kun chiroy ochayotgan shaharu qishloqlar, qad rostlayotgan bino-yu ko‘priklar, turli sohalarda erishilayotgan yutuqlarni film lavhalarida aks ettirish hujjatli kino ustalarining asosiy vazifasiga aylandi. Bir necha yildan buyon “O‘zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga binoan “Zamon va taqdir” turkumida suratga olinayotgan hujjatli filmlar xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod vakillari uchun ibrat-namuna bo‘lib xizmat qilayotir. O‘zbekiston Qahramoni, navoiyshunos olimi, akademik Suyima G‘aniyeva hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan “Yo‘l” filmida ilm atalmish mashaqqatli dunyoning sir-sinoatlari, sabr-u toqat, mehnat va irodaning shaxs kamolotidagi o‘rni xususida so‘z ketadi.

Kinematografiyani bolalar kinosi yoki multiplikatsion filmlarsiz tasavvur qilish qiyin. Zero, ertamiz egalarining ma’naviy kamoloti, estetik didi, dunyoqarashi ko‘p jihatdan multfilm va jajji tomoshabinga mo‘ljallangan kinoasarlarga bog‘liq. “O‘zbekkino” Milliy agentligi va “O‘zbekfilm” kinostudiyasi bolalar kinosining mavjud an‘analarini davom ettirib, kichik yoshdagi tomoshabinlar dunyoqarashi, ta’b va istaklariga mos keluvchi, g‘oyaviy-badiiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatdan puxta kartinalar yaratishni astoydil maqsad qilgan. Har yili agentlik buyurtmasiga binoan bolalar uchun badiiy, hujjatli va animatsion turdagi filmlar tayyorlanib, katta ekranlarda namoyish etiladi. Mavzur Mahmudov, Qamara Kamalova, Dmitriy Vlasov, Nozim To‘laxo‘jayev, Jamshid Izamov, Albert Xalmurzayev, Feliks va Dmitriy Yanov-Yanovskiylar, Zufiya Qurolboy qizi, Elmira Xasanova kabi ijodkorlar o‘zbek animatsiya san’atida faol ijod qilib kelishmoqda. Shuningdek, milliy multfilmlarimiz xorijiy festivallarda ishtirok etmoqda. Rejissyor Mavzur Mahmudov tomonidan yaratilgan “Bilyard voqeasi” multfilmi 1993-yili Turkiyada o‘tkazilgan xalqaro kinofestivalda sovringa munosib deb topilgan. 1999-yili Moskvada o‘tkazilgan “Oltin baliqcha” festivalida esa Hans Andersen hikoyasi asosida ishlangan “Bulbul” multfilmi “Eng mehribon multfilm” sovriniga sazovor bo‘lgan. Nozim To‘laxo‘jayevning “Oltin kabutar” multfilmi Germaniyaning Leypsig shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro kino anjumanda Gran-priga munosib topildi. “Mayin yomg‘ir yog‘ayapti” filmi 1984-yilda Germaniyaning “Oltin kabutar”, Ispaniyaning “Kumush Mikeldi” mukofotlari bilan taqdirlangan [3. B-119].

Milliy kino san’atimiz tarixidan ma’lumki, ekran dunyosining tadrijiy rivoji bolalar va o‘smirlar kinosining alohida yo‘nalish sifatida ajralib chiqishiga zamin hozirlagan. Biroq shu vaqtgacha ertamiz egalarini o‘ylab suratga olingan filmlar sarhisob qilinsa, ijodiy sermahsullik u qadar yuqori emasligi ko‘zga tashlanadi. Taqqoslash

uchun misol. 1935-yil kinorejissyor Komil Yormatov tasvirga olgan zamonaviy mavzudagi “Qilich” ovozsiz filmi O‘zbekistonda bolalarga bag‘ishlangan birinchi kinokartina hisoblanadi. Ayni shu filmdan so‘ng ancha yillar davomida bolalar mavzusiga murojaat qiluvchi ssenariynavis ham, rejissyor ham topilmaydi. Nihoyat, 1952-yili yana Komil Yormatovning o‘zi tashabbus ko‘rsatib, “Paxtaoy” nomli ovoqli filmni jajji tomoshabinlarga tuhfa etadi.

Istiqlol yillari kinoning ifoda vositalari, ijodiy imkoniyatlari kengaydi, natijada bolalar kinosida ham anchayin o‘shish va taraqqiyot kuzatildi. “Tangalik bolalar” (T.Yunusov), “Abdullajon”, “Kichkina tabib”, “Osmondagi bolalar 1, 2” (Z.Musoqov), “Kulol va xurmacha” (G.Bazarov), “Tilsimoy – g‘aroyib qizaloq” (M.Boymuhammedov) kabi sara kartinalar dunyoga keldi. Birgina oddiy qishloq bolalari hayotidan hikoya qiluvchi “Tangalik bolalar” filmi har qanday tomoshabinni podsholik davrining inja lahzalari-yu tansiq onlariga, shodon pallalari-yu bor bedodliklariga oshno qiladi, o‘y-xayollarini olis-olis manzillar, hadsiz-hududsiz chegaralar sari eltadi.



Keyingi yillarda suratga olingan “Shatranj mamlakatiga sayohat”, “Uchar ot” (H.Hasanov), “Unutma meni” (Q.Kamalova), “Soy qo‘shig‘i” (F.Shamsimatov), “Yo‘qotilgan vaqt”, “Sehrlı qalpoqcha”, “Sariq devni minib” (S.Karimov) kabi kartinalar bolalar kinosida kechayotgan izlanishlarni baholi qudrat ifoda etuvchi filmlardan bo‘ldi. Ushbu filmlar ijodkorlarining hayotiy kuzatishlari, bolalar tarbiyasida muhim sanaluvchi ma’naviy-axloqiy mavzularga murojaat qilishi e’tiborga molik. Xususan, F.Shamsimatovning “Soy qo‘shig‘i” filmida kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketgan bolaning yakunda afsus-nadomat chekishi, virtual va real borliq o‘rtasidagi tafovutni anglab yetishi, o‘z xatosidan kerakli xulosa chiqarib, aql-u xushini qo‘lga olishi tabiiy, ishonarli syujet orqali ifoda etilgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari asosida suratga olingan film ham qiziqarli syujeti, yorqin badiiy ifodasi, personajlar xarakterining hayotiyli bilan ajralib turadi. Rejissiyor Sarvar Karimov mazkur filmni 2 ta qismini komediya janrida suratga olgan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillari o‘zbek kinosi o‘z ijodiy qiyofasi va yo‘nalishini tamomila yangilab, katta o‘zanga tushib oldi. To‘g‘ri, milliy kinematografiyamizda hal qilinishi lozim bo‘lgan, yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Lekin kino ijodkorlarning kino jarayonda faolligi, yosh ijodkorlarning katta kinoga dadil

kirib kelayotgani o'zbek kinosining umidli istiqbolidan darak beradi.

Mustaqillik yillarida milliy qo'shiqchilik sohasida ham siljishlar ko'zga tashlandi. O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib, milliy ruhdagi, xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni muntazam ravishda rag'batlantirib keldi. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik-tanlovlar o'tkazila boshladi. Xususan, 1992-yil mart oyida Toshkent shahrida tanbur, setor, qo'shmay, surnay va boshqa milliy soz ijrochilarining "Asrlarga tengdosh navolar" deb nomlangan respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. 1992-yil may oyida Xorazm viloyatida bo'lib o'tgan folklor jamoalari, askiyachi, qiziqchi va masxarabozlarning ko'rik-tanlovi, iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX an'anaviy lapar, yalla ijrochilari tanlovi va boshqa shu kabi tadbirlar milliy san'atimiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

1995-yil dekabrda "O'zbekiston – Vatanim manim" mavzuidagi qo'shiqlar ko'rik-tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat, shahar va tumanlarda juda katta ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi va uning natijasida yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi.

"O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq ko'rik-tanlovining 1996 yil mart oyida bo'lib o'tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar ishtirok etdi, 10 mingdan ortiq yangi musiqiy asarlar yaratildi. Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996-yil avgustida "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq bayrami haqida maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq bayrami kuni deb belgilab qo'yildi. Natijada, mazkur ko'rik-tanlov ommaviy tus oldi, unda nafaqat o'zbek milliy, shu bilan birga, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi, o'z san'atlarini namoyish etish imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san'atning qo'shiqchilik turiga teng e'tibor berilishi, ularning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi rivoj topdi.

Mamlakatimizda musiqa san'atiga qaratilayotgan e'tiborning yuksak namunasi – 1997-yildan buyon ko'hna va navqiron Samarqand shahrida o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali hisoblanadi. Har ikki yillikning mazkur nufuzli san'at anjumaniga Samarqand doim mezbonlik qiladi. Ushbu

musiqa festivalidan ko'zlangan asosiy maqsad, jahon mamlakatlarining san'ati va madaniyatini yoyish, targ'ib qilish, o'rganish, o'zaro tajriba almashish, shuningdek, dunyo xalqlari o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'st-u birodarlik rishtalarini bog'lashdan iborat. Shu ma'noda, Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bugun biz yashayotgan notinch va o'ta murakkab bir davrda bu festivalning ijobiy tomoni, ahamiyati va mohiyatini uning elu-elatlar o'rtasida hamkorlik rishtalarini mustahkamlash, hayotbaxsh musiqa san'ati orqali odamlar qalbida ezgu insoniy tuyg'ularni uyg'otish, mushtarak tomirlarni bir-biriga yaqinlashtirish kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishida ko'ramiz" [4. B-4].

Bu san'at anjumanining yildan-yilga obro'-e'tibori ortib, dunyodagi eng nufuzli musiqa festivallari qatoridan mustahkam va munosib o'rin topib borayotganligi barchamizning qalbmizni cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ulari bilan to'ldiradi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu festival "Sharq-u G'arb hech qachon uchrashmaydi" degan aqidani butunlay inkor etib, aksincha, Mag'rib-u Mashriqni o'zaro bog'lovchi robita, mustahkam bir ko'prikkay aylandi.

Mustaqillik yillari an'anaviy musiqaga e'tibor kuchaydi. Xalqimizning milliy o'ziga xosligi, urf-odat va marosimlari bilan bog'liq etnografik ansambllar, folklor dastalari tashkil topdi. Mumtoz musiqa ijrochiligida T.Alimatov, G'.Hojiqulov, Q.Iskandarov, H.Rajabiy, O.Xudoyshukurov, A.Ismoilov, M.Yo'lchiyeva, O'.Rasulov, M.Sattorova, R.Qurbonov, M.Tojiboyev kabi san'atkorlar o'ziga xos maktab yaratishdi. Zamonaviy milliy yo'nalishda K.Rahimov, Sh.Jo'rayev, G'.Yoqubov, Z.Suyunova, estrada xonandalaridan Botir, Luiza va Farrux Zokirovlar, Muhabbat Shamayeva, Yunus To'rayev, Nasiba Abdullayeva, Yulduz Usmonova, Yulduz Turdiyeva, Ilyos Arabov kabi san'atkorlar faol ijod qilishdi. Bugun ham ko'plab iste'dodli xonandalar ularning yo'lini davom ettirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik bizga milliy o'zligimizni, asriy an'analarimizni va mustahkam e'tiqodimizni yanada rivojlantirish imkoniyatini tuhfa etdi. Endilikda o'zbek milliy kino san'ati va milliy qo'shiqchilik sohalari, umuman san'at va madaniyatning barcha jabhalarida professional ijodiy muhit yaratilib, oldinda yetuk asarlar tug'ilishi lozim. Biz pedagoglardan esa jahon standartlariga mos ravishda yetuk va malakali kadrlar yaratish vazifasi talab etiladi. Zero, porloq kelajakni – intellektual salohiyatli yoshlar yaratajak!

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Акбаров Ҳ. Кино санъати тарихи: қўлланма. -Ташкент: Ислон университети нашриёти, 2005. -Б. 210.
2. Ҳайдарова Н. Ўзбекистон анимацион фильмлари даврий каталоги. –Ташкент; 2019. -Б.126.
3. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг 2011 йил Самарқанд шаҳрида ўтказилган "Шарқ тароналари" VIII халқаро мусиқа фестивалининг тантанали очилиш маросимида сўзлаган нутқидан // Халқ сўзи. -2011. 23 авг.
4. Йўлдош Қ. Постмодернизм: моҳият, илдишлар ва белгилар //Жаҳон адабиёт. -2015. -№10. -Б. 207.



## XALQ IJODIYOTI VA SAN'AT

**Annotatsiya.** Insoniyat tafakkur faoliyatining ilk rivoji soʻz vositasi shakllangan. Shuning uchun ham diniy va dunyoviy ilmlarda soʻz muqaddas hisoblanadi. Kishilik madaniyati tarixi haqida olib borilgan aksariyat tadqiqotchilarda til bosh omil sifatida baholangan. Soʻz, til tufayli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼnaviy birlik shakllangan. YAʼni koʻpgina xalqlar va etnik guruhlar nomlanishiga til asos boʻlib xizmat qilgan. Soʻz faqat muloqot vositasi boʻlmay, odamlarning jamoa boʻlib hayot kechirish jarayonida muhim madaniy-maʼrifiy hodisa rolini oʻynagan. Quyidagi maqolada oʻzbek xalqi ijodiyoti merosi bilan sanʼat oʻrtasidagi munosabatlar tadqiq qilinadi. Folklorning eng qadimgi shakllaridan tortib, zamonaviy koʻrinishlarga qadar insoniyat maʼnaviyati, madaniy-estetik dunyoqarashi taraqqiyotidagi oʻrni toʻgʻrisida mulohaza yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** folklor, moddiy va nomoddiy madaniyat, transformatsiya, mif, epos, paremiologiya, anʼana, evolyusiya, variantlilik, ogʻzakilik.

Сайиткул АЛИМОВ,  
кандидат филологических наук, доцент ГИИКУЗ

## НАРОДНОЕ ТВОРЧЕСТВО И ИСКУССТВО

**Аннотация.** Слово имеет ключевую роль в развитии человеческой интеллектуальной деятельности. Поэтому в религиозных и светских науках слово является священным. В большинстве исследований по истории человеческой культуры язык был определен как ключевой фактор. Социально-экономическое, культурное и духовное единство формируется за счет слова и языка. Другими словами, язык использовался в качестве основы для названия многих наций и этнических групп. Слово - это не просто средство общения, оно сыграло важную культурную и просветительскую роль в жизни людей и сообществ. В следующей статье исследуется связь между наследием узбекского народа и искусством. Обсуждается роль фольклора в развитии духовности, культурного и эстетического мировоззрения, от самых ранних форм до современных.

**Ключевые слова:** фольклор, материальная и нематериальная культура, трансформация, миф, эпос, паремология, традиция, эволюция, вариация.

Sayitkul ALIMOV,  
candidate of Philology, Associate Professor UzSIAC

## FOLK CREATIVITY AND ARTS

**Abstract.** The first development of human intellectual activity was formed by the word. Therefore, in the religious and secular sciences, the word is sacred. In most studies on the history of human culture, language has been identified as a key factor. Socioeconomic, cultural and spiritual unity is formed due to the word and language. In other words, language has been used as the basis for the name of many nations and ethnic groups. Word is not just a means of communication, it has played an important cultural and educational event in the lives of people and communities. The following article explores the relationship between the legacy of Uzbek people and art. There is a discussion on the role of folklore in the development of spirituality, cultural and aesthetic worldview, from the earliest forms to the modern ones.

**Keywords:** folklore, material and intangible culture, transformation, myth, epic, paremiology, tradition, evolution, variation, verbality.

Insoniyat tafakkur faoliyatining ilk rivoji soʻz vositasida shakllangan. Shuning uchun ham, diniy va dunyoviy ilmlarda soʻz muqaddas hisoblanadi. Kishilik madaniyati tarixi haqida olib borilgan aksariyat tadqiqotlarda til bosh omil sifatida baholangan. Soʻz, til tufayli ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼnaviy birlik shakllangan. Yaʼni koʻpgina xalqlar va etnik guruhlar nomlanishiga til asos boʻlib xizmat qilgan. Soʻz faqat muloqot vositasi boʻlmay, odamlarning jamoa boʻlib hayot kechirish jarayonida muhim madaniy-maʼrifiy hodisa rolini oʻynagan. Jamoaviy hayotning dastlabki shakli oila hisoblanadi. Undan soʻng urugʻ, qabila, elat mukammal etnik tizimiga ega xalq tarkib topgan. Soʻz, til insoniyatning barcha tarixiy bosqichlari uchun muhim taraqqiyot qurolidir. Oila esa ijtimoiy- iqtisodiy birlikni belgilovchi urugʻ, qabila va xalqlar etnik hayot tarzining birinchi koʻrinishidir. Demak, odamzod tomonidan yashash va hayot kechirish uchun xizmat kiluvchi birinchi kashf etilgan moddiy asbob-anjom ashyolari, mehnat qurollari va odamlar oʻzaro muloqatlari, oʻzlarini oʻrab

turgan tabiat, koinotdan olgan hayratlanish natijasida olgan taassurotlari, sodda fantaziyasi va boshqa jihatlar turmush madaniyatining ilk koʻrinishlari hisoblanadi. Ular turli koʻrinish va vazifalarga ega boʻlib, odamlar jamoa sifatida yashay boshlagach, yashash uchun kurash ehtiyoji natijasida qoʻl bilan yasalgan ilk moddiy predmet va asbob-anjomlar asta-sekin takomillasha borib, davrlar oʻtishi bilan koʻpchilikni qiziqtiruvchi, zavqlantiruvchi va hayratlantiruvchi predmetlar paydo boʻla boshlagan, yaʼni ilk sanʼat asarlari namunalari maydonga kelib, moddiy va nomoddiy madaniyatning shakllari paydo boʻla boshlagan edi. Qadimshunos olimlar tomonidan qayd etilgan birinchi sanʼat ashyolari uy-joy – makon bilan bogʻliq namunalari hisoblanadi. Zero, inson yashaydigan makon, yaʼni manzil qancha - qancha tarixiy davrlar oʻtishiga qaramay, hamon oʻzining asl mohiyatini saqlab kelmoqda.

Shuni alohida taʼkidlash joyizki, yuqorida taʼkidlangan oila munosabati asta-sekin rivojlana borib, ona- zamin, kindik qoni toʻkilgan muqaddas joy maʼnosida muqaddas

ijtimoiy tushunchaga aylandi va bu an'ana – ya'ni odat insoniyat har tomonlama taraqqiy etgan 21-asrga qadar yetib kelib, turli-tuman etnoslar tarixiy joylarini ideallashtirib, uning yanada taraqqiyot etishini ta'minlash uchun kurashmoqdalar. Mazkur an'ana ming yillar mobaynida takomillasha borib, odamlarning tafakkur taraqqiyotida global darajaga ko'tarildi. Bugungi yer yuzi aholisi turli irq, millatlar va elatlarga bo'linib, ona-yurt, Vatan, mamlakat va davlat singari ijtimoiy tushunchalar yuzaga kelishi uchun zamin yaratgan edi. Muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil, 5-aprel kuni "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalining ochilishiga bag'ishlangan yig'ilishda: "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlari ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir"– deganlarida xalq ijodiyoti donishmandligiga baho bergan edilar. Demak, yer yuzidagi barcha millat, elat va xalqlarga xos turli an'ana va urf-odatlar, etnomadaniyat qadriyatlarini ularning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim vosita bo'lganligi, ular hanuzgacha o'z qadrini yo'qotmay kelayotganligi nazarda tutilsa, boshqa etnoslar qatori insoniyatning umumiy taraqqiyot qonuniyatiga muvofiq bu holat o'zbek xalqi san'at va madaniyati evolyusiyasiga jarayoniga ham bevosita taalluqlidir.

O'zbek xalqining o'ziga xos milliy ijodiyoti – og'zaki badiiy so'z san'ati va etnik turmush madaniyati Jahon etnologiyasi, madaniyatshunosligi, folklorshunosligi va san'atshunosligi fanlari nuqtai nazaridan nisbatan keyinroq o'rganila boshlandi. Ayniqsa, XX-asrning 60-yillarida Yevropa va jahon madaniyatshunos, etnograf va folklorshunoslik tadqiqotlari yurtimizga kirib kela boshlagach, Hodi Zarifov, Buyuk Karimiy, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova, J.Qobulniyozov, M.Saidov, T.Mirzayev, M.Murodov, G'.Jalolov, B.Sarimsoqov, K.Imomov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, SH.Turdimov, Omonulla Madayev S.Yo'ldosheva, M. Qo'shmoqov va boshqa o'nlab o'zbek folklori so'z san'ati ilmiy-nazariy tadqiqotchilari, shuningdek, I.Jabborov, V.Livshits, S.Klyashtorniy, B.G'ofurov, V.Masson, K.Shoniyozov, A.Asqarov, T.Qilichev, B.Aminov kabi o'zbek etnograf tadqiqotchilarining ilmiy-nazariy ishlari maydonga keldi. Qariyb, bir asr mobaynida o'zbek xalq ijodiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommaviy tadqiqotlar va zahmatkash olimlarimiz tomonidan qishloqma-qishloq, ovulma-ovul, tog'ma-tog', cho'lu sahrolar kezib to'plangan materiallar, shuningdek, XXI-asr boshlari ilm-fan texnologiyalari hamda sohaga tegishli bo'lgan axborotlar bazasi aks etgan zamonaviy elektron texnologiyalari vositasi orqali olingan materiallar ta'siri asosida xalq ijodiyoti va zamonaviy san'at munosabatlariga doir ayrim mulohazalarni bayon etishga maqsad qildik.

XXI-asr boshlariga kelib, O'zbekiston madaniy hayotida xalq ijodiga qiziqish yanada kuchayganligi ko'zga tashlanadi. Buni kundan-kun yangilanib, yuksalib borayotgan davlatimiz Rahbarining asrlar osha bizga qadar yetib kelgan ona-xalqimiz ijodiyotiga nisbatan ko'rsatayotgan e'tibori va g'amxo'rliklari hamda davr nafasini o'z vaqtida his etayotgan fidoiy insonlar faoliyatlaridan bilish mumkin. Xalq ijodiyotining bitmas-tuganmas xazinasidan badiiy adabiyot so'z san'ati, tomoshaviy san'atning turli janrlari, shuningdek, barcha

turdagi ommaviy axborot vositalarida uning badiiyligi ya'ni so'z qudratidan iloji boricha fikr ta'sirchanligi, tinglovchi qalbiga tez va chuqur kirib borishi, ko'pchilik uchun ibratli bo'ladigan fikr-g'oyalarni ifodalashlarida namoyon bo'ladi. Chunonchi, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar faoliyatlarida epik folklor janrlari (afsona va rivoyatlar, ertak va dostonlar) hamda xalq maqollari, iboralari, olqish-qarg'ish, aytimlari singari paremiologik janrlarlardan bahramand bo'lish hollari so'nggi davrlar o'zbek adabiyotida kuchayganligini M.Yusuf, A.Obidjon, M.Toyir, A.Suyun, F.Afro'z va boshqa ijodkorlar asarlarida kuzatish mumkin. Ayniqsa, zamonaviy kino san'ati, animatsion filmlar ssenariyalarida o'zbek xalq maqollari, iboralari, afsonalari, rivoyatlari, ertak va dostonlaridan foydalanish, qahramonlari nutqida ulardan o'rinda qo'llash faktlari fikrimiz dalilidir. Bulardan tashqari, san'atning musiqa, qo'shiq va estrada yo'nalishida shakllangan tomoshalarida xalqning o'yin folklori, bolalar folklori raqslari, xalq marosim folklori, ayniqsa, baxshilar terma va doston kuylaridan, baxshilar ijro usuli hamda ohanglaridan bevosita foydalanilayotganligini zamonaviy bolalar guruhlaridan tortib, "Yalla", "Boysun", "Lazgi" singari taniqli jamoalar repertuarlari orqali ko'rish mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joiz, "Yalla" ansambli folklor qo'shiqlari orqali dunyoga tanilgan. Uning nomlanishi ham xalq yalla va lapar qo'shiqlari nomiga monand. Bundan tashqari, yaqin va olis xorij safarlariga chiqadigan har qanday ashula va raqs guruhlari yoki taniqli san'atkorlar albatta folklor namunalari raqslari bilan o'z repertuarlarini boyitishadi. Sivilizatsiya nisbatan yuksalgan yevropa san'atsevarlarini zamonaviy estrada musiqa va qo'shiqlari allaqachonlar joniga tekkanligi san'atshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Buni kundalik gazeta va teleradio intervyularida qo'shiqchi yoki musiqachilarimiz tomonidan aytilayotgan fikrlaridan ham bilsa bo'ladi. Darhaqiqat, o'tgan asrning 80-yillari Toshkent davlat madaniyat institutining prof. M.Murodov rahbarligida yurtimizning hali zamonaviy estrada qo'shiqchiligi kamroq yetib borgan hududlari qishloq-ovullarida o'tkazib kelgan folklor-etnografik o'quv-amaliyotlari payti yozib olingan va magnitofon tasmasiga tushirilgan xalq qo'shiqlari, aytimlari, raqs va laparlari o'sha davr yosh estrada ijrochilari tomonidan transformatsiya qilinganligi, xalq ijodiyotiga nisbatan qiziqishning kuchaya borganligini tasdiqlaydi. Misol tariqasida Xorazmning Xeva, Shovot tumanlari va ularning atrofidagi qishloqlarda o'tkazilgan folklor-etnografik ekspeditsiya payti Bola baxshi, Norbek baxshi Abdullayev, Qalandar baxshi Normetov va yoshi ulug' otaxon-onaxonlardan yozib olingan to'y, mehnat va marosim qo'shiqlari, o'sha region aholisiga xos har xil aytimlar, afsona va rivoyatlar orqali asoslash mumkin. Chunonchi, "Chipra Dalli" qo'shig'i zamonaviy estrada ijro usuliga mosligi, raqs va qo'shiqning estrada ritmiga to'g'ri kelishi o'sha yillar chika boshlagan Baxtiyor Sultonov ismli estrada guruhi a'zosi tomonidan sayqallashtirilib, O'zbekiston televideniyesi ekrani orqali namoyish etildi. Shundan sal o'tmay, xorazmlik yosh estrada ijrochilari mazkur folklor namunasini maxsus ssenariya asosida sahnalashtirib, san'atsevarlarga namoyish etgan edilar. "Chipra Dalli" qo'shig'i o'zining qadimgi yumorga boy va satirik mohiyatini o'zgartirib, zamonaviy yoshlarning sevimli asariga aylandi. Xalq ijodidan davrga moslab foydalanishning yorqin namunasini ushbu qo'shiq hamda keyinchalik Janubiy O'zbekiston xalq baxshilari terma va dostonlari ta'sirida shakllangan "Boysun", "Momogul" singari nomlari xalqqa tanilgan jamoalari ijrolari

namunalarini ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birgina "Chipra Dalli" xalq qo'shig'i ta'sirida sahnalashtirigan estrada qo'shig'i kadimgi paytlarda ommaviy tomoshalar, to'ylar va yosh-yalanglar to'planadigan sayillarda an'ana xalq udumlarini yaxshi biladigan o'spirinlar tomonidan ijro qilib kelinganligini baxshidan bilib olgan edik. Xiva tumanining Ogohiy jamoa xo'jaligi madaniyat uyida tashkil etilgan «Doston» folklor-etnografik ansambli badiiy rahbari Norbek baxshi Abdullayev otasi – Bola baxshi hamda Xiva tumani atrofidagi qishloqlar aholisidan bunday nomoddiy madaniyat merosi namunalarini yozib olib, ansambl repertuariga moslashtirib, har yakshanba kunlari va bayram-sayillarda namoyish etganligi guvohi bo'lganmiz. "Chipra Dalli" qo'shig'i azaldan bir o'spirin raqqos tomonidan qo'shiq ohangiga mos kuylab kelingan. O'sha ekspeditsiya paytida "Chipra Dalli" qo'shig'idan tashqari, «Qum pishigi»(yumronqoziq) voqeband raqsi ham ko'rsatilgandi. Xalq masxarabozligi va yumorga boy raqsi ijrochi bola burni bilan pastki labiga kichkina cho'p ayrichani o'rnatib, xuddi yumronqoziq harakatlariga monand ravishda olingan yemaklarini ini tomonga olib borishi uni boshqa jonivorlar ko'rib qolmasligi uchun turli qiliqlar namoyish etgan edi. Qum mushugi shevada "pishik" – yumronqoziq dehqonlarning ekinlariga zarar yetkazishini raqs ijrochisi bu timsolda turli zararkundaga xos harakatlari bilan raqs tushib, tomoshabinlarga zavq bag'ishlagan edi. Keltirilgan faktlardan ma'lum bo'ladiki, kadimgi ajdodlar erta-yu kech faqat mehnat qilishib, yegulik dardida yashagan emaslar. Ular Yaratgan tomonidan in'om etilgan fikrlash, fantaziyalash va odam bolasiga berilgan ma'nan dam olish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish singari insonga xos jihatlar taomili borasida sodda bo'lsa ham o'ziga xos san'atini kashf qilishgan. 2019-yilning dekabr oyi o'rtalarida Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Xorazm folklori san'atining merosi – «Lazgi» nomoddiy madaniyat sifatida tan olinishi ushbu meros o'zining qadimiyligi va chuqur tarixiy ildizga ega mifologik raqs ekanligini tasdiqlaydi.

Xalq ijodiyoti merosi bugungi kundagi tomosha san'atining barcha tur va janrlari uchun bebaho manba hisoblanadi. Tomosha qilish bilan bog'liq san'at faqat qadimgi Rim-Yunon, Mesopatamiya kabi tarixiy arxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan, antik davr dramalari namoyish etilgan teatr spektakllari sahnalashtirilgan manejarlar, hamda yirik sport musobaqalari o'tkazish uchun mo'ljallangan o'yingohlari saqlanib qolgan shaharlar etnoslarigagina xos emas. Binobarin, o'zbek xalq ijodiyoti milliy merosida «Xalq teatri» va «Og'zaki drama» kabi tomosha san'ati an'anasi saqlanib qolgan va ulardan ayrimlari hozirgacha mavjud. Mazkur milliy tomosha san'ati xuddi xalq baxshichiligi singari o'zining qadimiy shaklini o'zgartirib, ommaviy badiiy tadbirlar, to'y-tomoshalarda askiyachilik, qiziqchilik, miniatyura teatri kabi shakllarda davom etmoqda. Xalq ommasi tomoshasiga mo'ljallangan bu nomoddiy madaniy san'at tomoshabinlar yoki tinglovchilarni jalb etish uchun jonli so'zlashuvning poetik so'z boyligi hamda o'ziga xos ovoz jozibasini usullari, harakat-ritmlaridan mohirona foydalanishgan. Bunday ijrochilik esa odamlarga zavq bag'ishlab, ma'naviy-ma'rifiy g'oya ulashgan va ularda hayotga nisbatan muhabbat tuyg'ularini uyg'otgan. Demak, qadimgi davrlarda an'anaviy tomoshalar ko'pincha odamlar mehnatlaridan keyin bo'sh vaqtlarini madaniy-ma'naviy hordiq chiqarishlari uchun xizmat qilgan. Xalq aktyorlarining jonli ijrodagi mahorati tomoshabinlarga muayyan estetik zavq

bergan. An'anaviy xalq teatri og'zaki dramaturgiyasining XXI-asrga qadar yetib kelgan eng yorqin namunasi bu «Askiya» va «Qiziqchilik» («Masxarabozlik») san'atlaridir. Mazkur xalq ijodiyoti merosi XX-asr boshlarida Turkistonga kirib kelgan Yevropacha teatr san'atining yurtimizda urf bo'lishi uchun o'ziga xos manba rolini o'ynagan. Xususan, Hamza, Behbudiy, Mannon Uyg'ur kabi dastlabki teatr san'ati arboblari ijodiga ta'sir qilib, o'zbek professional teatr san'atining yurtimizda shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan edi. «Padarkush», «Maysaraning ishi», «Tuhmatchilar jazosi» va boshqa dramalar XIX-asr oxirlari va XX-asr boshlari xalqimiz mehriqasiga sazovor bo'lganligini maqsadga muvofiq. Hozirgi faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek teatr san'ati tamal toshini va xalq ijodiyotidan bahramand bo'lish uslubini ana shu ma'rifatparvar ijodkorlardan olganligini hech kim inkor eta olmaydi.

Hozirgi o'zbek teatr sahnasidan hamon tushmay kelayotgan «Kelinlar qo'zg'oloni», «Oltin devori», «Toshbolta oshiqi» singari spektakllar tomoshabinlarga zavq berishidan tashqari, xalqimiz etnomadaniyati an'alarini yosh avlodlarga namoyish etishi, o'zbek oilalaridagi ota-ona, aka-uka, tog'a-jivan, qarindosh-urug'chilik va qo'ni-qo'shnicilik kabi ijtimoiy munosabatlarning ma'naviy ahamiyatini ko'rsatishda ham muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Chunki, qayd etilgan spektakllardan tashqari, etnomadaniy va folklorizm bilan boyitilgan boshqa ana shu tipdagi sahna asarlari hech qachon tomoshabinlarini yo'qotmaydilar. Xalq ijodiyoti badiiy an'analari bilan sug'orilgan tomosha san'ati milliy o'ziga xosligimizni saqlab qolishda Muhtaram Yurtboshimizning zamonaviy san'at asarlari yaratayotgan dramaturglar, rejissyorlar va madaniyat sohasida xizmat qiluvchi barcha mutaxassislar ish uslublarini yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyoti yo'lida qanday o'zgartirish bo'yicha bayon etgan fikrlari muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz ta'kidlagan bunday ruhdagi spektakl tomoshalarini ijod etishlari, asarga xalqona ruh berishlarida ssenariya mualliflari, rejissyorlari va aktyorlarimiz, avvalo o'zlari xalq ijodiyotini yaxshi bilishlari, chuqur his etishlari, uning asl mohiyatini anglagan bo'lishlari talab qilinadi. Spektakl tomoshabop bo'lishi uchun munosib ko'rinishlardagi qahramon va obrazlar (aktyorlar, ommaviy sahna aktyorlari) tanlashi, ularga milliylik ruhini berishlarida faqat grimm va liboslarga e'tiborni qaratishlaridan tashqari, jonli ijro jarayoni yanada tabiiy, etnik turmushimizga xos nutq, mimika-jest, hatti-harakatlar va, eng asosiysi, xalq og'zaki ijodining odamlar kundalik turmush tarzida ko'p qo'llaniladigan xalq maqollari, iboralar, yumorga yo'g'rilgan so'zlaridan foydalanishga erishmoqlari zarur.

Teatr, kino va maydon tomoshalari san'atlarida so'z, undan o'z o'rnida foydalanish, nutq mahorati muhim ahamiyatga ega. Buni Rixsivoy Muhammadjonov tomonidan ekranga chikarilgan «Chinor ostidagi duel», «Suyunchi» tipidagi badiiy filmlar misolida ko'rsatish mumkin. «Mahallada duv-duv gap», «Maftuningman», «Yor-yor», «Abdullajon» kabi filmlar qahramonlari tomonidan aytilgan so'z va iboralar, dialog gaplar hamon tomoshabin xotirasida muhrlanib qolganligidan ham bilsa ham bo'ladi. Demak, xalq og'zaki badiiy ijodi so'z san'ati teatr, kino va maydon tomoshalarining milliy ruhi, ma'naviy-g'oyaviy barkamol va har tomonlama muvaffaqiyatli chiqishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilar ekan.

Tomoshaga asoslangan san'at turlari xalq ijodiyotining faqat nomoddiy merosidan foydalanmay, o'z o'rnida



moddiy shakllaridan ham foydalanadi. Buni milliy madaniyat an'analari uslubida sahnalashtirilgan spektakl, badiiy film va maydon tomoshalari bezaklari, ishtirok etuvchi obrazlari kostyum-liboslari orqali kuzatish mumkin. Chunonchi, sahnaga qo'yilgan etnomadaniyatga oid turmushda ko'p ishlatiladigan turli idish-anjomlar, dehqonchilik, hunarmandchilik, bog'dorchilik va boshqa ish qurollari - kundalik hayot tarzida yaqqol ko'zga tashlanib turishida ko'rish mumkin. Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish maqsadga muvofiq, ya'ni XXI-asr tomosha san'atlari rejissyorlari, ssenariyachilari xalq ijodiyoti merosi tarixi, ularning kelib chiqishiga bilan bog'liq an'analarning ilmiy nazariyasi va amaliyoti bo'yicha muayyan bilim-ko'nikmalarlarini yaxshi bilishlari lozim.

O'zbekistonda Davlatimiz Mustaqilligi qo'lga kiritilgan birinchi yillari maydon tomoshalari san'atiga asosiy e'tibor qaratilib, u zudlik bilan rivojlantirildi Buning boisi, O'zbekistonni jahon hamjamiyatiga tezroq tanitish, yurtimizga xorijlik investorlarni jalb etish, va eng asosiysi, uzoq yillar sovet g'oyalari bilan yashab kelgan xalqimizga Istiqloqlarning mohiyatini ommaviy tomoshalar vositasida ko'rsatish, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini mafkuraviy singdirish, ayniqsa, Mustaqillik immunitetini shakllantirish singari dolzarb vazifalardan iborat edi. Davlatimiz rahbari va o'sha davr maydon tomoshalari tashkilotchilari, ssenariya hamda rejissurasi bilan shug'ullangan mas'ullar iloji boricha, tomoshalar tabiiyligi va ta'sirchanligini oshirishlarida Xalq ijodiyoti an'analari asosiy urg'uni berishdi. Buni hozirgi «Xalqlar do'stligi» saroyi maydonida ilk o'tkazilgan «Navro'z» xalq bayram-sayilida "Ipak yo'li" sahnasini ko'rsatishda qo'shni Qozog'iston davlatidan maxsus olib kelingan va ularga o'sha qadimgi davrlar ruhini aks ettiruvchi savdogaru sarbonlarni mindirishib, Toshkentning teatr artistlarini maxsus kiyimlar, turli ashyolar bilan bezantirib namoyish etilganligidan bilish mumkin. Binobarin, dastlabki «Navro'z», «O'zbekiston Mustaqilligi» xalq bayramlari keng miqyosda namoyish qilinishi faqat mamlakatimiz ommaviy axborot vositalaridan tashqari, yaqin va olis xorij tomoshabinlariga yo'ldosh vositasi orqali ko'rsatilgan edi. O'sha maydon tomoshalari milliy an'analimizning qay darajada muhim ahamiyat kasb etganligi va ular dunyo xalqlari tomoshabinlarida ham juda katta taassurot uyg'otganligini o'sha davr o'zimizning ommaviy axborot vositalaridan tashqari, jahon axborotida ham keng miqyosda yoritilganligidan ham bilsa bo'ladi.

2017-yilga kelib, «Navro'z» xalq bayrami maxsus manej yoki usti yopiq binolardan davr talabiga ko'ra, ko'proq tabiat qo'yni yoki atrofi ochiq joylarda tashkil etish an'anaga aylandi. Bu bayram o'z nomi bilan haqiqiy xalq sayliga aylantirildi. Endilikda maydon tomosha-sayillar odamlar ko'p to'planadigan istirohat bog'lari yoki katta guzarlarda uyushtirila boshlandi. Bayramda ilgari degidek, faqat maxsus taklifnomalar orqali tashrif buyuradigan tomoshabinlar o'rni butun boshliq mehnat jamoalari, butun oila a'zolari, katta-yu kichik ishtirokchilar qatnashib, xohlaganlaridek sayil qilishib, tashkilotchi-rejissyorlar tomonidan aynalashtirilgan turli-tuman sahna tomoshalari, konsertlar va har xil ko'ngil ochar o'yin- musobaqalarda qatnashadilar. Keng miqyosda uyushtiriladigan bayram-sayillarda asosiy bayram saxnasi bo'ladi. Unda «Navro'z» bayram-sayilining yetakchi g'oyasini tashviq etuvchi ibratli ma'ruza va suhbatlar bayon etilib, tadbirga kelganlar tabriklanadi, qo'lga kiritilgan g'alabalar, bajarilgan ishlarga umumiy xulosa berilib, yangi yilda rejalashtirilgan

maqsadlar haqida gapiriladi. Bayram tabrik va qutlovlar xalqona so'zlar orqali bayon etilib, rasmiylikdan iloji boricha cheklanadi.

San'atning barcha tur va janrlari xalq ijodiyotidan maqsadli ravishda ijodiy foydalanish zarur. Chunki zamonaviy elektron vositalari, ayniqsa, internet orqali berilayotgan o'zga mamlakatlarning bayram va ommaviy – badiiy tadbirlari yosh avlod ongiga u yoki bu darajada ta'sir etishi tabiiy. Mana shu muammolarning ijobiy hal etilishida soha mutaxassislari xalqimiz milliy ijodiyoti bo'yicha ilmiy-nazariy va ixtisosligi bo'yicha tajribalarga ega bo'lishlari kerak. Binobarin, tomoshaviylikni yanada kuchaytiraman deb, Fransiya yoki Braziliyadagi karnaval raqslari ijro uslubi va grimm-liboslaridan ijodiy «baxramand» bo'lmaslik kerak. Bayram-sayillardagi xalq raqslari ijro uslubi shu darajada rang-barangki, ulardan tadbir maqsadini amalga oshirishda bemalol foydalanish imkoniyati bor. Bunga xar ikki yilda bevosita folklor-etnografik anjuman o'tkazib kelinayotgan «Boysun bahori» yoki «Qo'qon kasb-hunarmandchiligi festivali» va boshqa ommaviy-badiiy tadbirlar bevosita misol bo'la oladi. Xalq ijodiyoti bilan bog'liq tashkil etiladigan har qanday ommaviy-badiiy tadbir xalq orasidan chiqqan va xalq an'ana – udumlarni yaxshi biladigan, so'zga chechan odamlarga ishonib o'tkazilmaydi, balki ularning maqsadini bayramshunoslik va rejissura ilmi sirlaridan boxabar mutaxassislar tomonidan tashkillashtiriladi. Buning yaqqol dalili sifatida so'nggi yillar Boysun, Kitob, Xiva, Sarmishsoy va Qo'qonda muvaffaqiyatli ravishda o'tkazilgan moddiy va nomoddiy xalq madaniyatiga bag'ishlangan bayram-festivallari misol bo'la oladi.

Ommaviy tomosha san'atining bevosita xalq marosim va udumlari maxsus professional tayyorgarlikka ega bo'lmagan oila yoki maxallada hayotiy tajribaga ega bo'lgan keksa kayvoniy oqsoqollar tomonidan uyushtirilishi an'anaviy holat hisoblanadi. Masalan, to'y, ma'raka yoki biror oilaviy marosimlar shu mahalla, ko'cha, guzarida ko'pchilik tomonidan e'tirof – hurmatga sazovor otaxon-onaxonlarga maslahat solingan tarzda hozirga qadar o'tkazib kelinishi o'zbek etnomadaniyatiga xos lokal xususiyatdir. Odamlar tomonidan asrlar bo'yi e'zozlab kelinayotgan bunday ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-madaniy ahamiyatga molik an'analarning otadan farzandga, onadan qiziga va ustozdan shogirdga o'tishi, quvvai hofiza orqali o'zlashtiriladi. Mazkur holatni xalq og'zaki badiiy ijodidagi ertakchilik, askiyachilik, baxshichilik va xalfachilik an'analari tizimiga ham qiyoslasa bo'ladi. Zamonaviy madaniyatshunos va san'atshunoslik professional tomoshalar milliyligi, mafkuraviyligi va badiiyligini ta'minlashlarida davom etib kelayotgan an'anaviy xalq rejissurasidan meyor bilan ijodiy foydalansalar maqsadga muvofik bo'lar edi. Chunki sahna vositasida tomoshaga mo'ljallangan san'at asarlarida tomoshabin bilan ijrochilar muloqati muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq ijodiyoti merosining moddiy va nomoddiy turi davrlar o'tishi va ijtimoiy-madaniy hayot tarzi evolyusiyasiga muvofiq zamonaviy san'at asarlari tarkibiga transformatsiyalashadi. Buni san'atning badiiy adabiyot, teatr va maydon tomoshalari turlarida ko'proq kuzatish mumkin. Ayniqsa, badiiy so'z san'atining bolalar adabiyoti, teatr san'atining etnografik mavzuidagi dramalari va xalq milliy marosimlari, urf-odatlar yetakchi planda namoyish etiladigan ommaviy maydon tomoshalari kabilarda ijodkorlar ibratli g'oyalarni qiziqarli namoyish etishlarida foydalanganliklarida namyon bo'ladi. Xalq ijodiga xos

voqelik va ibratli sahnani transformatsiyalashda XXI-asr informatsiyalar ummonida hayot kechirayotgan kitobxon, tomoshabin yoki maydon tomoshalari ishtirokchilarining psixologik – ruhiy holatlari, ularning his-tuyg'ulariga xos nozik jihatlari hisobga olingan uslubda ish tutishlari kerak. Chunki insonning tabiatida ko'proq informatsiya olish, iloji boricha vaqtni tejash singari ruhiy holatlar mavjud. Bu XXI-asrga kelib kitob mutolaasi va kitobxonlikka zarar yetkazdi. Shuning uchun kadimgi avlodlar ko'z orqali ko'rish, quloq vositasi orqali bilim-axborotlar olish muvozanati buzilmasligi uchun bolalar o'rtasida ko'proq she'r yodlash, ko'proq maqol aytish singari tadbirlar o'tkazishgan. Bu xildagi xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya tadbirlari O'zbekistonning turli viloyatlari aholisi etnik turmush tarzi an'alariga mos uyushtirilgan. Masalan, qadimdan o'troq yashash tarziga xos aholi o'rtasida qissaxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik kabi tadbirlar uyushtirilgan bo'lsa, janubiy hududlar aholisi o'rtasida baxshichilik, ertakchilik singari inson ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga yordam beradigan yig'inlar o'tkazilgan.

Xalq ijodiyoti tushunchasi mohiyatan juda keng va ko'p kirralidir. San'atning hozirgi zamon odamlari uchun eng yakini bo'lgan kuy, qushiq va raqs turlari kitob o'qish, mutolaa bilan shugullanish va eng asosiysi fikrlash kabi mashg'ulotlardan ilgari bormoqda. Inson nafsini ko'proq mehnat qilish, zaxmat chekish xisobiga aql-idrokni rivojlantirish singari yengil-yelpi xarakterga moyilligi azaldan yoritib kelingan. Qadimgi ota-bobolarimiz kelajak avlodlari aql-idrok tarbiyasi, tafakkur takomili borasida ham xalq donishmandligi tadbirlarini yaratishgan. Ular faqat so'z san'ati merosida emas, balki turli marosim, udum va mehnat jarayonlarida qo'llaniladigan raqs, voqeband harakatlar, o'yinlar vositasida namoyon bo'ladi. Xalq ijodiyotiga xos bo'lgan moddiy, nomoddiy barcha madaniy meros namunalari odamzodning aql-idrok takomili va ma'naviy estetik, ma'naviy – axloqiy ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Masalan, ulkan imoratu jajjigina bezak buyumlari, ommaviy ahamiyat kasb etuvchi katta ashulayu, bolalar folkloriga xos o'yin qo'shiqlari mazmun mohiyatiga nazar tashlansa, ularning amaliy jihati namoyon bo'ladi. XXI-asr tomoshabinlari tomonidan zamonaviy musiqa asboblari ohanglari yordamida sevib o'ynaladigan «Lazgi» raqsi mutaxassis olimlar e'tiroficha, yurtimiz aholisi ming yillar muqaddam otashparastlik diniga topingan davrlar shakllangan bo'lsa-da, mazkur raqs hamon insonning hayot go'zalliklariga nisbatan real munosabatlarini aks ettiruvchi nomoddiy madaniyat namunalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Garchi, moddiy va nomoddiy xalq ijodiyoti faqat san'at namunalarini sifatida muayyan etnosning turmush tarzi, ma'naviy – falsafiy qarashlarini u yoki bu darajada aks ettirib qolmay, o'z navbatida qadimgi ajdodlarimiz

diniy e'tiqodlari va dunyokarashlari haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. Bu esa o'sib kelayotgan avlodlarga ota-bobolari tarixi, ularning kelajak uchun naqadga bebaho meros qoldirganliklarini tasdiqlab, o'zlari ham avlodlar davomiyligini saqlab qolishlarida ibratli tarbiya rolini o'ynaydi.

Xalq ijodiyotining san'at asarlari bilan juda yaqin munosabatini badiiy adabiyotning bolalar adabiyoti misolida ko'rsatish maksadga muvofikdir. Badiiy so'z san'atining ushbu turi xalq og'zaki ijodiyoti folkloridagi maqol, topishmoq, afsona va rivoyat, ertak singari janrlari asosida maydonga kelgan. Zero, mazkur janrlar asosi e'tibori bilan ta'lim – tarbiyaviy xususiyatiga egadir. Chunonchi, folklor so'z san'ati qadimgi zamonlardan buyon xalq pedagogikasi uchun asosiy manba vazifasini bajarib kelgan. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan rivojlanib, axborot olish uchun imkoniyatlar osonlashgan davrda bolalar folklori o'z vazifasini animatsion filmlar, qo'g'irchoq teatrlariga bo'shatib berdi. Bundan 70-80 yillar ilgari hozirgi katta avlod vakillari eshitgan maqollar, topishmoqlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar bugungi kunlarga kelib zamonaviy ota-onalar, buvjonu bobojonlar nutqlaridan emas, balki televizorlar, teatr sahnalari va kompyuterlarda maxsus san'atkorlar, rejissyorlar, ssenariyachilar tomonidan ijodiy ishlangan asarlari orqali bahramand bo'lishayotir. Demak, kelajakda katta yoshdagi kitobxon yoki san'atsevarlarni yetishtirish uchun bolalar xalq ijodiyoti merosi an'alarining mohiyatini yaxshi biladigan mutaxassis kadrlarni yetishtirish maqsadga muvofikdir. Binobarin, bolalar folklori va bolalar san'ati masalalari bilan maxsus shug'ullanadigan ilmiy-madaniy bilim o'choqlari moliyaviy muhtojlik bahonasida barham topganligini ta'kidlash joyiz. Asrimizning 2017 yiliga kelib, jamiyat uchun xalq ijodiyotining amaliy ahamiyatini o'z vaqtida anglab yetgan davlatimiz Rahbari san'at va madaniyat maskanlari ish faoliyatida ko'proq milliy merosimiz ruhi va an'alariga e'tibor berish masalasini kun tartibiga qo'yib, jamiyat taraqqiyoti uchun ishlab chiqilgan tashabbuslarning eng asosiylaridan biri sifatida xalq ijodiyotini ko'rsatdilar. "Hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan "ommaviy madaniyat", shou-biznesning salbiy ta'siri tobora kuchayib borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joyiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir", - deganlarida Yurtboshimiz ta'birlari bilan aytganlarida achchiq haqiqatdir. Zero, xalq donishmandligi merosi yangilanib borayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-madaniyati taraqqiyotida bebaho saboq manbai bo'lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Baxshilar san'ati xalqaro folklor festivalida so'zlagan nutqi //Xalq so'zi. -2019. - 9 apr.
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Toshkent: O'qituvchi, 1990. -261b.
3. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1990.
4. Jo'rayev M. Marosimnoma. –Toshkent; 2007. -197 b.
5. Qoraboyev U. O'zbek bayramlari. -Toshkent: Sharq, 2003. -252 b.
6. Qodirov M. Tomosha san'ti. -Toshkent: Fan, 1993. -276 b.
7. Alimov S. Etnologiya va xalq ijodiyoti. -Toshkent:O'zMU, 2007. -57 b.

## ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СТРАТЕГИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В статье представлены современные требования к содержанию и качеству образования в сфере культуры на основе сформированности инновационного компонента профессиональной деятельности специалиста. Дана характеристика основных приоритетных направлений в деятельности Государственного института искусств и культуры Узбекистана.

**Ключевые слова:** образование, культура, инновации, стратегия развития, направления деятельности.

Manzura YULDASHEVA,  
Associate Professor Of the state Institute of arts and culture of Uzbekistan  
manzura15@yandex.ru

## STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL EDUCATION IN THE FIELD OF CULTURE

**Annotation.** The article presents modern requirements for the content and quality of education in the field of culture based on the formation of an innovative component of professional activity of a specialist. The article describes the main priority directions in the activities of the State Institute of arts and culture of Uzbekistan.

**Keywords:** education, culture, innovation, development strategy, areas of activity.

Манзура ЮЛДАШЕВА,  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти доценти

## МАДАНИЯТ СОҲАСИДА КАСБ ТАЪЛИМИ СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Аннотация:** Мақолада мутахассис касбий фаолиятининг инновацион таркибий қисмини шакллантиришга асосланган маданият соҳасидаги таълим мазмуни ва сифатига қўйиладиган замонавий талаблар келтирилган. Мақолада Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти фаолиятидаги асосий устувор йўналишлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** таълим, маданият, инновация, ривожланиш стратегияси, фаолият.

Глубокие преобразования, происходящие во всех сферах нашего общества — социально экономической, политической, культурной — затронули и систему образования в целом, и отношения между людьми, включенными в различные сферы производства, в частности. В современном мире образование представляется ведущим ресурсом, обеспечивающим стабильное развитие цивилизации и человечества в целом.

Культура – это живой организм, который развивается вместе с обществом, требует новых подходов в решении возникающих проблем, нуждается в совершенствовании. Изменения, которые происходят в мире и Республике Узбекистан, влекут за собой пересмотр представлений о роли культуры в государстве и обществе. Сегодня культура воспринимается не только как совокупность общенациональных ценностей и не связывается исключительно с культурным наследием и народным творчеством, а воздействует на всестороннее развитие человека. В настоящее время в различных регионах страны перед руководителями и организаторами системы образования возникают общие проблемы, которые во многом определяют содержание и направленность социально-педагогических, общекультурных, управленческих нововведений, каковыми, по смыслу, являются многообразные шаги, направленные на преобразование региональных систем.

В Послании Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису 25.01.2020г отмечено, что Узбекистан вступает в новое десятилетие. Наши достижения становятся историей, жизнь ставит перед нами все новые и новые требования, открываются большие возможности для осуществления еще более глубоких преобразований. Углубление рыночных реформ, модерни-

зация общества и либерализация экономики вызывают изменение системы управления во всех отраслях экономики. Как отмечал Президент Мирзиёев Ш.М. «Анализируя сегодня поступательное продвижение нашей страны по пути стабильного развития, мы имеем все основания заявить, что в истекшем году сделаны решительные шаги в реализации принципиально важных реформ. Основная цель этих реформ — обеспечить достойный уровень и качество жизни наших людей» [1].

В каждом регионе Узбекистана функционирует образовательное пространство, своеобразно отражающее особенности и специфику конкретного региона, его традиции, культуру, национальный и религиозный состав населения, уровень экономического развития и т.д.

Интеграционные процессы в управлении высшим профессиональным образованием в Республике Узбекистан получили в настоящее время большое развитие. Наибольшей популярностью достигли: процесс интеграции вуза с наукой и производством; вариативные формы развития социального партнерства в системе высшего образования; взаимодействие вузов с образовательными учреждениями разных уровней.

Сегодня готовность к инновационной деятельности есть комплексное отражение уровня сформированности инновационного компонента профессиональной деятельности специалиста. Одним из примеров готовности послужила ситуация с COVID-19. Где все вузы быстро переориентировались на дистанционное обучение, а это говорит о высоком уровне общей и специальной подготовки как руководителей, так и профессорско-преподавательского состава, обеспечивающего плодотворную деятельность в проблемных, экстремальных ситуациях.



Современное профессиональное образование направлено на развитие у выпускников широких универсальных компетенций, которые помогают им научиться понимать происходящие процессы и быть конкурентоспособными.

Для достижения конкурентоспособности по отношению к ведущим отечественным и зарубежным вузам аналогичного профиля вузов культуры Государственный институт искусств и культуры Узбекистана ставит перед собой решение следующих задач:

- модернизация образовательного процесса на основе развития системы образовательных технологий и программ, соответствующих современным тенденциям развития культуры;

- использование IT-технологий на основе повышения наукоёмкости образования;

- удовлетворение текущих и формирование новых потребителей услуг культуры;

- развитие функционального взаимодействия с ведущими отечественными и зарубежными центрами и учреждениями;

- модернизация научно-исследовательского процесса и инновационной деятельности;

- развитие кадрового потенциала и формирование качественного контингента обучающихся;

- модернизация материально-технического обеспечения и инфраструктуры и др.

В работе Государственного института искусств и культуры Узбекистана в ближайшие годы особое внимание будет уделено на трансформацию института в качественно новое высшее учебное заведение, обладающее высоким потенциалом дальнейшего развития. В процессе реализации институту предстоит перейти к модели вуза третьего поколения на основе интеграции трех составляющих: образование, научные исследования, коммерциализация своих проектов, что позволит ему стать базовой площадкой для подготовки конкурентоспособных кадров в области культуры и искусства и активной работе по реализации целевых показателей национальных проектов. Узбекское образование должно отвечать требованиям глобальной конкуренции на рынках инноваций, труда и образования.

Основными приоритетными образовательными направлениями развития Государственного института искусств и культуры Узбекистана

- будут разработаны новые учебные программы согласно кадровым потребностям региона; в учебный процесс будут внедрены инновационные информационные технологии.

Научно-методическое направление будет представлено:

- привлечением педагогов, студентов, магистрантов, докторантов к участию в грантах, проектах научного центра;

- повышением публикационной активности научно-педагогических работников и студентов в международных журналах, входящих в базы данных Scopus и Web of Science;

В рамках воспитательного направления будут проведены различные мероприятия, в том числе связанные с культурой и историей Узбекистана. Предполагается использование социальных сетей для обеспечения максимального охвата целевой аудитории. Будут созданы видео, аудио и другие материалы, способствующие формирова-

нию и укреплению гражданской идентичности и духовно-нравственных ценностей среди молодежи, с дальнейшим размещением данных материалов в сети «Интернет».

Кадровое направление характеризуется, в первую очередь, наличием высокопрофессиональных, конкурентоспособных эффективных кадров. Для это необходимо:

- формирование продуктивной системы конкурсного отбора на вакантные должности;

- поддержка молодых специалистов в профессиональном росте;

- повышение уровня профессионального мастерства в форматах непрерывного образования,

- институализация профессиональной переподготовки и повышение квалификации специалистов отрасли культуры.

Надеемся, что профориентационное направление в вузе поможет выстроить целевую модель участия представителей работодателей в принятии решений по вопросам обновления образовательных программ, на основе которых будет происходить подготовка специалистов в области культуры и искусства, востребованных на рынке труда.

В области международного сотрудничества планируется увеличение количества иностранных студентов, внедрение международного опыта инновационных форм образовательной деятельности. Мы готовы к тесному сотрудничеству с творческими зарубежными вузами (обмен студентами, преподавателями, разработка совместных проектов и т.д.).

Информационно-цифровое направление требует внедрения цифровой культуры и сетевых технологий в образовательный и научно-исследовательский процессы. В настоящее время идет подготовка учебно-методических материалов для обеспечения эффективного дистанционного обучения, ведется работа по технологическому совершенствованию оборудования

Информационно-цифровое направление невозможно развивать без материально-технического оснащения. Необходимо создать виртуальный концертный зал, обновить компьютерную базу Института, включая мультимедийное оборудование; важным становится создание профессиональной электронной библиотеки, в том числе нотной, по модельному стандарту. Предусматривается приобретение светового, музыкального, сценического и видеооборудования новых музыкальных инструментов (пианино, ударные установки, инструменты народного оркестра, синтезаторы); модернизация инженерной инфраструктуры зданий Института, благоустройство территории вуза, оснащение цифровой системой видеонаблюдения.

Государство обеспечивает развитие культуры, так как оно несет ответственность за духовное, моральное и эстетическое воспитание граждан. Государство создает необходимые условия для приобщения граждан к национальному и мировому культурному наследию; формирует систему организаций и учреждений искусства и культуры; выделяет необходимые материальные и финансовые средства; обеспечивает проведение научных исследований и разработку научных проектов в области культуры, готовит квалифицированные кадры; создает гарантии и стимулы художественного творчества, сохраняет традиционную культуру (фольклор, народные промыслы, ремесла), обеспечивает формирование среды обитания человека, защиту интересов народа Узбекистана в области культуры.

#### Список литературы:

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 25.01.2020 /www.norma.uz/
2. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. -Ташкент.:Узбекистан, 2017. -58 с.

**Bobir DADAMUXAMEDOV,**

O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi sektor mudiri,  
2-kurs mustaqil izlanuvchi (PhD)

## **XIX – XXI ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTON ZARGARLIK SAN‘ATIDAGI JARAYONLAR**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XXI asr boshlariga oid O‘zbekiston zargarlik san‘atida ro‘y bergan jarayonlar, respublika hududlarida faoliyat yuritgan mashhur zargar-ustalar va ularning ijodiy izlanishlari haqida ma‘lumot berib o‘tilgan. Jumladan, an‘anaviy zargarlikning nozikligi, naqshlarning nafisligi kabi ko‘plab unsurlar bilan boshqalardan ajralib turishi haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** zeb-ziynat, ma‘dan, zargarlik, amaliy san‘at, madaniyat, badiiy, ijod

**Бобир ДАДАМУХАМЕДОВ,**

Заведующий сектором Государственного музея истории прикладного искусства и ремесел Узбекистана,  
2-курс свободный исследователь (PhD)

## **ПРОЦЕССЫ В ЮВЕЛИРНЫХ ИЗДЕЛИЯХ УЗБЕКИСТАНА В НАЧАЛЕ XIX – XXI ВЕКОВ**

**Аннотация.** *В статье представлена информация о процессах, происходивших в ювелирном искусстве Узбекистана в конце XIX – начале XXI веков, известных ювелирах, работающих в регионах республики, и их творческих поисках. В частности, говорят, что традиционные украшения отличаются от других многими элементами, такими как тонкость, изящество узоров.*

**Ключевые слова:** ювелирные изделия, металл, ювелирные изделия, прикладное искусство, культура, искусство, творчество.

**Bobir DADAMUXAMEDOV,**

Head of Sector of the State Museum of History applied arts and handicraft history of Uzbekistan,  
2-course freelance researcher (PhD)

## **PROCESSES IN JEWELRY OF UZBEKISTAN IN THE BEGINNING OF THE XIX – XXI CENTURIES**

**Annotation.** *The article provides information about the processes that took place in the jewelry art of Uzbekistan in the late 19th – early 21st centuries, famous jewelers working in the regions of the republic, and their creative searches. In particular, it is said that traditional jewelry differs from others in many elements, such as subtlety, grace of patterns.*

**Key words:** jewelry, metal, jewelry, applied art, culture, art, creativity.

O‘zbek xalq amaliy-bezak san‘ati turlari ichida zeb-ziynat san‘ati bo‘lmish zargarlik san‘ati alohida ahamiyat kasb etadi. Zargarlik san‘ati milliy-badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishidagi oliy maqsadlarini o‘rganishda yordam beradi. Ziynat buyumlari hunar egalari mahoratidan, ma‘lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlardan, ma‘dan va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladilar, zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san‘atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namoyon etadilar.

“Zargarlik san‘ati milliy-badiiy madaniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib, u xalqning olis o‘tmishidagi oliy maqsadlarini o‘rganishda yordam beradi. Ziynat buyumlari hunar egalari mahoratidan, ma‘lum davr iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlardan, ma‘dan (metall) va toshlarga ishlov berish texnikasidan hikoya qiladilar, zargarlar yasagan buyumlar ular yashagan davr san‘atining uslubiy xususiyatlarini o‘zlarida namoyon etadilar”. [1]

O‘zbekistonda an‘anaviy zargarlik san‘ati taraqqiyoti Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy va etnik tarixi, unga qo‘shni xalqlari tarixi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqlarning o‘zaro tinch yo‘l bilan bir-biriga yaqinlashuvi madaniyatlarni boyitgan, bir-birlari uchun yaqin, qadrlil bo‘lgan narsalarni almashganlar, bora-bora bu har bir

xalqning mahalliy san‘atiga singib ketib, o‘ziga xoslik va mustahkam an‘ana kasb etgan.

Tarixdan ma‘lumki, davrlar o‘tishi bilan muayyan bir hudud miqiyosida taqinchoqlarning ba‘zi turlari keng yoyilsa, ayrimlari o‘z o‘rnini yo‘qotgan, yangi ko‘rinishdagi taqinchoqlar paydo bo‘lib, oldingilari kundalik turmushdan chiqqan. Natijada taqinchoqlar va ularning turlari hamisha o‘zgarib turgan. Shu sababli taqinchoqlarni etnografik jihatdan o‘rganishda tadqiqotchilar taqinchoqlardagi shakliy o‘zgarishlar, ularning turlaridagi almashinuvlar sabablariga asosiy e‘tibor qaratadilar.

Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo‘lganligi jahonga ma‘lum. U o‘z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidolari bayon etilgan mashhur tuzuklarni qoldirgan edi. Uning vafotidan so‘ng taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o‘zaro ichki kurash, jang-u-jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi. Natijada, XVI asr boshlarida Temuriylar saltanati zaiflashib Buxoro, Qo‘qon hamda Xiva xonliklariga bo‘linib keldi. XIX asrga oid zargarlik san‘ati haqida so‘z yuritishdan avval, xonliklarni tashkil topish jarayonlariga to‘xtalib o‘tish joiz. Sababi, amaliy san‘atdagi o‘zgarishlar ham shunga muvofiq tarzda o‘zgarib,

har bir xonlik o‘ziga xos yo‘nalishni targ‘ib qila boshladi. Jumladan, zargarlik san‘atidagi o‘zgarishlar, yangiliklar yaratishga bo‘lgan intilish orqasida Mavoraunnahr sarhadlarini xonliklarga bo‘linishi turadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa o‘z navbatida raqobatbardosh amaliy san‘at asarlarini yaratilishiga ham sabab bo‘ldi. Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy-iqtisodiy, san‘at va madaniyat sohalaridagi o‘zaro sog‘lom raqobat jarayonlari zargarlik san‘atiga ham o‘zining ta‘sirini o‘tkazdi. Endilikda zargarlar xon saroylaridagi ustaxonalarda faoliyat yuritib, o‘ziga xos yo‘nalishlarni, bezaklarni, naqshlarni, zebziynat buyumlarining yangi turlarini yaratish uchun yanada ko‘proq o‘z ustilarida izlanishlar olib bordilar. Buning natijasida esa, zargarlikda yirik maktablar va markazlar shakllanishi ko‘zga ko‘rina boshladi.



Buxoro xonligida hunarmandchilik, savdo-sotiq, badiiy ijod, me‘morchilik, rassomchilik, xalq amaliy san‘ati o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlandi. Zargarlik san‘atiga esa alohida hurmat va e‘tibor bilan qarala boshladi. Buxoro xonligida asosiy zargarlik markazlari sifatida shahar va qishloqlar katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Butun o‘rta asrlarda mavjud bo‘lganidek, xonlik davrida ham zargarlar uyushmalari (kasaba, sex, ustaxonaga ega bo‘lganlar). Uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o‘rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog‘liq edi. Xonlikdagi zargarlikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo‘lib, uni saylab qo‘yiladigan shaxs-raisa yoki oqsoqol boshqargan. Zargarlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va to‘lovlar yig‘imida, usta va shogird munosabatlarida, xo‘jalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi amaliy san‘atida, xususan zargarlik san‘atida butun O‘rta Osiyo uchun xos bo‘lgan an‘anaviy uslublar bilan bir qatorda mahalliy xususiyatlar ham saqlangan. Qo‘qon, Toshkent zargarlik maktablarining vakillari zebziynat buyumlarini yasash va ularni bezashda, naqshlar tanlashda o‘z maktablarining an‘analarini takomillashtirganlar hamda rivojlantirganlar. Qo‘qon va Toshkentning mahalliy maktablari o‘zlarining keng rejali, hajmli manzaralari, bezak va naqshlarning g‘oyat nafisligi, ranglarning sho‘xchanligi bilan ajralib turadi. Xonlik aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va kosibchilik bilan shug‘ullanganlar. Hunarmandchilik shaharlarda ixtisoslashgan ko‘rinishga ega bo‘lib, buyumlarning bir turi va biror qismini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan

sohalar mavjud bo‘lgan. Hunarmandlar o‘z kasblarining sir-asrorlarini mukammal o‘zlashtirgan mohir ustalari bo‘lib, ishlab chiqargan mahsulotlarini yuksak san‘at darajasiga ko‘targanlar.

Xiva xonligi hunarmandchiligida ham o‘ziga xos o‘zgarishlar va rivojlanishlar yuzaga kelgan bo‘lib, Xorazm hunarmandchiligi ixtisoslashgan bo‘lishiga qaramay, yarim ko‘chmanchi xo‘jaliklarda uy hunarmandchiligi ustunlik qilgan. Hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biri zargarlik edi. Manbalar shahar va qishloqlarda zargarlar maxsus kasb-hunarga ixtisoslashganliklari haqida ma‘lumotlar beradi. Xiva xonligi savdogarlari qo‘shni Buxoro va Qo‘qon xonliklari bilan, shuningdek, Xitoy, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borganlar.

“Hunarmandchilik rivoji va zargarlar haqidagi ma‘lumotlarni ular faoliyat olib borgan bozor va rastalardan ham bilish imkoniyati mavjud bo‘lgan. Masalan, Buxorodagi XVI asrga oid, zargarlik buyumlari bilan savdo qilish uchun mo‘ljallangan Toqi Zargaron (forscha – zargarlar gumbazi) savdo markazi faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, Buxoro ko‘chalarining uzun yo‘laklarida ikki tomondan qator qilib joylashgan qimmatbaho toshlar, zebziynat buyumlari, poyabzallar, bosh kiyimlari, matolar kabi rastalarda savdo qilinganligi haqida ma‘lumotlar mavjud”. [2]

XVIII asrning 60-yillarida Xivada 12 nafar zargar bo‘lgan bo‘lsa, XIX asr boshlarida ularning soni 60 nafarga yetgan. XIX-XX asr boshlarida Xorazmda hunarmandchilik rivojlanishi bilan Xiva, Urganch, Xazorasp, Xonqa shaharlarida zargarlik mahallalari paydo bo‘ldi. Ularning orasida Xiva yetakchi o‘rinni egallab turgan. Xiva mahallalaridan bir nechtasida aholi aynan zargarlik bilan shug‘ullangan. Sababi zargarlarga bo‘lgan ehtiyoj yildan yilga ortib borgan. 1850-1860 yillarda Xivada ayrim mahalla masjidlari zargarlar nomi bilan yuritilgan. Jumladan, ulardan biri Qilichboy zargar mablag‘iga qurilgan va shu nom bilan atalgan masjid bo‘lgan. Masjid 9 ta hovlidan iborat bo‘lib, 1860-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, u yerda 12 nafar zargar o‘z faoliyatini olib borgan.

Toshkentda 1866-yilgi ma‘lumotga ko‘ra, bozorda zargarlarning 20 ga yaqin savdo rastalari bo‘lgan. 1867-yilda shu yerning o‘zida bir ma‘lumotga ko‘ra 135 ta, boshqasida 50 ta oltin ishi ustalari bo‘lganligi qayd etilgan. 1903 yilgi ma‘lumotga ko‘ra, Toshkentning markaziy bozorida kumush ishi ustalarining 40 ga yaqin rastalari bo‘lgan. Lekin hamma zargarlar ham bozorlarda rastaga ega bo‘lmagan. Mutaxassis-oqsoqol so‘zlariga ko‘ra, ustaxonalarining jami soni 70 taga yetgan.

Samarqandda 1870-yilda oltin va kumush buyumlar yasaladigan 23 ta ustaxona bo‘lgan. 1893-yilda Samarqandning Eski shahar qismida 20 ta zargarlik ustaxonasi bo‘lib, rus qismida esa 2 nafar oltin ishi ustalari bo‘lgan.

“1890-yilda Qo‘qonda zargarlik buyumlari rastalari ishlab chiqaruvchi rastalarga qo‘shilib, ustaxonadagi ustalar soni jihatidan hududdagi yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu yerda ishlab chiqarishning asosiy mahsulotlari uzuklar, ziraklar, bilakuzuklar, bo‘yin bezaklari hisoblanib, mahsulotlarning asosiy ma‘dani kumush hisoblangan.





Bu ma'danni bezatish uchun feruza, yashma, ba'zan yoqut, ko'pincha rangli va turli shakllardagi shishalardan foydalanilgan".[3]

Qarshi shahrida 1874-yilda ko'plab zargarlar faoliyat olib borgan bo'lib, kumushdan, misdan, qisman oltinga rangli va qimmatbaho toshlar qadab ishlangan tumorlar uchun qutichalar va turli zeb-ziyat buyumlari yasalgan. Kitob tumanida 1870 yilda 51 ta guzar orasida Zargarlik guzari (dahasi) bo'lgan.

XX asrning 20-yillariga kelib O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlar boshqa sohalar kabi zargarlikka ham o'zining ta'sirini o'tqazdi. 1920-1930-yillar badiiy uslubining asosiy xususiyatlari yirik hajmdagi murakkab, zich naqshli zeb-ziyat buyumlaridan voz kechib, ularni iloji boricha oddiy qilib ishlashga intilishda yaqqol ko'rindi.

1963-yili Toshkentda artellar uyushmasi tomonidan zargarlik fabrikasi tashkil etilib, undagi zargarlar sodda va ixcham ko'rinishdagi ziraklar, qizil ko'zli uzuklar, bilakuzuklar yasay boshladilar. An'anaviy shakl elementlarini o'zida namoyon etgan bu kabi taqinchoqlar respublikadan chetga ham chiqarib sotilgan. Shu orqali u O'rta Osiyodagi birinchi zargarlik zavodi sifatida faoliyat

yuritdi. Buyumlar oltin, tompak, melxior, neyzilber, jez, mis singari ma'danlardan yasali, billur, yoqut, sapfir, topaz, ametist, anor tosh, aleksandrit kabi toshlarni qirralab ishlov berish orqali, shuningdek, dur, feruza, rangli shishalar bilan bezatigan.

80-yillarga kelib zargarlik san'atida yangidan-yangi nomlar yuzaga kela boshladi. Bular qatoriga toshketlik T.Aliyev, S.Safayev, N.N.Dzyuba, N.Xolmatov (O'zbekiston xalq ustasi, 2000-y.), aka-uka Yunusxo'jayevlar, F.Dadamuxamedov (O'zbekiston xalq ustasi, 1998 y.), G.Tikayev, samarqandlik A.Kuxov, marg'ilonlik X.Abdujabborov, qo'qonlik A.Shohayev, buxorolik K.A.Azizov, A.Xaydarov kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ular bir vaqtning o'zida ham an'anaviy, ham zamonaviy yo'nalishlardan taqinchoqlar yaratib, o'zlarining ijodiy izlanishlarini yanada rivojlantirdilar. Ularning aksariyati XXI asr boshlariga qadar ijodiy faoliyatlarini olib borganlar.

"Bugungi kunda O'zbekistonda ko'plab zargarlar Xalq ustalari bo'lib, ular o'zlarining buyumlarida zargarlik san'atining qadimiy an'alarini ijodiy izlanishlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar. Buxoro zargarlik an'alarini usta Alisher Xaydarov davom ettirmoqda. Toshkent zargarlik maktabining buyumlarini usta Fasixitdin Dadamuxamedov boshchiligidagi Dadamuxamedovlar sulolasi nafis bezaklarda taqdim qilmoqda. Bundan tashqari, mumtoz zargarlik an'alariga rioya qilib kelayotgan toshkentlik Gulorom Yo'ldosheva ishlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shu kabi mohir zargarlar Marg'ilon, Samarqand, Shahrisabz, Xiva va boshqa bir qator shaharlarda muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Zamonaviy uslub va qat'iy handasaviy yechimlarga sodiq qolgan iqtidorli dizayner Ulug'bek Xolmurodovning ishlari ham tahsinga sazovor bo'lmoqda".[4]

Respublikamizdagi deyarli barcha hududlarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan yosh zargar ustalar ham bugungi kunda o'z san'atlarini rivojlantirib, zargarlikning eng yaxshi qadimiy an'analari va boy tajribalaridan samarali foydalangan holda yangi san'at asarlarini yaratmoqda. Bu esa o'z navbatida zargarlik san'ati avloddan avlodga o'tib, asriy an'alarimizni davom etayotganligidan dalolat beradi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev T., Faxretdinova D., Xakimov A. Ma'danga bitilgan qo'shiq (Pesn v metalle). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985 y. – 141 bet.
2. Meyendorf YE.K. Puteshestviye iz Orenburga v Buxaru v 1820 g. – M.: 1975. Str-101.
3. Geyer I.I. Ot Tashkenta do Gavi. –T.: 1895. Str. 84-85.
4. Hakimov A. O'zbekiston hunarmandchiligi durdonalari (Kitob-albom). – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019 y. – 143 bet.

#### References:

1. Abdullaev T., Fakhretdinova D., Khakimov A. Song in metal. – Toshkent: Publishing house of literature and art of Gafur Gulam, 1985. Page. 141.
2. Meyendorf E.K. Travel from Orenburg to Bukhara in 1820 – M.: 1975. Page-101.
3. Geyer I.I. From Tashkent to Gava. – T.: 1895. Page. 84-85.
4. Khakimov A. Masterpieces of folk crafts of Uzbekistan (Book-album). – Toshkent: "Uzbekistan", 2019. Page-143.



# *IV BO' LIM*

**PEDAGOGIKA,  
PSIXOLOGIYA**



## MILLIY MUSIQAMIZDA BEBAHO IZLAR KOLDIRGAN GENJEBAY TILEO'MURATOVNING HURMATIGA 1927-1997

**Аннотация.** *Bu maqolada qoraqalpoq xalqi musiqa san'atiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan buyuk ijodkor Genjebay Tileo'muratovning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga bebaho me'ros boyligimiz bo'lgan an'anaviy xalq qo'shiqlarimizni, kuylarimizni, dostonlarimizni yig'ish va chuqur o'rganib kelajak avlodga qoldirishdagi fidoiy mehnatlari haqida so'z yuritilgan.*

*Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi yosh avlodni milliy, ma'naviy va madaniy jihatdan tarbiyalashdagi xizmatlari keng yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq, musiqa, ijod, xalq qo'shig'i, doston, kuylar, ansambl, muxales, an'anaviy.*

Давлетмурат АЛЛАНАЗАРОВ,  
доцент кафедры музыкального воспитания  
Нукусского Государственного Педагогического Института имени Ажинияза.

## “МИЛЛИЙ МУСИҚАМИЗДА БЕБАҲО ИЗЛАР КОЛДИРГАН ГЕНЖЕБАЙ ТИЛЕЎМУРАТОВ (1927-1997)

**Аннотация.** *В этой статье приведены достоверные сведения о жизни и творческой деятельности Генжебая Тилеумуратова. Вместе с тем говорится об огромной работе проделанной при сборе традиционных народных песен, инструментальных произведений, дастанов и детальном их изучении как по форме так и по исполнительскому мастерству для передачи их подрастающему поколению.*

*А также его заслуги в деле культурного и глубоко идейного воспитания молодежи Республики Каракалпакстан на основе богатых ценностей народного фольклора.*

**Ключевые слова:** *народ, музыка, творчество, народная песня, дастан, инструментальная музыка, ансамбль, мухаллес. традиционный.*

Davletmurat ALLANAZAROV,  
Associate Professor of the Department of Musical Education of the  
Nukus State Pedagogical Institute named after Azhiniyaz.

## “МИЛЛИЙ МУСИҚАМИЗДА БЕБАҲО ИЗЛАР КОЛДИРГАН ГЕНЖЕБАЙ ТИЛЕЎМУРАТОВ (1927-1997)

Abstract in the article Dovletmurat Allanzarova called “Milliy musikamizda babaho izlar qoldirgan Gencebay Tilewmuratov (1927-1997)ning hurmatiga”

This article provides reliable information about the life and creative activity of Genzhebey Tileymuratov. At the same time, it is said about the great work done in collecting traditional folk songs, instrumental works, dastans and studying them in detail, both in form and in performing skills, to pass them on to the younger generation.

As well as his achievements in the cultural and deeply ideological education of the youth of the Republic of Karakalpakstan on the basis of the rich values of folk folklore.

**Keywords:** *people, music, creativit, folk song, dastan, instrumental music, ensemble, muhalles, traditional.*

Sozandalik, baxshichilik, jirovchilik san'atlari, uzoq yillardan buyon xalqimizning nazarida bo'lib, taniqli baxshi-jirovlarimizning ijodiy mahoratining natijasida bugungi kunda o'zining rivojlanish yo'lida serqirra repertuari, janrlarining kengligi, betakror ta'sirchan kuchi bilan milliy musiqamizning asosiy tirligi sifatida xalqimizga manzur bo'lib kelmoqda.

Mana shu meros boyliklarimizning hozirgi davrda qayta jonlanib, dunyo arenasiga chiqishida, qadrli ustoz, Qoraqalpog'iston xalq baxshisi Genjebay Tileo'muratovning qilgan mehnatlarining o'zi bir doston.

Genjebay Tileo'muratov baxshilar oilasidan chiqqan yetuk inson. Otasi Otamurod o'g'li Tileo'murat baxshi 1881-1950 yillar oralig'ida Mo'ynoqning Qiyshiq ma'dali degan joyida tug'ilib o'sgan.

1940-yillarda Qanliko'lga ko'chib kelgan. Arzi maktabidan chiqqan Begim va Dovut baxshilarning izidan borib, shogird tutingan. Ulardan qoraqalpoq dutor sozlarini, oltmishdan ziyod xalq qo'shiqlarini, «Yusuf-Axmad», «Sayatxan-Xamro», «G'arib-oshiq», «Bazirgan», «Qirmandali» dostonlarini, shuningdek qozoq kuychilaridan «Qarasay, Qaziy» qahramonlik dostonini o'rgangan. Mana shu kabi boy repertuari bilan Qoraqalpoq, Xorazm, Ko'xna-Urganch atrofida xalqqa xizmat qilgan dong'i chiqqan baxshi bo'ldi.

1939-yilda To'rtkul shahrida qoraqalpoq baxshi-jirovlar tanlovi o'tkaziladi. Unda baxshilardan Tileo'murat, Qarajan, Nurlibay, Japaq, Qudaybergan, Tiniboy, O'rinboy, Janabay baxshilar, jirovlardan Qiyas-jirov, Yesemurat jirov, Xojambergan jirov, Uteniyaz jirovlar



ishtirok etadi. Mana shu Respublika miqyosida o'tkazilgan festivalda, atoqli ijrochilar orasida Tileo'murat baxshining qobiliyati yuqori darajada baholanib, taqdirlanishga muayassar bo'ladi.

O'zining baxshichilik san'atini, tajribasini kelajak avlodga qoldirish maqsadida bir necha shogirdlar tayyorlagan, hususan, Kamol, Qo'chqorboy, Qosbao'li, Shaniyaz baxshilar.

Shularning ichida ovozi baland, keng diapazonli, mahoratli va serqirralisi Tileo'murat baxshining o'ziga o'xshagan eng sevimli shogirdi, o'zining kichkina farzandi Genjebay bo'ldi.

Genjebay og'a Tileo'muratov 1929-yilda Mo'ynoq tumanining 7-ovul kengashiga qarashli Birlilik kolxozida tug'iladi. U yoshligidan qo'shiq aytib, dutor chertishga qiziqqan. Bu qiziqishga dastlab otasi Tileo'murat baxshi va o'zining akalari Qozoqbay, Davletboyilar sababchi bo'lgan. Shunday qilib maktabga borgan paytida bir necha dutor sozlarini chertib va xalq qo'shiqlarini aytishni bilgan.

1944-yilda qishloq maktabining 8-sinfini tamomlaydi. Uning bolaligi urush yillariga to'g'ri keladi. Ikkinchi jahon urushining og'ir davrlarida akasi frontga ketganligidan o'qishni davom ettira olmay, ishlashga majbur bo'ladi. 1944-1945 yillarda Mo'ynoq tumanida «Makarenko» nomidagi boshlang'ich maktabda o'qituvchi bo'lib ishga kiradi. 1945-1948 yillarda o'z bilimini oshirish uchun Xo'jaylidagi pedagogika texnikumida o'qib, uni muvaffaqiyatli tamomlaydi.

Shu bilan bir qatorda, o'z kasbini davom ettirib, otasidan «Sayatxan-Hamro», «Yusuf-Axmad», «Qirmandali» dostonlarini, xalq qo'shiqlarini o'rganadi. Respublikamiz miqyosida va Turkmanistonning bizga yaqin tumanlardagi to'y-tomoshalarda, katta anjumanlarda birga qo'shiq aytib, baxshichilik sirlarini o'zlashtirishni davom ettiradi.

1949-1955 yillari Nukus davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetida o'qib, muvoffaqqiyatli tamomlab chiqadi. So'ngra «Qizil Qoraqalpog'iston» va «Yosh Leninchi» gazetalarida muxbir, shu bilan birga Stanislavskiy nomidagi davlat teatrdagi aktyor bo'lib ishlaydi. 1956-1960-yillarda Kuybishev tumanining (hozirgi Kegayli tumani) Xalqabad sovxozida markazidagi №1 o'rta maktabning o'qituvchisi, keyin maktab direktori, so'ngra Kegayli rayon xalq ta'limi bo'limida metodist bo'lib ishlaydi.

Har doim ijrochilik mahoratining cho'qqilariga talpingan yosh Genjebay, talabalik yillaridan boshlab har hil konsertlarga qatnashib, radioefirdan chiqib aytgan qo'shiqlari Respublikamiz bo'ylab yangrab, bora-bora Genjebay baxshi Tileo'muratov bo'lib keng jamoatchilikka tanila boshlaydi. Borgan sari u o'zining yoqimli ovozi, har bir qo'shiqni maromiga yetkazib aytishi bilan, soz chalganda dutorni gapirtiradigan darajada imkoniyatlarini uyg'otib – kuyni o'ziga bo'ysindira olishi bilan xalqning e'tiboriga tushib, olqishlarga sazovor bo'ladi. O'z otasidan o'rganib – bolaligidan bo'yiga singgan san'ati, endi uning umri mazmuniga aylanadi. Ancha yillardan beri aytib kelayotgan sevimli repertuarini boyitib, ijrochilik mahoratini yetiltirish maqsadida u xalqimiz orasida katta obro'ga ega bo'lgan qoraqalpoq baxshichilik maktablarining taniqli vakillari Juman To'ra o'g'li (Juman-chapaqay), Yesjan Qospolatov, Japaq Shamuratov, Qo'ng'iroqlik O'rinboy

baxshilarni ustoz tutib, ularning har biriga oid bo'lgan ijrochilik san'atining alvon sirlarini qunt bilan o'rganib, kuyni bandigacha yetkazib aytishga erishadi. Shunday qilib, borgan sari san'atning cho'qqisiga intiladi. Taniqli mumtoz shoirlarimiz bo'lgan Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq, Ayapbergen, turkman mumtoz shoirlaridan Kamiyna, Maxtumqulilarning qo'shiqlarini kuyga solib, repertuarini boyitadi.

Genjebay Tileo'muratov 1960-yilning mart oyida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Najim Davqarayev nomidagi Qoraqalpog'iston filialining tarix, til va adabiyoti institutining san'at shu'basiga ilmiy xodim etib ishga olinadi. Bunday ulug' ilm dargohiga kelishi, uning ijodiy yo'lga ilmiy tarafdin yangicha bir odim bo'lib xizmat qildi.

Bu yerdagi 30 yildan ortiq faoliyati davrida, yurtimizning bir necha qobiliyatli san'at, madaniyat va fan arboblari bo'lgan tarix fanlari doktori, akademik – Sabir Kamalov, filologiya fanlari nomzodi, professor – Qobil Maqsetov, filologiya fanlari nomzodi – Sarigul Baxadirova, san'atshunoslik fanlari nomzodi – Turesh Allanazarov, san'atshunoslik fanlari nomzodi – Tojigul Adambayeva, filologiya fanlari nomzodi Minajatdin Nizamatdinov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Asen Alimov va boshqa taniqli insonlar bilan birgalikta - tarix yo'llarida xalq hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelayotgan milliy musiqa meroslarimizni to'plashda, ularni har taraflama tadbir qilishda va rivojlantirib, kelajak avlodga in'om qilishda samarali mehnat qildi. Natijada Respublikamiz bo'ylab tashkillashtirilgan ekspeditsiyalarda ishtirok etib, taniqli sozanda, baxshi – jirovlarimizning aytgan dostonlari, laparlari, kuylari, va boshqa dasturiy meroslarimiz magnit lentalariga yozilib, qanchadan-qancha bebaho materiallarni to'playdi. Ular hozirgi kunda oltin fondiga kiritilgan.

Ularning barchasi ham tarixiy, ilmiy va badiiy jihatdan tartib bilan izma-iz tadqiqot qilingan. Masalan, baxshilarning badiiy jihatdan qo'shiqni ta'sirchan va ilhom bilan to'liq ma'noga yetkazib aytish darajasi, usullari, kuylari, daslari, sozning orasiga keladigan o'ynashlari, avjlarini ta'kidlash mumkin. Jumladan, bir baxshi qo'shiqni kichik avjdan qaytarib aytsa, boshqasi kichik avjdan keyin baland avjga chiqarib kuylaydi. Shu bilan birga ijrochining qaysi baxshichilik maktabidan chiqqanligi va sozning yaralish tarixiga bog'liq xalq og'zidagi har hil afsonalar va boshqa ma'lumotlar har tomonlama o'rganib chiqildi. Jirovlar, sozandalar ham shu tartibda o'rganib chiqilgan.

Bu bebaho meroslarimizning shunday darajada, ikir-chiqirigacha o'rganib chiqilib, tadqiq qilinishiga Genjebay Tileo'muratovning ham hissasi katta bo'ldi. Jirovlarimizning, ayniqsa, baxshi va sozandalarimizning ijrochilik mahoratini har tomonlama ko'rsatishda, uning yorqin talanti, so'zga chechanligi, o'tkir zehni va ko'p yillik to'plagan tajribasi qo'l keldi.

Uning o'ttiz yil davomida olib borgan tinimsiz mehnatlari o'z natijasini berib, qoraqalpoq baxshichilik maktablarining vakillari to'plagan, alvon turli san'at sirlari yo'qolib ketmasdan magnit lentalarida mangu saqlanib qoldi va ular bugungi kun yoshlari tarafidan amaliy ravishda o'rganilib, nashr etilmoqda. Shu bilan birga, uning o'zini ham milliy musiqamiz haqidagi fikrini yanada kengaytirib, san'atini boyitdi. Eng ahamiyatlisi ijodiy

yo'lda boshqalarga o'xshamagan, faqat o'ziga hos ajoyib san'at – ijrochilik maktabini paydo qilishiga sababchi bo'ldi.

1976-yilda Respublikamiz rahbarlari tomonidan madaniyat vazirligi bilan birgalikda, milliy musiqamizni rivojlantirishning yangi yo'llarini ko'rib chiqish va yangi bosqichlarga ko'tarib, xalqqa va kelajak avlodga yetkazib berish haqida bir qancha majlislar o'tkazildi va tegishli ishlar olib borildi. Natijada 1977-yilda Qoraqalpog'iston davlat televideniye va radio eshittirish qo'mitasi qoshida «Muxalles» nomli milliy dutorchilar ansambli ochilib, Genjebay og'a Tileo'muratov birinchi badiiy rahbari sifatida tasdiqlandi. Bunda o'sha paytdagi rahbarimiz Kamalov Qallibek Kamalovichning, Yusupov Qayipbergen Yerpolatovichning hissalarini katta bo'ldi. Bu yangilik milliy musiqamizga yangidan jon ato qilib, katta ijobiy yangilik bo'ldi.

Albatta, ushbu katta ijobiy yangiliklar osonlik bilan yo'lga tushgani yo'q. Sababi taniqli baxshi-sozandalarimiz tomonidan yakka ijro qilingan, professional darajadagi milliy olamo'ynaq dutor sozlari va xalq qo'shiqlarini, zamon talabiga monand ravishda ijro etishning o'zi yangi tashabbus edi.

Bu yerda Genjebay og'amizning oldida turgan asosiy masala, olg'a intilib, tinib-tinchimasdan mehnat qilish, san'atimizni yoshlarga o'rgatib, keng jamoatchilik oldiga olib chiqish bo'ldi.

Shu davrda mahoratli sozandalarni topish va to'plash mushkul bo'ldi. Sababi o'sha davrda o'quv joylarida milliy musiqa bo'limlari ochilmagan edi. Topgan sozandalari ham har biri musiqani har-hil chalib, chala o'rgangan edi. Endi ularga har bir kuyning qaddini to'liq va to'g'ri ijro etishni, unga yarashgan nolalarni, dastlarni, va boshqa musiqiy elementlarni toza, aniq ijro etishni o'rgatish kerak edi. Bu ish ko'p vaqtini, mehnatni talab etadigan og'ir ish edi. Bundan tashqari ansambl a'zolarini, yaxshi olamo'ynoq dutor bilan ta'minlash ham zarur bo'ldi. Dastlabki yillarda bu ishlar jamoatchilik tashabbus ila olib borildi. O'sha paytlari ansamblning dastlabki dutorlarini Kegaylichi Seytniyaz usta Jarimbetov (1905-1983) ishlab chiqqan edi.

Genjebay og'amizning, ansambl a'zolarining va xalqimizning jonkuyar azamatlarining mehnatlari natijasida barcha muammolar yechilib – «Muxalles» ansambli, o'zini xalqqa namoyon eta oldi. Birinchi o'rgangan xalq musiqalaridan G'ulpaq, Kenges, Siy parda, Nozli nomli ko'ylari edi va o'sha kuylar bilan 1977-yilda Boshqirtistonda o'tkazilgan «Qoraqalpoq adabiyoti va san'ati» haftaligida ishtirok etdi. Bu to'ng'ich qadami, omadli va qutlug' qadam bo'lib, unga katta obro' olib keldi. Bundan keyin «Muxalles» ansambli tinimsiz mehnat qilib ko'pgina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Shu mehnatlar natijasida ancha yo'qolib borayotgan milliy musiqamiz yangidan qad rostlab, avj ola boshladi. Endi Respublikamiz miqyosidagi barcha tadbirlarda, katta konsertlarda, hattoki xalqaro tadbirlarda o'tkazilib kelinayotgan festivallarda, simpoziumlarda va boshqa anjumanlarda faol ishtirok etib, milliy musiqamizni dunyoga tanitmoqda.

Bu muvoffaqiyatlar milliy musiqamizni yanada yuqori bosqichlarga ko'tardi va shu bilan birga yoshlarimizning madaniy boylıklarimizga bo'lgan ixlosini orttirdi.

Bugungi kuni o'zining shogirdi, «O'zbekiston xalq

baxshisi» G'ayrat Utemuratov ushbu «Muxalles» milliy dutorchilar ansambliga badiiy rahbar bo'lib, ustozining yo'lini davom ettirmoqda.

1980-yillarning ohirida o'zining asosiy ish joyi bilan birga Nukus davlat san'at kollejiga chaqirtirilib, olamo'ynoq dutoridan yoshlarimizga qo'shimcha fakultativ dars beradi. Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'z urf-odatlarimizga, milliyligimizga bo'lgan e'tibor avj olib, 1992-yilda ushbu o'quv maskanidan «Folklor» bo'limi ochildi. Endi ushbu bo'limning rahbari sifatida ishni tashkillashtirishda Genjebay og'amiz shaxsan o'zining salmoqli hissasini qo'shib, shu bo'limning o'quv ishlarini o'z o'rniga qo'yishda tinmay mehnat qilib, umrining oxirigacha yoshlarni tarbiyalashdan to'xtamadi.

Ko'plab shogirdlar tayyorladi, shularning ichida xalqimizga keng tanilgani «Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist», «Qoraqalpog'iston xalq artisti» Turg'anbay Qurbanov, «O'zbekiston xalq baxshisi» G'ayrat Utemuratov, «O'zbekiston xalq baxshisi» Tengel Qalliyev, Begzada Asqarova va boshqalarini aytib o'tish joiz. Bugungi kunda larning safi yanada kengayib, Respublikamiz bo'ylab barcha Bolalar musiqa va san'at maktablarida ham milliy musiqa bo'limlari ochilib, qanchadan-qancha shogirdlar chiqib, o'z san'atlari bilan Respublikamiz bo'ylab xalqimizga xizmat qilmoqda va quvonarlisi ular ham o'z navbatida xalqaro anjumanlarda, ko'rik tanlovlarda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda.

Genjebay og'amiz ilmiy mehnatlari bilan ham bir qancha yaxshi izlar qoldirdi. Masalan 1991-yilda Bilim bosmaxonasidan filologiya fanlarining doktori, professor Oraqbay Dospanov va san'atshunoslik fanlari nomzodi Ag'imbay Allamuratovlar bilan hammualliflikda «Qoraqalpoq san'at nomlarining lug'ati» nomli, 1992-yilda yana Bilim bosmasidan filologiya fanlari doktori, professor Sarigul Baxadirova va filologiya fanlari doktori, professor Srajatdin Axmedovlar bilan birga «Folklorlik atamalarining qisqacha lug'ati» nomli kitoblarini bosmadan chiqardi. Bu savobli ishlar davom etib, bugungi kuni ham milliy musiqamiz atrofida bir qancha ilmiy mehnatlar ishlanib kelmoqda.

1982-yildan boshlab mening o'zim ham Genjebay og'amiz bilan kasbdosh bo'ldim, sababi xalq sozlarini har kim, har hil cholishmoqda, shularni notaga solish taklifini berdi. Chindan ham bu mashaqqatli ish ekan, har bir kuyning izma-iz o'zgarib kelgan o'lchamlarini, dastlarni, nolalari nota savodiga tartibli ravishda qanday qilib joylashtiranimiz maqul bo'ladi deya, ko'plab musiqa mutaxassislari bilan maslahatlashdik. Natijada 2002-yilda, 20 yildan so'ng 40-kuydan iborat birinchi «Qoraqalpoq xalq sozlari» nomli uqo'v qo'llanmamiz chiqdi, baxtga qarshi o'zi ko'ra olmay ketdi. Mana Genjebay og'amizning shunday ulug' tashabbuslari, mehnatlari katta muvaffaqiyatlarga olib kelib, hozir olmo'ynoq dutori bo'yicha boshq o'quv qo'llanmalarimiz, darsliklarimiz nashrdan chiqmoqda.

Genjebay og'amizning baxshichilik yo'lini ta'kidlaydigan bo'lsak, yoshligidan boshlab umri davomida o'zining betakror san'ati bilan xizmat qilgan insondir. Shu yo'nalishdagi qo'lga kiritgan muvoffaqiyatlarini aytadigan bo'lsak, jumladan:

1950-yil sentabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan

O'zbekiston yoshlari olimpiadasida ishtirok etib, yakka ijro mahorati bo'yicha yuqori baho oldi.

1957-yilda Toshkentda o'tkazilgan O'zbekiston yoshlarining birinchi respublika konkvpsida «Lay-lay», «Muso sen yori» nomli xaq qo'shiqlarini yuqori mahorat bilan ijro etgani uchun, ushbu tanlovning birinchi darajali lauriyati diplomi va oltin soat bilan taqdirlangan.

1957-yilda Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'atining O'zbekistonda o'tkazilgan o'n kunligiga Genjebay Tileo'muratov ham o'z repertuari bilan qatnashadi. Toshkentdagi ochilish, yopilish konsertlarida Japaq baxshi bilan birga ijro etgan qoraqalpoq qo'shiqlari va kuylari tamoshabinlarda katta qiziqish uyg'otdi.

1967-yilda O'zbekiston adabiyoti va san'atining Turkmanstonda, 1968-yilda Tojikistonda va 1978-yilda Ozarboyjonda o'tkazilgan dekadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

1969-yilda Olma-Ota shahrida o'tkazilgan Qozog'istonning 50 yilligiga bag'ishlangan O'rta Osiyo bo'yicha xalq ijodiyoti ijrochilarining tanloviga qatnashib yuqori baho olishga muvassar bo'ldi.

1969-yilda Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'atining O'zbekistonda o'tkazilgan haftaligida ishtirok etib, tomoshabinlarning yuqori olqishiga sazovor bo'lgani uchun, unga «Qoraqalpog'istonda mehnati singgan madaniyat xodimi» mukofoti berildi.

1971-yilda Turkmanston Respublikasida bo'lib o'tgan Turkman mumtoz shoiri Kaminaning 200 yilligiga va 1989-yilning aprel oyida Tileo'bergen Jumamuratov bilan birgalikda Maxtumquli firog'iyning xotirasiga bag'ishlanib o'tkazilgan poeziya bayramlarida ishtiroq etib tinglovchilarning hurmatiga sazovor bo'ldi.

1974-yilning fevral oyida Moskvada Qoraqalpoq adabiyoti va san'ati kunlariga ishtirok etib Pyotr Ilich Chaykovskiy nomidagi zalda berilgan konsertda Genjebay Tileo'muratov tomoshabinlarni qoraqalpoq xalq qo'shiqlarining o'ziga xos milliyi bilan yaqindan tanishtirdi.

Shuningdek 1977-yilda Bashqurtistonda o'tkazilgan Qoraqalpoq adabiyoti va madaniyati kunlarida Genjebay Tileo'muratov «Muxalles» dutorchilar ansambli bilan ishtirok etdi. Ularning ijro etgan «Siy parda», «Nozli», «Qora jo'rg'a» sozlarini tinglovchilar katta qiziqish bilan qarshi oldi va shu yilda Genjebay og'amizning mehnatlari alohida baholanib «Qoraqalpog'iston xalq baxshisi» mukofoti bilan taqdirlandi.



1977-yilda Moskvada o'tkazilgan To'rtinchi Butunsoyuz musiqiy folklorini to'plashga bag'ishlangan sessiyada Genjebay Tileo'muratov faol qatnashib, bir necha xalq musiqalarini magnit lentalariga yozdirdi.

1980-yilning aprel oyida Moskvada o'tkazilgan Qoraqalpoq san'ati arboblarning konsertlarida, u ijro etgan xalq qo'shiqlari tomoshabinlarning yuksak hurmat va ehtiromiga sazovor bo'ldi.

1981-yilda Tatarstonda, 1984-yilda Dog'istonda va 1990-yili Xorazmda o'tkazilgan dekadalarda, Genjebay og'a Tileo'muratov xalq baxshisi sifatida yakka xalq qo'shiqlari va o'zining tuzgan «Muxalles» ansambli bilan faol ishtirok etdi.

Genjebay og'a 1997 yili 17 dekabr kuni olamdan o'tdi, uning shu kabi xalq oldidagi fidoyi xizmatlari o'z vaqtida hukumatimiz tomonidan «Qoraqalpog'istonga mehnati singgan madaniyat xodimi», «Berdaq nomidagi davlat mukofoti lauriyati», «Qoraqalpog'iston xalq baxshisi» va «Shuhrat medali» kabi mukofotlar bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda ulug' ustozning izini davomlovchi shogirdlari kundan – kunga ko'payib xalq uchun qilgan ajoyib xizmatlarini davom ettirib katta cho'qqilarga olib chiqib milliy musiqamizni dunyo bo'ylab yangratmoqda.

#### **Adabiyorlar ro'xati**

1. Адамбаева Тэжигул. «Революцияға шекемги Қарақалпақ музыкасы». Нөкис Қарақалпақстан баспасы 1985-жыл.
2. Адамбаева Тэжигул. «Қарақалпақ совет музыкасының тарийхынан». Нөкис Қарақалпақстан баспасы 1985-жыл.
3. Адамбаева Тэжигул, Алымов Әсен. «Саз билен сәўбетти жалған демендер» «Қарақалпақстан» журналы 2002-жыл № 3,4 саны.
4. Алымов Әсен. «Лапызлы баксы хэм пидәкер устаз», Генжебай Тилеумуратовтың 60 жыллығына. Совет Қарақалпақстаны газетасы 18-август 1989-жыл.
5. Әбдимуратов Жумамурат. «Шабандоз». Еркин Қарақалпақстан гасетасы 15-сентябрь 2005-жыл.
6. Әбдимуратов Жумамурат. «Шабандоз». Еркин Қарақалпақстан гасетасы 17-сентябрь 2005-жыл.
7. Әбдимуратов Жумамурат. «Шабандоз». Еркин Қарақалпақстан гасетасы 20-сентябрь 2005-жыл.
8. Мақсетов Қабыл. «Халық сүйген баксы». Совет Қарақалпақстаны газетасы 22-январь 1981-жыл.
9. Мақсетов Қабыл. «Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дөретпелери». Нөкис билим баспасы 1996-жыл.
10. Жүгинисов Генжебай. «Бақсышылық мийрас болып киятыр» Жеткиншек газетасы 18-октябрь 1989 жыл.



Feruza XAKIMOVA,  
O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida katta o'qituvchisi

## Farhod Alimov ijodi xususida

(1947-2014)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada benazir ustoz, betakror ijodkor, atoqli kompozitor, O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, mohir pedagog Farhod Alimovning ijodiy merosiga nazar tashlanadi.

**Kalit so'zlar:** kompozitor, iste'dod, mohir, repertuar, drama, orkestr, teatr.

Феруза ХАКИМОВА,

Старший преподаватель кафедры "Инструментального исполнительства» ГИИКУЗ

## О творчестве Фархода Алимова

(1947-2014)

**Аннотация.** В статье рассматривается творческое наследие Фархода Алимова, уникального педагога, уникального художника, известного композитора, художника, талантливого педагога Республики Узбекистан, внесшего большой вклад в развитие музыкальной культуры Узбекистана.

**Ключевые слова:** композитор, талант, умелый, репертуар, оркестр, театр.

Feruza XAKIMOVA

Department of "Instrumental Performance" senior teacher UzSIAC

## About the work of Farhod Alimov

(1947-2014)

**Annotation.** This article looks at the creative heritage of Farhod Alimov, a unique teacher, a unique artist, a famous composer, an artist of the Republic of Uzbekistan, a talented teacher who has made a great contribution to the development of music culture in Uzbekistan.

**Keyword:** composer, talent, skilled, repertoire, orchestra, theatre.

Har bir insonning komil shaxs bo'lib voyaga yetishida, yetuk kasb egasi bo'lib jamiyatda o'z o'rnini topishida ustoz-murabbiylarning o'rni juda muhim.

Fidoi, zahmatkash muallim-o'qituvchilar o'z shogirdlariga bilim berish barobarida ular qalbiga insonga xos eng go'zal ezgu hislatlarni, mehr-oqibat va odamiylik tuyg'ularini singdirib boradi. Turli yo'nalishlar qatori san'at va madaniyat sohasida o'z iqtidori, mahorati va bilim salohiyati bilan yuqori natijalarga erishib kelayotgan yoshlarning muvaffaqiyatlari zamirida avvalo, aziz ustozlarning zahmatli mehnatlari mujassamdir. Shunday ustozlardan biri san'at va madaniyat sohasida ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan, fidoi, mohir pedagog, taniqli kompozitor Farhod Alimov 1947 yil 23 oktabrda Toshkent shahrida muhandis oilasida tug'ilgan.

Jurnalistlar Farhod Alimov bilan suhbatlashganlarida u bolalik kezlari eslab, o'sha davr zamonaviy "O'zbek musiqasining Otabegi" (Oybek iborasi) Yunus Rajabiy xonadoniga qo'shni bo'lib yashagani, uning o'g'illaridan biri – O'zbekiston xalq artisti Obid Yunusovning o'z akasi bilan qalin do'st bo'lgani, oqshom chog'lari teatrga ketishidan avval ham, qaytganidan keyin ham ular uyiga kirib, akasi bilan chaqchaqlashgani, teatr hayotida bo'layotgan ajabtovur voqealarni hikoya qilib berganini aytgan. F.Alimov shunday paytlarda akasining yonidan jilmay, Obid Yunusovning teatr, spektakllar, artistlar haqidagi hikoyalarini jon qulog'i bilan tinglagan. Hatto kelajakda artist bo'lishni orzu qilgan. Uning musiqa sohasini tanlashiga bosh sabab Rajabiylar oilasiga yaqin bo'lganligidir. [1. B. 6]

Farhod Alimov bolaligida Rajabiylar xonadonida yangragan kuylar, ashulalar, musiqa haqidagi gurunlar ta'sirida R.M.Glier nomidagi musiqa internatiga o'qishga kirdi. 1965 yili g'ijjak mutaxassisligi bo'yicha Obid

Xolmuhamedov sinfini muvaffaqiyatli tugatib, Toshkent davlat konservatoriyasining o'zbek xalq cholg'ulari fakultetiga imtihonsiz qabul qilingan. Konservatoriyani 1970-yilda g'ijjak sinfini bitirib, O'zbekiston Teleradiokomiteti qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga sozanda bo'lib ishga kirdi. Orkestrda ishlab yurgan paytlarida musiqa bastalashga intilib, qo'shiq va kuylar yoza boshlaydi. Kompozitorlik malakasiga ega bo'lish uchun 1972-yili konservatoriyaning tayorlov kurslarida, so'ngra asosiy bosqichida ikkinchi marotaba kompozitorlik bo'limida professor Boris Giyenko sinfida ta'lim oldi.

Farhod Alimov hayotida pedagogik faoliyat muhim o'rin egalladi. U 1975-1995 yillar Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) "Cholg'ulashtirish hamda partitura o'qish" kafedrasida katta o'qituvchi, 1993-yildan dotsent lavozimlarida, hayotining so'nggi kunlariga qadar esa O'zbekiston davlat konservatoriyasining kompozitsiya kafedrasida dotsenti sifatida faoliyat yuritdi.

Farhod Alimov deganda ko'z o'ngimizda o'zbek musiqasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkor namoyon bo'ladi. Uning nomi O'zbekiston musiqa tarixiga zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan. Xalqimizning yangi avlodi turli tillarda nashr etilgan maktab darsliklaridan u haqida ma'lumotlarni o'qib, yaratgan asarlarini bor vujudi bilan tinglashadi, qo'shiqlarini zo'r qiziqish ila kuylashadi. U o'zining ijodi bilan barcha janrlar rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Ayniqsa, uning o'zbek cholg'ulari orkestri uchun yozgan asarlari, musiqali dramalari iste'dodining yorqin qirralarini ochib berdi. Kompozitorning o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun yozgan "Shodiyona", "Tabriknoma", "To'yona", uverturalari va konserti



o'zining jozibali, yorqin ohanglari, ko'tarinki ruhi, bayramona kayfiyat baxsh etishi, mohirona cholg'ulashtirilganligi bilan ajralib turadi. Farhod Alimov ijodiy yo'lining dastlabki yillaridanoq o'z uslubini, "o'zligi"ni topdi. O'ziga xos betakror ohanglari bor ediki, boshqa ijodkorlardan alohida ajralib turadi. Bu ayniqsa, musiqali drama va komediyalarida yorqin namoyon bo'ladi. Uning rang-barang, jo'shqin va jozibali qo'shiqlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga va teatr uchun yozgan asarlari bilan musiqa shinavandalari qalbidan joy olib, zamonaviy milliy musiqa san'atining taraqqiyotiga ijodiy izlanishi va yutuqlari bilan salmoqli hissa qo'shdi. Yutuqlarining asosi uning ijrochilikda katta tajriba orttirgani, orkestr tarkibini tub-tubidan yaxshi bilganligi hamda milliy musiqamizga bo'lgan e'tiboridir.

Farhod Alimov shaxsan men uchun nafaqat ijodkor, balki qattiqqo'l va mehribon ustoz bo'lgan. 1991-1996 yillar Abdula Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) Xalq ijodiyoti fakultetida o'qish davrida cholg'ulashtirish fanidan ustozda ta'lim olganman. Ustoz dars jarayonida nafaqat bilim bergan balki, o'sha vaqtdanoq bizdagi pedagogik qobiliyatni shakllantirish, cholg'u ijrochiligiga bo'lgan qiziqishimizni oshirish uchun o'zining bor mahoratlarini ayamagan. Dars jarayonida juda sinchikovlik bilan talabaga e'tibor berar, cholg'ulashtirish fani bo'lganligi uchun nota daftarning tozaligiga, qalam hamda o'chirg'ich albatta yonimda soz holda bo'lishini ta'kidlagan. Hattoki bir darsda yaxshi ochilmagan qalam bilan darsga kirganimda, ijodkorda mana bunaqa ish quroli bo'lishi kerak deb o'z jamodonidan yangi qalam olib bergan. Ustoz o'zi bilan har doim ijod uchun kerak bo'ladigan ashyolarni soz holatda olib yurar edi. Bu bilan o'quvchi talabalarga namuna bo'lgan. Bitiruv malakaviy (ijodiy) ishimda ustoz qalamiga mansub "Yusuf va Zulayho" asarini talabalar o'quv orkestri bilan dirijyorlik qilganman. Qo'shichni kafedra professori Urozali Tashmatov hamda O'zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonovalar ijro etishgan.

Mana shunday jonkuyar, mehribon, o'z sohasining fidoyisi bilan hamsuhbat bo'lganimdan, mohir pedagog sinfida ta'lim olganimdan faxrlanaman.

Har doim "Cholg'u ijrochiligi" kafedrası professor-

o'qituvchilari bilan talabalar o'quv orkestriga dastur tanlashda, talabalarga berilgan asarlar ustida suhbatlashilganda Farhod Alimov asarlariga alohida nazar tashlanadi va albatta, ustoz bilan bo'lib o'tgan qiziq-qiziq voqealar eslanadi.

Farhod aka o'ta haqiqatgo'y, talabchan va rostgo'y, vijdonli inson edilar. Nohaqlikni ko'rib qolsalar, kim bo'lishidan qat'iy nazar darrov munosabat bildirar edilar. Biror bahsli masala bo'yicha tortishib qolinsa, murosaga kelishlari juda qiyin yoki umuman mumkin emas edi. Shu "tajang"liklarining orqasidan maktabda, keyinchalik konservatoriyada birga o'qigan, ijodiy jarayonda juda yaqin hamkorlik qilgan do'sti bilan ajralishib ketganining guvohi bo'lganmiz.

Hozirgi kunda butun dunyoga doyra cholg'usi targ'ibotini qilib yurgan sozanda, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abbos Qosimov 2003-yilda Tayvanda Musiqa universitetida doyra sinfi bo'yicha talabalarga tahsil berishni boshlaydi va Toshkentga kelganida mendan doyra uchun notaga olingan murakkab asarlardan topib berishimni iltimos qildi va birinchi navbatda "Shodiyona"ning partiturasini zarur ekanligini so'radi. Men undan buning boisini so'raganimda, orkestr bilan shu asarni (institut orkestrida) ijro etganda rosa "terlagani"ni aytgan edi.

Farhod Alimovning o'zbek musiqali dramalari uchun bastalagan musiqalari bu yo'nalishdagi ijodning eng yorqin namunalari hisoblanadi. Musiqali dramalardagi ariyalar o'zbek milliy musiqasini juda chuqur biladigan, shu bilan birga ushbu merosdan o'ta ehtiyotkorlik bilan foydalangan holda zamonaviy kompozitorlik san'ati uslublarida haqiqiy durdonalarni yarata olish mahoratining namoyishi bo'lib qoldi. "Farhod Alimovning ba'zi ariyalarini, ayrim kishilar, o'zbek klassik qo'shiqlaridan biri, deb o'ylashining guvohi bo'lganman. Bu milliy kompozitorga beriladigan eng oliy bahodir" deydi "Cholg'u ijrochiligi" kafedrası professori Urozali Tashmatov.

F. Alimov 1980-1984 yillar Havaskor xalq cholg'ulari orkestri ya'ni men ta'lim olgan yo'nalish talabalariga guruh murabbiysi va talabalar o'quv orkestri rahbari sifatida faoliyat olib borgan. Shu bilan birga "Dirijyorlik" fanidan ham ustozdan ta'lim olganman. Pedagogik mahorati juda kuchli ediki, talaba yoshlarni notadan

o'qish mahoratini oshirish borasida o'ziga xos uslubdan foydalanar edi. Orkestr jamoasi bilan yangi bir asar ustida ishlash jarayonida talabalarga asar nota matnlari tarqatilib, ularning notalarni bir ko'rishdayoq o'qish va o'z tempida ijro ettirib ijrochilarning musiqiy savodini, ijro mahoratini oshirishga, talabalarni mustaqil mashg'ulotlar olib borishga undardi deb eslaydi "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini professori Sobir Jumayev.

Farhod Alimov 1976-yili "G'ijjak kvarteti uchun syuita", 1977 yili "Qilli kvartet" kamer asarlarini yozish bilan kompozitorlik faoliyatini boshlagan va bu asarlar xalq cholg'ulari orkestri tomonidan ijro etilgan.

Taniqli kompozitorning ijodiy faoliyati haqida so'z borar ekan, yana bir masalani tilga olish joiz. Gap shundaki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda bir qancha yangi ansambllar, orkestrlar tuzildi. Shulardan biri "Sug'diyona" kamer orkestri bo'lib, unga iste'dodli o'zbek dirijorlaridan biri Feruza Abdurahimova rahbarlik qilmoqda. Farhod Alimov Feruza Abdurahimova bilan ijodiy hamkorlik qilib, o'zbek va Yevropa kompozitorlarining asarlarini u rahbarlik qilgan milliy cholg'ular orkestriga aranjirovka qilib bergan va repertuarlarini boyitgan.

Benazir ustoz, betakror ijodkor, atoqli kompozitor, O'zbekiston san'at arbobi Farhod Alimov musiqali drama janriga katta hissasini qo'shgan kompozitorlardan biridir.

Farhod Alimov bilan teatr o'rtasidagi ijodiy hamkorlik bundan ancha avval yuzaga kelgan. 80-yillar oxirida Muqimiy teatri shoir Ramz Bobojonning "Yusuf va Zulayxo" dramasi repertuar rejasiga kiritganida bu asarga musiqa bastalashni hali biror spektaklga musiqa yozmagan, lekin yuqorida tilga olingan vokal-xoreografik asarlaridan tashqari "Muhabbatnoma" baletini yozgan yosh kompozitor Farhod Alimovga taklif etgan. Farhod Alimov birinchi musiqiy dramasi yozish uchun, avvalo, asar muallifi bilan qattiq ishlagan, tarixiy muhit va tarixiy-afsonaviy qahramonlar obrazini musiqa vositalari bilan talqin qilish uchun o'zbek xalqining musiqiy merosini chuqur o'rgangan edi.

Kompozitor Farhod Alimovning Muqimiy teatri bilan ijodiy hamkorligi ham shu asardan keyin izchil va ravon izga tushdi. U "Nodirabegim"dan keyin shu teatrning "Fotima va Zuhra" (O'.Umarbekov romani asosida), "Devona" (R.Ma'diyev), "Soyibxo'ja operatsiyasi" (S.Imomov), "Superqaynona" (S.Imomov), "Na malakman, na farishta", "O'lding, aziz bo'lding" (X.Xursandov), "Erginamning orzusi" (S.Imomov) singari talay asarlariga musiqa bastaladi. Ustoz nafaqat yurtimizdagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri rivojiga balki, Xitoyning Sharqiy Turkiston qismida istiqomat qiluvchi uyg'ur xalqi musiqasi madaniyatining gullab-yashnashi yo'lida e'tiborga sazovor ishlarni amalga oshirdi. U Xitoy Xalq Respublikasining taklifi bilan Urumchi shahrida 2002-yillarning fevral oyida birinchi marta uch oylik muhlatda, ikkinchi marta 2003-yil olti oylik muhlat bilan, so'ng 2005-yil sentabridan 2006-yil iyunigacha Xinjiang san'at institutining musiqa

fakultetida mutaxassis sifatida faoliyat yuritdi. Institutda ko'p ovoqli musiqa asarlarini ijro etish muammolari bilan tanishdi. 60 ga yaqin cholg'ularni tan olib, bir nechta uyg'ur musiqa asarlarini orkestrga moslashtirish masalasi bilan shug'ullandi. 50 dan ortiq har xil janrdagi kuylarni bastalab, uyg'ur musiqachilari ijodini boyitdi. Ustoz tomonidan cholg'ulashtirilgan bu asarlar maxsus to'plam qilinib, Xinjiang maorif nashriyoti tomonidan 10 qismli asar sifatida nashr etilgan. Xinjiang uyg'ur avtonom respublikasi maorifi nazorati tomonidan Farhod Alimovning musiqa sohasida qilgan mehnatlari qadrlanib, "Xinjiang san'at sohasiga hissa qo'shgan arbob" mukofoti bilan taqdirlangan.

Farhod Alimov samimiy, kamtar, beg'ubor, ruhiy olami boy, noziktab insonlardan biri edi. U qaynoq ijodiy va pedagogik faoliyat bilan band bo'lishiga qaramay, farzandlari va nevaralari tarbiyasiga alohida e'tibor berdi. Taqdir meni Farhod Alimov bilan birlashtirganidan umrbod minnatdorman. Onasiga mehribon, tug'ishgan jigarlariga mehr-oqibatli bu inson mening ota-onamning ham mehrini qozongan edilar. Onamlar: "Kuyov tugul, o'g'illarning orasida bunaqasi boshqa bo'lmasa kerak. Shunaqa e'tiborli, hammaning hurmatini joyiga qo'yadigan insonni tug'ib tarbiyalagan ota-onaga ming rahmat. Onaga hurmat ko'rsatadigan o'g'il dunyoda ikkita bo'lsa, biri Farhodjon. Agar bitta bo'lsa, shu ham bizning kuyov"-der edilar onam, deb eslaydi ularning turmush o'rtog'i Feruza opa Alimova. [2. B. 120.]

Ustozning farzandlari Odiljon, Tursunoy, Sevaralar turli sohalarni tanlab, muvaffaqiyat bilan xizmat qilayotgan bo'lsalarda otalarining istagi bilan musiqa ta'limini ham olishgan. Odiljon rubob torini, qizlari Tursunoy bilan Sevara esa fortepiano cholg'usida o'zbek va Yevropa kompozitorlarining asarlarini ijro etib turishadi.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, xalqimiz madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirish ishiga qo'shgan salmoqli hissasi, betakror iste'dodi, serqirra ijodi, ilmiy faoliyati, halol xizmati bilan el-yurt o'rtasida orttirgan obro'-e'tibori, madaniyat, san'at, sohalaridagi ko'p yillik samarali mehnati hamda jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" unvoni (2007), "Mehnat shuhrati" ordeni (2000), "Ofarin" mukofotlari bilan taqdirlangan.

Farhod Alimov 2014 yil 20 noyabrda 67 yoshida og'ir hastalikdan vafot etdi. Ustozimiz Farhod Alimovdan biz shogirdlarga insoniy, samimiy bir xotira, barakali ijodiy meros qoldi. Ustoz hamisha biz bilan birga chunki, ularning asarlari talabalar o'quv orkestrlarida, yurtimiz teatrlarida, katta-katta sahnalarda ijro etilar ekan, ustoz doimo oramizda yurgandek. U kishi dunyoga kelib, behuda yashamadi. Garchi ustoz 80-90 yil umr kechirolmagan bo'lsada, arzirlik ijod qilgan. Undan oqil farzandlar, shogirdlar qoldi. Oilasi, farzandlari, nabiralari Farhod akaning xotirasini tabarruk tutib, shu xotiraga xizmat qiladigan yaxshi amallarni davom ettirmoqda. Ijodi bilan umri olami barhayot!

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov N. Musiqamiz Farhodi. -Toshkent: Akademiya, 2017. -134 b.
2. Jabborov A.X. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. -Toshkent Yangi asr avlodi, 2004. -469 b.
3. Cholg'u ijrochiligi kafedrasini professori Ўрозали Тошматов bilan жонли тарздаги суҳбатдан олинган маълумот.
4. Cholg'u ijrochiligi kafedrasini professori Собир Жумаев билан жонли тарздаги суҳбатдан олинган.
5. <https://www.lex.uz/>



## USTOZNI YOD ETIB

**Annotasiya.** Ushbu maqolada serqirra ijodkor dirijor, mohir sozanda, mehribon ustoz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Ergash Toshmatovning hayoti va ijodi, mehnat faoliyati xususida so'z yuritilgan. Ushbu maqola orqali Ergash Toshmatovni yaqindan bilmagan o'quvchi o'ziga kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, san'at, musiqa, teatr, spektakl, dirijyor, musiqali drama, orkestr, ansambl, cholg'u, sozanda, pedagog, shogird, filarmoniya, konsertmeyster, tajriba.

Хуршид БЕКНАЗАРОВ,  
старший преподаватель кафедры "Инструментальное исполнительство" ГИИКУЗ

## ВСПОМИНАЯ УЧИТЕЛЯ

**Аннотасия.** В данной статье рассказывается о жизни и творчестве, трудовой деятельности разностороннего дирижера, виртуозного певца, любящего учителя заслуженного артиста Узбекистана, профессора Эргаша Ташматова. Благодаря этой статье читатель, который не знает Эргаша Ташматова близко, может получить необходимую ему информацию.

**Ключевые слова:** Заслуженный артист Узбекистана, музыка, театр, спектакль, дирижёр, музыкальная драма, оркестр, ансамбль, инструмент, музыкант, преподаватель, ученик, филармония, концертмейстер, опыт.

Khurshid BEKNAZAROV  
State Institute of Arts and culture of Uzbekistan  
senior teacher of the Department "Musical performance" UzSIAC

## REMEMBERING THE TEACHER

**Annotation.** In this article, the life and work of Honored artist of Uzbekistan, professor Ergash Toshmatov, who served in Uzbekistan as a creative conductor, master musician, a kind teacher, is mentioned. Through this article, A reader who does not know Ergash Toshmatov closely can have the necessary information for himself.

**Key Words:** Honored artist of Uzbekistan, art, music, theater, plays, conductor, musical drama, orchestra, pedagog, ansambl, musical instrument, musician, teacher, student, Philharmony, concertmaster, experience.

Yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi sharoitida san'at va madaniyat sohasiga ham e'tibor kuchayib, bu borada yosh iqtidor egalarini kashf etish, yuzaga chiqarish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Vaqt sinovlariga bardosh bergan asarlar esa xalqimiz mehrini qozonmoqda. San'at maydonidagi turli ko'rik-tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lib, yuz-ko'zida shodlik va hayajon balqigan yoshlarimizni ko'rganda, ularning shu marralarga qadar yetib kelishlarida ustoz atalmish ulug' insonning qanchadan-qancha mehnati, fidoyiligi borligini gohida unutimiz. Guldiros qarsaklar, olqishlarga ko'milgan shogirdini kuzatib turgan ustozning ko'nglidan o'tgan niyatlari, ko'zidagi sevinch yoshlari parda ortida balki ko'rinmas. Lekin shogirdlarning kamolida, har bir muvaffaqiyatida ularning mehnatlari yuzaga chiqib boraveradi. Talay shogirdlar tayyorlab, o'zbek dirijorlik san'ati rivojiga munosib ulush qo'shgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dirijor, professor, benazir murabbiy Ergash Toshmatov haqida ham shunday deyishga xaqimiz.

Ergash Toshmatov 1930 yil Toshkent shahrida, ishchi oilasida tavallud topdi. Yoshlikdan musiqaga bo'lgan qiziqishi uni R.Glier nomidagi Respublika o'rta – maxsus musiqa maktab internatiga yetakladi, unda musiqa savodi, musiqa tarixi va chang chalish sirlarini o'rgandi. Maktabda o'qigan chog'ida dirijorlik san'atiga ilk qadamini qo'ydi. 1952–1957-yillari Ergash Toshmatov Toshkent Davlat konservatoriyasida ta'lim oldi va uni chang sinfi bo'yicha professor Ahmad Odilov, dirijorlik mutaxassisligi bo'yicha

Narimon Olimov rahbarligida muvaffaqiyatli tugatadi.

Ergash Toshmatov san'at sohasida qanday yutuqqa erishgan bo'lsa bunga albatta onasining xizmatlari katta ekanligini ta'kidlaydi. Chunki II-jahon urishida turmush o'rtog'i va ikki nafar o'g'lidan ayrilgan onaizor o'g'lini ya'ni Ergashjonni harbiy bo'lishini sira istamas uni san'at yo'lidan ketishini istar edi. Bu haqda ustozning o'zlari shunday xotirlaydi:

– U paytlari hech kimga oson emasdi. Urush olovi o'chmagan, hali unga, hali bunga qora xat kelib, odamlarning yuragi zirillab qolgan vaqt. Men yoshligimdan harbiy uchuvchi bo'lishga intildim. Uchuvchilardak dadil yurishga, sog'lom va baquvvat bo'lishga harakat qilardim. Ammo fashistlar bilan urush boshlandi-yu, men kabi qancha tengdoshlarimizni niyatlari niyatligicha qoldi. Onam juda aqlli, dono ayol edilar. Menda musiqaga qandaydir e'tibor, xalq kuylariga qiziqishni sezganlar chog'i, Ushu sohani tanlashimni so'rganlar. Hozir shularni o'ylab, onam bejiz so'ramagan ekan, deb o'ylayman. Shu kungacha nimaga erishgan bo'lsam, onam Matluba ayaning xizmati, mehri sabab [3. B. 37.].

Ergash Toshmatov o'z ijodiy-ijrochilik faoliyatini talabalik davridanoq boshladi. Dastlab O'zbek Davlat filarmoniyasi qoshidagi ashula va raqs ansamblida so'ng xalq cholg'ulari orkestri hamda Tamaraxonim, Mukarama Turg'unboyeva boshchiligidagi "Bahor" qizlar raqs ansamblida mohir changchi sifatida faoliyat yuritib keldi. Shu jamoalar bilan sobiq ittifoqning turli shaharlarida va chet ellarda o'zbek san'atini munosib namoyish etdi.

Musiqqa san'atini yosh va murakkab sohasi bo'lmish dirijorlik san'atiga bo'lgan qiziqishi Ergash Toshmatovni Toshkent Davlat konservatoriyasining opera-simfonik dirijyorligi bo'limiga o'qishga kirishga undadi.

Dastlab, Ergash Toshmatov kirish sinovlarini a'lo baholarga topshirgan bo'lsa ham o'qishga qabul qilinmagan. Qabul komissiya a'zolari o'zaro "bu xalq cholg'ulari bo'limida o'qigan, simfonik orkestri dirijyori bo'la olmaydi", "yo'q dirijorlik qobiliyati yetarli darajada" deb tortishib qolishadi. Uzoq tortishuvlardan so'ng Muxtor Ashrafiy chiqib "sen tayyorlov kursida meni sinfmda o'qiyan" deb jaxl qilib chiqib ketadi. Muxtor Ashrafiy Ergash Toshmatovni iqtidorini ko'rib uni dirijyor sifatida ko'ra bilgan va uni o'qishga kirishiga umid qilgan edi. Va nihoyat, 1961-yil dirijyorlik sirlarini mukammal egallash niyatida qayta Toshkent Davlat konservatoriyasiga o'qishga kirib, professor M.Ashrafiy rahbarligida bu oliy musiqa dargohini 1966-yili muvaffaqiyatli tugatadi.

Nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etib, 1961-yildan Muqimiy nomidagi O'zbek Davlat musiqali drama va komediya teatri (hozirda Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatri)da o'zining dirijyorlik faoliyatini o'qish bilan hamohanglikda boshlab yubordi. Bo'lajak dirijyor Muxtor Ashrafiydek o'z kasbining ustasidan soha sirlarini o'rganib bordi.

Muqimiy teatrida birinchi dirijyorlik ishi "Toshbolta oshiq" (G'.G'ulom asari, M.Leviyev musiqasi) musiqali komediyasidir. Spektaklning olamshumul muvaffaqiyati E.Toshmatovning kelajakdagi ishlariga keng yo'l ochib berdi, uni xalqqa tanitdi. Shuni ham aytish kerak-ki, spektaklning mashxur bo'lishida O'zbekiston xalq artisti, ajoyib komik aktyor Soyib Xo'jayevning xizmatlari beqiyos. Shu spektakl orqali u tomoshabinlar, teatr jamoasi hamda ustozlari ishonchini oqladi va dirijyor sifatida yaqqol tanildi. Albatta, orkestr, aktyorlar o'rtasidagi hamohanglikni, uyg'unlikni saqlab tura olish, ijrochilarning ko'z qarashlaridan tortib, lab qimirlatishlarigacha diqqat qilib, asarning har bir elementigacha xushyor bo'lish dirijyordan katta mahorat talab etardi. Tinimsiz o'qish, ishlash sepektakl jarayonida orkestr, xor va raqs jamoalari bilan asarni me'yoriga yetkazilganligi ehtimol shundandir.

E.Toshmatov ustozlari haqida gapirganda avvalo, dastlabki o'qish yillarida dirijorlikdan dars bergan ustozlari Narimon Olimovni, Muxtor Ashrafiyni hurmat bilan esga oladi. Shuningdek, Muqimiy teatrlarining keksa san'atkori konsertmeyster Margarita Furmanning ko'mak va maslahatlarini alohida qadrlaydi [2. B.173].

Ergash Toshmatovning umri sermazmun ijodiy faoliyatga boy. Dirijor o'z ustida ishlab ustozlardan olgan bilim va tajribaga tayanib, o'ziga xos uslubini shakllantirishga harakat qildi. Har bir asarning g'oyaviy-badiiy ma'nosini tushungan holda, tinglovchiga nozik harakatlari, dirijyorlikning "imo-ishoralari" orqali yetkazadi. "Nodira"ning lirik fojiviy mazmunini, "Soyibxo'ja operasiyasi" yoki "Kuyovlar konkursi"da xalqimizga xos hozirjavoblik, hazilkashlik xususiyatlarining epik ruhiyatni tomoshabinga singdirishga harakat qiladi.

E.Toshmatov katta tajribaga ega bo'lishiga qaramay o'qishdan izlanishdan to'xtamay, dirijorlik kasbini takomillashtirishda, yangi qirralarini namoyon etishga



harakat qilib 1972 va 1982 yillari Moskva Katta opera va balet teatrida, K.Stanislavskiy va V.Nemirovich-Danchenko nomidagi musiqali teatrida va operetta teatrida o'z malakasini oshirib qaytdi.

E.Toshmatov sermaxsul dirijorlik faoliyatidan tashqari yosh mutaxassislarni tarbiyalashda ham samarali mehnat qilib kelgan.

1954 yildan 1974-yilgacha R.Glier nomidagi respublika o'rta maxsus musiqa maktabida, 1968 yildan 1975-yilgacha Toshkent Davlat konservatoriyasida, 1975-1993, 2002-2010 yillar A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)da pedagogik faoliyat yuritib yuzdan ortiq malakali shogirdlar tayyorlashga erishdi. Ular orasida O'zbekiston xalq artisti, professor Foruq Sodiqov, O'zbekiston san'at arbobi, dotsent Botir Rasulov va boshqa ko'pgina shogirdlari bugun el xizmatidadir. Ularning yutuqlaridan ustozning ko'ngli tog'dek yuksaladi. O'z bilim va tajribalaridan kelib chiqqan xolda shu sohada o'sib kelayotgan yoshlarga dirijyorlikning o'ziga xos jihatlarini nazariy va amaliy jihatdan makammal o'rgatishga qaratilgan "Dirijyorlik" nomli darsliklari, chang cholg'usi uchun yaratgan o'quv qo'llanmalari oliy va o'rta maxsus musiqiy o'quv yurtlarida dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

E.Toshmatov 1984-1988 yillar A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat instituti «Xalq cholg'ulari» kafedrasini mudiri lavozimida ham faoliyat yuritib, 1985 yil Leningraddagi (hozirgi Sankt-Peterburg) N. Krupskaya nomidagi madaniyat institutida malaka oshirib kelgan.

Toshkent san'at institutida ham qator diplom spektakllarini sahnalashtirishga erishdi. Ulardan:

«Malinovkada to‘y», «Nurxon», «Xonima-xonim», «Qo‘lga tushmagan o‘g‘rimi?», «Tohir va Zuhra», «Yoshlikda bergan ko‘ngil», «Aka-uka sovcilar», «O‘jarlar», «Suymaganga suykalma» va boshqalarni esga olish mumkin.

E.Toshmatovning dirijorlik va pedagogik faoliyati bilan birga O‘zbekiston radiosi orqali qiziqarli suhbatlar (1965 yildan boshlab) olib borishda ham faol qatnashib kelgan. Unda jahon musiqa madaniyati namoyondalari hayoti va ijodi, mashhur musiqa durdonalari, hamda Muqimiy nomidagi musiqa teatri spektakllari, musiqalari haqida chiqishlar tayyorlanib efirga uzatilgan.

E.Toshmatov ellik yilga yaqin faoliyati davomida 100 dan ortiq spektaklni sahnalashtirdi. Bulardan tashqari Naum Ginzburg, Quvonch Usmonov va Nabi Xalilovlarning sahnalashtirgan ko‘p asarlariga ham dirijorlik qilgan. Bular «Guli Siyoh», «Nurxon» «Vatan ishq», «Ravshan va Zulhumor», «Muqimiy», «Paranji sirlari», «Mahtumquli», «Gavhari shamchiroq», «Olifto», «Turkman qizi», «Kumush to‘y», «O‘jarlar», «Yillar o‘tib», «To‘ydan oldin tomosha», «Toshkentning nozanin malikasi», «Mening jannatim», «Qonli to‘y», «Farhod va Shirin» «Xotinimning eri», «Xonima-xonim», «Xizmatigizga tayyormiz», «Xo‘jayin», «Mushkul savdo», «Alpomish», «O‘n ikkinchi kecha», «Kuyovlar konkursi», «Muzaffar quyosh farzandi», «Kachal polvon», «To‘ylar muborak», «Muhabbat navosi», «Dilafuzga to‘rt oshiq», «Soyibxo‘ja operasiyasi», «To‘ydan keyingi tomosha», «Bashorat», «Bu qanday balo», «Quduq tubidagi faryod», «Xasan kayfiy», «Diyonatga hiyonat», «Mangu mash‘al», «Osmonning bag‘ri keng», «Pari qishloq afsonasi» va boshqalar.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Karimjon Azimov “O‘zbekiston dirijyorlari” o‘quv qo‘llanmasida “Ergash Toshmatov Muqimiy teatrida o‘zining dirijyorlik ijodiy faoliyati bilan o‘zbek elining mashhur va taniqli bastakorlari va kompozitorlari Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov, Manas Leviyev, Doni Zokirov, Ikrom Akbarov, Dadaali Soatqo‘lov, Hamid Raximov, Matniyoz Yusupov, Sulaymon Yudakov, Abdurahim Muhamedov, Rumil Vildanov, G‘anijon Toshmatov, To‘lqin Toshmatov, Komiljon Jabborov, Xolxo‘ja To‘xtasinov, Bores Giyenko, Boris Zeydman, Sul-ton Haytboyev, Sobir Boboyev, Shohida Shohimardonova, Eduard Kalandarov, Telman Hasanov, Sayfi Jalil, Habibulla Rahimov, Avaz Mansurov, Anvar Ergashev, Aleksandr Berlin, Mustafo Bafoev, Farhod Alimov va boshqalarning ajoyib musiqalarini tomoshabinlarga yetkazdi. Bunday ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishda uning mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, o‘z ustida tinmay ishlashi va o‘z kasbini

takomillashtirishdagi harakatlari qo‘l keldi, deya qayd etgan [2. B. 175].

Albatta, sidqidildan qilingan mehnat beiz ketmaydi. Ayniqsa, ijod olamida yaratilgan betakror ijro san‘at ixlosmandlari qalbida yashayveradi.

Dirijor E.Toshmatovning fidoiyligi xizmati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, 1974 yili «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist» faxriy unvoniga, 2009 yili professorlik ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi.

Ustozni 2019-yil 19-iyul kuni 89 yoshida vafot etganlarini eshitib ishingim kelmadi. Xotiralar abadiy. Ustozning dars vaqtida bergan bilimlari, o‘g‘itlari hali xanuz yodimda. Ular darsdan tashqari shogirdlarini Muqimiy teatriga dirijorni jamoa bilan ishlash jarayonlarini kuzatish uchun chaqirardilar. Kelgusi darsda ko‘zatganlarimizni gapirib berib asarlarni tahlil qilib berishimizni so‘rardilar. Bundan tashqari A.Navoiy nomidagi opera va balet teatriga, T.Jalilov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri konsertlariga borib dirijorlarni kuzatishni va ularni qo‘l harakatlarini tahlil qilishni vazifa qilib berardilar. Shuning uchunmi hozir ham biron konsertga borsam albatta orkestr ijrosi va dirijorlarni sinchkovlik bilan kuzatib tahlil qilib ko‘rishga odatlanganman.

Yillar o‘tdi. Meni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida ish boshlaganimni eshitib ustoz xursand bo‘ldilar, duo qildilar. Hamma vaqt ish faoliyatimda ustozning, “sendan ko‘nglim to‘q” deganlarini eslayman, bu menga ishonch va ma‘suliyat yuklaydi.

Ustoz xozir oramizda yo‘q. Ammo ular yaratgan asarlari, kitoblari kelajak avlodga meros bo‘lib qoladi. Ular tarbiyalagan farzandlar va shogirdlar ular boshlagan ishni davom etdiradi. Men ham shunday ustozning shogirdi ekanligimdan faxrlanib ustozdan o‘rgangan bilimlarimni talabalarga yetkazishga, “Ergash Toshmatovning dirijorlik uslubi”ni davom etdirishga harakat qilaman. Xalqimizda shunday naql bor “Yaxshidan bog‘ qoladi...” Ergash Toshmatovdan xam katta mevali bog‘ qoldi desak xato qilmaymiz. U bilan ishlagan hamkasblaridan yoki shogirdlaridan u inson xususida faqat yaxshi gaplarni eshitasiz.

Dirijorlik darsi. Asarni talabaga dirijorlik qilib tushuntirib berdim, shu payt bir talabaning xayolchang o‘tirganiga ko‘zim tushdi. Undan, “tushunarlimi?” deb so‘radim u bo‘lsa “ustoz men qachon sizday dirijyorlik qilarkanman” dedi orziqib. Men kulimsiradim. Shu savolni men ham bir vaqtlar ustozim Ergash Toshmatovga berganim yodimga tushdi. Suhbatlarning birida, ustozim ham alla zamonlar ustozlari Muxtor Ashrafiyga shu savolni berganligini so‘zlab berganlarini va “buning uchun ko‘p mehnat qilish kerak” deganlarini eslagandilar. Bu javob barchamiz uchun edi...

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toshmatov E. Dirijyorlik: ўқув қўлланма. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiati nashriyoti, 2008. -264 b.
2. Azimov K. O‘zbekiston dirijyorlari. -Toshkent: MAGIKA MChЖ bosmaxonasi, 2001. -264 b.
3. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O‘zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1999. -188 b.
4. Бекназаров X. Kasbidan e‘zoz topib // Tearp. -2017. -№2. –Б.37



## FIDOYI INSON

**Anotatsiya.** Mazkur maqolada O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrasida mudiri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, dotsent Isoqtoy Jumanovning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Qolaversa, ustozning pedagogik mahorati va ilmiy salohiyati, adabiy-badiiy hamda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardagi faoliyatiga ayrim chizgilar berilgan.

**Kalit so'zlar:** teatr, sahna nutqi, metodika, ustoz, ijodiy maktab, rol, pyesa, mahorat, tajriba, adabiyot, san'at.

Дилрабо ЖУМАНОВА,  
Преподаватель кафедры «Сценическая речь» ГИИКУЗ

## САМООТВЕРЖЕННЫЙ ЧЕЛОВЕК

**Анотация.** В статье рассказывается о научной и творческой деятельности заведующего кафедрой «Сценическая речь» ГИИКУЗ, заслуженного тренера молодежи Республики Узбекистан, доцента Исоқтойти Джуманова. Кроме того, выделены педагогические способности и научный потенциал учителя, его деятельность в литературно-художественном и духовно-просветительском процессах.

**Ключевые слова:** театр, сценическая речь, методика, педагог, творческая школа, роль, игра, мастерство, опыт, литература, искусство.

Dilrabo DJUMANOVA,  
teacher of the chair "Stage Speech", UzSIAC

## SELFLESS A PERSON

**Annotation.** This article speaks about the scientific and creative activity of the head of the department "Stage speech" of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Associate Professor Isoqtoy Jumanov. In addition, some lines are given to the pedagogical skills and scientific potential of the teacher, his activities in the literary-artistic and spiritual-enlightenment processes.

**Keywords:** theater, stage speech, methodology, teacher, creative school, role, play, skill, experience, literature, art.

Yangilanayotgan O'zbekistonning bugungi taraqqiyotida so'z san'atining o'rni, ahamiyati, qudrati va hikmati beqiyosdir. Zero, milliy g'oyamizning ma'naviy-ma'rifiy ziyosi jonli hayotbaxsh so'z bilan qalb shuurlarimizga singadi, o'zining umidbaxsh samalarini beradi. Inson nutqi mukammal bo'lishi uchun doimiy ravishda "beshikdan to qabrgacha" o'z so'zi, uning mazmundorligi, ifoda ta'sirchanligiga doimiy e'tibor berishi, nutq madaniyati, so'z boyligi va uning mantiqiy qurilishiga jiddiy qarashi lozim.

Hurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", - degan fikrlari soha mutaxxasislarini o'z kasbiga sadoqat va vijdon bilan yondashuvni talab etadi.

Ijodkor nutq a'zolarining meyoriy harakatlarini ta'minlash, tovushlarning to'g'ri talaffuzi, ijroda nafas kengligiga erishish, sahnabop va mikrofoniga xos ovozlarning topilishi va shakllanishi faqat nazariy manbalar bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar va ko'nikmalar orqali ham o'zlashtiriladi, mustahkamlanadi, mukammallashtiriladi. Bunday vazifalar tizimi, albatta, uzoq muddat ishlanadigan, takrorlanadigan, sayqal beriladigan, innovatsion texnik mashqlar bilan o'z ifodasini topadi.

Ijodkor go'zal nutqi bilan birga, aytayotgan so'ziga fikran yondashadi, tasavvurida jonlantiradi, munosabatini ifodalaydi, tahliliy yondashgan holda ijrosini rang-barang tarzda taqdim etadi. Igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli mehnatni talab qiluvchi bu jarayonlarning barchasi ustozning shogirdiga qunt bilan tushuntirishi hamda amaliy ko'rsatmalar orqali ochib berishida namoyon bo'ladi. Shu bois ham san'at sohasida bunday mashaqqatli mehnatni zimmasiga olgan hassos so'z fidoyilari sanoqlidir. Ustoz-shogird tizimida o'rganiladigan so'z san'atining mohir va malakali, yuksak tajribali professor-o'qituvchilari bugungi kunda tajribasi, an'anaviy o'qitish metodikasini izdoshlariga, izlanuvchan shogirdlariga beminnat o'rgatib kelmoqda. Shunday ustozlardan biri dotsent Isoqtoy Jumanovdir.

Ustozlarga munosib shogird va metodik maktabni bus-butunligicha avlodlarga yetkazish yo'lida tinimsiz izlanishlar olib borayotgan ulug' ustoz, serqirra ijodkor Isoqtoy Jumanovning mehnatlari ham tahsinga sazovor. I.Jumanov nafaqat "Sahna nutqi" kafedrasida, balki institut rivojiga katta hissa qo'shgan fidoyi inson, qolaversa, ustozlar merosini avaylab kelayotgan kamtarin, hokisor, samimiy, sodda, ishonuvchan murabbiy sifatida qadrli. Bu insonning ijodiy yo'li dastlab A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti, keyinchalik Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'ati instituti, 2012 yildan esa O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi ilmiy, ijodiy, pedagogik faoliyati bilan bog'liq bo'ldi.

Ustozning pedagogik faoliyatidagi ijodiy rang-barang topilmalari, ya'ni murakkab va nutqni charxlaydigan

turli tovushli birikmalari, soʻz tugʻilishi, matn mazmun-mohiyatini ochishdagi interfaol metodlardan unumli foydalanishlari talabalarning ham qiziqishini oshiradi. Shu jihatdan Isoqtoy Jumanov sahna nutqi maktabida oʻziga xos uslub va mahoratga ega pedagogdir. Ustozning har bir ishga katta masʼuliyat bilan qarashi va butun vujudi bilan yondashishi har jihatdan yosh oʻqituvchilarga oʻrnak boʻladi. Masʼuliyat hissini chuqur anglagan va unga toʻla amal qilishini har jabhada kuzatib kelyapmiz. Jumladan, jamoat yigʻilishlari, bayram tadbirlari boshlanishlarida albatta, aytilgan vaqtdan 10-15 minut oldin borib, ijodiy jarayonga tayyor turadi. Bu odatlarini dars mashgʻulotlariga nisbatan ham qoʻllaydi. Har bir dars mashgʻulotlariga alohida qunt bilan tayyorlanib, yangi mashgʻulotlar, maqsad va vazifalar bilan auditoriyaga kirib boradi. Ustozning mahorati shundaki, har bir talabani feʼl-atvori, xatti-harakatidan kelib chiqib, individual yondashadi. Ularning qiziqishi va ijodiy imkoniyatlarini ochishda murakkab birikmalar va tez aytishlarni yozib, har bir talabani “men”ini topishga intiladi. Noodatiy trening va keng fantaziyaga boy materiallari talabalarning soʻz va harakatda erkin va faol boʻlishini taʼminlashga xizmat qiladi.

Isoqtoy Jumanov mehribon va qalbi keng insondir. Ustozlik maqomida uzoq yillardan buyon ishlab kelayotgan boʻlsa-da, biron bir talabaga nisbatan qattiqqoʻllik qilganini hech bir kasbdoshi eslolmaydi. Talabani ichki dunyosini ochish, qalbidagi orzu-umidlarini shakllantirishda otalardek samimiy munosabatda boʻladi. Talaba ustozining talabchanligidan qoʻrqib emas, balki qalb amri bilan oʻqish va uqishga intiladi, kelajakda oʻz kasbining mohir sanʼatkori boʻlishida ustozning oʻgʻitlari dasturulamal boʻlib xizmat qilishini tushunib yetadi.

Isoqtoy Jumanov yosh avlodni milliy istiqloq gʻoyalari ruhida komil inson qilib tarbiyalashga salmoqli hissa qoʻshish maqsadida qator sahna asarlarini yaratdi. “Quvnoq arava”, “Uchar kavush”, “Gʻayrioddiy musobaqa”, “Sandiqsoz usta”, “Toshbagʻir”, “Ochil dasturxon”, “Yuv suv”, “Tilla tuyoqli ohu”, “Olovuddinning qish qissasi”, “Nasriddinning yangi yil sarguzashtlari” pyesalari Respublika qoʻgʻirchoq teatrlari repertuaridan mustahkam oʻrin egalladi. U tarjimon sifatida E.Ioneskoning “Quyosh zarrasi”, K.Gotssining “Malikai Turandot”, B.Nushichning “Amaldorning xotini” asarlarini oʻzbek tiliga mohir tarjima qilgan. Bu ijod namunalari Isoqtoy Jumanovning milliy sanʼat rivoji yoʻlidagi mashaqqatli va bedor izlanishlarining samarasidir.

1997-2011 yillar mobaynida “Sahna nutqi va notiqlik sanʼati” kafedrasining mudiri, Ilmiy kengash aʼzosi, institut qabul komissiyasining masʼul kotibi, institut kasaba uyushmasi aʼzosi hamda kafedra dotsenti sifatida bakalavriat va magistratura boʻlimlari uchun “Sahna nutqi” va “Badiiy soʻz mahorati” fanlariga qator oʻquv



dasturlari, oʻquv-uslubiy majmualar, “Qoʻgʻirchoqlar soʻzlaydi” (1992), “Sahna nutqi” (2007), “Badiiy soʻz mahorati” (2015) oʻquv qoʻllanmalarini yaratdi. Magistratura boʻlimi talabalari uchun yozgan “Badiiy soʻz mahorati” oʻquv qoʻllanmasi 2016 yili Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining ragʻbatlantiruvchi mukofoti bilan taqdirlandi. Ushbu kitobida muallif “Yetuk ijodkor boʻlishning asosiy shartlaridan biri – ijodiy fantaziyaning boy, betakror namunalari boʻlmish jahon adabiyotining durdona asarlarini, tasviriy sanʼat, musiqa, teatr, kino, televideniya yaratilgan eng yetuk, sara ijod namunalari chuqur oʻrganishdir. Yosh ijodkorlarning talaffuz mahorati, tasavvur olami takomillashishi uchun koʻplab turli xil murakkablashtirilgan mashqlar bilan muntazam shugʻullanishi talab qilinadi”, – degan soʻzlari pedagogning shioriga aylangan.

Koʻp yillik mehnat tajribasi, ijodiy layoqati, yuksak salohiyati bilan kafedraning har bir professor-oʻqituvchisi va institut talabalariga beminnat amaliy yordam berib, maslahatlari bilan yoʻl-yoʻriq koʻrsatib, sanʼat va madaniyat rivojiga katta hissa qoʻshib kelayotgan ustozning mehnatlari yuksak qadr topib, Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 24-avgustdagi farmoniga binoan, Isoqtoy Jumanov “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni va koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi.

Oʻz tarixi, milliy qadriyat va anʼanalari, ajdodlar xotirasini eʼzozlaganlarni millat eʼzozlaydi, ularning bu yoʻldagi fidoyiligini qadrlaydi. Ustoz Isoqtoy Jumanov ham sahna nutqi ijodiy maktabini yaratgan buyuk ustozlarning mahoratli shogirdi va izdoshi, eng muhimi, institut va kafedraning rivojiga munosib hissa qoʻshgan fidoyi va ulkan tajriba sohibi sifatida hurmat va ehtiromga loyiq kasb egasidir.

#### Adabiyotlar roʻyhati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 29.12.2020 й. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. Джуманов И. Бадий сўз маҳорати. -Тошкент:Абу матбуот-консалт нашриёти, 2015. -170 б.
3. Джуманов И. Ўзбек сахна нутқи мактаби тарихидан лавҳалар:қўлёзма. - Тошкент; 2020. -350 б.
4. Жуманова Д. Саҳна нутқи. Янги тарих: рисола. -Тошкент: Наврўз, 2020. -80 б.

## AKTYOR TARBIYASIDA REJISSYOR VA DIRIJYORNING ROLI

**Annotatsiya.** *Sahna ijodkorlarini tarbiyalab, voyaga yetkazishda pedagoglarning ko‘plab qiyinchiliklarni yengib o‘tishi uchun yaxdillikda, bir maxsad sari to‘g‘ri qadam tashlashi talab qilinadi. Aynan musiqali teatr aktyori tarbiyasi jarayonida rejissyor va dirijyorning hamfikirligi juda muhim. Shunday ekan, dirijyor kuylovchi aktyorning musiqiy, rejissyor esa sahnaviy rahbari hisoblanadi. Ijodiy ish jarayonida rejissyor va dirijyorning tendensiyalari tez-tez birlashadi. Demak dirijyor va rejissyor ijodiy imkoniyatlarini birlashtirib, ijrochi aktyorda badiiy timsol yaratish yo‘lida yordam beradigan shart-sharoit yarib berish kerak. Bunda pedagog har bir talabaning o‘ziga xos ijodiy qirralarini ochishi, faolligini oshirish, musiqiy bilimni rivojlantirishi, hazil-mutoyiba tuyg‘ularini, ta’sirchanlik qobiliyatini uyg‘otish va rivojlantirishi, ijodiy ta’surotini ochishi, voqelikni chuqur va badiiy qabul qilishi, dunyoqarashlarini boyitishi, bilimlarini kengaytirishi va shu bilan birga aktyorlik va musiqiy mahorat texnikasining asoslarini chuqur singdirishdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *Musiqali aktyor, rejissyor, dirijyor, partitura, pedagog-rejissyor, nota, sahnaviy hatti-harakat, voqiylik, dramaturg, baletmeyster, pedagog, muallif, bastakor, repetitsiya.*

**Рашид УСНАТОВ,**  
и.о. доцент ГИИКУз

**Аннотация.** *Чтобы преодолеть множество трудностей в обучении и воспитании артистов сцены, педагогам необходимо сделать правильный шаг к общей цели. Именно в процессе обучения актера музыкального театра очень важно взаимопонимание режиссера и дирижера. Следовательно, дирижер - это музыкальный руководитель певца, а режиссер – постановщик спектакля. В творческом процессе часто сходятся тенденции режиссера и дирижера. Так что необходимо объединить творческий потенциал дирижера и режиссера, создать условия, которые помогут исполнителю создать художественный образ. При этом педагог раскрывает уникальную творческую сторону каждого ученика, повышает его активность, развивает его музыкальные знания, пробуждает и развивает чувство юмора, чуткость, раскрывает его творческие впечатления, развивает способность наблюдать реальность и искусство, обогащает свое мировоззрение и расширяет свои познания. Вместе это глубокое усвоение основ актерского мастерства и музыкальных приемов.*

**Ключевые слова:** *Музыкальный актёр, режиссёр, дирижёр, партитура, режиссёр-педагог, ноты, сценические движения, событийность, драматург, балетмейстер, педагог, автор, композитор, репетиция.*

**Rashid USNATOV,**  
“Musical, dramatic theatre and art cinema” chairs assistant professor UzSIAC

## THE ROLE OF PRODUCER AND CONDUCTOR ON THE CARE OF ACTOR ON MUSICAL THEATRE

**Annotation.** *In the process of educating young creators, teachers are required to suffer all the difficulties together, by having a true aim. Precisely, in the process of musical theatre actor’s education, having a same thought with producer and band master is very important. As it’s shown that, an actor who is singing is instructed by a band master from musical side, however, producer is manager from acting in a scene. In the process of creative work, the tendency of a producer and band master often joins together. In fact, there must be helpful terms and conditions for creating a model in actor by uniting the possibilities of producer and band master. By this, for educators, finding a specific creativity of every single actor consists of increasing the activity, developing musical knowledge, creating and developing the sense of humour and efficiency, opening creative thought and teaching technical skills of musical theatre acting.*

**Keyword:** *Musical actor, director, conductor, partitura, teacher-director, notes, stage line-action, reality, dramaturg, ballet master, author, composer, repetition.*

Musiqali spektakl bir necha san’at yo‘nalishlarining sintizi natijasida sodir bo‘lishi mutaxassislariga ayon. Jumladan: rejissyor, dramaturg, kompazitor, shoir, dirijyor, xormestor, baletmestor, rassom, tikuvchi va boshqalar. Bular yagona badiiy timsol yaratish uchun birlashadi. Shular ichidagi ikkita san’at yo‘nalishi ya’ni rejissyor va dirijyor tug‘risida tug‘ilgan ba’zi mulohozali fikrlarim bilan o‘rtoqlashmoqchiman. Ish jarayonida dirijyor bilan rejissyor o‘rtasida bo‘ladigan ijodiy hamfikirlilik, bir maxsad sari, g‘oya va fikrni to‘g‘ri yo‘naltirish, ma’naviy yuksak, zuvolasi tosh bosadigan, mukammal asarning dunyoga kelishiga sabab bo‘ladi.

Musiqiy spektakl ustida ishlash jarayonida dirijyor kuylovchi aktyorning musiqiy, rejissyor esa-sahnaviy

rahbari hisoblanadi. Dirijyor va rejissyor ijodiy imkoniyatlarini birlashtirib, ijrochi aktyorda badiiy timsol yaratish yo‘lida yordam beradigan shart-sharoit yaratadi. Rejissyor va dirijyorning tendensiyalari tez-tez birlashadi. Ba’zi aktyorlar dirijyorga musiqiy raxbar sifatida, rejissyorga esa sahnaviy tasavvurning ijrochisi sifatida qaraydi. Ba’zan dirijyorlar aktyorning musiqiy savodxonligini bilib, ularning mustaqil tashabbusidan, erkinligidan mahrum qilishga va qo‘g‘irchoqqa aylantirib qo‘yishadi. Bunday dirijyor musiqali aktyorni emas, hatti-harakatsiz, bir joyda turib qo‘shiq ko‘ylaydigan qo‘shiqchini tarbiyalaydi. Masalan, asarni sahnada ishlash jarayonida dirijyor tomonidan aktyorga ariya ijrosi vaqtida bir yerda, xatti-harakatsiz, sahna old planida turib,



ovozni zalga, tomoshabinlarga yo'naltirishini talab qiladi. Qaysidur ma'noda bunga qo'shilishimiz mumkin. Lekin shunday sahnalar uchraydiki umumiy fikrni, asosiy g'oyani ochish uchun gohida orqa planda bo'lishi, ariya ijrosi vaqtida xatti-harakat qilishi kerak. Mana shu jarayonda talaba qaysi rahbarning toshirig'ini bajarishni bilmay qiynaladi. Shunday bo'ladiki hatto rejissyor va dirijyor o'z-aro kelisholmay tortishib ham ketadi. Vaholangki ikki ijodkor alohida asar ustida ishlash jarayonida bir xulosaga kelgan bo'lishi kerak. Musiqali teatr aktyorini tarbiyalashda mana shunga uxshagan to'qnashuvlar yuzaga keladi va bu tabiiy xol. Dramatik spektaklda aktyorning tashqi ko'rinishiga, dramatik xolatiga alohida e'tibor qaratsa, musiqali teatr uchun muhim bo'lgan ifodaviy vosita ya'ni, musiqiy savodxonligi, ovoz imkoniyati, ariya ijrosi jarayonida berilgan shart-sharoitda yashab hattiharakat kila olishi, ariyaning tabiiy to'g'ilishi va hattiharakat qila olish imkoniyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. [1. B-196].

Rejissyor asarning musiqiy dramaturgiyasi tahlili jarayonida, ma'lum sahna yechimlarga asoslanib, sahnaning sharoiti, tempo-ritmi, timsolning ruhiy-jismoniy holatini ijrochi aktyorga tug'ri tushuntirsa yaxshi natijaga erishish mumkin. Albatta, bu individual ijodiy jarayondir. Lekin ba'zi dirijyorlar bu haqda juda kam o'ylashadi. Agarda dirijyor partiturada, bo'lajak spektaklning ma'lum bir timsolini ko'rmasa va har bir timsolni xatti-harakat yo'li bilan, o'ziga xos musiqiy-vokal usullari orqali ochishga intilmasa, unda rejissyor bilan dirijyor orasida haqiqiy ijod jarayon bo'lishi mumkin emas. Bunda, demak, musiqiy spektakl bo'lak-bo'lak holda qabul qilinadi, ya'ni musiqa va sahna, xonanda va aktyor, dirijyor va rejissyor. Musiqali spektaklning ma'nosi esa, bu umumiy badiiy jarayonda teatr bilan musiqani tabiiy holdagi birlashuvidadir. Bu yerda albatta, ijodiy ansambl bo'lishi kerak, ya'ni dirijyor bilan rejissyorning o'rtasidagi ijodiy jarayon. Pedagog-rejissyor uchun dirijyorning qanday fazilatlarini muhim? Avvalambor, dirijyor-musiqachi, dirijyor-dramaturg, dirijyor-rejissyor va dirijyor-pedagogdir.

1. Dirijyor-musiqachi. Dirijyor spektaklning musiqiy vijdonidir. Tovush orqali fikrlash qobiliyati, ritmni sezishi, musiqiy ta'riflarning o'zaro munosabatlarini va ularning qarama-qarshiliklarini birlikda tushunishi, musiqiy madaniyatning yuksakligi-bularning hammasi musiqachi degan so'zda gavdalantriladi. Dirijyorning o'ziga xos musiqiy vazifalari bor. Xususan musiqali partiyalarni yaxshi bilishi, muallif g'oyasini to'g'ri bajarishi, asarni ko'rsatilgan tempda ijro etishi, tovushlarning bir-biriga muvofiqqligini aniqlashi va ijrosini yaxlid ansamblda ishlab chiqishidadir. Lekin asarning musiqali dramaturgiyasini tushunish va ongli ravishda tahlil qilish dirijyorning eng muhim vazifasidir.

2. Dirijyor-dramaturg. Dirijyor asarning xatti-harakatlarini o'ylab topish xususiyatlariga ega bo'lishi kerak emas, ammo u musiqali timsollarni, berilgan shart-sharoitlar bilan solishtirishi kerak. Dirijyor bilan rejissyor spektaklning g'oyasi bilan bir xil ilhomlanishlari kerak, degan edi dirijyor Nabi Xalilov. Dirijyor, musiqachi bo'la turib, rejissyorga va ijrochilarga juda ko'p narsalarni ochib berishi mumkin. Masalan, bir ariya yoki qo'shiq davomida, musiqa tempi yoki ritmi bir necha bor o'zgarsa, sahnaning asosiy ohangi boshqa pardalarga o'tib ketsa, ya'ni modulyatsiya ro'y bersa, bu-qandaydir hodisa yuz berganining alomatidir. Yoki «forte» balandligida chalib turgan orkestr to'satdan «pianoga» o'tsa, bu hol

qahramonlarning xatti-harakatlarida o'z aksini topa bilishi kerak. Bu yerda dirijyor bilan rejissyor o'rtasida eng kerakli va foydali munosabat tug'ilishi kerak, chunki aynan shu yerda, spektaklning bo'lajak yechimi, g'oyasi dunyoga kelishi mumkin. Dramaturgiyaga bo'lgan munosabat, bu dirijyor bilan rejissyor hamkorligining eng muhim hal qiluvchi jarayonidir. Bordi-yu, dirijyor spektaklni sahnalashtirishga kirishib, uning asosiy g'oyasiga esa yetarli ahamiyat bermasa, yoki an'anaviy yechimiga intilsa, unda uning mehnati zoye ketishi mumkin. "Musiqiy tomonidan yaxshi chiqdi, hamma ayb rejissyorda, u yomon sahnalashtirgan"-degan dirijyorlarni, yoki xuddi shuning aksini vaj qiladigan rejissyorlarni hali ham uchratish mumkin. Taqrizlarda ham dirijyorlarni maqtab, rejissyor tomonidan spektaklni yomon sahnalashtirgani uchun, tez-tez ta'na qiladilar. Agar rejissyor spektaklni notug'ri sahnalashtirgan bo'lsa, balki buning sababi musiqiy tomondadir, nahotki bunda dirijyorning hech qanday aybi bo'lmasa? Agar rejissyor bilan dirijyorning fikri bir joydan chiqsa va ular orasida yaxshi ma'nodagi bo'lgan ziddiyat, tortishuv badiiy mukammal musiqali spektaklning dunyoga kelishiga asos bo'ldi. [2. B-241].

3. Dirijyor-rejissyor. Agarda dirijyor aktyor bilan bo'ladigan ijodiy ish jarayonda, faqatgina vokal asarlarni o'rganishga, notalarni yodlashga, bir joyda turgan holda tug'ri ko'ylashni talab qilsa, unda aktyor dirijyordan juda kam narsalarni o'rganadi. Dirijyor rolning musiqiy qismlarini mustaqil o'rganib bo'lgandan so'ng, o'z imkoniyatlariga qarab, aktyorlarga jumlaning ayrim muhim o'rinlarini aniq va ravshan ifodalashni, asar g'oyasini, obraz yechimini to'g'ri izohlashi zarurligini aniq tushuntira bilishi shart. Lekin, musiqiy asarda jumlaning ifodaviyligi oldindan belgilangan bo'lib, aktyorlarning xatti-harakatlari chegaralangan. Kuylovchi aktyorning diqqati timsolni yaratishga, texnik vazifalarni bajarishga, ya'ni vokal asarlarni o'z ovozinig imkoniyatlariga moslashtirishga va jumlaning savodli tarzda aytishga va to'g'ri yo'naltirishiga qaratiladi. Dirijyor kuylovchi aktyorni timsol ustida ishlash uchun, rejissyorning oldiga yuborgani ma'qul. Afsuski ba'zan buning aksini qiladigan dirijyorlar ham topiladi va natijada aktyorga noto'g'ri tushuncha beradi. Natijada kuylovchi aktyorda ijodkorlikni uyg'otmay, uni shunday noqulay vaziyatga soladiki, musiqiy sahnaning vazifasi, faqat vokal asarini to'g'ri bajarishdan iborat ekan degan tushunchaga kelib qoladi. Ikkala ijodkorning vazifasi, bu, aktyordan ariyani har xil mizanssenalarda ko'ylay olishni, fikrni aniq va tiniq yetkazib berish lozimligini o'rgatish kerak.

Aktyorning xotirasida o'rnashib qolgan kuy intonatsiyalari va ular bilan ishtirok etuvchining xatti-harakatlari bog'lanmaganligi tufayli, kuylash va xatti-harakatning orasida qarama-qarshilik paydo bo'lishi mumkin. Bu holatdan qanday chiqishi mumkin? Rejissyor, aktyorni bo'lajak spektaklning umumiy shakllari bilan tanishtirib, unga rolni o'rganishdan avval, spektaklning asosiy vazifalarini tushuntirishi lozim. Bu yerda aktyorga spektakl qurilishining andozalarini ko'rsatmay, uni asarning asosiy mavzusi bilan qiziqtirib, tasavvurini uyg'otish kerak. Rol o'rganish jarayonida esa mavzuning yechimlarini, bo'lajak spektaklning shakllarini ko'rsatish mumkin. Shu ish jarayonida har xil yo'llar bilan aktyorning fantaziyasini rivojlantirishi, sahnaning xilma-xil vaziyatlarida mumkin bo'lgan ohang ranglarini, intonatsiyalarini paydo bo'lishini, ishora qilish orqali tushuntirish mumkin. Xonandaga rolning so'zlarini yodlashning o'zi kamlilik

qiladi. Unga tovush ustidagi ish jarayoni tabiiy va odat bo'lishi shart. Kuylash texnikasiga e'tiborini kam ajratadigan xonanda, chalasavod bo'lib chiqadi. Shuning uchun ham kuylovchining rol ustidagi texnik ishiga sovuqonlik bilan qaragan rejissyor-o'ziga o'zi dushman bo'ladi.

Afsus oramizda shunday rejissyorlar ham uchrab turadiki ular aktyorlar bilan kirish va chiqishlarni, sahnadagi asosiy harakatlar, o'tadigan joylarni kelishib olib, sahnalashtirilgan spektakllarning qaysi joylarini ishlatish mumkinligini ya'ni, dekoratsiya, kostyum, mezansahna, buyumlar va h.k.z, ko'chirishni belgilab oladi. Bunday "noyob" rejissyor teatr uchun juda uyatli va sharmandali xol. Ular musiqali spektakllarning hammasini, qachon va qayerda qo'yilganini biladi va aktyorlarga sahnaning qaysi joyda kirish, qaysi notalarda kulish yoki yig'lash, qaysidir joylarida kerakli ishoralarni bir xil ishlatishni aniqlab beradi. Bunday rejissyorlarda ishoralarning to'plami ming afsuski sanoqsiz. Hattoki baletmeysterga ham joy qoldiradi. U esa faqat oxirgi rapetitsiyaga yoki to'g'ridan-to'g'ri premyerani o'ziga kirib kelishi mumkin. Ana shunday ishlardan so'ng qarabsizki, spektakl tayyor. [3. B-96].

Musiqali spektaklda dirijyorning roli nafaqat musiqiy tomonlarga javob berishi, balki musiqiy rejissyor sifatida, butun asarni tahlil qilishida qatnashishi kerak. Buni sahnalashtirilayotgan spektaklda dirijyor ishining mohiyatini aniqlash deb tushunish kerak. Amaliyotda bu quyidagilarni bildiradi:

a) Dirijyor, talaba aktyorlarning rolga tastiqlanish jarayonida qatnashishi va o'z fikrini bildirishi shart. Chunki tanlangan ijrochilarning qanchalik darajada rolga mosligi, aktyorlik qobiliyati, ovoz imkoniyati bo'lajak spektaklning kelajagini ta'minlaydi. Shuning uchun ham olingan asr qahramoniga talabaning ko'rinishi, ovoz imkoniyati, musiqiy savodxonligi, bo'y basti, aktyorlik imkoniyati va barcha jixatlari to'g'ri kelishi zarur. Shundagina u xatti-harakat mantiqini, ohang tuslarini, dramaturg, rejissyor, kompozitorlarning aytajak fikrini, tasavvurini uyg'ota olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham u, faqat rolning mantiqini emas, balki timsolning musiqiy-vokal mantiqini, uning bo'yoqlarini qidiradi. Dirijyorning asosiy vazifasi bu vokal intonatsiyasini qidirish jarayonidir, so'zning, xatti-harakatning ma'nosini topishdir.

b). Dirijyor rejissyorning bo'lajak spektaklga bo'lgan nuqtai nazariga qo'shilishi, muallif va kompozitorning fikrlarini amalga oshirishda faol qatnashishi kerak. Bu esa musiqali dramaturgiya tahlilining natijasi bo'lib, rejissyor va dirijyorning birlashgan badiiy nazariyasini belgilaydi. Dirijyor rejissyorning fikriga qo'shilmasa yoki ularga befarq bo'lsa, rejissyor og'ir ahvolda qoladi. Chunki dirijyor unga spektaklning ichki ma'nosini qurishga yordam bermay qo'yadi. Shunday ekan, musiqa, bu juda katta kuch va u betaraf holda bo'la olmaydi.

g). Spektaklning repetitsiyalari dirijyor jo'rligida o'tadi. U rejissyor bilan birgalikda, timsolni ta'riflaydigan ma'lum fe'l-atvor, xususiyatlar, berilgan shart-sharoit va xatti-harakatlarning mantiqini namoyon qilishga erishadi. Aynan shu ish, ijodiy yechimlarga va usullarga o'z ta'sirini singdirib, dirijyorning ishini ta'riflaydi. Qolaversa uni ilhomlantiradi va ijodiy jamoani asosiy qatnashuvchisiga aylantirib, ijrochilarning spektakl ustida ishlash jarayonida yagona rahbarga aylantiradi. Bunday rahbar esa musiqaga emas, balki uning dramaturgik mohiyatiga dirijyorlik qiladi. Shuningdek aktyorning ovoz imkoniyati, orkestr

sadolari orqali qahramonning holatini ochishga va xatti-harakat natijasida voqeani musiqa bilan birlashtiradi. U mizanssena, dekoratsiya, kostyum va sahnadagi chiroqqa befarq qaray olmaydi. Sababi bularning hammasi ijodiy g'oyani amalga oshirishga yordam beradi.

Dirijyor qaysidir ma'noda aktyor hamdir. U har repetitsiya jarayonida aktyorlar bilan birgalikda, ularning sahna hayotlarini boshidan kechiradi. Spektakl paytida rejissyor sahnaning orqasida qoladi, dirijyor esa butun ijro davomida jamoani boshqarib, birinchi bo'lib, «hujumga» o'tadi. Unga spektaklning taqdiri ishonib topshirilgan. Qolaversa spektaklning g'oyasi va maqsadi, musiqiy bezagi, tempi uning qo'liga topshirilib, mahoratiga bog'langan.

4. Dirijyor-pedagogdir. Dirijyor, rejissyor kabi, pedagog ham bo'lishi kerak. Ish jarayonida talaba ayrim vazifalarni bajara olmasa, uning sababini aniqlash kerak. Agar yuklatilgan vazifa kerakli darajada ijrochining diqqatini jalb etmasa, yoki tushunmasa, yoki timsolning badiiy xislatlari unga to'g'ri kelmasa nima qilamiz. Demak vazifani o'zgartirish kerak. Har bir talaba aktyor o'qish, ijodiy izlanish jarayonida, hattoki spektakl ijrosi vaqtida ham musiqiy xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Bunga sabab ijrochining yengiltakligi, ishga befarq qaraganligi, yoki tasodifan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda talaba kuyib, azob tortishi mumkin. Dirijyor esa urishmasdan, ijrochi talabani dadillantirib tabassum ila ish olib borgani ma'qul. Shunday ekan pedagogik xislatlar dirijyorga ham rejissyorga ham kerak. Pultda turgan dirijyor, kuylovchi aktyorning birinchi do'stidir. Ishning natijasi ko'pincha repetitsiyadagi sharoitga bog'liq. Ular zerikarli, qiyin ish kabi emas, balki bayramday, xushchaqchaq, ko'ngilli sharoitda bo'lsa, repetitsiyaga qatnashish istagi yanada kuchayadi.

Orkestr jo'rligida o'tadigan ilk repetitsiya jarayonida rejissyor kuylovchi aktyorni o'z holiga qoldirib, erkinligini taminlashi kerak. Chunki aktyorga topshirilgan barcha vazifalar ya'ni asar g'oyasi, maqsad, ichki to'yg'u, berilgan shart-sharoit va qahramon holatini to'liq anglab yetish uchun vaqt kerak. Qolaversa zalning akustik sharoiti bilan tanishib olgani ma'qul. Agar shunday sharoit yaratilmasi, kuylovchi notasiga tusha olmasligi, pardani cho'zib yuborishi, dirijyorning ishorasiga qaramasdan ariyani noo'rin vaqtda boshlashi, ovozi orkestr pardasidan o'tolmay yo'qqa chiqishi mumkin. Lekin ma'lum vaqt o'tgach, hamma narsa o'z joyiga tushadi. Orkestr jo'rligida bo'ladigan repetitsiya, rejissyor uchun juda muhim hisoblanadi. U xonanda va orkestrning hamohangligini, qo'yilgan xatti-harakatlar bilan solishtiradi va ularning garmonik birlashuvini tekshiradi. Agarda rejissyor partiturani o'rganmasdan repetitsiya boshlagan bo'lsa, unda u noqulay hodisalar bilan yakunlanishi mumkin. Talaba aktyorga bo'lgan munosabat juda muhim axamiyat kasb etadi. Ijodiy ish jarayonida uning kamchiliklarini to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, yumshoq, muloyimlik bilan, konfliktlardan qochishga urinadigan rejissyor va dirijyorlar ham uchraydi. Aktyorga haq gapni aytish mumkin va kerak. Chunki u yordam bermoqchi ekanligingizni ko'rib xafa bo'lmaydi, balki u sizga ishonadi. Talaba ham asabiylashishi mumkin. Dirijyor juda muruvvatli bo'lib, uning shu asabiylashishi holatida, o'zining ham aybi yo'qmikan, deb o'yab ko'rish kerak. Asosan repetitsiyadan yaxshi kayfiyat bian chiqib ketish lozim.

Repetitsiya jarayonida dirijyor va rejissyor orasida hech qanday kelishmovchiliklarga o'rin qolmasligi

aksincha bir-biriga o'zaro pedagogik xushmuomalada bo'lishlari shart. Agar aksi bo'lsa jamoaning tarqoq bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. Ijodkorlarning spektakl g'oyasiga har xil qarashlari bo'lishi mumkin. Lekin shunday bo'ladiki dirijyor tomonidan sahnaning yakuni uchun ajoyib yechim, topilmalarni taklif qilishi mumkin. Bu-teatr!

Shunday qilib, dirijyor va rejissyor muammosining tamoyillari quyidagilarga taqalib keladi. Rol ustida ishlash jarayonida kuylovchi aktyorga nafaqat pedagog-rejissyor, balki dirijyor ham yordam beradi. U kuylovchida ohangning kerakli emotsional ma'nodorligiga erishish uchun, astoydil harakat qiladi, unga kerakli ijodiy masalalarni qo'yib, hal qilish jarayonida ham yordam beradi. Ohangning shakllanish jarayonida o'zi ishtirok etib, orkestr tovushining ifodaviy vositalariga, dinamikaning o'zgarishiga va tovushning har xil yo'llarini imo-ishora orqali ko'rsatadi. Rejissyor esa muommaning yechimiga erishish uchun, aktyorga kerakli vokal intonatsiyaning tabiiy, timsolning esa hayotga mos kelishiga shart-sharoit yaratib beradi. Intonatsiya qidirish jarayonini rejissyor boshqaradi. U aktyorning ijodiy individual tomonlarini inobatga olib, har xil ifodaviy vositalar orqali, ongli, ruhiy-texnikasiga ta'sir etadi. Zamonaviy musiqali teatrdan dirijyorning vazifasi ancha murakkablashib bormoqda. Ular qaysidir ma'noda spektaklning birinchi ijrochilari. Ular musiqali spektaklning tashabbuskorlaridir. Rejissyorning san'atga, hayotga bo'lgan nuqtai nazarida, dirijyor uning safdoshi, hamkori bo'lib chiqadi.

Dirijyor nafaqat musiqaga, balki spektaklning voqealariga, mizanssenalariga ham dirijyorlik qilishi kerak. Zamonaviy musiqali teatr, o'z vazifalari bilan dirijyor va rejissyorning hamkorligini yanada yaqinlashi kerakligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham musiqali teatrdan kim «muhimroq» degan savolning qo'yilishi beodoblik deb o'ylayman. Dirijyor rejissyorsiz faoliyat yurita olmaganidek, rejissyor ham dirijyorsiz faoliyat ko'rsata olmaydi. Har qanday holatda ular bir-birini to'ldirib turadi. Faqat rejissyor bilan dirijyorning ahil ijodiy munosabatlari, g'oyaviy birlashgan fikrlari va ijodiy hamkorlikdagi ishlarining natijasi, musiqaning va sahna xatti-harakatining sintezida, haqiqiy badiiy-yorqin, katta ta'ssurot qoldiradigan spektakl dunyoga kelishiga olib keladi.

Rejissyor spektaklning ijodiy g'oyakori. U ish jarayonida kuylovchi aktyor uchun eng muhim bo'lgan mantiqiy xatti-harakatlarni aniqlashi kerak. Shuningdek u spektaklning yozuvchisi va bu esa sahna asarining badiiy timsolini yaratish degan gap.

Badiiy-sahna timsolini qidirishda, rejissyor ishining asosiy negizi, quyidagi masalalarga e'tibor berishni taqozo qiladi:

1. Partituraning jiddiy rejissyorlik tahlili.
2. Rejissyorning zamonaviy fuqarolik dunyoqarashi.
3. Teatrga oid fikrlash, ya'ni «eshitganlarini ko'rish» va xatti-harakat orqali o'ylash.

Ko'p ijodkorlar bastakorning yozgan musiqasidagi har bir notani, pao'zani, so'zni yaxshi biladilar. Bularning hammasi rejissyor uchun partituraning bilish muhim degani emas. Uning vazifasi-partituraning o'rganib, unga

o'z tasavvurini qo'shib, asarning hamma jumboqlarini yechishdir. Musiqaning har bir qismida rejissyor fantazyasidan kelib chiqib hayotning bir bo'lagini yechishi kerak. Uning ijodi «nimani» va «qanday» ko'rganidan, sezganidan, tushunganidan iborat. Partitura tahlili rejissyor tilida-ma'lumot to'plash degani. Shu ishning birinchi bosqichida rejissyor spektaklning janrini, uslubini va tuzilishlarini belgilab, topilgan ma'lumotni saralash kerak.

Ikkinchi bosqichda, rejissyor timsollar bilan tanishib chiqib, ularning ta'riflarini aniqlashi kerak. So'ng, shu ta'riflarining rivojini ko'rib, musiqali dramaturgiyaning ma'lumotidan kelib chiqqan holda, aktyorning ijrochilik yo'llarini belgilaydi.

Uchinchi bosqichda rejissyor muallifning g'oyasiga bog'liq bo'lgan rollarni va spektaklni yorqin ifodalash uchun kerakli detallarni topib, ularni musiqiy timsol bilan solishtiradi. Musiqiy rejissyor o'z yo'lida ko'p xatolar va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Lekin, eng muhimi bu musiqani illyustratsiyalash, ya'ni uning ichki mohiyatini emas, balki qoldirgan ta'surotni ko'rsatishdan iborat bo'lishi lozim. Bu holda musiqaning rasmi, ritmning elementi sahnada kalaka sifatida o'z aksini topadi. K.S.Stanislavskiy aytganiday u «perpendikulyar», ya'ni qarama-qarshi xususiyatlardan mahrum.

Musiqada bo'lgan qarama-qarshiliklarni musiqiy tilda «kontrapunkt» deb ataydi. Masalan: «Qish, sovuq, kechgi payt. Ko'chada, skripka jo'rligida sho'x kuyiyangramoqda va bir qizcha raqsga tushmoqda. Bu esa berilgan shart-sharoit. Ularga asoslanib, rejissyor sahnani ko'rish kerak. Agarda rejissyor sahnani sho'x kuyga asoslab qursa, unda qizchanning raqsga zavq bilan tushishini ko'rish mumkin. Bunda qizning harakatlari musiqaga bilan yonma-yon o'zgarib boradi. Agarda sahnning ichki mohiyatiga qarab, xatti-harakatlarning negizi tushunilsa, sahnaning ma'nosi butunlay o'zgaradi. Sovuqda qotgan qiz ochdan o'lmaslik uchun, raqsga tushib, gadoylik qilmoqda. Labida tabassum bo'lsa-da, ko'zidan yosh oqmoqda. Musiqaga o'zgarib yo'q, lekin sahnaning mohiyati o'zgarib, tomoshabinda boshqa ta'surot qoldirdi. Mana buni musiqaga ro'para kelgan perpendikular, qarama-qarshilik deb, aytish mumkin. Sahna jonlandi va haqiqiy san'at tug'ildi. Bu holda musiqaga kontrapunkt sifatida chiqdi. Musiqada bunday qarama-qarshiliklarni qidirish-juda og'ir va mushkul ishdir. Partituraning xatti-harakat orqali o'rganish bu musiqaga bilan faktlarni solishtirishdir. Bu holda rejissyorlar ko'p narsalarga ega bo'lib, musiqadan boshqa narsalarni ham ta'surot etishi mumkin.

Musiqali teatr pedagog-rejissyorining kasbi boshqalarga nisbatan, ancha yoshdir. U nafaqat, kuylovchi aktyorni professional darajada shakllanishiga, spektaklni sahnalashtirishga, asarning dramatik mohiyatini ifodalashga, balki davr talablaridan kelib chiqib, insonning ma'naviyatini va ma'rifatini rivojlantirishga qaratilgan. San'atimizning ravnaqi yo'lida bo'lajak iste'dod egalarini sahna timsoli yaratish tamoyillari asosida tarbiyalash va mashaqqatli san'at sirlarini o'rgatish pedagog-rejissyor va dirijyorlarning asosiy vazifasi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. -Toshkent: Navro'z, 2009. -218 b.
3. Stanislavskiy K.S. Tanlangan asarlar. 2 jild. -Moskva: Iskustvo,1953. -370 b.
4. Zaxava B. Masterstvo aktyora i rejissera. -Moskva: Prosvesheniye, 1978. -287 s.
5. Stanislavskiy K.S. Nemirovich-Danchenko VI. Ob iskusstve aktyora-pevsa. -Moskva: Iskustvo, 1973. -324 s.





*V BO'LIM*

**YOSH  
TADQIQOTCHI**

## ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАҲОН ҲАМЖАМИЯТИГА ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВИДА МАДАНИЯТНИНГ ЎРНИ

**Аннотация:** “Янги Ўзбекистон” деган ибора бугунги кунда халқаро майдонда нафақат янги тушунча, балки реал ижтимоий ҳодиса сифатида қабул қилинмоқда. Бу борада жаҳон ҳамжамияти билан интеграция жараёнида маданиятнинг аҳамияти юқори ҳисобланади. Ушбу мақолада маданий интеграция жараёнлари таҳлил қилиниб бу борада тақриф ва мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар:** Жаҳон ҳамжамияти, интеграция, маданият, маданий мерос, ёшлар, ренессанс, ижодий фаолият, цивилизация.

## РОЛЬ КУЛЬТУРЫ В ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ СООБЩЕСТВО

**Аннотация:** Фраза «Новый Узбекистан» сейчас принята на международной арене не только как новое понятие, но и как реальное социальное явление. В связи с этим важность культуры в процессе интеграции в мировое сообщество высока, в данной статье анализируется процесс культурной интеграции, даются предложения и комментарии по этому поводу.

**Ключевые слова:** Мировое сообщество, интеграция, культура, культурное наследие, молодежь, возрождение, творческая деятельность, цивилизация.

## ROLE OF CULTURE IN THE INTEGRATION OF UZBEKISTAN INTO THE WORLD COMMUNITY

**Abstract:** The phrase “New Uzbekistan” is now accepted in the international arena not only as a new concept, but also as a real social phenomenon. In this regard, the importance of culture in the process of integration into the world community is high, this article analyzes the process of cultural integration, provides suggestions and comments on this matter.

**Key words:** World community, integration, culture, cultural heritage, youth, revival, creative activity, civilization.

**“Ma’lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezigulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.**

**Sh.Mirziyoyev**

Ilm, fan va madaniyatni rivojlantirish nafaqat taraqqiyot, shu bilan birga, kishilik jamiyatining mavjudlik va yashash shartidir. Bugungi kunda xalqlararo va madaniyatlararo integratsiya taraqqiyot shartiga aylangan. Bu jarayon esa umuminsoniy qadriyatlarni egallash va o‘zlashtirish bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatimiz yangi renessans davri sari qadam qo‘ydi. Prezidentning oliy majlisga murojaatnomasi – tom ma’noda tarixiy hujjat bo‘lib, takror va takror o‘qishni, o‘rganishni va anglashni talab etadi. Unda tilga olingan har bir g‘oya va fikrlar yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lidagi alohida qadamdir. Bu qadamlar amaliy ishlarimizda o‘z natijasini beradi va xalqimiz hayotida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Muhtaram prezidentimizning ana shunday muloqot shakli davlat va jamiyat birdamligini mustahkamlovchi muhim omil bo‘lib, har birimizda Yurtimiz taqdiriga daxldorlikni,

islohotlar natijasi uchun mas’uliyat hissini yanada oshiradi. 2017 yildan boshlab an’ana tusiga kirgan Murojaatnoma tizimli strategik ahamiyatga ega hujjat sifatida Vatanimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab beradi. Shu bois u turli soha vakillari, yoshlar, keksalar tomonidan mehnat jamoalarida, ta’lim dargohlarida, tashkilotlar hamda muassasalarda chuqur tahlil qilingan holda o‘rganilmoqda.

Xalqaro hamjamiyat ham davlatimiz rahbarining Murojaatnomasiga O‘zbekistonning nafaqat kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, balki uning jahon sahnasidagi rolini belgilab beruvchi o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi” sifatida katta e’tibor qaratmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilinib, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish yo‘lida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu o‘zgarishlar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o‘ringa ko‘targani ayni haqiqat. Mamlakatimizda madaniyat va san’at sohasi rivoji uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 20 yanvar kuni “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi madaniy faoliyat, shuningdek madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga

solishdan iborat. Mazkur qarorning qabul qilinishi sohada katta islohotlar amalga oshishida poydevor bo'lib xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida madaniyatning o'rni va ahamiyati kattadir. Qabul qilingan qarorning aynan 7 bobi madaniy faoliyat sohasidagi madaniy xalqaro hamkorlik ham bu borada qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

- xalqaro madaniy almashinuv;
- xalqaro madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- madaniyat obyektlarini va san'at asarlarini ommalashtirish;
- milliy madaniy markazlarni tashkil etish va rivojlantirish;
- madaniyat xodimlarini o'qish (tajriba orttirish) uchun yuborish;
- madaniyat sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, texnik vositalarni yaratish va amalda joriy etish;
- milliy urf-odatlar va an'analarni namoyish qilish;
- milliy madaniyat kunlari, ko'rik-tanlovlar, festivallar, ko'rgazmalar, konferensiyalar, adabiy seminarlar, gastrollar hamda boshqa madaniy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;
- madaniyat xodimlari o'rtasida o'zaro tajriba almashishni va hamkorlikning boshqa turlarini yo'lga qo'yish.

- Xalqaro madaniy almashinuvni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligi bilan belgilanadi. [1]

Faol hamkorlikni yo'lga qo'yishda yurtimizdagi milliy madaniy markazlarning ham salmoqli hissasi mavjud. Milliy madaniy markazlar tilni, madaniyatni, urf-odatlar va an'analarni, tarixiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, madaniy va ma'naviy merosni saqlash, millatlararo tinchlik va totuvlikni saqlab turish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, xalqaro madaniy almashinuvni rag'batlantirish, shuningdek xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. 2020 yilning 26 may kuni "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda madaniy integratsiyani faollashtirgan omillar keltirib o'tildi. Jumladan:

- Mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali, «Buyuk ipak yo'li» xalqaro folklor san'ati festivali hamda «Raqs sehri» xalqaro festivali tashkil etilib, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'alarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi. [2]

O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari" nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yorqin misol bo'la oladi. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish borasida qator amaliy loyihalar, tadbirlar, konferensiyalar va festivallar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda.

Jumladan, 2019 yilning 22-27 avgust kunlari Toshkent, Samarqand hamda Buxoro shaharlarida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish Butunjahon jamiyatining "O'zbekiston-buyuk yo'llar va sivilizatsiyalar: imperiyalar, dinlar, madaniyatlar chorrahasi" nomli III xalqaro anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanda ishtirok etish maqsadida xorijdan ko'plab ekspertlar, olimlar, jurnalistlar taklif etildi. Anjuman doirasida "Moddiy va nomoddiy merosni asrash: dolzarb muammolar va ularni hal qilish strategiyasi" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda bugungi kundagi muammolar va ularni bartaraf etish yechimlari haqida takliflar berildi. Mazkur anjuman, konferensiyalar va davra suhbatlari davomida Sharq va G'arb madaniyatida tarixan muhim ahamiyatga molik O'zbekiston hududining o'ziga xos betakror o'rni to'g'risida ko'plab ma'ruzalar va taqdimotlar tayyorlandi. Ushbu omil, shuningdek, O'zbekiston mutafakkirlari va olimlarining buyuk asarlari jahon sivilizatsiyasi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Madaniy meros haftaligi doirasida turli mamlakatlar professor-olimlari, madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislar va jurnalistlar "O'zbekistonning madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasi barchani birlashtirdi. Ushbu dunyo miqyosidagi medialoyiha O'zbekistonning buyuk tarixi va bebaho ma'naviy boyligi bilan bog'liq badiiy asarlar, qo'lyozmalar va hujjatlarni to'plash, o'rganish, nashr etish va hujjatli filmlarni yaratishni nazarda tutadi. Loyiha natijasida hozirgacha 20 ta kitob-albom chop etildi, 30 dan ortiq hujjatli filmlar suratga olindi. Bunday ishlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad O'zbekistonning boy tarixiy merosini jahon hamjamiyati uchun qolaversa, xalqimiz uchun yetkazib berish ularning qay darajada muhim ekanligini ko'rsatishdan iboratdir.

Buyuk tariximizdan bizga ma'lumki, har bir davrda yurtimiz qo'shni mamlakatlar va davlatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelishgan. Bu orqali ko'plab sohalar rivojlangan, do'stlik munosabatlari o'rnatilib tinchlik-totuvlikka erishilgan. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqidagi mulohazalarni siz buyuk yozuvchi Abduqahhor Ibrohimovning "Bizkim, o'zbeklar" asaridan o'qib bilishingiz mumkin. Bu asarda vatanparvarlik, madaniyatimizning mustahkam, baquvvat ildizlari



haqidagi o'y-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududida joylashgan O'zbekiston Respublikasidagi tinchlik va barqarorlik butun mintaqada mo'tadil siyosiy iqlim, tinchlik va barqarorlik bardavom bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan biri bo'lib kelgan va ayni kunlarda ham shunday. Bu mulohazani shuning uchun ham aytmoqdamizki, milliy davlatchiligimiz tarixini shunday chuqur, keng ko'lamda va har tomonlama o'rganaylikki va targ'ib qilaylikki, do'stu nodo'stlarimiz bizkim, o'zbeklar haqiqatan ham qadim halqlardan biri ekanimizni, davlatchiligimiz ham boy tarix, tajriba va an'analarga ega ekanini, bu davlatchilik nafaqat o'zbek xalqimizning taqdirida, balki bir qator Sharq xalqlari qismatida ham ijobiy o'rin tutganini rad etib bo'lmaydigan dalillar qarshisida lol qolib, e'tirof etsinlar, noilmiy qarashlaridan, yuqoridan boqishlaridan voz kechsinar. Lekin ularning tan olishlari birinchi masala emas, uzluksiz ravnaq eta borishlik millatni o'z-o'zidan e'tirof ettirib qo'yajak. Asosiysi shuki, unitalayotgan tariximizni o'zimiz chuqur bilib olaylik. Ana shunda bugunimizning qadriga ko'proq yetamiz, kelajakka ishonchimiz yanada oshadi, qaddimiz yanada tik bo'ladi. [3, 267 b.]

Qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahri betakror sharqona ruhi va qiyofasi, boy tarixi, bu yerda saqlanib qolgan noyob, har qanday odamni hayratga soladigan obidalar bilan sayyoramizning turli o'lkalarida afsonaviy shahar sifatida ma'lumu mashhurdir. Moviy gumbazlari millionlab sayyohlarni o'ziga maftun etadigan Samarqandning Rim bilan bir qatorda "abadiy shahar" degan nom bilan butun dunyoda shuhrat qozongani bejiz emas, albatta. O'rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga baho berishdan iborat. Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san'at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi. XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlardagi qo'shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit'asining katta qismini qamrab olgan. Milodgacha bo'lgan II asrdan milodiy XV asrga qadar qadimiy xalqaro transport arteriyasi vazifasini bajarib, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, O'rtayer dengizi mintaqasi kabi hudud va mamlakatlarni bog'lab kelgan Buyuk Ipak yo'lining ulkan, beqiyos rolini baholashning o'zi qiyin.

Mazkur yo'l nafaqat yuqorida zikr etilgan hududlar o'rtasida savdo-sotiq aloqalarini, balki qit'alar va davlatlar o'rtasida axborot almashuvini ta'minlashga xizmat qildi, yangi texnologiya va ishlanmalarning (ipak, chinni buyumlar, porox, qog'oz va boshqa ko'plab mahsulotlar) tez tarqalishida, qishloq xo'jaligi ekinlari va agrotexnologiyalarning, shuningdek, madaniy qadriyatlarining rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajardi va shu tariqa sivilizatsiyalararo muloqot va texnologiyalar almashuvi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Sharq xalqlarining eng qadimiy va milliy bayrami bo'lgan Navro'z ayyomini ko'tarinki ruhda nishonlashga yurtimizda har yili katta e'tibor qaratiladi. Men 2019 yilning mart oyida Rossiya Federatsiyasining Chelyabinsk davlat madaniyat institutida malaka oshirganman. O'sha vaqti ushbu shaharda Navro'z bayrami ko'tarinki ruhda va keng miqyosda nishonlanishini ko'rib to'g'risi juda ta'sirlandim. Ushbu bayramda nafaqat o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar balki boshqa millat vakillari ham o'z chiqishlari bilan ishtirok etishdi. Bu bayram ko'plab millat vakillarini birlashtiradigan, ularni ezgulikka chorlovchi, kelgusida faol hamkorlik uchun zamin yaratuvchi omil hisoblanadi. Mana bu yil ham mamlakatimizning barcha hududlarida ushbu bayram ko'tarinki ruhda nishonlandi. Ushbu bayramda ko'plab xorijiy tashkilotlar, muassasalar va markazlar faol ishtirok etishdi. Bizning kuchimiz – birlik va ahillikda; bizning qudratimiz-mehroqibat, o'zaro ko'mak va saxovatda; bizning yutug'imiz ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchimizda- dedi, muhtaram prezidentimiz Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqlarida. Biz faqat birgalikda, hamjixatlikda buyuk ishlarga qodir ekanimizni pandemiya sinovlari yana bir karra tasdiqlab berdi. Bizning xalqimiz doimo hamjixatlikda harakat qilishga qodir xalqdir. Prezidentimiz tabrigida shunday deyildi: "Navro'zi olamning mazmun-mohiyatida insonni ulug'lash, uning qadri, izzat-hurmatini joyiga qo'yish kabi ezgu fazilatlar mujassamdir". Navro'z ana shunday umuminsoniy qadriyatlar, yangi orzu-niyatlar tantanasidir. [4] Qutlug' Navro'z o'zining o'lmas ruhi, umuminsoniy g'oyalari bilan bashariyat hayotidan, xorijiy millat vakillari qalbidan tobora chuqur o'rin egallayotgani katta ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi renessans davrida chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarni zamon talablari asosida rivojlantirish, O'zbekiston hayotining turli jabhalarida erishilayotgan yutuqlarni chet ellarda keng targ'ib qilish, xorijiy mamlakatlar jamoatchiligini xalqimizning boy tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan muntazam tanishtirib borish, xalq diplomatiyasi imkoniyatlaridan kengroq foydalanish bizning asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Xalq so'zi. -2021. -21 yanv.
2. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni //Xalq so'zi. -2020. -28 may.
3. Ibrohimov A. Bizkim,o'zbeklar: Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. -Toshkent: Sharq, 2001. -400 b.
4. Akramova Z. Deputat fikri // O'zbekiston ovozi. -2021. -24 mart.

## АУДИАЛЬНОЕ НАСЛЕДИЕ КИНЕМАТОГРАФА И

### НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО СОХРАНЕНИЯ ДЛЯ БУДУЩИХ ПОКОЛЕНИЙ

**Аннотация.** В данной статье говорится о необходимости обратить должное внимание на сохранность звука в кинематографе Узбекистана. Наряду с визуальным рядом, аудиальная составляющая является историческим документом. Звуковая дорожка несет в себе информацию не только иллюстративного характера о происходящем на экране действе. Все звуки, шумы и музыка, фиксируемые в кино, являются собой свидетельство времени в которых отражаются быт, вкусы, нравы, а так же мелодика языка и изменения в нем же. Немаловажным фактом для звукорежиссеров и звукооператоров, является то, что аудиодорожка это свидетельство техногенных изменений в каждый период времени, где можно проследить как манеру звукозаписи, так и возможности аппаратуры.

**Ключевые слова:** аудиальное наследие, звукорежиссура, история, современность, инновации, фиксация звука, аудиовизуализация, кинематограф, звуковая дорожка, архив, аудиодокумент.

Natalya YUSUPOVA,

Head of "Science and Education" department of NA "Uzbekkino"

## THE AUDIO HERITAGE OF CINEMA AND THE NEED TO PRESERVE IT FOR FUTURE GENERATIONS

**Abstract.** This article talks about the need to pay due attention to the safety of sound in the cinema of Uzbekistan. Along with visuals, the audio component is a historical document. The soundtrack contains information not only of an illustrative nature about the action taking place on the screen. All sounds, noises and music recorded in the cinema are evidence of the time in which life, tastes, morals are reflected, as well as the melody of the language and changes in it. An important fact for sound engineers and sound technicians is that the audio track is evidence of man-made changes in each period of time, where you can trace both the manner of sound recording and the possibility of equipment.

**Key words:** audio heritage, sound engineering, history, modernity, innovations, sound fixation, audiovisualization, cinema, soundtrack, archive, audio document.

Всемирный день аудиовизуального наследия — праздник, ежегодно отмечаемый 27 октября. Этот памятный день был выбран Организацией Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО) в 2005 году для повышения осведомленности о значимости и рисках сохранения звукозаписи и аудиовизуальных документов (фильмов, музыкальных и видеозаписей, радио и телевизионных программ). Во многих странах проводятся мероприятия, организуемые национальными и региональными звуковыми и киноархивами, вещательными компаниями, музеями и библиотеками, а также крупными аудиовизуальными ассоциациями, включая Ассоциацию архивистов движущихся изображений (AMIA), Международный архивный совет (ICA), Международную ассоциацию звуковых и аудиовизуальных архивов (IASA) и Международную федерацию киноархивов (FIAP).

Для того, чтобы Узбекистан мог идти в ногу со временем, мы должны не только восстанавливать архивы киноплёнок, оцифровывать их, но и понимать, что нужно с особым вниманием относиться к аудиальному наследию кинематографа современности. Звуковое сопровождение кинокартин, начиная с самых первых и заканчивая современными цифровыми лентами, представляет собой документ развития технической и творческой мысли в нашей

стране. Судя по музыкально — шумовому оформлению мы можем делать выводы о том, какой была музыкальная жизнь в стране в разные периоды и годы, как жили и творили композиторы, музыканты, звукорежиссеры. Все эти знания необходимы как уникальные свидетельства экономического, политического и социального развития страны для грядущих поколений. Дополнительные усилия и помощь со стороны государства в деле сохранения наследия весьма необходимы, поскольку аудиовизуальные носители требуют особого внимания, они достаточно уязвимы и к ним нужно применять бережное отношение. Чтобы обеспечить их сохранность на долгий срок, и предоставить возможность потомкам изучать историю кино, не только благодаря визуальному, но и аудиальному ряду, нужны профессионалы в деле реставрации и сохранности звука, специальное оборудование и огромное желание заниматься этим нелегким трудом.

Что сейчас происходит в нашей киноиндустрии с вопросами сохранности аудио дорожек? На практике ничего. Есть общее направление сохранения и цифровизации киноархивов, а также восстановление статуса многих кино — документов и плёнок хранящихся за рубежом, для возврата их на Родину. В этом плане, можно говорить о продвижениях Узбекистана и заинтересованности нашего

государства в восстановлении всех кинодокументов, хранящих память истории народа. Нужно отметить заинтересованность государства в поднятии имиджа национального кино, и улучшении качества кинопродукции и в техническом плане. Пункты по улучшению кинопродукции содержатся в официальных постановлениях главы государства Ш.Мерзиёева. Перечислив лишь некоторые, становится понятной стратегия развития экранных искусств: Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года, № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»; Постановления Президента Республики Узбекистан от 31 мая 2017 года, № ПП – 3022 «О мерах по дальнейшему развитию и совершенствованию сферы культуры и искусства»; Постановления Президента Республики Узбекистан от 7 августа 2017 года, № ПП – 3176 «О мерах по дальнейшему развитию национальной кинематографии»; Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2018 года, № 372 «О мерах по созданию современных кинотеатров в 2018-2019 годах»; Постановления Президента Республики Узбекистан от 24 июля 2018 года, № ПП – 3880 «О дополнительных мерах по развитию национальной киноиндустрии»; Постановления Президента Республики Узбекистан от 28 ноября 2018 года, №. ПП – 4038 «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», а также ряда нормативно-правовых документов в области экранных искусств.

Сохранение аудио наследия посредством восстановления архивов кино и обеспечение достоверности звука и голоса наблюдается во многих странах. 3 августа 2017 года на встрече с представителями творческой интеллигенции президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отметил: «Если мы хотим увековечить память наших предков, мы сможем осуществить это в первую очередь через киноискусство»[1]. Эти слова определяют задачи, стоящие перед национальным кинематографом и киноведческой наукой Узбекистана.

Хорошим примером может послужить огромная работа проведенная в центральных учреждениях в Нью-Йорке. Где группа архивистов работала долгое время практически круглосуточно, обеспечив сохранность порядка 40 000 файлов. Среди них были и виниловые пластинки и пленки. То есть, реставрации подверглись не только визуальные, но и аудио документы.

Аудиовизуальная библиотека ООН например, предоставляет доступ посетителям целую секцию аудио-визуальных услуг, среди которых есть фотографии, аудио и визуальный контент о деятельности ООН новостным средствам массовой информации, кинопродюсерам, государствам-членам ООН и любым заинтересованным лицам. События в штаб-квартире ООН в Нью-Йорке и в мире находят отражение в фотоматериалах Фото- группы ООН. На веб-сайте представлены фотографии высокого разрешения, включая уникальную коллекцию фотоматериалов, документирующих историю создания Организации. Высококачественные записи неотредактированных выступлений, брифингов для прессы и специальных мероприятий представители средств массовой информации могут получать в Фонотеке Организации Объединенных Наций.

В архиве представлены исторические записи мероприятий ООН, начиная с 1948 года, например, записи выступлений Дага Хаммаршельда, Нельсона Манделлы, Одри Хепберн и других известных лиц.

Рассматривая подобный опыт мировых организаций по сохранению аудиовизуального наследия и отдельно

изучая внимание к звучащему слову, музыке, шумам, нужно уметь перенимать самое лучшее, при этом уделяя особенное внимание национальным традициям и ментальности, нашедшим отражение в том числе и в кинематографе! Ведь кинематограф, имеет свою неповторимую звучащую атмосферу, которая создается несколькими людьми одновременно. Тут важны многие компоненты и составляющие без которых невозможно создать целостную картину. Композитор, звукооператор, звукорежиссер, монтажер, это профессионалы, которые вкладывают в звук-смысл, подтексты, колорит, драматургию. И если работа нескольких профессионалов сложилась, то зритель получит потрясающий результат в виде готового фильма, который захочется пересматривать снова и снова. И не только смотреть, но естественно слушать и слышать... Диалоги, монологи, песни, музыку, тишину, полубившихся кадров. Начиная изучать музыкально-шумовое решение фильмов, понимаешь, «Проблема в том, что зачастую оригинальные музыкальные партитуры к немым фильмам по разным причинам не сохранились или были утрачены, поэтому сейчас мы можем, порой, лишь по косвенным свидетельствам получить представление о звучании того или иного раннего фильма» [1].

В начале 1980-х Андрей Тарковский в своих лекциях по кинорежиссуре призывал молодых режиссеров к изучению музыкальной формы: «Для создания полноценной кинодраматургии необходимо близко знать форму музыкальных произведений: фуги, сонаты, симфонии и т. д., ибо фильм как форма ближе всего к музыкальному построению материала. Здесь важна не логика течения событий, а форма течения этих событий, форма их существования в киноматериале»[2,с.26].

Вот почему важно сохранить аудиальную составляющую нашего кинематографа на должном уровне. Жаль терять четкость и ясность звука, по техническим причинам (устаревшая пленка, ненадлежащее хранение любого рода носителей), когда огромное количество людей приложили столько усилий к тому, чтобы кадры «ожили» благодаря звуку.

Какие трудности на сегодняшний день стоят перед кинематографистами, киноведами, историками в этом вопросе? Первое, это отсутствие самой проблематики и неумение правильно озвучить вопрос. Второе, необходимость создания теоретической базы, на которую можно будет опираться в поисках нужной информации о композиторах, звукорежиссерах, актерах дубляжа, если таковая понадобится. Аннотированные каталоги — самая действенная вещь, которая может помочь каждому желающему получить достоверные данные. Создание каталогов может быть не только в печатном, но и в электронном виде. Проведение мероприятий, таких как: «круглые столы», конференции, мастер-классы, с целью обозначения актуальных тем, проблем, вопросов и путей их решения.

Помимо теоретической стороны дела, есть и практическая. Здесь необходимы профессиональные кадры, которые будут заниматься реставрацией звука. В мировой практике известно такое направление звукорежиссуры как «архивная звукорежиссура», данное направление, можно и нужно развивать и в Узбекистане. Аудитализация и восстановление истории, посредством звука, это интереснейшее направление для экранных видов искусств и радио. Насколько нужны нам звукорежиссеры с профессиональной ориентированностью в этом сегменте, покажет время. Однако, время мы и теряем, не предлагая обучение задающего вектор интереса на изучение архивных материалов у молодых студентов и взрослых состоявшихся профессионалов.

#### Список литературы

1. Егорова Т.К. Проблема подлинности музыки и музыкальных саундтреков в старых фильмах : Музыкальная наука в XXI веке: пути и поиски. Материалы Международной научной конференции 14–17 октября 2014 г. -Москва: Пробел, 2015. -536 с.
2. Тарковский А. Уроки режиссуры. -Москва: ВИППК, 1993. -90 с.



## MAKTAB O'QUVCHILARIGA SAN'AT VOSITALARI ORQALI CHET TILINI O'RGATISH

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada san'at vositalaridan foydalanish orqali ingliz tilini o'rgatish yo'llari ko'rsatilgan. Musiqa, rassomchilik, teatr san'ati orqali nutq faoliyatini rivojlantirish hamda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyalarini oshirish usullari yoritilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *ta'lim va tarbiya, inszenirovka, teatr, musiqa, nutq madaniyati, nutq faoliyati turlari, motivatsiya.*

## MAKTAB O'QUVCHILARIGA SAN'AT VOSITALARI ORQALI CHET TILINI O'RGATISH

**Annotation:** In this article given information about the ways of teaching English by means of art. Here also defined the ways of developing language skills and rising students' interest and their motivation through music, art, and theater.

**Keywords:** education and upbringing, dramatization, theater, music, speech culture, types of speech activities, motivation.

## MAKTAB O'QUVCHILARIGA SAN'AT VOSITALARI ORQALI CHET TILINI O'RGATISH

**Аннотация:** *В этой статье дана информация о способах обучения английскому языку с помощью искусства. Также определены способы развития языковых навыков и повышения интереса учащихся и их мотивации через музыку, изобразительное искусство и театр.*

**Ключевые слова:** *образование и воспитание, инсценировка, театр, музыка, культура речи, виды речевой деятельности, мотивация*

Har bir davr, har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti va ravnaqi, osoyishtaligi uchun eng muhim va zarur bo'lgan omil bu – tarbiyadir. Tarbiya millat taqdiri, uning kelajagi, ertangi kunini belgilovchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, ijtimoiy aloqalar uchun xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi ham hisobga olinishi kerak bo'ladi. Bu jihat unitilsa qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Tarbiyalanuvchi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri o'quvchilik yillariga to'g'ri keladi. Shuning uchun uning ongiga turli faoliyat (mehnat, o'yin, sport, badiiy havaskorlik va h.k.) yordamida maxsus ta'sir etish muhimdir. Ayniqsa, maktab o'quvchilari orasida ta'lim va tarbiya uyg'unligiga erishish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Jumladan, davlatimiz rahbarining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli

etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish kerak"<sup>1</sup>, - degan so'zlari zamirida katta ma'no, mazmun va mas'uliyat yetganligini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya turlari quyidagilardan iborat: aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiya, politexnik tarbiya va h.k. shu tarbiya turlari ichidagi aqliy, axloqiy, estetik tarbiyalar aynan ma'naviy qiyofamizni shakllantirish bilan bog'liqdir. Barcha tarbiyalar bir-birlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular bir-birlarini to'ldirib turadi. Masalan, teatr san'ati bizning ma'naviy jihatdan rivojlanishimizga turtki bo'la oladigan omillardan biridir. Tomoshabin teatrga borib, spektakl tomosha qilgach, ko'rgan spektakldan o'ziga kerakli xulosalarni chiqaradi, izlagan savollariga javob olishga harakat qiladi. Shuning uchun bolalarni tarbiyalashda hamda ta'lim berishda o'qitishning turli usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillik davrlaridan boshlab chet til o'qitishga qo'yilgan talab yanada oshdi. Yurtimizdagi turli metodist olimlar, jumladan professor J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova va boshqalar chet til o'qitishning samarali metodlarini ishlab chiqdilar va amaliyotga joriy etdilar.

So'ngi yillarda chet tilini o'qitishning turli innovatsion metodlari yurtimiz va jahon metodist olimlari tomonidan ishlab chiqilmoqda. Shular qatorida san'at vositalari orqali ingliz tilini o'rgatish o'quvchilarni chet tilini o'rganishlarida samarali natijalarga olib keladi, deb o'ylayman. San'at vositalaridan musiqa, rassomchilik, teatr san'atidan unumli foydalanish - til o'rganishni eslab qolish, ko'rish,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari" bo'yicha videoselektor yig'ilishidan olingan. Yangi O'zbekiston, 2021., 20-yanvar, 13-son.

eshitish va bajarish orqali o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bugungi kunda san'at vositalaridan biri bo'lmish musiqa orqali chet tilini nutq faoliyati turlaridan biri sifatida tinglab tushunishni o'rgatish mumkin. Musiqa hatto kichik yoshdagi o'quvchilarga ham til o'rgatishda juda samarali usullardan biri bo'lib, u orqali ingliz tilidagi tovushlarni farqlash va talaffuzni o'rganish mumkin. Shu bilan bir qatorda, musiqa orqali dars jarayoni juda qiziqarli tarzda tashkil etilishi mumkin.

San'at vositalaridan yana biri rassomchilik bo'lib, bugungi kunda ushbu san'at turidan kichik yoshdagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan darsliklarda keng foydalanilmoqda. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda o'quvchining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, rasm orqali biror bir mavzuni ularning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan, "describe your family members by drawing their pictures" (oila a'zolarining rasmini chizish orqali ularni tasvirlang); "my dream house" (orzuimdagi uy); "my favorite animals" (men yoqtirgan hayvon) va h.k. Rasm chizish orqali ingliz tilida nutq faoliyati turlaridan gapirishni o'rgatish mumkin. Shuningdek, rasm chizish orqali o'quvchi tasavvurini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. O'quvchi mavzu bo'yicha rasm chizadi va ularni ingliz tilida gapirib beradi.

San'at turlaridan biri bo'lmish teatr san'ati yordamida bugungi kunda hatto chet tilini o'rgatish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Teatr san'atini o'quvchilar orasida kengroq targ'ib etmoq darkor. Teatr san'ati bolalar ongi va ma'naviyatining o'sishida juda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiyani uzviy ravishda olib borishda teatr san'atining o'rni beqiyosdir. Chunki bolalarga chet tilini o'rgatish rolli o'yinlar orqali amalga oshirilsa, bolalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. Bolalar rol o'ynayman deb, dialoglar yodlaydilar. O'qituvchining talaffuziga taqlid qiladilar va eng muhimi bolalar chet tilda bir-birlari bilan muloqot qiladilar. Ushbu san'at turi o'quvchilarda tinglab-tushunish hamda gapirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ota-onalar o'zlari birgalikda bolalarni yoshligidanoq teatrga olib borishi hamda yoshiga mos spektakllarni tomosha qildirishning o'zi ham ular uchun juda katta ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda ingliz tilini o'rgatuvchi ko'pgina chet el darsliklari, xorijiy adabiyotlar mavjud. Lekin, o'quvchilarga chet tilini o'rgatishda ulardan to'g'ridan to'g'ri foydalanish nojoizdir. Chunki, ushbu darsliklardagi matn mazmuni o'quvchi milliy madaniyati, ma'naviyati, mentalitetiga zid bo'lishi mumkin. Albatta, pedagog va metodistlar bunga alohida e'tibor qaratishimiz darkor. Shu maqsadda chet tilini o'rgatish uchun material tanlaganda chet til madaniyati bilan birgalikda milliy qadriyatlarimizni ham parallel ravishda o'rgatib borishimiz kerak. Ingliz tilini o'rgatishda teatr san'ati vositasidan foydalanishdan maqsad shuki, ushbu san'at vositasi orqali o'quvchi ingliz tilidan

egallagan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchi sahnada biror asarni ingliz tilida ijro etishi uchun avvalo ingliz tilidagi ssenariy matnini qayta-qayta o'qiydi (reading), dialoglarni yodlaydi, rolni ijro etishi uchun tallafuz ustida ishlaydi (speaking). Sherigini nutqini tinglaydi va unga javob qaytaradi (listening). Ushbu jarayon orqali ingliz tilida muloqot (kommunikatsiya) hosil bo'ladi. Bu jarayon esa o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Teatr san'ati ushbu muloqot jarayonini hosil qilishda yordamchi vosita vazifasini bajaradi. Ya'ni, bugungi kunda chet tilini o'qitishda turli darsliklar, o'quv adabiyotlar, metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar borligiga qaramasdan, ayrim o'quvchilar darsga qiziqmaydi. O'qituvchi ming harakat qilmasin, o'quvchida qiziqish bo'lmasa, bu harakatlar samarasiz. Dars o'tishni shunday yo'llarini topish kerakki, o'quvchi darsga jon dili bilan, qiziqish bilan qatnashsin.

Ta'lim va tarbiyani uzluksiz olib borish maqsadida katta estetik imkoniyatlarga ega bo'lgan teatr san'ati hozirgi maktab o'quvchisi hayotiga, albatta kiritilmog'i kerak. Teatrlar, madaniyat markazlari, muzeylar, teatr to'garaklari bolalarga tarbiya va bilim berish sohasida bebaho vazifalarni bajarmog'i kerak. Lekin, maktab ham bu ishdan chetda tura olmaydi, chunki, u mamlakatning barcha yosh avlodini o'z bag'riga oluvchi yagona davlat muassasasidir.

Teatr – dramatik teatr, qo'g'irchoq teatri, musiqali, radio teatri va boshqalar – yaxshilik, adolat, aql-idrok g'oyalari sifatida; bolalar hayotidagi bayram sifatida; adabiyot arboblari, rejissyorlar, rassomlar, kompozitorlar, aktyorlar ijodiy kuchining qotishmasi- san'atlar kompleksi sifatida; jozibador, jonli ijrochilik ijodi yo'li sifatida; kishilik madaniyati boyliklarining xazinasi sifatida maktab uchun keraklidir<sup>2</sup>.

San'at shunday bir minbarki, undan turib ichingdagi darding, quvonch-u izhorlarning va boshqa his-tuyg'ularingni bemalol aytishing mumkin. Teatr san'ati musiqa, raqs va boshqa san'at turlari orqali ham insonlarni tarbiyalash, ularga estetik zavq bag'ishlash, ezgulikka undash kabi maqsadlar qo'yilgan<sup>3</sup>.

Teatr san'ati vositasida ingliz tilini o'rgatish o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga ularning ingliz tilidagi nutq ko'nikma va malakalarini oshirishga yordam beradi.

Ko'pgina dramatik bo'lmagan asarlarni sahnaga qo'yishga ehtiyoj sezilib qoladi. Ana shunday holatlarda inssenirovka qilish usullariga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

"Insensirovka" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, biror asarni sahnaviy qilib o'zgartirish, sahnaga qo'yish uchun moslashtirish<sup>4</sup> degan ma'noni bildiradi.

Insensirovka bu – badiiy asarni dramatik asarga aylantirishdir, ya'ni sahnaga moslashtirilgan holda yoziladi. Insensirovka qilinganda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Asar to'liq o'qib chiqilib, uning mazmuni va mohiyati o'rganiladi;
2. Asardagi muallif tomonidan berilgan so'z, ta'riflash, nullas ifodalash – qahramonlarga bo'lib beriladi;
3. Asardagi qahramonlar aniqlanadi, ularga so'z, matnlar bo'lib beriladi;
4. Monolog va dialoglarga ajratiladi;
5. Sahnalashtirishning barcha qonuniyatlariga tayanadi.

<sup>2</sup> Y. Aliyev, G. Ardashirova. Estetik tarbiya asoslari., "O'qituvchi", 1988-y. 206-b.

<sup>3</sup> V.Rustamov. Sahnaviy ifoda vositalari. TDMI n. T., 2008-y. 3-b.

<sup>4</sup> B.Sayfullayev, V.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. T, 2016, 45-b.

Inssenirovka qilinayotganda asarning ichki mazmunini to'g'ri tushunish kerak. Aks holda inssenirovka qilingan asarning mazmuni buzilishi mumkin.

Inssenirovka usuli yordamida o'quvchilarni nafaqat tarbiyalash balki, ularga ingliz tilida adabiyotlarni o'qishga qiziqishlarini oshirish ham mumkin.

Quyida turli tarbiyaviy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan kichik hajmdagi hikoyalar, rivoyatlar, qissalar va ularning inssenirovkalari hamda inglizcha tarjimalaridan namunalar keltirilgan bo'lib, ulardan ham tarbiyada ham til o'rgatishda foydalanish mumkin.

### ENG KATTA BOYLIK

(rivoyat)

Qadim zamonlarda bir inson o'z hayotidan ko'ngli to'lmay noliyveribdi. Bir nuroniy chol uning gaplarini eshitib qolibdi. Cholning ko'zlari ojiz, quloqlari yaxshi eshitmas, qo'l-oyog'i ishga yaramay hassaga suyanib qolgan bo'lsa-da, juda boy hamda donnishmand ekan. Chol noliyotgan insonning oldiga borib, undan bir qulog'ini berishni so'rabdi, evaziga yuz tillo tanga berishni aytibdi. G'arib kishi esa cholning bu taklifidan hayron bo'libdi va rozi bo'lmabdi.

- Axir, quloqlarimsiz qanday eshitaman, - debdi u.

Shunda chol undan bir ko'zini so'rabdi. Evaziga ming tillo taklif qilibdi. G'arib kishi esa aslo rozi bo'lmabdi. Chol undan ikki qo'lini berishini so'rab evaziga ikki ming tillo taklif qilibdi. G'arib kishi esa rozi bo'lmabdi.

- Qo'llarimsiz qanday yashayman, axir ularsiz hech narsa qila olmaymanku, - debdi u. Chol esa:

- Unday bo'lsa menga oyoqlaringni ber, buning evaziga o'n ming tillo tanga beraman, - debdi. G'arib darrov rad javobini beribdi va hech qanday tillolarning keragi yo'qligini aytibdi.

Shunda dono chol aytibdiki:

- Sen dunyoda eng boy odam ekansan. Ha, mening pullarim ko'p, badavlatman, lekin, mening ko'zlarim ojiz, quloqlarim yaxshi eshitmaydi, oyoq-qo'llarim esa ishga yaramaydi. Seni esa to'rt muchang sog', bilaklaring kuchga to'la. Sening bu boyliklaringa egalik qilishga hatto mening tilla tangalarimning ham qurbi yetmadi. Shunday bebaho ne'matga ega bo'la turib yana nolishingni qara!

Donishmand cholning bu gaplaridan g'arib kishi shuni anglab yetibdiki, dunyodagi eng katta boylik – bu sog'lik ekan.

### ENG KATTA BOYLIK

(inssenirovka)

Qahramonlar:

1. G'arib kishi

2. Donishmand chol

*Sahnada bir kishi eski juldirda kiyimda, qo'llarini ko'tarib, baland ovozda nola qilaveradi.*

G'arib kishi: Men dunyoda eng baxtsiz odamman, kambag'alman. Cho'ntagimda bir chaqam ham yo'q. Kiyishga tuzukroq kiyimi ham yo'q bir faqirman.

Shu orada ko'zlari ojiz, qo'l-oyoqlari hassaga tayangan, munkillagan chol paydo bo'ladi.

Chol: Ey noshukur banda? Senga bir taklifim bor. Menga bir qulog'ingni ber, evaziga yuz tillo beraman.

G'arib kishi: (*hayron bo'lib*) Voy, axir quloqlarimsiz qanday eshitaman?

Chol: Unday bo'lsa bir ko'zingni ber, men senga ming tillo taklif etaman.

G'arib kishi: Ko'zlarimning nurisiz qanday yashayman? Yo'q, men senga ko'zlarimni ham, quloqlarimni ham bermayman.

Chol: Mayli, sen menga ikki qo'lingni beraqol, buning evaziga senga ikki ming tillo tanga beraman.

G'arib kishi: Axir, qo'llarimsiz hayotning nima keragi bor, ularsiz hech narsaga yaramay qolamanku?

Chol: Unday bo'lsa menga oyoqlaringni ber, evaziga men senga o'n ming tillo tanga beraman.

G'arib kishi: (*g'azablanib*) Yo'q, yo'q, also rozi bo'lmayman. Menga hech qanday tilloning keragi yo'q.

Chol: (*kulib*) Sen dunyoda eng boy odam ekansan. Ha, mening pullarim ko'p, boyman, lekin, mening ko'zlarim ojiz, quloqlarim yaxshi eshitmaydi, oyoq-qo'llarim esa ishga yaramaydi. Seni esa to'rt-muchang sog', bilaklaring kuchga to'la. Sening bu boyliklaringa egalik qilishga hatto mening tillo tangalarimning ham qurbi yetmadi. Shunday bebaho ne'matga ega bo'la turib yana nolishingni qara!

G'arib kishi: (*hayratlanib*) Ha, haqiqatdan ham yaxshilab o'ylab qaragam, eng katta boylik – bu sog'lik ekan!

*Parada.*

Endi ushbu milliy rivoyatni ingliz tiliga tarjima qilamiz.

### THE BEST WEALTH

In ancient times a poor man complained of his life without satisfying. An old man heard his complaining. He was blind and couldn't hear better and he had leaned against the stick. The old man came towards the man and asked him to give one of his ears, and offered him hundred gold coin in return for it. The poor man was astonished and rejected his offer. He said:

- How can I hear without my ears?

The old man asked his eyes and offered him thousand gold coin in exchange for it. But the man refused it.

The old man asked his hands and offered two thousand gold coin. The poor man didn't accept his invitation and said that he couldn't live without his hands. The old man asked him to give his legs and offered him ten gold coins for it. The poor man refused his invitations and said that he didn't need any money.

At last the old man said:

- You are the richest man in the world. It's true I am rich. But I am blind, deaf and old. I leaned against the stick. But you are healthy and strong. So, Why are you complaining?

The poor man understood that the health was the best wealth.

### THE BEST WEALTH

(staging)

Characters:

1. The poor man.

2. An old man.

*On the stage a poor man dressed in shabby clothes is grumbling in a loud voice raising his hands above.*



The poor man: I am unlucky man in the world. I have no enough money and I have no even good clothes. I am a poor man.

*At that moment appears an old blind man resting on a stick.*

**An old man:** Hey, ungrateful man, I have invitation for you. Give me one of your ears and I'll give you hundred gold coin in exchange for it.

**The poor man:** (*with astonishment*) What? How can I hear without my ears?

**The old man:** then give your eyes and I'll give you thousand gold coin in return for it.

**The poor man:** How can I live without my eyes? No, I'll never give you either of my earth, or eyes.

**The old man:** well, then give me your hands and I'll offer you two thousand gold coin in exchange for it.

**The poor man:** I needn't life without my hands. What can I do without them?

**The old man:** Then give me your legs. I shall give you ten thousand gold coin in return for it.

**The poor man:** (*angrily*) No, no, I'll never agree with you. I needn't any any gold coin.

**The old man:** (*smiling*) You are the richest man in the world. It's true that I am rich. But I am blind, deaf and old and I can't do anything without someone's help. But you are healthy and strong. So why are you complaining?

The poor man. (*with excitement*) Yes, really, if I think better Health is the best wealth!

Mazkur rivoyat inssenirovka qililib, sahnaga ko'chirilganda, o'quvchi obraz yaratish asnosida so'zlarni (matnni) o'zlashtira boshlaydi, partnyor bilan dialog orqali muloqotga kirishadi, tarbiyalanadi, to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rganadi. O'quvchilar bilan shunga o'xshash manbalarni topib, tarjima qilib, kichik sahna ko'rinishlarini tayyorlab ish olib borilsa, tilni o'zlashtirishda katta samara va natijalarga erishish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, san'at vositalari yordamida ham ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish, jumladan ingliz tilini o'rgatishda yuqori natijalarga erishishga olib keladi. O'quvchilarga ingliz tilidan saboq berish bilan birgalikda ulardagi tarbiyaviy ahamiyatga

ega bo'lgan mavzular orqali ma'naviy tarbiyani ham rivojlantirib borish mumkin. Shu bilan birga ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivini shakllantirish mumkin. San'at vositalari yordamida, jumladan, rassomchilik san'ati vositasida rasmni tasvirlash orqali og'zaki va yozma nutqni, xususan yozuvni hamda gapirish nutq faoliyati turlarini rivojlantirish, musiqa yordamida talaffuz va tinglab tushunish, nutq faoliyatini yaxshilash, teatr san'ati vositasida inssenirovkalar yaratish va rolli o'yinlar orqali o'quvchilarni ingliz tilini o'rganish va o'zlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bu maqsadlarga erishish uchun san'at vositalari yordamida qo'shimcha xorijiy tillar o'rgatishning samarali usullarini, dars ishlanmalarini yaratish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish hamda bu jarayonga ijodkorona yondashish maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni ilm olishga, qiziqishlarini orttirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatda o'zining munosib o'rinini egallashlarida biz pedagog o'qituvchilar katta mas'uliyat bilan yondoshishimiz lozim, zero, davlatimiz rahbari ta'kidlab o'tganlaridek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlil islohotlarni amalga oshiramiz". Bu esa biz pedagog o'qituvchilardan katta mahorat, bilim va fidoyilikni talab etadi hamda zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorlinini kuchaytirish masalalari" bo'yicha videoselektor yig'ilishidan olingan // Yangi O'zbekiston. -2021. -20 yan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. -2020. -30 dek.
3. Sayfullayev B., Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. -Toshkent, 2016. -48b.
4. Aliyev Y., G. Ardashirova G. Estetik tarbiya asoslari., "O'qituvchi", 1988., 206-b.
5. Rustamov V. Sahnaviy ifoda vositalari. TDMI n. T., 2008. -76b.
6. Rustamov V. Ommaviy bayramlar rejissurasi va sahnalashtirish asoslari. Toshkent; 2007. -122 b.

#### Internet resusrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori. Toshkent sh., 2019 yil 8 may / <https://www.lex.uz/docs/432723>.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020., 30 dekabr.

## QADIM TARIX SILSILASIDA O'ZBEK RAQS SAN'ATI RIVOJI

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek milliy raqsining tarixiy rivojlanishi, uning kelib chiqishi, xalq hayotida tutgan o'rni, yoshlarni ma'naviy tarbiyalashdagi ahamiyati, milliy raqs maktablari, bu maktablarni rivojlantirishda munosib hissa qo'shgan san'atkorlar va ular yaratgan asarlar borasida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** raqs, san'at, baletmeyster, badiiy obraz, an'anaviylik, milliy meros, badiiy jamoalar, folklor, an'ana, xalq ijodiyoti.

Муаттархон ТУЙЧИЕВА,

магистр Узбекской государственной академии хореографии

## РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ТАНЦА В ЦИКЛЕ ДРЕВНЕЙ ИСТОРИИ

**Аннотация.** В статье рассматриваются историческое развитие узбекского национального танца, его происхождение, роль в жизни народа, его значение в духовном воспитании молодежи, школы национального танца, артисты, внесшие достойный вклад в развитие этих школ и их творчество.

**Ключевые слова:** танец, искусство, хореограф, художественный образ, традиция, национальное наследие, творческие коллективы, фольклор, традиция, народное искусство.

Muattarkhon TOYCHIEVA,

Master of Uzbek State Academy of Choreography

## DEVELOPMENT OF UZBEK DANCE IN THE CYCLE OF ANCIENT HISTORY

**Annotation.** The article examines the historical development of the Uzbek national dance, its origin, role in the life of the people, its importance in the spiritual education of young people, schools of national dance, artists who have made a worthy contribution to the development of these schools and their work.

**Key words:** dance, art, choreographer, artistic image, tradition, national heritage, creative groups, folklore, tradition, folk art.

Raqs mazmundorligi, obrazlilik bilan insonlarning ma'naviy dunyosini boyitib, ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Xalqni ayniqsa, yurt tayanchi, kelajak egalari sanalmish yoshlarni halollik, vijdoniylik, vatanparvarlik, milliy an'analarni qadrlash kabi ezgu g'oyalarni qalbi va ongiga singishiga xizmat qiladi.

Bularni chuqur anglagan muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 4 fevralda "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4584-son Qarori hamda ushbu Qarorga asosan qabul qilingan "Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli" davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari san'atimizning yangi taraqqiyot bosqichlarini boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, madaniy, ma'naviy yuksalishimizga, mamlakatimizni yanada gullab-yashnashiga xizmat qiladi. Jamiyat hayotining madaniy salohiyatini yuksaltirishda, birinchi navbatda, madaniyat va san'at vakillariga salmoqli mas'uliyat yuklatiladi. Chunki odamlar qalbiga, ruhi va ongiga san'at asarlarichalik kuchli hamda samarali ta'sir o'tkazadigan boshqa muhim omil bo'lmasa kerak.

Millat qahramonini yaratish, bugungi komil inson qanday bo'lishini badiiy ifodalash orqali insonlar qalbida ezgu tuyg'ularni tarbiyalash mumkin. Raqs san'ati bu borada nozik harakatlar, nafis ifodalar bilan barchaning qalbiga oson kirib boradi. Raqs sahnalashtirayotgan

baletmeysterning zimmasida ham mashaqqatli, ham sharafliligi ana shunday mas'uliyat turadi.

Uning yaratgan raqslari ezgulikni, mehr-muhabbatni, sadoqat va halollikni, bir so'z bilan aytganda barcha insoniy fazilatlarini tarannum etishi kerak. Bunda u sahnalashtirayotgan raqsning mavzu va mohiyatidan kelib chiqib badiiy obrazlarni raqs harakatlari orqali yaratadi.

Raqs san'ati insonning eng nafis his-tuyg'ulari va hayajonlarini, nozik ichki kechinmalari hamda orzu-umidlarini o'zida mujassam etadi, bu tuyg'ularni nozik harakatlarda ko'rsatadi. Raqs san'atida har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, qiyofasi, xalqning tarixi va ruhiyati o'ziga xos tarzda nazokat bilan namoyon bo'ladi.

Raqs san'ati uzoq tarixiy rivojlanish davrini bosib o'tgan hamda boshqa san'at turlari bilan bir vaqtda, bir o'zakdan kelib chiqqan bo'lib, u ajdodlarimiz uchun hayotda doimiy mehnat faoliyatini tiklashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga inson mehnat faoliyati orqali nafaqat raqsga, balki qo'shiq, teatr, tasviriy san'atga ham murojaat etgan.

Xalqlarning eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblangan raqs ibtidoiy davrda yashagan insonning mehnat jarayonida va atrofda hodisalardan olgan his-tuyg'ulari va taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq holatda rivojlanib keyinchalik mustaqil san'at turi sifatida rivoj topgan.

Har bir millatning go'zalligi, jozibasi, tarovatini namoyon qiluvchi san'ati, madaniyati mavjud. Ana

shunday go'zal san'at turlaridan biri, millat ziynati deb hisoblanuvchi raqs o'zining betakror xususiyatlari, ma'naviy zavq bag'ishlovchi jozibasi, inson ruhiyati va tabiatini namoyon qiluvchi o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. O'zbek milliy raqslari o'zgacha jozibasi, jilvakorligi va rang-barangligi bilan dunyoga ma'lum va mashhurdir. Undagi har bir maktab o'ziga xosligi va milliyliigi bilan ajralib turadi. Ushbu maktablarning asl ko'rinishi va an'anaviyligini asrab asrlar davomida yuksaltirish uchun raqsning aniq va to'g'ri talqin qilinishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy taraqqiyotimizning har bir qatlamida yashiringan madaniy merosimizni o'rganish, uni kelajak avlod, yoshlarimiz ongiga singdirish, milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, dunyo hamjamiyatiga o'zbek san'atini to'laligicha namoyon etish maqsadida bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida 40 dan ortiq raqs jamoalari faoliyat olib bormoqda. Raqs jamoalarining har biri bugun o'z uslub va yo'nalishiga ega. Bu badiiy jamoalar milliy raqs maktabining Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Buxoro yo'nalishlarida mehnat qilib, o'zbek raqs san'atining yuksalishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoya toshlarga yo'nalgan tasvirlar, arxeologik topilmalar bu zaminda raqs san'ati juda qadimiy ekanidan dalolat beradi. O'zbek raqs san'atining qadimiyligi, yo'nalish va maktablarning boyligi ajdodlarimizning asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lganidan kelib chiqqan deb talqin qilinadi.

O'zbekiston hududida bundan qirq ming yil avval yashagan insonlar o'z his-tuyg'ulari, hayajonlari va iztiroblarini turli vosita hamda harakatlarda ifodalashga harakat qilganlar. Bu raqsar haqidagi dastlabki ma'lumotlar respublikamiz hududlarida joylashgan tog' qoyatoshlarga chizib qoldirilgan ko'plab tasvirlar orqali hozirgi kungacha yetib kelgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da raqs san'atining bronza hamda ilk temir davrida ikki yo'nalishda rivojlanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston hududida topilgan turli tasvirlar, arxeologik topilmalar bundan uch ming yil burun O'zbekistonning janubiy tumanlarida professional raqs san'ati shakllana boshlaganidan guvohlik beradi.

Ijtimoiy hayot tarzining rivojlanishi, shahar madaniyatining o'sib borishi raqs san'atining taraqqiy etishi, murakkab shakllarining paydo bo'lishiga ham sabab bo'ldi. Raqsning janrlari, turlari, turkumlari kengayib, xalqning kundalik hayotida o'z o'rniga ega bo'lib bordi. Respublikamizning turli hududlarida, jumladan, qadimiy shaharlari bo'lgan Baqtriya, So'g'diyona, Surxondaryoning Zarautsoy kamari, Farg'onaning Suratsoy va Saymalitosh manzili, Samarqandning Ilonsoy va Oqsoy hududi hamda Xorazmdan topilgan ko'plab yodgorliklar o'zbek raqs san'atining qanchalik qadimiy ekanidan guvohlik beradi. Baqtriya va Sug'dda topilgan qadim yodgorliklar qo'shiq kuylash manzaralarini o'zida

aks ettirgan. Bu kabi yodgorlik namunalari Samarqand va Panjikent chegaralari hududida ham topilgan bo'lib, ularning barchasi mamlakatimizda qadimdan raqs san'ati rivojlanib kelganiga guvohlik beradi.

San'atshunos olimlar qadimgi ustalar tomonidan Yunon-Baqtriya podsholigi (miloddan avvalgi IV-III asrlar) davridan milodiy VII-VIII asrlargacha O'rta Osiyo moddiy yodgorliklarida ifodalangan raqs tushayotgan barcha shakl-shamoyillarni o'rganib chiqish jarayonida ularning O'rta Osiyoning son-sanoqsiz panteonlarida (sag'analarida) mavjud bo'lgan diniy marosimlar ishtirokchilari bo'lmish kohin yoki kohinalar ekanligini aniqlashgan.

IV-VIII asrlarga kelib, O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Shahrisabz shaharlaridan raqs ustalari Buyuk ipak yo'llari bo'ylab, Rim, Misr, G'arb o'lkalarigacha, sharqda Xitoy, Koreya va Yaponiyagacha borib, o'z san'atlarini namoyish etadilar. IX - XII asrlarda esa raqs san'ati yanada yuksalib, ko'plab xalq raqslari tiklanadi.

Ilmiy adabiyotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, teatrshunos olimlar M.Rahmonov, M.Qodirov, N.Nurjonovlarning teatr san'ati ildizlarini tadqiq etgan kitob va tadqiqotlari o'zbek milliy raqs tarixini o'rganishda muhim tayanch qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Bu kitoblar o'zbek milliy raqs san'ati tarixini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur kitoblarda X-XVIII asrlar badiiy madaniyatida kechgan ikki yo'nalish, ya'ni xoslar va avom san'ati borasida fikrlar uchraydi. Saroy ahli, ya'ni, xoslar san'ati bilan oddiy xalqqa mansub avom san'ati o'rtaosidagi farqlar masalasi ko'zga tashlanadi. Bu borada teatrshunos M.Qodirov kitoblari diqqatga molik. Xalifalik yemirilganidan so'ng madaniyat va san'at rivojida katta o'zgarishlar yuz berganligi, saroy ahli va avom san'ati taraqqiyoti Temuriylar davri san'atining o'ziga xosligi masalalari olimning "Temuriylar davri tomosha san'atlari" hamda "Navoiy va sahna san'ati" monografiyalarida o'z aksini topgan.

O'rta asrlarda raqs tomosha san'atlari orasida o'z mavqeiga ega bo'lganligi, kishilarni shijoat va mardlikka ruhlantirib turgani qo'lyozmalardan ma'lum. Bu davrda raqsar turli-tuman bo'lib, taqlid va niqoblar bilan ijro etiladigan kulgili o'yinlar, jangovor tusdagi, to'y marosimlari, Navro'z, Mehrjon kabi bayramlar bilan bog'liq raqsar mavjud bo'lganligi qayd etilgan.

Agar avom san'ati turli folklor raqslari, xalq o'yinlaridan iborat bo'lib, an'anaviy teatr ko'rinishini olgan bo'lsa, saroy san'atida kasbiy mahoratga e'tibor qaratilgan. M.Qodirovning yozishicha, "Husayn Boyqaro saroyida buyuk raqqoslar Sayyid Badr va Tayfur, Hirotda aholi orasida yaxshi tanilgan Tohir Chakka, Maqsudali, Mohchuchuk kabi raqs ustalari faoliyat olib borganlar"<sup>1</sup>.

O'zbek milliy raqs san'atida muhim sanalgan erkaklar raqsining tarixini o'rganishda o'rta asrlarga oid qo'lyozma manbalarning ham ahamiyati kattadir. Bu borada avvalo Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kitobi alohida o'rin tutadi. "Boburnoma"da o'rta asrlarda yashagan, yuqorida nomi tilga olingan Sayyid Badr haqida quyidagi satrlar yozilgan: "Sayyid Badr bisyor zo'r va asru shirin harokat kishi edi. Ajab sohibi usul kishi edi.

1 Qodirov M. Navoiy va sahna san'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, 2000. - 62 b.



G'arib xub raqs qilur edi. G'ayri muqarrar raqs qilur edi. G'olibo ul raqs aning ixtiroidir"<sup>2</sup>. Mazkur ma'lumotda Sayyid Badrning raqqos sifatidagi uslubi, raqs harakatlari va usullarni yaratishdagi mahorati borasida so'z ketadi. Bundan kelib chiqadiki, o'rta asrlarda mashhur raqqoslar o'z maktabi va uslubiy yo'lini yaratishga erishganlar. Alisher Navoiy davri madaniy hayotini o'rgangan M.Qodirov mazkur san'atkor mahorati haqida so'z yuritar ekan, qadim "Qari navo" kuyi va raqsining kelib chiqish tarixini ham Sayyid Badr bilan bog'laydi<sup>3</sup>.

O'rta asrlar raqqoslari haqida XV asrda yashab ijod etgan Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'" ("Nodir voqealar") kitobida keltirilgan bir manba "Amir Majiddinning 1492 yilda Alisher Navoiy sharafiga uyushtirilgan bazmida bir qator atoqli san'atkorlar bilan birga Sarvi Labijo'y, Shamshodi Soyaparvar, Mohi Simmoniy, Mirak Za'faron, Sulton Siroj, Shohmuhammad Mirak laqabli raqqoslar ham qatnashganlar"<sup>4</sup>. Bu tarixiy ma'lumotlardan anglashildiki, raqs san'ati Navoiy davrida ham e'tiborga molik san'at hisoblangan.

XVIII-XIX asrlarda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san'atida ham o'ziga xos uslublar vujudga kela boshlaydi. Ayol san'atkorlar Buxoroda - sozanda, Xivada - xalfa, Farg'ona vodiysida esa - yallachi deb yuritilgan. Bu davrda ayol san'atkorlardan iborat ixcham teatrlashtirilgan jamoalar rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ularning dasturlari namoyish etilgan.

XX asrlarda raqs san'ati Buxoro, Xorazm va Farg'ona raqsi yo'nalishlarida va zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida hamda milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet tomoshalari tarzida rivojlanib keldi.

"O'zbek xalqining ko'hna raqs san'atini tiklash an'anaviy raqs san'atini tasniflash jadvalini tuzib chiqish imkonini berdi. Unda to'rtta raqs "maktab"ining guvohi bo'lamiz: farg'onacha, buxorocho, xorazmcha hamda tog'li xalqlar raqslari. Ana shu to'rt tizimga xos raqs har birining hayotini, mashhur mavzu va mazmunlarni murakkab yo'sinda ifoda etuvchi ramzli, timsolli plastik olami mavjudligini, o'ziga xos xoreografik tafakkur zamiriga qurilganligini e'tirof etish lozim"<sup>5</sup>.

O'zbek milliy raqs san'ating poydevori 1917 yildan 50-yillarga qadar bir muncha mustahkamlandi, unutilish arafasida turgan tarixiy raqs tiklandi hamda shu kungacha o'zbek milliy raqs san'atining dovrug'ini dunyoga tanitib turgan bir qancha noyob san'at asarlari yaratildi.

O'zbek raqs maktablari usta-shogird an'anasida rivojlanib keldi, bu usulda raqs san'ati yanada mukammalroq o'zlashtiriladi. Ustozdan raqs san'atining eng nozik jihatlarini o'zlashtirgan shogird usta san'atkor

qo'lida tarbiya ham oladi. Milliy merosimiz va qadriyatlarimizning shu kungacha yetib kelishidagi asosiy mezon ustoz-shogird an'anasidir.

San'atshunos olim L.Avdeyeva o'zining ilmiy asarlarida 1917-1927-yillarda Turkiston o'lkasida professional ijro namunalarning bir-biridan farqli tomonlarini ko'rsatib, o'zbek raqs san'atining Farg'ona, Buxoro va Xorazm maktablariga bo'linishini asoslab bergan. Shuningdek, u Farg'ona vodiysida professional raqqos va raqqosalar tomonidan ijro etiladigan raqslarni "Katta o'yin" va "Xona bazm" guruhlariga, Buxoro raqslarini "Maqom o'yini" va "Xona bazm", Xorazmda esa "Maqom o'yini" va "Qayroq o'yin" shakllariga ajratgan.

O'zbek raqs san'ati ming yillar mobaynida insonning jamiyatdagi hayotini va umuman, ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu bo'lib xizmat qilgan. XX asrning 20-yillaridayoq ayollar "Lippa o'yin", "Chilton bazm o'yin" deb nomlangan o'yinlarni ijro etishgan va ularni, asosan, Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro va Xorazm professional raqqosalari ijro etganlar. Farg'ona professional raqs turkumini boshlab beruvchi murakkab ritmik-plastik syuita o'zbek xoreografiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. Ko'p asr umr kechirgan raqs san'ati bir paytlar madhiyalar va motam qo'shiqlar, romanlar va qissalar to'plami bo'lganligini bildiradi. Aynan mana shunday tendensiyalar asosida vujudga kelib shakllana borgan, bugungi kungacha bekam-u ko'st yetib kelgan, o'zbek raqs san'atining azaliy qadriyatlar tarannumiga bag'ishlanadi.

O'zbek professional raqs asoschilariga ustozlik qilgan raqqos Yusufjon qiziq Shakarjonov hisoblanadi. U Otaxo'ja raqqos bilan qadimiy "Kema o'yin"ni tiklaydi va bunday ezgu ishlarni keyinchalik shogirdlari bilan ham davom ettirib, Tamaraxonimga o'zbek lapar va raqslarini o'rgatdi.

1926-1928 yillarda Muhitdin Qoriyoqubov rahbarligidagi O'zbek davlat etnografik ansamblida qiziqchi, cholg'uchi, raqqos sifatida faoliyat ko'rsatdi. Yoshlarga xalq raqs va laparlarini "Qari navo", "Sarboz", "Kema o'yin" raqslari orqali sahnalashtirishda qatnashdi. U katta shakldagi "Xona bazmi" raqsini ommaviylashtirgan va raqs sahnalarining ustasi va ijrochisi, o'z bilimini yosh raqqoslarga o'rgatgan sevimli san'atkor sifatida qadrlanadi. O'zbek milliy raqs san'atining asosi bo'lgan "Katta o'yin" raqsi aynan shu ijodkor tomonidan qayta tiklandi va to'laligicha ijro etildi.

Xalqimizning xoreografik merosida "Katta o'yin"ning mavjudligi o'zbek raqsining katta tarixga egaligidan va ko'p asrlardan beri rivojlanib kelayotganidan darak beradi. O'zbek raqsining ko'p asrlar davomida yashab kelishi esa unga go'zallik baxsh etdi, kamolotga yetkazdi, ajoyib shakl va mazmun kasb etdi. O'zbek raqsining katta tarixga egaligini o'zbek xoreografik merosida "Katta o'yin"ning qadimdan mavjudligiga emas, balki mavjud madaniy yodgorliklar va hozirgi o'zbek va tojik xalqlari ota-bobolarining o'zbek raqslari va raqqoslari haqidagi xabarlar ham tasdiqlab turadi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov o'zbek milliy raqsi an'analarni uzmasdan o'zining munosib shogirdi Usta Olim Komilovga yetkazdi. Usta Olim Komilov, o'z navbatida, o'zbek milliy raqsning rivojlanishiga katta

2 Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. -Toshkent: Yulduzcha, 1989. - 53 b.

3 Qodirov M. Navoiy va sahna san'ati. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, 2000.- 70 b.

4 Vosifiy Z. Badoye'ul vaqoye'. N.Norqulov tarjimasini. - Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1979. - 97 b.

5 Абдиева Л. "Балет Узбекистана". Издательство литературы и искусств имени Г.Гуляма, Ташкент 1973.



*Tamara Xonim 1935-yil. Londonda bo'lib o'tgan birinchi Xalqaro xalq raqsi va musiqa san'ati festivalida (Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Abduqodir Ismoilovlar bilan) qatnashib oltin medal olishga sazovor bo'lgan.*

hissa qo'shdi. U sahnalashtirgan raqslar, doira usullari faqatgina O'zbekistonda emas, balki xorijiy mamlakatlarda muvaffaqiyat qozondi.

Ijodiy faoliyati XIX asrda boshlangan raqs ustalari orasida doirachi Usta Olim Komilov alohida o'rin egallaydi. U o'zining sarmahsul ijodi bilan o'zbek raqs san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Olim Komilov "Usta" degan sharafli unvonga ega bo'ldi, u xalq ichidan chiqqan va butun ijodini, hayotini xalq san'atiga bag'ishlagan o'zbek xalq san'atkoridir. Usta Olim Komilov jahonning ko'plab davlatlariga gastrollarda, yurtimizda o'tkazilgan barcha tadbir, bayram va tantanalarda o'z iqtidorini namoyish etib yuksak e'tibor va e'tiroflarga sazovor bo'ldi. U yosh ijrochilarga ta'lim va tarbiya berib, ularning san'at cho'qqilariga erishishlarida yo'l ko'rsatdi.

Usta Olim Komilov o'zbek raqs san'atidagi turli usullarni mahorat bilan ijro etgan, o'zining betakror ijrosi bilan go'zal o'zbek raqslariga yanada joziba baxsh etgan san'atkordir. O'zbek raqslarining xususiyati va mazmunini, o'ziga xos uslubini tomoshabinlarga to'liq holda yetkazib berishda mohir sozanda Usta Olim Komilovning xizmatlari beqiyosdir. Ustoz "Doira darsi" nomli qo'llanmani yaratib, raqs san'atini va doira ijrochiligini o'zlashtirishda bebaho boyluk qoldirdi.

O'zbek raqs san'ati maktabining yaratilishi va

rivojlanishida o'zining ijodiy faoliyati bilan alohida o'rin tutgan Usta Olim Komilov o'zbek doira ijrochiligi san'atida o'zining betakror ijro uslubi bilan ham nom qoldirib bugungi zamonaviy doira ijrochiligining yakkanavoz uslubini mukammal darajada ishlab chiqdi.

Milliy raqs san'atimiz malikalari Tamaraxonim va Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy faoliyati ham Usta Olim Komilov nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Tamaraxonim mohir sozanda bilan hamkorlikda birinchi ommaviy o'zbek raqslarini, ozod mehnatga bag'ishlangan o'yinlarni, birinchi raqs montajlarini yaratdi va bu raqslar keyinchalik milliy balet yaratishda asos bo'ldi. O'zbek raqs usullarining ajoyib ustasi, O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov juda ko'p raqslarni yodida saqlab keldi, shogirdi Tamaraxonim esa bu raqslarni sahnaga olib chiqdi.

Ulardan saboq olgan keyingi avlod ijodkorlari Ravshanoy Sharipova, Valentina Romanova, Halima Komilova, Klara Yusupova, Gulnora Mavayeva, Viloyat Oqilova, Ma'mura Ergasheva, Dilafruz Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhammedova, Malika Ahmedova, Gulchehra Foziljonova, O'g'iloy Muhammedova singari raqs san'ati ustalarining har biri o'ziga xos badiiy uslublar barpo etishgan. Bugungi kunda ustozlardan meros qolgan noyob durdona raqslar bu kabi chinakam raqs fidoyilari tomonidan tadbir va targ'ib etib kelinmoqda.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov M. Navoiy va sahna san'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, 2000.- 62 b.
2. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. –Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 53 b.
3. Qodirov M. Navoiy va sahna san'ati. –Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashri, 2000.- 70 b.
4. Vosify Z. Badoye'ul-vaqoye'. N.Norqulov tarjimasini. –Toshkent: G'G'ulom nashriyoti, 1979. – 97 b.
5. Avdeyeva L. Balet Uzbekistana. –Toshkent: Izdatelstvo literaturi i iskusstv imeni G.Gulyama, 1973.



# *VI BO' LIM*

**YANGILIKLAR**



## O‘ZBEK KINEMATOGRAFIYASIDAGI YANGI IZLANISHLAR

Kino san’ati va televideniye o‘zining ta’sir kuchi va keng qamrovliligi, ommaviyligi jihatidan juda yuqori ruhiy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan san’at turlaridir. Milliy istiqloq mafkurasini xalqimiz, yosh avlod ongiga yetkazishda ham bu ikki sohaning – kino va televideniyaning o‘rni beqiyosligi bugungi kunda xech kimga sir emas.

Har bir soha kabi kino va televideniye sohalarini isloh qilish, yanada rivojlantirish uchun ham malakali yosh kadrlarni yetishtirish zarur. Kino va televideniye sohalarida faoliyat yuritayotgan sohalar esa ham ma’naviy, ham o‘z mutahassisligi tomonlama yuqori darajada rivojlangan mutaxassis bo‘lishlari kerak. Qo‘yilayotgan bu kabi talablarga javob beruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash bilan esa qariyb 30 yildan buyon O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini shug‘ullanib kelmoqda.

1991-yil 1-sentabrda O‘zbekiston mustaqil davlatga aylandi. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik orzusi ushaldi. O‘sha paytda mamlakatning o‘tmishi va bugungi kunini aks ettiruvchi, tamomila yangicha qarashlar, yangicha mafkura singdirilgan filmlar yaratishga ehtiyoj tug‘ildi. Davlat tomonidan moliyalashtirilishi tufayli ko‘plab badiiy, hujjatli va ommabop ilmiy filmlar suratga olina boshlandi.

Sobiq Sovet davlatlari bilan aloqalar uzilganligi tufayli kinematografiya va televideniye sohalari uchun mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari bilan ham aloqalar to‘htadi. Natijada, milliy kino san’atimiz uchun mutaxassis kadrlar tayyorlovchi ta’lim maskanlari oshishga ehtiyoj tug‘ildi.

1991-yilda O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Davlat mukofoti sovrindori, atoqli kinooperator, professor A. Ismoilovning tashabbusi bilan sobiq A. Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik institutida kino va televideniye uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi kinoteleoperatorlik bo‘limi tashkil etildi va shu yildanoq ilk talabalarni o‘z bag‘riga oldi. 1997 yilda esa “Kinoteleoperatorlik mahorati” kafedrasini tashkil etildi. Bugungi kunda samarali ijod qilib kelayotgan ko‘plab iste’dodli kinooperatorlar uning ilk qaldirg‘ochlari bo‘ldilar. Bo‘lim bugungi kungacha 400 dan ortiq yuqori malakali kino va televideniye operatorlarini yetkazib berdi.

Bugungi kunda kafedrada 5151400 – Texnolog san’at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi), 5151500 – Kinoteleoperatorlik, 5151800 – San’atda animatsiyaviy va multimediaviy loyihalash ta’lim yo‘nalishlari va 5A151501 – Kinooperatorlik, 5A151502 – Teleoperatorlik, 5A151401 – Ovoz rejissyorligi (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2909 sonli qaroridan kelib chiqib, oliy talim muassasasida madaniyat va sanat sohasida teatr, kino, televideniye, xalq ijodiyoti yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash darajasi hamda sifati tubdan yaxshilandi.

Mamlakatimizning barcha ijtimoiy sohalarida ro‘y berayotgani kabi bugungi kunda milliy kinematografiya sohasiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017 yil 7 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3176-sonli qarori qabul qilinib, sohada tubdan o‘zgarish jarayoni boshlandi.

Kafedrada kadrlar tayyorlashda Jahonning rivojlangan davlatlari oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 iyuldagi “Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ3880-sonli Qarorining 3-4 bandlarining ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zDSMI qoshida Butunrossiya davlat kinematografiya institutining “Ijodiy markazi” tashkil qilindi. Bugungi kunda Butunrossiya davlat kinematografiya institutiga “Kino va televideniye”ning oliy kurslariga hamda assistentura-stajirovkaga professor-o‘qituvchi va talabalarni yuborish buyicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday ishlarning natijasi o‘laroq “Kinoteleoperatorlik” bo‘limi 4-kurs talabasi Shermuxamedov Risqibek Butunrossiya davlat kinematografiya institutining 11-Xalqaro yozgi lageriga yuborildi. U nufuzli diplomni qo‘lga kiritdi.

2019-yilning 16-oktabr kuni O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutiga Janubiy Koreyaning HONAM universiteti dekani Li Yong Kyu va xalqaro ishlar bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i Son Van Yi tashrif buyurishdi. Uchrashuv doirasida olib borilgan muzokaralar natijasida ikki tomon o‘rtasida manfaatli shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko‘ra, institutimizdan 1 nafardan o‘qituvchi va talaba HONAM universitetida 6 oy davomida bepul malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Janubiy Koreya Respublikasining Seul shahridagi Dong-A media va san’at instituti bilan “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasini o‘rtasida ham o‘zaro teng huquqli hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Dong-A media va san’at instituti bilan hamkorlik aloqalari asosida 2019-yilda “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasining bir qator professor-o‘qituvchilari va talabalari malaka oshirishda bo‘lib qaytdilar.

Kinoteleoperatorlik ta’lim yo‘nalishi talabalari doimo turli mahalliy va xalqaro kinofestivallarda o‘z ijodiy ishlari bilan ishtirok etib keladilar. Masalan, 2017 yilda 1 nafar talaba 37-xalqaro talabalar festivalida (VGIK) qatnashib diplomga ega bo‘ldi. Shu yili yana 1 nafar talaba ProLoge kinofestivalida “Eng yaxshi operatorlik ishi” nominatsiyasida diplomni qo‘lga kiritdi.

2018-yilda 3 nafar talaba “Animatsioniy storibording ot Pocherkushki do animatika” xalqaro treningda ishtirok etib sertifikatga ega bo‘ldilar. Shu yili Abdujabborov Bexzod O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi huzuridagi “Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi”ning faxrli stipendiyasini qo‘lga kiritdi.

Shu bilan birga, shu yili “Konstitutsiya mening

nigohimda” Respublika fototanlovida G’ulomov Oqil 1-darajali, Aliyev Akmal 2-darajali, Saidov Odilbek 2-darajali, Inomjonov Shohruxmirzo 3-darajali diplomlarni qo’lga kiritdilar.

2019 yilda “San’atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash” ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi Karimov Bahodir Janubiy Koreyada bo’lib o’tgan “DINFAC-2019” Halqaro kinofestivalida ishtirok etib nufuzli sertifikatga ega bo’ldi.

Shu yili 4 nafar talaba “Osnovi proizvodstvo dokumentalnogo kino” xalqaro treningda ishtirok etib nufuzli sertifikatlarni qo’lga kiritdilar. Shu bilan birga Shermuxamedov Risqibek “Talaba yoshlar ijodiyoti” ko’rik tanlovida “Yilning eng yaxshi film operatori” nominatsiyasi diplomni qo’lga kiritdi. Abdujabborov Bezdod esa “Xalqaro xunarmandchilik” festivalida ishtirok etib nufuzli sertifikatni qo’lga kiritdi.

“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida xorijiy davlatlardan soha mutaxassislarni muntazam jalb qilib mahorat darslarini tashkil qilib kelmoqda. Germaniyaning Toshkentdagi Gyote instituti bilan ham hamkorlik yo’lga qo’yilgan bo’lib, Gyote institutining ko’magi bilan o’tgan 30 yil davomida Yevropaning juda ko’plab yetuk mutaxassislari bilan ijodiy uchrashuvlar, master klasslar uyushtirilgan. Germaniyalik hujjatli kino rejissyori, operator va montaj ustasi Gereon Vetsel, Germaniyalik yana bir kinorejissyor, ssenarist, prodyusser Till Xastrayter, Chexiyalik badiiy foto ustasi Teodor Radu Pantea bilan o’tkazilgan uchrashuvlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari so’nggi yillarda Fransiyaning “Cine le Miroir” kompaniyasining hujjatli kino rejissyori va pedagog Lyuk Toven bilan, Ozarbayjon Madaniyat vazirligi kinematografiya bo’limi katta konsultanti Almaz Sultanzade, konsultant Gyulnara Djavadova, Ozarbayjonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi kinoshunos va rejissyor Ayaz Salayev, kinossenarist, rejissyor Mirbala Salimli rejissyor Shamil Aliyev va aktyor Magsud Mammadovlar bilan, Polshaning hujjatli kino rejissyori, pedagog Matsey Drigas, Fransiyaning “Voix du Poulpe” teatr kompaniyasining aktyorlari Rafael Kallandro, Jyuli Otisye, yoritish bo’yicha mutaxassis va ovoz rejissyori Tibo Marshesso bilan, Yevropa kino ittifoqi mutaxassisi Latviyalik kinorejissyor, kinooperator “Buyuk Kriptas” mukofoti sovrindori Dainis Klava bilan ijodiy uchrashuv va master-klasslar tashkil etildi. “Kinoteleoperatorlik”, “San’atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash” va “Texnogen san’at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi)” ta’lim yo’nalishlari talabalari bilan o’tkazilgan mahorat darslari yuqori saviyada o’tkazildi.

“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida professor-o’qituvchilari tomonidan ta’lim jarayonini o’quv adabiyotlar va qo’llanmalar bilan ta’minlash bo’yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda kafedradagi barcha ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassislari darslik va o’quv qo’llanmalar bilan to’la ta’minlangan. So’nggi uch yilda kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan 3 ta darslik va 16 ta o’quv qo’llanmaning tayyorlanib nashr qilinganligi ham so’zimizga yaqqol dalil bo’la oladi. O’tgan 30 yillik davr ichida esa kafedra professor-o’qituvchilari tomonidan 10 ga yaqin darslik, 50 dan ortiq o’quv qo’llanmalar

tayyorlanib nashr etilgan.

2019-2020 o’quv yilida esa 7 ta o’quv qo’llanma 2 ta darslik tayyorlanib nashrga topshirilgan.

“3D, 5D. 7D animatsiya amaliyoti”, “Zvukovaya partitura”, “Kompyuterniye texnologii zvukozapisi”, “Osnovi akustiki”, “Muzikalnoye i shumovoye oformleniye”, “Ovoz rejissyorligi mahorati”, “Ovoz yozishda kompyuter texnologiyalari” o’quv qo’llanmalari, “Yorug’lik, rang va kompozitsiya asoslari”, “Maxsus va murakkab montaj” darsliklari shular jumlasidandir.

Kafedrada xorijiy o’quv adabiyotlari asosida yangi avlod darslik va o’quv qo’llanmalarini yaratish bo’yicha ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Bugungi kungacha “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida 5151500 – Kinoteleoperatorlik ta’lim yo’nalishi talabalari uchun Blayn Brauning “Cinematography: theory and practice”, Devid Prakelning “Photography Composition” nomli o’quv adabiyotlari, 5151400 – Texnogen san’at (kino, televideniye va radio ovoz rejissyorligi) ta’lim yo’nalishi uchun Jay Rouzning “Producing great sound for: film and video” deb nomlangan kitobi, 5151800 – San’atda animatsiyaviy va multimediyaviy loyihalash ta’lim yo’nalishi uchun Uold Fosterning “Basic animation” deb nomlangan o’quv adabiyotlari tarjima qilindi hamda majmua va o’quv qo’llanmalar shaklida nashr etilib talabalarga foydalanish uchun taqdim etildi.

2019-2020 o’quv yilining o’zida xorijiy ilmiy jurnallarda – 2 ta, jahonning nufuzli Scopus xalqaro bazasiga kiruvchi yuqori reytingli ilmiy jurnallarda – 6 ta, OAK e’tirof etgan ilmiy jurnallarda – 4 ta ilmiy maqolalar, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda – 16 ta, respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda – 5 ta maqolalar chop etildi. Shu bilan birga kafedra professor-o’qituvchilar tomonidan 7 ta jodiy ishlar yaratildi.

“Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasida ustoz-shogird an’analari ham juda yaxshi yo’lga qo’yilgan. Kafedra mudiri I.Meliqo’ziyev va professor-o’qituvchilarining tashabbusi bilan kafedra ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkillashtirilib boriladi. Jumladan, 2019-yilning 21-28-sentabr sanalarida institutda “Ozarbayjon kinosi kunlari” o’tkazildi. 24-oktabr kuni esa O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga Turk dunyosi hujjatli filmlar festivali delegatsiyasi tashrif buyurishdi va hujjatli filmlar namoyishi bo’lib o’tdi. 2020 yilning 3-mart kuni O’zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutida kinorejissyor, prodyuser, "Aditim" kompaniyasi bosh direktori – Georgiy Soldatov va kompaniyaning bosh mutaxassisi Nikolay Pigaryov ishtirokida "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasida talabalari uchun mahorat darslari tashkil etildi.

Respublikamizda bo’lib o’tadigan barcha tadbirlarda kafedra professor-o’qituvchilar faol ishtirok etib kelmoqda. Mamlakatimizda ta’lim tizimini jahon andozalari darajasida isloh qilish borasida keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada eng ustuvor omil, bu har tomonlama yetuk, yuqori madaniyatli, o’z kasbini mohir ustasi, zamonaviy bilimlarni egallagan, zamon talabiga javob beradigan yuqori darajali mutaxassislarni tarbiyalashdek o’ta ma’suliyatli ish bugungi kun talabidir. Bu talablarni amalga oshirish esa biz mutaxassislar zimmasidadir.

## VOQELIKNING TASVIRDAGI KONTRAST IFODASI

(“Bahs” qisqa metrajli filmi misolida)

Qisqa metrajli film professional kino san'atiga qadam qo'yadigan yosh ijodiy jamoa uchun mahorat maktabi sanaladi. Adabiyot, teatr, tasviriy san'at, fotografiya va boshqa san'atlar asos bo'ladigan vizual asar yaratish o'ziga hos mehnat va izlanish talab qiladi nazarimda. Qisqa film operatorida voqelikning tasvirdagi kontrast ifodasini topish mahorati o'sib boradi. Milliy operatorlik maktabida paydo bo'lib, taraqqiyotida davom etayotgan an'ana va tamoyillarni tushunish va anglash shaxsiy uslubni chuqur mazmunli tasviriy ifodasi mustahkamlanib boradi.



O'zbek kinosida yosh avlod mutaxassislari har doim ijodiy rag'batlantirib kelinadi. Mazkur an'ana davom etib “O'zbekkino” MA tashabbusi bilan o'tkazilgan “Yangi O'zbekiston va milliy kinematografiya” haftaligi doirasida bo'lib o'tgan “Debyut” yoshlar milliy kinofestivalining “Eng yaxshi operator” nominatsiyasida “Bahs” qisqa metrajli filmi postanovkachi operatori Abdulaziz Asatullaev taqdirlandi. Filmida yigit va qiz beboshligi va g'ururi sabab bir-biriga kim birinchi bo'lib qo'ng'iroq qilish uchun o'zaro bahslashishadi. Ko'p yillar davomida qo'ng'iroq qilishga jur'at yetishmaydi. Yoshlari keksayib qolgan paytda esa qo'ng'iroqlar band tushadi.

### OPERATORLIK USLUBI

Kadri chapdan o'ng yoki o'ngdan chapga dinamik harakatida film voqealarni ko'ramiz. Filmning prologida soatdan kadr ochilib kamera o'ngga harakatlanadi. Dastlab bosh qahramon yigit, keyin esa qiz kadrda ko'rinadi. Personajlar dialoglari davomida kamera harakati bilan o'ng tomonga harakatlanadi. O'quvchilarning kadr harakatiga qarama-qarshi o'tib ketishlari maktab muhitini aks ettirgan. Ushbu usul tomoshabinda qahramonlarni nazardan qochirmaslik bilan birga, obektning turli hildagi rekvizitlar bilan kadr kompozitsiyasini to'ldirishga yordam beradi (1-rasm).

### YORUG'LIK



Yigit va qizning tungi qo'ng'iroq kutish epizodlarida sovuq va issiq rangdagi yorug'likdan foydalanilgan. Stol chirog'idan issiq rang yorug'ligi yaratilgan bo'lsa, orqa fonda tashqaridan sovuq rangdagi oy shu'lasini ko'rinadi. Qiz orqadan umumiy planda ko'rinib, o'rta planga kirib keladi. Yigit tanishi bilan dialogini tugatib, telefon yonida kutadi. Bahs bog'lagan yigit va qiz qarama-qarshiliklari issiq va sovuq ranglarda aks etadi (2-rasm).



### DEKORATSIYA

Filmning katta voqeiligi xonada bo'lib o'tganligini ko'ramiz. Xona ichidagi epizodlarda operatorlik mizanstsenasini qurish, chiroqlarni joylashtirish kadr kompozitsiyasini yaratish o'ziga xos murakkab ish hisoblanadi. Shunday bo'lsada, operator umumiy, o'rta, yirik, detal kadrlari orqali epizod mazmunini yaratishga harakat qilgan. Xona ichida esa yuqoridan asosiy yorug'lik, chap orqa tomondan kontur yorug'lik, stol chiroqlari effektlari, kamera orqasidan qo'yilgan to'ldiruvchi yorug'liklar epizodlar badiiy yaxlitligini to'ldiradi (3-rasm).



Mazkur operator qo'llagan usulni ko'p hollarda ijtimoiy roliklarda foydalanilganligini ko'ramiz. Epizoddan epizodga o'tish, fikrni tezroq, dinamik yetkazish kuzatiladi. Bu badiiy kino tasviriy yechimi uchun umumiy ritmni tomoshabinga to'liq yetib borishida kamchiliklar tug'diradi. Masalan, voqealar ko'p xonalarda ko'rsatilishi, aktyorlar holatlari, munosabat chiziqlari o'ng va chap yelka kadrlari yetishmayotganligi kamchiliklardandir. Dramaturgik tasviriy yechim o'rtada paydo bo'lgan bahs, qarama-qarshiliklarni maqsadli ritmik harakterli kadrlar orqali ochib berilganida yanada operatorlik ishi mazmunliroq bo'lardi, nazarimda. Operator ishi filmning dramaturgik kompozitsiyasiga bo'ysunishi, g'oyaviy mazmunini tasvirda ochib bera olishi kerak. A.Asatullaevning mazkur tasvirlarida “Bahs”ning tomoshabinga yetib boradigan voqeiligi ochilgani, biroq qahramonlar hissiyotlari talqinida yangilik qilinmagani ko'rinadi.

Xulosa o'rnida, operatorlik ishidagi yutuqlar kichik kamchiliklarni o'rnini to'ldiradi. Milliy kino san'atining o'ziga xos jihatlarini Sharq allomalarining teran fikrlari, asarlaridagi borliqni aks ettirish merosini o'rganish va uslubiy rakurslarda kinokadrlar orqali yaratishni amaliyotda davom ettirishi A.Asatullayevning takrorlanmas shaxsiy uslubini yaratadi, deya umid qilamiz.